

Aziza  
Jafarzoda

# Boku 1501

Ozarbayjon hukmdori  
Shoh Ismoil haqidagi  
bestseller asar



821.512.162-3

Т 36

Aziza Jafarzoda

# BOKU-1501

Тошкент  
«VNESHINVESTPROM»  
2022

УДК 562. 62

ББК 489. 986. 3 (Ў)

Aziza Jafarzoda

Bo'ku 1501–Тошкент: «VNESHINVESTPROM», 2022. – 268 б.

**Loyiha rahbari:**

**Samir Abbosov**

O'zbekistondagi Haydar Aliyev  
nomidagi Ozarbayjon Madaniyat  
Markazi rahbari

**Ozarbayjon tilidan  
tarjimon:**

**Rustamjon Djaborov**

**Taqrizchi:**

**Adhambek Alimbekov**

O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi, Toshkent  
Davlat sharqshunoslik  
universiteti dotsenti

**Maslahatchi:**

**Turon Ibrohimov**

Tadqiqotchi, doktor

**Nashrga mas'ul:**

**Nodir Alimirzoyev**

*Kitob O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon  
Madaniyat Markazining «Ozarbayjon adabiyoti o'zbek tilida»  
loyihasi asosida, Ozarbayjon xalq yozuvchisi Aziza Ja'farzoda  
tavalludining 100 yilligi munosabati bilan chop etildi.*

ISBN 978-9943-8213-8-5

© O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi

Ozarbayjon Madaniyat Markazi

© Rustamjon Djaborov

«VNESHINVESTPROM» nashriyoti

Abdull... odiriy nomidagi

oyat AKM

17.10.2025/32-99

## ANNOTATSIYA

Buyuk Ozarbayjon davlat va jamoat arbobi Shoh Ismoil Safaviy (Xatoiy) nafaqat mashhur sarkarda, balki noziktaʼb shoir sifatida ham tarixda munosib iz qoldirgan. U markazlashgan davlat tuzish barobarida, mamlakatning madaniy–maʼrifiy ravnaqiga ham munosib hissa qoʻshdi. Turkiy tilda goʻzal va betakror sheʼrlar yozdi. Shoh Ismoil haqida juda koʻp ilmiy va tarixiy asarlar yaratilgan. Ozarbayjon xalq yozuvchisi, tarix fanlari doktori Aziza Jafarzoda qalamiga mansub "Boku 1501" romani ham ana shu buyuk sarkardaning hayoti va faoliyati, shuningdek, Ozarbayjon xalqining besh asr avvalgi turmush tarzi haqida hikoya qiladi. Asar keng oʻquvchilar ommasiga moʻljallangan.

## Azərbaycan tarixinin ədəbi-bədii salnaməsini yaradan yazıçı – Əzizə Cəfərzadə.

Min illik tarixə malik olan Azərbaycan ədəbiyyatında ilk qadın sənətkarlar 800 il bundan əvvəl tarix və ədəbiyyat səhnəsinə çıxmışlar.

Böyük Azərbaycan şairi Məhsəti Gəncəvinin adı ilə bağlı olan bu ədəbi hərəkət özünə poeziyamızda layiqli yer tutmuşdur. Bu zəngin ədəbi ənənələr üzərində formalaşan Azərbaycan ədəbiyyatı böyük qadın şairlər yetirmiş və bəşər mədəniyyətinə böyük töhələr vermişdir.

Nəsr sahəsində bu ənənələri uğurla davam və inkişaf etdirən ədiblərdən biri də XX əsr Azərbaycan ədəbiyyatının görkəmli nümayəndəsi Əzizə Cəfərzadə olmuşdur.

Azərbaycan ədəbiyyatında, ictimai fikir tarixində elə görkəmli şəxsiyyətlər var ki, onların adı heç zaman unudulmur.

Görkəmli yazıçı, tanınmış ədəbiyyatşünas alim, filologiya elmləri doktoru, professor, ictimai xadim Əzizə Cəfərzadənin XX əsr Azərbaycan ədəbiyyatında, nəsrində özünəməxsus yeri vardır. O, milli-mənəvi dəyərlərin qorunması yolunda əlli ildən artıq yorulmadan fəaliyyət göstərmiş və yaratdığı əsərlərlə bu işə gözəl töhələr vermişdir.

Azərbaycan tarixinin ayrı-ayrı dövrlərində baş vermiş hadisələr, görkəmli şəxsiyyətlərin parlaq həyatı xalq yazıçısı Əzizə Cəfərzadənin həmişə diqqət mərkəzində olub.

Ə. Cəfərzadənin türklük ideyasına bağlılığı əsərlərində aydın görünür və yazıçının demək olar ki, bütün əsərlərində türk mənşəyi müxtəlif şəkillərdə öz əksini tapmışdır.

Tanınmış yazıçının «Cəlaliyyə», «Zərrintac-Tahirə», «Gülüstandan öncə», «Hun dağı» və s. əsərləri geniş səviyyədə türklük ideyalarını, türk tarixinin şərəfli səhifələrini özündə daşıyır.

Sovet dövrünün qanunları, ideoloji sahədə məhdudiyətlərə baxmayaraq yazıçı Əzizə Cəfərzadə öz əsərlərində xalqımızın soykökü, tariximizin şanlı səhifələrini qələmə alaraq bir alim, bir

yazıçı və cəsarətli qələm ustası olaraq toplumu maarifləndirməyə çalışıb.

Deyirlər, ədəbiyyat tarixi öyrənmək baxımından tarix elmindən daha çox iş görür. Doğru, düzgün, tarixi faktlara və tarixi sənədlərə dayanan, yazıçı təxəyyülü ilə qələmə alınan tarixi əsər oxucunun yaddaşında daha dərin izlər buraxır.

Ə. Cəfərzadəni tarixi-sənədli faktlar əsasında «Bakı-1501» romanı yazmağa vadar edən əsas səbəb də elə Türk tarixinin milli kontekstdə çatdırılması idi. Milli ehtiyacdən yaranan bir əsər millətin ideoloji bayrağına da çevrilə bilər. Biz əsərin sonunda böyük hökmdar, görkəmli şair Şah İsmayıl Xətayinin vəsiyyətində bunun bariz nümunəsini görürük. Bu, eyni zamanda azərbaycanlıların asılı xalq olmadığını, dövlət quran böyük xalqların sırasında öz dövlətçilik tarixi və ənənələri ilə öyünə biləcəyini bir daha təsdiq edir.

Təsəvvür edin ki, Sovet dönəmində müstəmləkə olduğumuz zaman Əzizə Cəfərzadənin böyük hökmdarımız Şah İsmayıl Xətayiyə müraciət etməsi nə qədər əhəmiyyətli milli-ictimai və siyasi-mədəni hadisə idi. Əsər Sovet dövründə yazılsa da müəllif bütün əsər boyu Azərbaycan xalqının vətənpərvərliyini və Azərbaycan dilinin əhəmiyyətini cəsarətlə önə çəkib.

Yazıçı I Şah İsmayılın vəsiyyətini əsas etibarilə milli kontekstdə qələmə alır: «Vətənin bir sıxma torpağını bir ovuc qızıldan, dilimizin bir kiçicik sözünü bir ölçü ləl-cəvahiratdan üstün bildim.

Romanda Şah İsmayıl Xətayinin Bakıya yürüşü və şəhərin fəthi əsas yer tutsa da müəllif tarixi hadisələri yalnız bu faktla məhdudlaşdırmamışdır. O, Xətayinin hakimiyyətə gəlişindən tutmuş ömrünün sonuna qədər onun bir hökmdar, sərkərdə və şair kimi fəaliyyətinin əsas məqamlarını canlandırmışdır.

Müəllif Əzizə Cəfərzadə romanında Şah İsmayıl Xətayinin şəxsiyyətinin və mübarizəsinin simvolu kimi dil, qeyrət və vətən sevgisini əsas diqqət mərkəzinə çəkmişdir. O, Şah İsmayılın dilindən bəyan edir. Sizə vəsiyyətim budur. Sizə üç əmanət qoyub ərən babalar: dilimiz, qeyrətimiz, Vətənimiz.

Biz Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzi böyük alim, yazıçı Əzizə Cəfərzadənin yaradıcılığının Özbəkistanda təbliği və ədibin 100 illik yubileyi münasibəti ilə [Wikipedia.org](http://Wikipedia.org) beynəlxalq elektron ensiklopediyasında Özbək dilində «Aziza Jafarzoda» adlı bölmə istifadəyə verdik.

Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzinin növbəti layihəsi ilə Özbək ədəbiyyatsevərləri, roman həvəskarları üçün Azərbaycanın xalq yazıçısı Əzizə Cəfərzadənin «Bakı–1501» əsəri tərcüməçi Rustəmjon Cabbarov tərəfindən Özbək dilinə çevrilmiş və Daşkənd şəhərində nəşr edilir.

İnanırıq ki, Sovet dövrünün bestselleri sayılan və Azərbaycanda da sevilən «Bakı–1501» əsəri Özbək oxucuları üçün maraqlı olacaqdır.

Bu bədii əsər – tarixi roman vasitəsi ilə Siz ilk Azərbaycan dövlətinin qurucusu, böyük hökmdar, Azərbaycan ədəbiyyatının tanınmış nümayəndəsi Şah İsmayıl Xətayinin maraqlı, çətin və şərəfli həyat yolunu çoxsaylı tarixi faktlar əsasında bədiiləşdirilmiş rəvayətləri obrazların dili ilə öyrənə biləcəksiniz.

**Samir Abbasov,**  
*Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına  
Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzinin direktoru,  
Faxri Mədəniyyət İşçisi*

## **Aziza Jafarzoda – Ozarbayjon tarixining adabiy–badiiy yilnomasini yaratgan yozuvchi**

Ming yillik tarixga ega bo'lgan Ozarbayjon adabiyotida 800 yil avval tarix va adabiyot sahnasiga birinchi ayol ijodkorlar yetishib chiqqan.

Buyuk Ozarbayjon shoiri Mahsati Ganjaviy nomi bilan bog'liq bo'lgan bu adabiy yo'nalish she'riyatimizda munosib o'rin egalladi. Ana shu boy adabiy an'analar asosida shakllangan Ozarbayjon adabiyoti buyuk shoir ayollarni yetishtirib, insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Bu an'analarni nasr sohasida muvaffaqiyatli davom ettirgan va rivojlantirgan adiblardan biri XX asr Ozarbayjon adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandasi Aziza Jafarzodadir.

Ozarbayjon adabiyoti va jamoatchilik fikri tarixida shunday buyuk shaxslar borki, ularning nomlari hech qachon unutilmaydi.

Atoqli adib, taniqli adabiyotshunos, olim, filologiya fanlari doktori, professor, jamoat arbobi Aziza Jafarzoda XX asr Ozarbayjon adabiyoti va nasrida alohida o'rin tutadi. U milliy–madaniy qadriyatlarimizni muhofaza qilish yo'lida ellik yildan ortiq tinimsiz mehnat qildi va bu ishga o'z asarlari bilan katta hissa qo'shdi.

Xalq yozuvchisi Aziza Jafarzoda Ozarbayjon tarixining turli davrlarida sodir bo'lgan voqealarga, atoqli shaxslarning yorqin hayot yo'liga hamisha e'tibor qaratgan.

A. Jafarzodaning turkiylik g'oyasiga sadoqati uning asarlarida yaqqol namoyon bo'lib, yozuvchining deyarli barcha asarlarida turkiylarning kelib chiqishi turli obrazlarda o'z aksini topgan.

Taniqli adibning «Jaloliya», «Zarrintoj Tohira», «Guliston oldidan», «Hun tog'i» va boshqa asarlari turkiylik g'oyalarini, turk tarixining shonli sahifalarini keng miqyosda olib boradi.

Yozuvchi Aziza Jafarzoda sho'rolar davridagi cheklolarga qaramay, o'z asarlarida millatimiz, tariximizning shonli



sahifalarini qalamga olib, olim, adib, mard qalam ustasi sifatida jamiyatni tarbiyalashga harakat qildi.

Aytishlaricha, adabiyot tarixini o'rganish nuqtai nazaridan u tarix fanidan ham ko'proq samara berarkan. To'g'ri, tarixiy faktlar va tarixiy hujjatlarga asoslangan, yozuvchi tasavvuri bilan qalamga olingan haqqoniy tarixiy asar o'quvchi xotirasida yanada chuqurroq izlar qoldiradi.

«Boku–1501» romanini tarixiy–hujjatli faktlar asosida yozishga asosiy sabab turk tarixini milliy kontekstda taqdim etish edi. Milliy ehtiyojdan kelib chiqib yaratilgan asarni millatning mafkuraviy bayrog'iga aylantirish mumkin. Asar yakunida buning yorqin misolini buyuk hukmdor, atoqli shoir Shoh Ismoil Xatoyiy vasiyatida ko'ramiz. Shu bilan birga, bu Ozarbayjonlarning qaram xalq emasligini, buyuk davlat qurilishi davrida o'z davlatchilik tarixi va an'analari bilan maqtana olishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sovet mustamlakasi davrida Aziza Jafarzodaning buyuk hukmdor Shoh Ismoil Xatoyiy siyosiga murojaat qilgani naqadar muhim milliy–ijtimoiy va siyosiy–madaniy voqea bo'lganini tasavvur qiling. Asar sho'rolar davrida yozilgan bo'lsa–da, muallif butun ijodida Ozarbayjon xalqining vatanparvarligini, Ozarbayjon tilining ahamiyatini dadil ta'kidlagan.

Yozuvchi Shoh Ismoil I vasiyatini asosan milliy mazmunda yozadi: «vatranning bir siqim tuprog'ini bir hovuch tilladan, tilimizdagi har bir so'zini javohirdan afzal bildim».

Garchi Shoh Ismoil Xatoyning Bokuga yurishi, shaharning zabt etilishi romanda katta o'rin tutsa–da, tarixidagi voqealar bu bilan cheklanmaydi. Xatoyiy hokimiyat tepasiga kelganidan to umrining oxirigacha hukmdor, sarkarda, shoir sifatidagi faoliyatining asosiy damlarini jonlantirdi.

Yozuvchi Aziza Jafarzoda o'z romanida Shoh Ismoil Xatoyiy shaxsi va kurashining timsoli sifatida qalb, g'ayrat va yurt muhabbatiga e'tibor qaratgan. «Sizga uch narsani omonat

qoldiryaman – tilimiz, nomusimiz. Vatanimiz. Bu omonatlarni ko'z qorachig'idek asrang!»

Yozuvchi Aziza Jafarzoda tavalludining 100 yilligi munosabati bilan O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi tomonidan buyuk olim va yozuvchi Aziza Jafarzoda ijodini O'zbekistonda targ'ib qilish bo'yicha adib haqida xalqaro elektron ensiklopediya – Wikipedia.org satida o'zbek tilida ma]limotlar joyladik.

Ozarbayjon madaniyat markazining navbatdagi loyihasi doirasida Ozarbayjon xalq yozuvchisi Aziza Jafarzodaning «Boku–1501» asari tarjimon Rustam Jabborov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, o'zbek adabiyoti ixlosmandlari uchun nashr etilmoqda.

O'ylaymizki, sovet davrining bestsellersi sanalgan va Ozarbayjonda sevilgan «Boku–1501» o'zbek kitobxonlari uchun ham qiziqarli bo'ladi.

Ushbu badiiy–tarixiy roman orqali siz ilk Ozarbayjon davlatining asoschisi, buyuk hukmdor, Ozarbayjon adabiyotining taniqli namoyandasi Shoh Ismoil Xatoiyning qiziqarli, mashaqqatli va sharafli hayot yo'li haqida batafsil tasavvurga ega bo'lasiz.

**Samir Abbosov,**  
*O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi  
Ozarbayjon Mudaniyat Markazi direktori,  
Fahriy madaniyat xodimi*

## BOKU 1501

(Roman)

... Hazar! Ey mening ne'mat va barokat dengizim! Sening sohillaringda turib, sevdim, sevildim, sevindim. Xasta bo'lsam, shifo berding, toliqsam, to'liqlarning qo'ynida hordiq chiqardim. Sen mening bobo yurtimsan, tomirlarimdagi qonim qadar yaqinsan.

Hazarimi, ona dengizim! Tarixlardan—da yoshi ulug' dengizim!

Atilladan, Tumarisdan. Pompeydan (undan avvalgilarni kim ham bilardi?) beri seni turfa nomlar bilan atadilar. Tarixiy kitoblarda sening o'nlab nomlaring tilga olinadi. Antik dunyoda seni Kaspiy deb atashdi. Arablar Darband dengizi, tatarlar Oqdengiz, turkmanlar Ko'kko'z, forslar Qulzum, xitoylar Sigay, otashparast bobolar Vargan, Chinayid—Dayeti, mashhur sayyoh Marko Polo Boku dengizi, Aleksandr Dyuma Irkani deb atadi. Keyinchalik turli manbalarda seni Gilon, Tabariston, Sari, Jurjon, Ibar, Xuroson, Ashtarxon, Abosukun, Shirvon singari nomlar bilan atashdi.

Sohillaringda yashagan har bir xalq seni turlicha nomladi. Yana bilmadim nelar... Sohillaringdan kimlar kechmadi, suvlarida kimlar suzmadi? Ne—ne jahongirlar ot o'ynatib, qancha—qancha vatanparvar o'g'il—qizlar ozodlik uchun maydonga chiqmadi? Yillar, asrlarning olovli va muzli nafasi sohillaringga kelib urilmadi?

Seni «Jo'g'rofiya» kitoblarida shunchaki «Tuzli ko'l» deb ataganlar ham bo'ldi. Ammo men uchun, xalqim uchun Hazarsan! Mening Hazarim! Qorong'u davrlarda ne—ne qizlarning ko'z—yoshlari suvlariga qarishmadi? Asov to'liqlarning o'kirgan yerda poklik ramzi bo'lgan bir nomusli malak o'zini suvga otdi. Undan bir afsona qoldi va bir Qiz qal'asi!

Yana yillar, asrlar o'tdi. Bahri Hazar nimalarni ko'rmadi? Oppoq yelkanlardagi qonlar, moviy suvlar sathidagi motam, oltin qumlar ustida sochilgan fidoyilarning mayiti, singan qilichlar, yerga sanchilgan nayzalar... Bir fotihning o'rnini boshqasi

egalladi. Og'ir urush yillarida sohilingdan jangga otlangan qancha–qancha navqiron yigitlar o'lim oldidan seni yodga oldi. Qahramonlar yurti, mardlar Vatani, Hazarim mening!

Sohilingda izlarim turibdi. Suvlaringga dardli muhabbatimni pichirlab, qoyalaringga suyanganim esimda. Qumlaringda qolgan izlarimni jo'shqin mavjlaring yuvib ketdi. Sattorlaring go'zalligingni tasvirladi. Vurg'unlaring tarannum etdi, ey mening jo'shqin va mehribon dengizim!

Ijozating ila, sohilingda yashagan, bag'ringda tug'ilib o'sgan, so'nggi nafasiga qadar senga sodiq qolgan bir farzanding hayotini senga xotirlatmoq uchun yosh avlodga uzoq o'tmishning achchiq–chuchuk bir hodisasini so'zlab bermoqchiman. Sendan shafqat, o'zimdanda zahmat, aziz o'quvchilarimdan xohish va iltifot kutib qolaman.

## ILK UCHRASHUV

Shahzoda G'ozibey zerikdi. Bir necha kun avval uning ustozlari, Shirvonshohlar saroyining qozisi Muhammadyor vafot etdi. Musiqa bazmi va ziyofatlar to'xtatildi. Shahzoda o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Uyqudan uyg'ongach, nima qilarini bilmasdi.

Bugun ham shunday bo'ldi. Biroz turgan yerida tipirchiladi. Nadimi Solihni chaqirib, sayrga chiqishga hozirlik ko'rishni buyurdi. O'zi tamaddi qilishga o'tirdi. Ishlahasi yo'q. Biroz jo'ja qovurmasidan totingan bo'ldi. Bir piyola sut ichib, saroy hovlisiga chiqdi. Nadim uni qarshi oldi:

—Otlar tayyor, shahzodam!

—Ma'qul.

Shahzoda ov kiyimlarini kiyib hovliga tushdi. Xayol olib qochdi: «Bu ov kiyimi kerakmide? Shirvonning jayronlarga to'la kengliklarida, kaklik to'la tog'larida bo'lganda boshqa gap edi. Bu qumlar orasida nimani ham ovlardim? Mayli, omadimizni bersin!», deya o'ziga o'zi omad tiladi. Uning izidan nadim ham otga mindi. Ikki eshik og'asiga qarab:

—So'rab qolishsa, sayrga chiqdi, deb aytasizlar, deya tayinladi.

Ular qayerga borishayotganini o'zlari ham bilishmasdi. Qumlar oralab, ildam ketib borishardi. Bir tarafda tik qoyalar, boshqa tomonda ochiq dengiz. Hazar bu kun juda sokin edi. Bahor. Dengiz qirg'og'idagi qoyalar oralab yakkam—dukkam qora dog'lar ko'zga tashlanadi. Yengil shabada neftning og'ir hidini ketkazolmas, faqat to'lqinlarni ohista siypalab o'tardi. Toshkesakli tepaliklar yoqalab cho'zilgan so'qmoqlarda na daraxt, na bir buta ko'zga tashlanardi. Ammo qum rangidagi sap—sariq gullagan yantoqlar, shuvoq va tuyatovonlar, qiyoq va saksovullar har qadamda uchraydi.

Yosh shahzoda o'ziga xos go'zallikka ega bo'lgan bu olamni idrok etolmasdi. U firuzarang Hazarning moviy kengliklariga ko'z tashlarkan, beixtiyor, Shamahining yam—yashil

bog'larini, Fit tog'i va Gulistonning qalin o'rmonlarini, turfa jonzotlarga to'la qir-adirlarini esladi. Qaniydi tezroq Shirvonshoh Farrux Yasor ko'chishga amr bersayu, tezroq yozni o'tkazish uchun Shamahiga jo'nab ketishsa... Shahzoda G'ozibey faqat shu oylarda jonlanar, kunlarni nadimi bilan birga o'tkazar, chodirlarda tunab qolar, ko'pincha yostig'i egar, ko'rpasi ot yopinchig'i bo'lardi. Tol novdalaridan qilingan sixlarga jayron yoki turli ov qushlari go'shtidan kabob qilib yerdilar.

Ana shu orzular bilan birga ilk yoshlik davriga qadam qo'ygan shahzodaning qalbida she'r bulog'i qaynay boshlagan edi. Yo'q, u she'r yozmasdi. Boshqalar bitgan she'rlarni o'qir, qalbida qayta-qayta takrorlardi. Moviy tusli Hazar, cheksiz tiniq suvlar uni olis-olislariga olib ketardi.

Saroyda uning baxtiga go'zal bir muallima bor edi. Qozi Muhammadyor unga shariatni o'rgatishi lozim edi. Shahzodaga u endilikda qoidalarni talqin etishi lozim. Ammo asosiy vaqtini Ozarboyjon tarixi, arab va fors adabiyotini o'rganishga bag'ishlardi. Qozi Muhammadyor hozir rutbasiga qaramay, ajoyib olim, shoirtabiat inson edi.

Shoh va malikaning ko'zidan yiroqroqqa ketishi bilan yosh talabasiga ona tilida ijod qiluvchi shoirlar haqida ma'lumot berardi. Ko'pincha unga Nasimiyning she'rlaridan o'qib berardi.

–To'g'ri, hayotining so'nggi yillarida Nasimiy to'g'ri yo'ldan adashib, shirkka yo'l ochdi. Dini mubinimizga qarshi chiqdi va jazosini ham oldi. Ammo, u insonlarni ko'klarga ko'taradigan pok, bashariy muhabbat haqida betakror g'azallar bitdi.

Keyin u o'zi benazir deb bilgan she'lardan namunalar keltirdi:

*Ketur, ketur, ketur ul kosai ravonparvar*

*Ketur, ketur, ketur ul chang, dil navo istar,*

*Beray, beray, beray o'z jonimi man ul yora,*

*O'pay, o'pay, o'pay ul la'li shahd ila shakkar...*

«Ming aysus, shunday bir ustoz bu olamni tark etdi».

Bir yaxshi insonning o'limi haqida eshitganida, doimo

shunday derdi: «Yer yuzida bir hakim zot bor, azaliy ham U, adabiy ham U, Uning dargohida shoh bilan gado barobar. Uning dargohida har narsaga qodir bo'lgan pul ham, mol–davlat ham o'ljiz. O'lim! Ha, o'lim koinotning eng katta va sirli jumbog'i!»

Endi uning o'zi ham shu sirli koinot bag'riga singib ketdi. O'ldi, ketdi. Alloh biladi shoh bobosi uning o'rniga kimni tayinlaydi? Uning o'rniga qay bir mulla kelarkin? Balki uning yonida Nasimiyning she'rini o'qish tugul, nomini ham tilga olish mumkin bo'lmas? «Bularning bari kufr» deya, barini inkor etar? Ammo, shahzodaning ko'ngli bu kufrni bir hayot, Allohning ne'mati deb biladi.

G'ozibeyning ko'ngli qo'l yetmas, mavhum bir muhabbat havasi bilan tipirchilardi. Bu muhabbat uni qayerga, kim tomonga tortishini ham bilmasdi. U kim bo'lishi mumkin? Saroy go'zalimi? Otasi qul bozoridan sotib oladigan biror joriyami? Har holda yosh bir qalb, shoirona aytganda, ishqqa tashna bir ko'ngil edi. Bu qalbnig eshiklari ochiq. Bu eshikdan kim kirishi ma'lum emasdi.

... Yo'l ularni Bibi Haybat piringning qo'nalg'asiga olib borardi. Shayxlar piringning atrofida ko'rinishmasdi. Bugun yo ziyoratchi ko'p bo'lgani uchun ularni uylariga olib ketishgan, yoki oz bo'lgani uchun, piringning hovlisidagi tut soyasida to'planib, chaqchaqlashishardi.

Ular maqbaraga yaqinlashmay turib, qora qoyalar yaqinida otdan tushishdi. G'ozibey el orasida «Qirq qiz» deb nom olgan bu bu qoyalarni juda yoqtirardi. Bibi Haybatga yo'li tushsa, albatta bu tarafga kelar, Hazarning moviy suvlarini yorib chiqqan bu qoyalar ustida soatlab o'tirardi. Ham dengizni kuzatar, ham bag'rini ko'z–yoshidan shaffof jilg'alar sizib chiqayotgan qoyalarning hazin allasiga quloq tutardi.

Unga «Qirq qiz»ning fojeiy tarixini aytib berishgandi. Bir paytlar Imom Rizoning opasi Hukuma xotun ta'qib etilganida, u qochib, Hazar bag'ridan panohtopadi. Hukuma xonimning qirqta kanizi bo'lgan ekan. Xonim Haybat degan kishining kemasiga minib, kanizlarini ham o'zi bilan qo'shib oladi. Kema sohilga

yetganida Hukuma xotun vafot etadi. Uni shu yerda dafn etishadi. Kanizlar o'z ona yurtidan, Vatanidan va bekasidan ayrilgan qirq qiz ana shu qoyalar ostida toshga aylanishadi. Qoyalardan sizayotgan suv o'sha qizlarning ko'z-yoshlari ekan. Hazin alla tovushi aslida ularnig yig'isi ekan. Ular onalarini chaqirishadimi, Vatanni sog'inib oh chekishadimi, kim biladi deysiz?

Shahzoda G'ozibey «Qirq qiz»ni sevardi. Yana o'sha yerda to'xtadi.

–Soleh, kel, o'sha shayxlarning yoniga borishdan avval bir pas shu yerda dam olaylik.

Nodim Soleh qalbidagi xursandchilikni yashira olmadi. Shahzoda yo'l bo'yi xayollarga tolib kelar, aftidan muallimining vafotidan qattiq afsusda edi.

Soleh bilan bir og'iz gaplashmadi.

Holbuki, Solehning bir nadim sifatidagi vazifasi o'z shahzodasining ko'nglini olish edi. Chiroyli so'zlar, go'zal she'rlar, turli ko'ngilochar ermaklar bilan uni band qilish, kayfiyatini ko'tarish edi. Agar shahzoda undan ko'ngliy to'lmay, shohga shikoyat qiladigan bo'lsa, nadim bechora yarimta nonidan ham mahrum bo'lishi aniq.

Shu sabab hozir shahzodaning yuzidagi tabassum nadimning ham kayfiyatini ko'tardi.

–To'g'ri aytyapsiz, shahzodam, men ham ularni unchalik yoqtirmayman.

Shahzoda negadir tutilib qoldi. O'z raiyatini birovga yomonlash to'g'rimikin? Marhum ustoz Muhammadyor unga har doim bir gapni uqtirardi: «O'z xalqing bu o'z farzanding demakdir. Rahmli va adolatli bo'lishga harakat qil. O'ldirsang ham birovga berib qo'yma!»

U Solehning ham ko'ngliga tegib qo'yishni istamasdi. Taxminan o'zi bilan tengdosh bu yigitni yoqtirardi.

–Bilasanmi, Soleh, bechora shayxlarda ham ayb yo'q, dedi shahzoda. Bir atrofingga qara! Mana shu yalang'och qoyalar ustidagi pista, zaytunni ham ular yetishtirib beryapti. Sug'oriladigan yerlar oz. Karvon yo'llaridan yiroqda. Nima



qilishsin? Na ziyorat, na tijorat, na chorvachilik – hech biridan yaxshiroq daromad qilisholmasa... Zig‘ yoki Badamdardagi o‘zmoz yerlaridan oladigan hosil o‘zlariga yetmaydi. Axir oilani tebratish kerak–ku? Shuning uchun ziyoratchilarga ko‘z tikishadi. Qayiqda odam tashishadi. Boshqa xizmatlarini qilishadi. Shu bilan kun ko‘rishadi.

Soleh indamay, xurjundan sharob bilan to‘ldirib qo‘yilgan suvdishlardan birini shahzodaga uzatarkan, ich–ichidan «hozir shunaqa deyafti–da. otasiga o‘xshab taxtga o‘tirganidan keyin raiyatning g‘amini yemay qo‘ysa kerak» degan xayolga bordi.

Nadim shahzodaning so‘zlarini tasdiqlab, bosh irg‘adi. Ko‘nglidan kechgan gaplarni shahzoda sezib qolmasin, deya. ko‘zlarini olislarga. Xazarning uzoq kengliklarida suzayotgan qayiqdagi qaratdi.

... Qaytadan o‘tlanishdi. Bibi Haybatdan o‘tib, Shixlar qishlog‘ining yassi tomli tosh uylarini ortda qoldirdilar. Qo‘l–oyoqlarini yuvib, dam olish uchun Hazarning tekis, mayin qumli sohiliga tushishdi. So‘nggi uyga yetib borishganda, G‘ozibey ichki bir hayrat va oshuftalik bilan otini to‘xtatdi. Tushib otining jilovini Solihga tutqazdi. Qo‘li bilan «sen tushaver, men ham ortingdan boraman» deb ishora qildi.

U ayni tobda go‘zal bir qo‘shiqni eshitgandi. Qo‘shiqni qiz bola berilib xirgoyi qilardi. Shahzoda qiziqish bilan bu sodda, yoshlikning beg‘ubor nafasi sezilib turgan qo‘shiqqa quloq osdi. Katta–kichik toshlardan bir–birining ustiga mingashtirib qurilgan devorning narigi tomonidan notanish qiz kuylashni davom ettirardi:

*Araqchinin yon qo‘yib,  
Yo u yon–bu yon qo‘yib,  
Yigit o‘tdi yonimdan,  
Yuragimga qon quyib.*

Ovozdagi joziba shahzodaning ham «yuragiga qon quyib» devorga yaqinlashdi. Toshlar orasidagi teshikchadan ichkariga qaradi. Inson qo‘li nelarga qodir? Bu suvsiz, qumloq olamning o‘rtasidagi hovli naq behishtni eslatardi. Hovlining o‘rtasida

quduq qazilgan, bar qavatli pastqam uyning yonidan qumli yo'lak o'tgan, chetlari atirgullar, mevali daraxtlar bilan to'ldirilgan edi. Dorga esa yuvilgan kirlar ilib qo'yilgandi.

Quduq yonida yoshgina qiz chamberakni aylantirib, suv tortardi, chelaklab gullarini sug'orardi. Qizning chaqqonligi, ildamgi, mehnatsevarligi ko'rgan ko'zni quvnatardi. Butun qalbi, borlig'i bilan ishga, qo'shiqqa berilgandi. Shahzoda esa, zavq bilan unga termulardi.

Qizil xinoli qo'llari, oyoqlarni Shirvonning qoyalarida, yo'sin bosgan toshlarida parvoz etuvchi kakliklar oyog'idek qizil rangda edi. Bir juft kokilini qo'l-oyog'iga, chelagiga tegmasin deya, etagiga qistirib olgandi. Suvga ivigan yupqagina chit ko'ylagi uning zarif badaniga yopishib, qizning malohatini yanada bo'rttirib ko'rsatardi. Ko'ylagining aylana yoqasidan bir shoda qizil marjonlari ko'zga tashlanar, qizning bor-yo'q ziynati ham shundan iborat edi.

Saroy xonimlarining zarrin kiyimlari, alvon ro'mollari, oltin, marvarid, olmos taqinchoqlariga o'rgangan shahzoda soddagina kiyingan qizning shu qadar go'zal ko'rinishi mumkinligiga ishonmasdi. Bu kichik tuynuk shahzodaga torlik qila boshlaganini sezdi. U qizning ko'zlarini ko'rish, ovozini eshitish, dudoqlari va yonoqlariga yaqinroqdan ko'z tashlash istagida yonardi. Qalbining eshigi ochiq edi. Chamasi, shu soddagina kiyimli, xushovoz go'zal ol xinoli qo'llari bilan bu eshik zulfiniga yopishib, «qani shahzoda, o'zingni mendan asray olarmikinsan?» deyotgandek edi.

Shahzoda nima qilarini, qanday qarshi olinishini bilmasada, devor bo'ylab yura-yura eshikni qidira boshladi. Topdi. Yedirilgan yog'och eshik ochiq turardi. Shahzoda ostonadan qizni kuzatardi. Ichkaridan kimdir chiqib uni urishib berishi mumkinligini ham o'ylamasdi. Qiz savqi tabiiy tarzda hurkib, unga qaradi. Shu onda rigohlar bir zum to'qnashdi. U tabiiyki, shahzodani tanimadi. Ammo kiyimlaridan zodagon oila farzandi ekanini angladi. Otasini izlab kelgan ziyoratchilaridan biri bo'lsa kerak, dam olmoqchidir, deb o'yladi.

Bunday qo'noqlar uyalariga  
Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV No 2023/32-49

tez-tez kelib turgani uchun o'zini yo'qotib qo'ymadi. Mehmonga salom berdi va «xo'sh xizmat» degandek unga savolomuz tikildi. Yigi esa... butun olamni paqqos unga termilardi. Ayni damda uning butun diqqat-e'tibori Kurdi jayronlarining ko'zlaridan ham go'zalroq qorachiqlarga, Gulistonning yovvoyi atirgullarini eslatuvchi yonoqlarda, bo'ynidagi qirmizi marjonlar bilan talashayotgan yoqut lablarga qadalgan edi. Qiz ham yigitning nigohidagi g'ayrioddiy ma'noni uqib, bir muddat o'zini yo'qotdi. G'ayriixtiyoriy tarzda beliga qistirilgan kokillarini sug'urib oldi. yana yigitning og'ziga tikildi. Kutilmagan mehmonning jim qolganini ko'rib, o'zi sukunatni buzdi:

–Nima istaysiz, og'a?

–Singlim, bir qultum suv bera olasanmi?

Qizning yuragi hapriqib ketsa-da, o'zini qo'lga olib, kulimsradi:

–Nega bermas ekanman?–Qiz quduq tomon qaytdi. Naqshinkor mis qovg'ani satildan suvga to'ldirib, yigitning yoniga qaytdi.

– Og'a, mana iching, marhamat!

– Rahmat.. –suvni icharkan, vujudiga bir huzur ingandek bo'ldi. Totli suv ekan. Quduq emas, buloq suvidek mayin.

–Ha, qudug'imizning suvi juda shirin, Uni rahmatli bobomning o'zi qazigan edi. Ham muzdek, ham totli.

«So'yla, malak, tiling buncha shirin, so'yla dilbar, naqadar jur'atli qizsan?» bu so'zlar yigitning dilidan kechdi xolos. Qizning ismini so'ramoqchi edi, biroq tili aylanmadi.

–Bu uy kimniki?–deb so'radi.

– Bizniki, otamniki.

– Otangning oti nima?

– Shayx Karbaloyi.

– Qayerda?

– Pirnikida, shayxlar bilan birga ziyoratchilarni kutyapti.

– Sizlar ziyoratchi kutasizlarmi?

– Albatta, hamma qishloqdoshlar singari.

– Unda biz uchun dasturxon tayyorla.

– Albatta, necha kishisizlar?  
– Ikki kishi. Sherigim dengizga qarab ketdi. Hozir kelib qolsa kerak.

– Unda men otamga aytay  
– Mayli!

Yigit sohil tomon tushdi. Boshqa kutib turolmasdi. Qiz hurkib ketishi mumkin edi. Ortidan bir ovoz keldi. O'girilib qaradi. Qiz devorning ustiga tirmashib, qo'shni uydan kimnidir chaqirardi:

- Xayriniso xola, ho' Xayriniso xola?

- Ha, Bibixonim, senmisan?

«Ismi Bibixonim ekan—da? Bibi Haybatdan nazr—niyozlar olib turishgani uchun shunaqa nom berishgandir? Yo'q, endi sening ismi Sultonxonim bo'ladi. Mening Sultonxonimim bo'lasan. Bo'lmasa men bu keng dunyoga sig'may ketaman» deb o'ylardi shahzoda.

–Xayriniso xola, iltimos, Og'adoyini pirnikiga yuboring, bobomni chaqirib kelsin. Mehmonlar keldi desin.

- Yaxshi, qizim, uyingizdan mehmon uzilmasin. Ho' o' o' Og'adoyi, Og'adoyi, qayoqqa ketdi bu baraka topkur. Qanisan, menga qaragin!

Shahzoda sohilga tushdi. Bu yerda nodim Soleh otlarning egarlarini yechib, bo'shatgan, o'zi dengiz suvida yuz—qo'llarini yuvmoqda edi. U shahzodani tabassum bilan qarshiladi. O'rnidan turib, ta'zim qildi:

- Aziz shahzodam, nimadir topdingizmi?

- Ha, dunyodagi eng qimmatli javohirni topdim.

- Shu xarobada—ya?

- Eng qimmatli xazinalar xarobalarda bo'larmish.

- Ustida ilon kulcha bo'lib yotarmishmi?

- Unisini bilmadim. Ammo bu xazina faqat ertaklarda uchraydi, u Eram bog'ining huru parilaridan biri bo'lsa ajab emas.

Solih avvaliga shahzoda hazillashayotgan bo'lsa kerak, deb kuldi. Hazilga munosib javob topishga urindi. Ammo shahzodaning yuzidagi jiddiylik uni sergak torttirdi.

– Rostmi, shahzodam?

– Men hazilni yomon ko‘raman. Soleh, sen ham tilingga ehtiyot bo‘l. Shu qiz haqida biror nima desang, o‘zingdan ko‘r.

Soleh qo‘rqib ketdi. «Nima balo, saroydagilar bunga kamlik qilibdimi? Otasi bilsa, terimga somon tiqadi–ku?»

–Shoshma, men ham qo‘l–oyog‘imni yuvib olay. Keyin birgalikda ularning uyiga mehmonga o‘tamiz.

–Bosh ustiga!

– Ehtiyot bo‘l, tushudingmi? Bizlar sayohatchilarmiz. Ular esa, ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatadigan bir oila vakillari. Uqdingmi?

... Ular hovliga yaqinlashishganda. Shayx Karbaloyi ularni kutib turardi. Anchadan beri ziyoratchi kutmagandek edi. U yosh ziyoratchilarni ehtirom bilan qarshi oldi:

– Ziyoratingiz qabul bo‘lsin, og‘alar! Murodingiz hosil bo‘lsin!

– Aytganingiz kelsin.

Hovlidagi tut tagiga bo‘zrang palos to‘shalgan, dasturxon yozilgandi. Davradagilar choy ichib o‘tirirshardi. Dasturxonga nuskanda, shirbadushanda, dushoba, anjir murabbos, zanjilfaraj, turshak, pishloq, saryog‘, tandir noni, ko‘katlar terib chiqilgandi. Dasturxon did va sarishtalik bilan tuzalgani ko‘rinib turardi. Karbaloyi endi choy quya boshlaganda, Bibixonim katta laganda quymoq olib chiqdi. Choynakni otasining qo‘lidan olib, piyolalarga o‘zi choy quyib chiqdi.

«Kel, olib kel, malagim, obi kavsarim! Aslida dolchin choyini ichishni jinim suymasdi. Ammo endi men uchun bu ichimlik eng latif sharobdan–da maqbuldir!»

Qiz otasiga ta‘zim qildi:

–Ota, men mehmonlar uchun do‘lma pishirmoqchiman, qaylasini tayyorladim.

–Rahmat qizim, do‘lmani barra barglardan buk, xo‘pmi?– dedi otasi.

Qiz sal nariroqda go‘sht qiymasini tok barglariga solib bukar, igna sanchib chiqar, keyin chaqqonlik bilan tovaga joylardi.

Ko'p o'tmay, qiz ustiga piyozli qayla solingan yam-yashil dolmalarni chinni kosalarga solib, mehmonlarga uzatdi. Shahzoda umrida bunday shirin do'lma yemagandi.

\*\*\*

1501 yilning bahorida Shayx o'g'lining Arazdan bu tarafga o'tishi haqidagi xabar yoyildi. Aytishlaricha, bu kecha tush ko'ribdi, keyin yetti ming kishilik qo'shiniga qarab «ma'sum pirlarimizning pok ruhi muzaffar bayrog'imizni ko'tarib, Shirvon tomonga yo'l olishimizga dalolat etmoqda» deganmish.

Keyin Shayx o'g'li bobosi Shayx Junayd bilan otasi Shayx Haydarning xunini Shirvonshoh Farrux Yasordan olish uchun kelayotgani xabar qilindi. Buni eshitgan Farrux Yador «agar u bu hududlarga yetib keladigan bo'lsa, otasining kuni boshiga tushadi» dedi va o'zi boshlagan qurilishni davom ettiraverdi. Mudofaani sarkardalariga topshirdi.

Ko'p o'tmay, goh Mahmudobod, gohida Shirvonning Guliston, Fit taraflarida janglar kuchayganini eshitgan Farrux Yador hamma ishni tashlab, Gulistonda kurashayotgan qo'shiniga yordamga oshiqdi. Boku qal'asining mudofaasini o'g'li G'ozibeyga topshirib, o'zi Shamahiga yo'l oldi. Hali ham Shayx o'g'lining kuch-qudratidan yetarlicha xabardor emasdi. Tez orada g'alaba xushxabari yetib kelishiga ishonardi.

\*\*\*

Hazarim, umid dengizim mening! Sohilingda yuz bergan o'sha qonli janglarning tasviridan avval maydonga endigina tushgan Shayx o'g'lining kimligi, bu xabarlarining qanchalik rost yoki yolg'onligini bilish uchun bir necha yil ortga qaytishimizga to'g'ri keladi.

## ZAMBIL ICHIDA KECHGAN BIR KUN

Lahijon bog'lari go'dak Ismoilga juda yoqib qolgandi. Bu yerda anchagina sokinlik topdi. Yetti yoshli bola bo'lishiga qaramasdan, katta odamlar dosh berolmaydigan balolarga guvoh bo'lgandi.

Xususan, Ismoil o'z tengdoshlariga qaraganda tez ulg'aygandi. Endi Lahijonda Gilon hokimi Mirzaalining saroyida o'zini erkin his eta boshlagandi. Aslida bu erkinlikning o'zi nisbiy edi. Har gal saroy atrofida yoki darvozadan begona odam kirishi bilan uni yashirishardi. Mitti yurakchasi bilan noma'lum boshpanalarga kirar, yana qachon tashqariga olib chiqishlarini ilhaq kutib o'tirardi. Gohida o'zi bilan olgan kitoblarni varaqlardi. Tashqariga chiqishi bilan kichkina qilichi, nayzasi, o'q-yoylarini ishga solar, Mirzaali Hakim va boshqa xonzodalarning o'g'illari bilan birga Muhammadbey va uning ukasi Ahmadbeyning nazorati ostida harbiy mashqlarga kirishardi. Bu ta'limlar uning uchun yetti yoshli bolaning o'yinlari o'rnini egallardi. Goh ot choptirar, goh qilichbozlik qilardi.

Bu o'yinlar unga xush yoqsa—da, boshiga tushgan musibatlarining alamini unutilmasdi. Otasi shayx Haydar Dog'istonda, Shirvon sarhadlarida allaqayerda o'ldirilganidan keyin Ardabil so'fiylari ancha kuchsizlanib qolgandi. Shu bois Uzun Hasanning o'g'li Sulton Ya'qub osonlikchi Ardabilni qo'lga kiritdi.

Ismoil otasini eslolmasdi. Hatto g'ira—shira bo'lsa—da, uning yuz—ko'zlarini xotirlashga urinar, ammo hech narsa ko'z oldiga kelmasdi. Ammo onasi Marta Olamshohbegimni yaxshi eslaydi. Istaxr qal'asida qamalda qolgan paytlarini ham yaxshi xotirlaydi. Aka—ukalari Sultonali va Ibrohim ham ular bilan birga edilar. Keyinchalik Olamshohbegim nomi bilan tanilgan onasi Uzun Hasanning qizi edi. Marta Trabzon imperatori Hemptening qizi Kastring Despina xotundan tug'ilgandi. Marta Olamshohbegim o'z onasi mansub bo'lgan elning tili, milliy

adabiyotini yaxshi bilardi. Ayol qamalda yotganlarida bolalariga ona tilini puxta o'rgatgandi. Ertak o'rnida tez-tez ona tilida o'zi ko'rgan-kechirganlarni hikoya qilib berardi.

Sulton Ya'qub o'lganidan keyin aka-ukalari o'rtasida taxt talashuv boshlandi. Shialar bu nizolardan Ismoilning vositasida foydalanishdi. Shayx Haydar o'ldirilgach, katta o'g'li Sultonali ota o'rniga da'vogar bo'lishi kerak edi. Uzun Hasan o'g'illari unga qarshi urush ochganini ko'rgan Sultonali Safaviylar shayxligiga ukasi Ismoilni tayinlab, o'zi o'rtancha ukasi Ibrohim va boshqa shialar bilan urushga otlandi. Janglarda aka-ukalar halok bo'lgach, muridlar kichik Ismoilni Ardabildan yashirin yo'llar orqali Lahijonga olib kelishdi.

Lahijonda ham Ismoilga tinchlik yo'q edi, hisob. Uzun Hasanning o'g'li Rustamshoh tez-tez elchi yuborib, Mirzaali hakimdan bolani berishni talab qilardi. Mirzaali turli bahonalar bilan Ismoilni topshirishni ortga surardi. Vaziyat shu yo'qinda davom etardi.

Bir kecha Mirzaalining odamlaridan biri Rustamshoh unga qaytadan elchi yuborayotganini aytdi. O'sha kuni Mirzaali kechasi bilan uxlolmadi.

... Tush ko'rdi. Uni quvib kelishayotganmish. O'tliqlar unga endi yetaman deganda, sahroda bitgan yagona ulkan daraxt tepasidan bir qo'l tushib, uni ko'tarib olibdi. U qo'rquvdan cho'chib turganida, qo'li zirqirab og'rirdi.

Tavba, bu tushimi yo o'ngimi? Agar tush bo'lsa, nega qo'li og'riyapti, rost bo'lsa, nega uyg'onib ketdi?

Keyin ertalabgacha uxlolmay chiqdi. Kecha oqshom soqchilari keltirgan xabar bilan bu tush orasida allanechuk bir bog'liqlik bordek edi. O'ylab o'yiga yetolmasdi. Yotgan joyida bir necha bor ag'darildi. Baribir ko'zi ilinmadi.

O'rnidan turib, Ismoyil yotgan xonaga kirdi. Hamma yoq jimjit. Jajji Ismoil pishillab uxlardi.

«Dunyoning bu olag'ovur pallasida senga bir kor-hol bo'lsa, otamning ruhi poki va dini mubinimiz payg'ambari qoshiga qaysi



yuz bilan boraman?»

Mirzaali hakim yotog'iga qaytdi. Ertalab Rustamshohning odamlari keladigan bo'lsa, bu gal qanday bahona qilishini o'ylay-o'ylay to'shakka cho'zildi.

Kun yorishgan payti darvoza shiddat bilan taqilladi. Mirzaali qo'rqib uyg'ondi. Navkaru noiblari hali uyg'onmagandi. Hakim ayvonga chiqib, mudroq darvozabon bilan eshik oldiga bordi. Kelgan kishi do'stlaridan biri ekan.

Og'a, dardingni olay, Rustamshohning uch yuz otliq navkari Lahijonning bir manzilida kutib turishibdi. Ertalab shu yerda bo'lisharkan.

Otliq shu gaplarni aytib, darvozadan ortga qaytdi. Mirzaalining javobi tayyor edi. Sekin o'z ishlarini bitirishga kirishdi. Birinchi navbatda Ismoilni bu holatga tayyorlash lozim edi.

«Shayx martabasiga ko'tarilish uchun bu hali bola-ku?, o'ylardi Mirzaali Hakim. – To'g'ri, boshiga ko'p kulfat tushgan. Shu yoshida hayotning achchiq-chuchugini ko'rdi. Aqli yigirma yoshli yigitnikidan kam emas. Bu ham Yaratganning bir mo'jizasi».

Hakim shu xayollar bilan Ismoiling xonasiga qaytib kirdi. Ismoil bu paytda xuddi olis safar taraddudini ko'rgandek kiyinib turardi. Hakim taajjub bilan unga tikildi. Ismoil egniga uzun, qora hoshiyali chakmon kiyib olgandi. Chakmon ostidan bo'g'zigacha tugmalangan, naqshi-nigorlari did bilan ishlangan yaktak kiygandi. Boshiga qo'ndirilgan kichkina sallasining lachagi bo'ynidan aylantirib, yelkasiga tashlangandi. Darvozaning shiddat bilan qoqilishidan u ham uyg'ongan, masalaning mohiyatini anglab yetgan, darhol yo'l tadorigini ham ko'rgandi.

Mirzaali Hakim hayrat ichida so'radi:

–Bo'tam, nega buncha tez turib olding?

Bola ingichka, nozik lablariga nomunosib tabassum bilan jilmaydi:

–Safarga tayyor turay degandim.

–Qaysi safarga bo‘tam?

–Agar bizni safar kutmaganida, ertalabdan hech kim bizning eshigimizni qoqmagan, siz ham bunday xavotirga tushmagan bo‘lardingiz.

Mirzaali Hakim bolaning farosatiga ich–ichidan tahsin aytdi. Ammo, uning mavhum kelajagini o‘ylab, yuragi uvishdi.

–To‘g‘ri aytding, bo‘tam! Seni olib ketish uchun kelishibdi. Bir necha bor podshohga elchi vositasida yuborgan javoblarim uni qanoatlantirmagan ko‘rinadi. Uch yuz otliq Lahijonning bir qasabasida seni kutmoqda. Hademay kelib qolishar, balki. Bu gal ulardan seni asrab qolishimga kuchim yetmaydi, bo‘tam.

Ismoil yetti yashar bolada uchramaydigan sovuqqonlik bilan so‘radi:

–Xo‘sh, nimani maslahat berasiz?

–Biror nima demoqdan o‘jizman, bo‘tam. Agar izn bersang, bir fikrim bor.

Agar shu fikr amalga oshsa, boshimiz balodan xoli bo‘lardi.

–Siz nimani maslahat bersangiz, men roziman,—dedi Ismoil.

–Barakalloh, bo‘tam, dedi Hakim o‘zini tuta olmasdan. Afvet, shayxim, gapimni ham yo‘qotib qo‘ydim.

Ismoil umrida ota muhabbati qanday bo‘lishini ko‘rmagandi. Albatta qamalda qolishganda, u aka–ukalari, onasining mehrini, ularning jonkuyarligi, shafqatini his etgandi. Lala Husaynbey, Muhammadbey, Ahmadbey Turkman singari tug‘ishganlari ham uni jondan aziz ko‘rishardi. Qochoqlik, ta‘qib paytlarida ularning har biri Ismoilni ko‘z qorachig‘idek qo‘riqlardi. Muridlardan qozi Ahmad, xatib Farruxzod, Talish yo‘lidagi Tulunova hakim, Rashtdagi Amir Ishoq va boshqalardan katta hurmat ko‘rgandi. Har birisi hayotini tahlika ostiga qo‘yib, muayyan muddatda jaji shayxni o‘z uylarida yashirishgandi. Bu odamlar orasida faqat ikki ayolni eslab qolgandi. Ularning biri hovlisida uni bir oy davomida berkitgan Xandon ismli bir ayol, yana biri yaralarini bog‘lab qo‘ygan Uban ismli qishloq tabibi edi.

U hammasini yaxshi ko‘rardi. Duolarida esga olardi. Ular

Ismoilni xuddi dinning muhim vakillaridan biri sifatida jonlari evaziga asrashgandi.

Ammo, endi Mirzaali Hakimning taskini Ismoilning yurak-yuragigacha kirib bordi. Bir zungina mansabini, rutbasini, doim muridlar tarafidan e'tirof etib kelingan shayxligini, buyukligini unutdi. Mirzaali Hakimga yaqinlashdi. Bir ongina uni quchoqlamoqchi, mushtdekkina boshini hokimning keng, baquvvat kiflariga qo'yimoqchi bo'ldi. Biroq, ««afv et, shayxim, so'zimni yo'qotib qo'ydim» degani unga kimligini eslatib qo'ydi.

Yarim yo'lda to'xtadi:

–Maslahati bering, deya so'zini takrorladi.

–Shayxim, men ularga qasam ichishim kerak. Ular seni olib ketmasliklari uchun, qidirmasliklari uchun Qur'oni karim bilan qasam ichishim lozim. Izn bersang, bir hiylai shar'iy ishlatsak. O'zi shusiz ham kecha tushimda padari buzrukvorimni ko'rgandim. Qo'lini uzatib, meni qutqarib qolibdi. Shuni bilamanki, bugun Rustamshohdan biru—to'la xalos bo'laman.

–Nima qilish kerak?

–Men qasam ichib, seni bu tuproqlarda yo'qligingni aytishim kerak.

–Lekin, ular kelguncha men bu tuproqlarni tark etib ketolmayman—ku? Otaliq ham bu yerda yo'q. U bo'lmasa...

Qariya ikki qo'lini osmonga ko'tardi:

–Astag'firulloh! Agar men seni bu uydan chiqarib yuborishni istagan bo'lsam, tilim kalimai shahodatga kelmasin.

–Unda nima qilmoqchisiz?

Mirzaali Hakim eshikdan bosh chiqarib kimnidir chaqirdi:

–G'ulom, zambilni olib kel.

Navkarlardan biri xonaga kirib keldi. Sholi poxolidan to'qilgan yupqa va kattakon zambilni yerga qo'yib ketdi. Ismoil hayrat ichida bir Hakimga, bir zambilga qaradi.

–Jonim tasadduq, dedi Hakim. Yaratganning kalomiga ming–ming hasanotlar bo'lsin! Bir necha soat davomida, to men qasam ichgunimcha, mana shu zambilning ichida turasan.

Zambilni daraxtga osib qo'yishadi. Men seni bu tuproqda emasligingni aytib ont ichaman. Hiylai shar'iy ana shunaqa bo'ladi, bo'tam.

Ismoil hayrat ichida qarab turardi. O'z boshidan o'tgan aziyatlarni esladi. Yashirin yerto'lalar, tandirlar, kulbalarda haftalab bekinib yotgandi. Bir necha soat zanbilda o'tirish nima degan gap? O'yinchoq-ku?

Ismoilning rozilik javobidan so'ng Mirzaali ancha xotirjam tortdi. Har ehtimolga qarshi atrofni ko'zdan kechirish uchun uydan chiqdi. Hamma ishni o'zi amalga oshirish kerak. Navkarlar ham bu sirdan voqif bo'lmasliklari lozim.

## BIBIXONIM SULTONIM

Ustozining qirqi chiqqan bo'lsa ham, shahzoda G'ozibeyning xonalaridan xursandchilik ovozi chiqmasdi. U vaqtini asosan sayru sayohatda, nadimi Soleh bilan suhbatlarda o'tkazardi. Shahzodaning butun sirlaridan ogoh Soleh o'z xojasi tez-tez bir g'azalni takrorlashidan shubhaga tushgandi:

*Jonimi yondirdi shavqim, ey nigorim, qaydasan?*

*Ko'zlarim nuri, iki olamda borim, qaydasan?*

*Bag'rimi qon ayladi, achchiq firog'im, kel yupat,*

*Ey labi vuslat sharobi, g'amgusorim qaydasan?*

*Furqating xori meni ko'rkim, ne majruh aylamish,*

*Ey ko'zi nargis, habibi gul'uzorim qaydasan?*

Soleh bir nargiz ko'zli, gul yuzli nigorning kimligini bilardi. Bu muddat ichida bir necha bor Bibi Haybatga, shayx Karbaloyinikiga mehmonga borishdi. Bir necha bor qariyaga nazr bahonasida ancha muncha pul va hadyalar olib borishdi. Shayx Karbaloyi bu yigitlar kimligini bilmasa-da, boy xonadondan ekanlarini yaxshi bilardi. Ammo negadir ularning tashrifiga sabab qizi Bibixonim ekanini o'ylab ham ko'rmagan, yigitlarni juda xudojo'y ziyoratchilardan deb bilardi.

Shahzoda qalbida Bibixonimni «Sultonxonim» deb nomlagan, kelajak haqidagi orzulari haqida so'z ochganda, Solehdan hech narsani yashirib o'tirmasdi.

... Saroy ostin-ustun bo'lib ketgandi. Shahzodani ko'z ostiga olib yurgan saroy xonimchalari, vaziru vuzarolar, amiru beklarning qizlari uning oddiygina qishloq qiziga, faqir bir shayxning ojizasiga ko'ngil qo'rganini eshitishgandi. Soleh malikaning qattiq tanbehlari va qistovlari natijasida hammasini aytishga majbur bo'ldi.

O'g'lining keyingi paytlarda o'zgarib qolgani, yotog'idan chiqmay qo'ygani, bir qizning ishqida dalli-devona bo'lganini malika oxir-oqibat Shirvonshoh Farrux Yasorga oshkor etdi. Hukmdor avvaliga g'azablandi. Ammo o'g'lining kundan kunga

so'lib borayotgani, tabiblar biror tayinli chora topolmayotganini ko'rib, nihoyat malikani insofga chorladi:

—Mayli, nachora? Axir saroyda qishloqlardan, faqirlarning uylaridan kanizlar olib kelinmaydimi? Bu ham o'shalardan birida? Yoshlik—beboshlik deyishadi—ku? Bir necha kunda ko'ziyam, ko'ngliyam to'yadi. Keyin o'zimiz istagan xon yoki hukmdorning qizini olib beramiz. Ko'nglida armon bo'lib qolmasin...

... Shu tariqa, Bibixonimning ko'nglini ham, ra'yini ham so'ramasdan, o'z elidan ayirib, saroyga olib kelindi. Faqat o'sha paytlar keksa Shayx Karbaloyi dindor ziyoratchilarning kimligini bildi, o'sha yigitlarga duch kelgan kunlarga la'natlar o'qib, xazon bosgan, bulbuli uchib ketgan hovlisida bir o'zi qoldi.

Kelin saroyga keltirilgan kuni malika unga bitta shart qo'ydi. Yangi kelin uning saroydagi hujrasiga qadam bosmaydi. Shahzoda uchun ajratilgan haram xonalaridan birida qoladi. Unga bitta xizmatchi va bir nafar joriya birlashtiriladi. Ovqatini oshxonadan unga joriya keltirib beradi. Qishloq qizi saroyda ana shunday vaziyatda yashardi.

Dastlabki kunlar ajib bir hissiyotlar og'ushida kechdi. Oldin ham Bibixonim bu yigit oddiy ziyoratchi emasligini, ularning kulbasiga ziyorat uchun emas, uni ko'rish uchun serqatnov bo'lib qolganini bobosidan avval sezgandi. Ehtimolki, yigitning sevgiga intiq qalbining hayajonlarini beg'ubor ko'ngil ko'zi ila ko'rolgandi. Keks shayx allaqachon yoshlik his-tuyg'ularini unutib yuborgan, shuning uchun ham ikki yigitning makrlariga osongi laqqa tushgandi. Ammo, Bibixonimning navqiron yuragi bu hislarni payqamasligi mumkin emasdi. Uning qalbi endi G'ozibeyniki bilan bir maromda tepardi. Albatta, o'sha onlarda u ish nima bilan yakun topshini, saroyga olib ketilishini bilmagandi. Ammo qismat uni shahzodaning og'ushiga tashlaganida, qiz bu hisni ichki sevinch ila qarshiladi.

Ona yurtidan, do'st—yorlaridan mahrum qilingan Bibixonim «Sultonxonim»ga aylanganidan so'ng, butun borlig'i bilan yosh va xushbichim eriga bog'landi—qoldi. G'ozibey avvaliga onasi

qo'yg'an shartga ahamiyat bermasa—da, kunlar o'tishi bilan buning qanchalik og'irligini his qila boshladi. Butun aloqalaridan mahrum qolgan Sultonxonim to'rt devor orasida qamalib qolgan, nima qilarini bilmas, o'zini qo'yarga joy topolmasdi.

Saroyda yolg'iz qolgan kezlari qiz bobosining anjir daraxtlari bilan o'ralgan kichkina hovlisini eslardi. Ota—onasini juda erta yo'qotgandi. Hatto ularni elas—elas eslay olmasdi ham. U xuddi bobosining tizzasi ustida dunyoga ko'z ochgandek edi. Sal ulg'ayishi bilan qo'shnilari Xayriniso xolaning yordamida ro'zg'or ishlarini o'rgangan, pishir—kuydirni o'z qo'liga olgandi. Bundan keyin bobosi uy ishlariga aralashmay qo'ydi. Uning kunlari o'ziga o'xshash shayxlar va piri murshidning yonida o'tardi. Qiz esa Xayriniso xoladan turli pishiriqlar, lazziqli taomlar pishirish sirlarini o'rganar, qishga turli oziq—ovqatlarni g'amlab qo'yardi.

Yozning jazirama kunlarida Xayriniso xolaga kir yuvish, ko'rpa qavish singari ishlarda ko'maklashardi. Xazri shamoli ko'z ochirmay qo'ysa, ayol kula—kula gap boshlardi:

—Qizim, sen onaningning to'ng'ich qizisan, borib anjir shoxini silkitib kel—chi?

Qiz uning aytganini qilib, anjir daraxtining tagiga yugurib borar, bor kuchi bilan daraxtni silkitishga tushardi:

*Men onamning ilkiman,*

*Og'zi qora tulkiman,*

*Xazri, ket, Gulovar kel!*

Shamol quturgan paytda, uni quvardi:

*Ayron bermas o'yingga,*

*Qo'noq qo'nmas uyingga.*

Shu irim—sirimlarni bajarsa, Xayriniso xola o'rgatgan bu «afsun» ko'zga qum to'ldiradigan telba shamol darrov to'xtashiga, mayin gulovar shabadaga o'rmi bo'shatishiga ishonardi. Keyin qurigan anjirlarni oq xaltaga yig'ib, qurt tushmasin deya, og'zini tikar, shu taxlit qish ozuqasini changdan, turli zararkunandalardan asragan bo'lardi.

Anjir deyishi bilan bobosi uyqudan darhol uygʻonar, och qoringa daraxtdan terib kelingan shirin, tillarang anjirlarni paqqos tushirib, nevarasini uyqudan uygʻotardi:

*Anjir sabohing,*

*Toʻldir tovogʻing,*

*Och qosh-qovogʻing*

*Ey sari sabohiy*

–deya xirgoyi qilar, qizga ham shirin mevalarni ilinardi. Qiz kula–kula:

–Anjir yemadim, ketdim. Dardim demadim ketdim, deb bobosining xirgoyisini davom ettirardi. Gohida hovlini supirishga vaqti yetmasdi. Kechasi bilan esgan xazri shamol uning mushkulini yengil qilardi. Ertalab hovlidagi qumlar yoyilar, hammayoq top–toza turardi.

–Bobo, qarang, shamol hovlimizni supurib qoʻyibdi. derdi.

–Ha, xazri bu kecha dangasa kelinlarga yordam qilib, hammayoqni saranjomlab ketibdi, deya hazillashardi.

Gohida Xayriniso xola qizga qarab «bobong seni oʻz oʻgʻlidan ham koʻproq yaxshi koʻradi, biz biror marta rahmatli otangni qoʻliga olganini koʻrmagandik», derdi.

Bir gal bobosidan soʻradi:

– Bobo, siz rostdan ham meni otamdan koʻra koʻproq yaxshi koʻrasizmi?

– Ha, dedi qariya koʻzlarini qisib.

– Nima uchun?

– Danagidan magʻzi shirin deyishadi. u shunday deya nabirasini bagʻriga bosib, sochlarini ohista siypalardi.

Hozir ham Gʻozibey yonida boʻlmagan kezlari u goh bobosini, goh Xayriniso xolani eslar, yuragi ezilar, bolalik xotiralari uygʻonib, tomogʻiga nimadir tiqilgandek boʻlardi.

Gʻozibeyni sevib qolgani aniq. . Ammo qadrdon yurti, hayoti, yaqinlarini qattiq qoʻmsardi. Gohida Gʻozibey mashgʻulotlardan yoki ovdan qaytganida ikkovlashib, qariyadan xabar olishardi. Qiz oʻsha paytlarda kovushini yechib tashlab, mayin qumlar ustida



oyoqyalang yugurar, quduqdan suv tortar, bobosining kirlarini yuvar, uylarni supurib sidirar, ammo o'zini vaqtinchalik mehmon ekanini his qilib turardi. Eshik oldida turgan tulpor bezovtalanib kishnar, bu esa tezda saroyga qaytish kerakligini anglatardi. G'ozibey mahbusining harakatlarini zavq bilan kuzatar, uning parvoz qilishga qo'rqib turgan qushdek taraddudidan kulgisi qistardi. Lekin, nimagadir o'z uyidan ajralishni istamayotgan sevgilisini qistamas, bog'chani xayolchan kezishda davom etardi.

Xayriniso xola ham gohida qo'rqa–pisa eshikdan ko'z tashlar, zar–zevarga burkangan qo'shni qizga qiziqsinib qarar, keyin o'g'rincha shahzodani kuzatardi.

–Xush kelibsiz, xola!–derdi Sultonxonim uni ko'rishi bilan bag'riga otillar. Devorning tuynuklaridan ayolning nabiralari astagina poylar, keyin qiqirlashib, nari ketishardi.

–Kalomullo haqqi, qizim, qaynonang seni juda yaxshi ko'rarkan, derdi Xayriniso xola qizning kiftlariga urib–Sarimsoqli, qatiqli manti pishirgandim. Naq ustida kelib qolding. Sen mantini yoqtirarding, o'zi qasqonda terayotganda, sen esimga tushib, ko'nglim yomon bo'lib turuvdi – shunday deya u mis tovoqqa solib chiqqan besh–oltita mantini unga tutqazib, o'zi chiqib ketdi. Ammo, Sultonxonim mantini o'zi istagandek ishtaha bilan yeya olmadi. G'ozibeyning sarimsoq hidiga toqati yo'qligini yaxshi bilardi. «Qaynonang yaxshi ko'rarkan» degan gap unga g'alati ta'sir qilgandi. Hali biror marta qaynonasi bilan yuzma–yuz o'tirib gaplashmagan bo'lsa... Chamasi bu nomuvofiqlikni G'ozibey ham sezgandi, kulib qo'ya qoldi.

Saroyda bir o'zi qolganida mayda–chuyda ishlarini bitirar, keyin yostiqaqa boshini qo'ygancha, shirin xotiralarini ko'z oldiga keltirishga urinardi. To eri kelgunchi bobo uyida kechgan bolalik xotiralarini bilan yashardi.

Eri biror ish bo'yicha saroyga, sayohatga yoki majlislarga chiqib ketganida yana yolg'iz qolardi. To G'ozibey kelguncha soniyalarni sanar, anchadan keyin ortga qaytgan er ayolining ko'zlari qizarganini ko'rib, yaqindagina mahbusasi yig'laganini

tushunardi. Ana shunday paytda unda malikaga qarshi g'alati bir his uyg'onardi. Qizni saroydagi xursandchiliklardan mosuvo etgan onasiga qasdma-qasdiga Sultonxonimni asl saroy malikasiga aylantirish shavqi bilan yonardi.

Sekin-sekin o'zi bilganlarini qizga o'rgata boshladi. Sultonxonimning tirishqoqligi, o'tkir zehni yosh ustozning havasini orttirardi. Qisqa muddat ichida qiz o'qib-yozishni o'rgandi. Keyin shahzoda o'zi mansub bo'lgan qavmning urf-odatlarini, taomillarini o'rgatishga kirishdi. Ko'pincha shahzoda jangovar kiyimda Sultonxonim bilan otga o'tirib, yashirin yo'llardan sayhonlikka otlar, odamlar ko'zidan pana joyda kamondan o'q uzish, qilichbozlik, chavandozlik sirlarini ayoliga o'rgatardi.

Ana shunday safarlarning birida qaysidir qurilishlardan xabar olib qaytgan Farrux Yazor ilk bor kelinini suvoriy kiyimida qilichbozlik qilayotganini ko'rdi. Uzoqdan uning chaqqon xarkatlarini ko'rib, kulimsiradi. O'z odatiga qarama-qarshi o'laroq, kelinini chaqirib, uning peshonasidan o'pdi.

–Baxtli bo'linglar, bolalarim, dedi o'g'liga qarab.

Saroyga qaytgach, Farrux Yazor malikani huzuriga chorladi.

–Nazarimda Sultonxonimni saroy xonimlari davrasiga qo'shadigan payt kelganga o'xshaydi, dedi Balki uni yaqinda o'tkaziladigan mavludxonlikka chaqirsak-chi?

Sultonxonim deganingiz kim bo'ldi?

Kelining! Sen uni hali ko'rmaganmisan?

Ko'rganim yo'q, ko'rishni ham istamayman.

Ko'rmayinam kuymayinam.

Shirvonshoh kulimsiradi:

–Chakki qilasan. Ilgari menam shunaqa fikrda edim. Ammo ko'rganimdan keyin angladimki, o'g'limiz adashmapti. Keyin qoshlarini chimirib ilova qildi. Aytganimni qil. U qiz saroydagi a'yonu ashrofning qizlaridan kam emas. Ulardan ustun desa ham bo'ladi. O'zing ko'rsan hali.

G'ozibeyning quvonchdan o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Mehmondorchilik arafasida kechasi bilan Sultonxonimga dars o'tib chiqdi. Saroy odobini, onasining ko'nglini olish uchun nimalar qilishi lozimligini tushuntirdi.

Bu nasihatlarning aslida Sultonxonimga keragi ham yo'q edi. Qiz o'zining malohati ila go'zallikka tashna malikani bir qarashdayoq maftun eta oldi. Malika uning nazokati va latofatiga ich-ichidan tan berdi. Qisqa fursatda o'qish-yozishni, ot minish va qilichbozlikni o'rganganiga qoyil qoldi. Axir u ona edi. Qaysi ona o'z o'g'lining saodatidan xursand bo'lmas ekan?

Shu tariqa, barcha zodagon xonimlarning hasadiga sababchi bo'lsa-da, Sultonxonim ham qaynona-qaynotasining muhabbatini, ham saroy ahlining e'tiborini qozona oldi.

Har zamonda Bibi Haybatga borar, gohida qaynonasini ham ziyoratga taklif etardli. Shayx Karbaloyi nevarasining saroyda kanizak emas. Sultonxonim bo'lganidan sevinsa-da, uning taklifiga binoan, saroyga bormadi. Umrining oxirigacha o'z hovlisida yolg'iz yashadi.

## ZANBIL ICHIDA KECHGAN BIR KUN (davomi)

Quyosh bir terak bo'yi ko'tarilganda, darvoza oldida turgan soqchi eshik tabaqalarini lang ochib, qo'shin sarkardalarini ichkariga kiritdi. Bahrom G'oziy keng ayvon yonida otidan tushdi. Taajjublandi. Rustamshoh unga so'fiylar shayxi Ismoil ibn Shayx Haydarning shu yerda yashiringanini, bir qancha elchiga rad javobi berilganini, bola omonlikda saqlanayotganini aytgandi. U Mirzaali hakimni yaxshi tanirdi. O'ta jangovar odam ekanini ham bilardi. Uning qo'lidan kuch bilan hatto bitta xachirni ham tortib olib bo'lmasligini ham bilishardi. Agar shayx shu yerda bo'lsa, eshiklarni ochib qo'yisharmidi?

Mirzaali mehmonlarni xushmuomalalik bilan qarshiladi.

– Marhamat, Bayram G'oziy, siz diyorimizga xush kelibsiz, safo keltiribsiz,

Darhol navkarlar otlarni tutib, teri qotishi uchun biroz sovutishdi. Keyin esa, oxirlarga bog'lashdi. Bahrom G'oziy qo'shiniga binoni o'rab olishni, to o'zi chiqmaguncha hech kim otidan tushmasligini buyurdi.

Mirzaalining ortidan saroyning keng xonalariga kirdi. Nonushta dasturxonini ochildi. Yegulik va ichimlik keltirildi. Bahrom G'oziy tamaddidan keyin Mirzaali hokimga o'girildi:

– Olampanohga yetib borgan xabarlarga ko'ra, Ardabil so'fiylarining shayxi Ismoil ibn Shayx Haydar ibn Junayd shu yerda, sening ixtiyoringda ekan. Odamlarining bu qadar izzat ila qarshilaganing uchun sendan minnatdormiz, inim. Ammo, iltimos, modomiki shunday ekan, bizni ortiqcha urintirmasdan, shohning hukmini ijro et va Ismoilni bizga topshir. Menga sarkarda sifatida so'z beraman, uning boshida bir tola sochi to'kilmaydi. Uni ko'z qorachig'imizdek asraymiz. Axir u shohimizga begona emas, ammovachchasi bo'ladi.

«Shunday, go'yo shayx Ismoilning aka-ukalari aynan shu podshoh ammovachchasi tomonidan o'ldirilmagandek gapirasan»

degan xayollar o'tdi Mirzaalining ko'nglidan. Tiliga esa boshqa so'zlar qalqib chiqdi:

–Men podshohimizning elchilariga bor gapni aytdim. Mening tuprog'imda Shayx Ismoil degan odam yo'q. Istasangiz, Kalomullohga qo'l qo'yib qasam ichishim mumkin.

–Nachora, Kalomulloh haqqi ont icharkansan, ishonmaslikning iloji yo'q.

–Men ham shohning huzuriga borib, gapingni yetkazaman.

Mirzaalining amri ila oltin suvi yuritilgan Qur'oni karimni ehtiyotlab ko'tarib kelishdi.

Lahij qozisi bilan birga qo'shin mullasi ham keldi. Mirzaali o'rnidan turib, saroy hamomiga kirdi. Boshiga uch jom suv quyib g'usl qildi. Artinib, majlisga qaytdi. Keyin o'ng qo'lini Qur'onning ustiga qo'ydi. Hovlidagi tut daraxtining qalin shoxlarida orasiga osilgan zanbil tomonga qaramaslikka harakat qildi. Keyin uch karra salovat o'girib, muqaddas kitobni peshonasiga tekkizdi.

–Qur'oni majid haqqi ont ichib aytamanki, Ismoil ibn Shayh Xaydar ibn Shayh Junayd mening tuproqlarim ustida yo'q. Uning oyoqlari mening tuprog'im ustida emas.

... Bahrom G'oziy mard sarkarda edi. O'zi singari juvonmard insorning qasam ichishiga sababchi bo'lganidan biroz xijolat ham chekdi.

«Shohimiz juda qiziq. Ikki ammavachchasini yo'q qilib, ko'ngli joyiga tushmapti—da! Endi shu bolaning izidan tushgani g'alati. Nima, shu go'dak tirik qolsa, mamlakat vayron bo'larmidi? Ikki o'rtada meni ham sharmanda qildi!».

Bahrom G'oziy shu gaplarni dilidan kechirarkan: o'rnidan qo'zg'aldi:

–Meni qattiq ta'sirlantirding, janob Mirzaali! Shu qo'ligda turgan Kalomi sharif haqqi, toki men Rustamshohning xizmatida ekanman. hech kim sening eshigingni behuda qoqib, tinchingni buzmaydi. Meni afu et. Bu dunyoda amr quli bo'lishdan ham og'ir ish yo'q.

Mirzaali yengil nafas oldi va mehmonga tavoze bilan javob qaytardi:

–Nimalar deyapsan, inim?! Vaziyatingni tushunib turibman—ku? Orsiz kimsalarning tili tutilsin! Podshohni ham yo‘ldan chiqarganlar o‘shalar. Bo‘lmasa, men senga ishonmasmidim?

Bahrom G‘oziy boshqa qololmasdi. O‘rnidan turib, uy egasi bilan xayrlashdi va otiga mindi. Qo‘shini ham ortidan ergashdi. Ular qal‘adan yarim farsah uzoqlashmay turib, Mirzaali Ismoilning daraxt shohiga ilingan «qarorgohi»ga yaqinlashdi. O‘zi bog‘lagan tugunlarni ichida, zambil ichida o‘tirgan bolakay so‘lg‘in yuzlari, kirtaygan ko‘zlari bilan unga termilib turardi. Axir bu mitti yuzlar kun yorug‘ini ko‘rmagan bo‘lsa... Albatta so‘ladi—da» o‘yladi Mirzaali.

Jilmayishga harakat qildi.

–Taqsirim, endi hech narsadan qo‘rqmasak ham bo‘ladi. Men Bahrom G‘oziyning so‘zlariga chin dildan ishonaman. U Shohning xizmatida ekan, bizning uyimiz ham omonlikda bo‘ladi. Lekin baribir ehtiyot bo‘lishimiz kerak. Har qalay devoming ham qulog‘i bor, deydilar—ku?

Ismoil zambildan chiqdi. Yashirishga uringan hayajoni ham bitmagandi. Shu bilan birga hokimning so‘zlarini javobsiz qoldirishni ham istamasdi.

Hammasini eshitdim, dedi bolakay. Allohning o‘zi qilgan yaxshiliklaringiz ajrini bersin.

Omiyn! yuziga fотиha tortidi Mirzaali.

\*\*\*

Oldinda Bayrambey Qoramonli borardi. Otliq qo‘shin uning ortidan saf tortgandi. Suvoriylar keng maydon topib, bir–biridan o‘ziga tirishardi. Bayrambey daryo qirg‘og‘ida to‘xtadi. Undan bir otliq bo‘yi oldinda kelayotgan yo‘lboshchi Husaynga yuzlandi:

– Kur daryosi shumi?

- Shu, beyim!
- Tinch oqarkan?
- Hozir shunday. gohida shunday asovga aylanadiki...
- Bu daryoni kesib o'tish qiyinmi?
- Qiyin, taqsir!
- Nima qilamiz?
- Boshqa yo'l yo'q. Eng sayoz o'tsa bo'ladigan joy shu.
- Buning qayeri sayoz?–Bayrambey otning jilovini tortdi.

Qo'shin yetib keldi. Kimdir daryo qirg'og'ida otini sug'orar, kimdir suv ichar, kimdir oyoq–qo'lini yuvishi bilan ovora edi. Bayram taraddud ichida egarda qotib turardi. «O'ting» deya amr qilishga jur'ati yetmas, o'zi esa birinchi bo'lib ot surishni ep bilmasdi.

Birdan otliqlar orasida yosh podshoh chiqib keldi. Yuzida niqob tutgandi. Shayxzodaning yuzini nopok insonlar ko'rini mumkin emasdi. Niqobini ochmasdan, Bayrambey Qoramonliga buyurdi:

- Nega qarab turibsizlar, o'tmaysizlarmi?
- Hukmdorim, otlarni bu suvga tushirishdan ehtiyot qilyapmiz. Balki boshqa bir sinashta kechuv toparmiz?
- Yo'l boshchi nima deyapti?
- Yo'l boshchi bu joylarni yaxshi bilmas ekan.

«Qiblai olam» o'n to'rt yoshda edi. Ammo uning bo'lali jussasi, keng yelkalari, qaddu qomati yigirma yoshli yigitga kelbat berardi. Uning niqobi bo'lmaganda, yuzidagi shiddat, qasosga tashnalik, nohaqlik qurboniga aylangan aka–ukalari uchun o'ch olish, kelajakka ishonch hissi barq urayotganini ko'rgan bo'lishardi.

–Orqamdaaaan!

U shunday deya daryoga ot soldi. Bayrambey, Jahonsulton, Qaytmasbey, Xulafobey, Lala Husaynbey, Devsulton va boshqa sarkadalar yosh hukmdorning g'ayrat va shijoatiga tahsin o'qib uning izidan ot solishdi.

Yosh Ismoil oldidan qo'shinni ruhlatirmoq uchun yangi bitgan she'rini baland ovozda o'qib borardi:

*Qayerda eksang bitarman,  
Xonada chaqirsang, yetarman,  
So'fiylar qo'lin tutarman,  
G'oziyilar, ayting, shoh manam.  
Mansur ila dorda qoldim,  
Xalil ila norda qoldim,  
Muso ila Turda qoldim,  
G'oziyilar, ayting, shoh manam.*

Uning sokin, sodda so'zlarida allanechuk bir xitob, qalblarni tug'yonga soladigan bir his bor edi. Bu ovoz odamlarning qalbini umidga to'ldirar, ularda ishonch uyg'otardi. Sal o'tib, do'stlari, eranlar, baxshilar bu so'zlarni yod olib, kuyga solishi, tillardan tillarga ko'chirishi turgan gap.

*Qirmizi tojli, bo'z otli,  
Yusuf payg'ambar sifatli,  
Og'ir lashkara nisbatli,  
G'oziyilar ayting, shoh o'zim,  
Xatoyiman ol otliman,  
So'zi shakardan totliman,  
Murtazo Ali zotliman,  
G'oziyilar, ayting, shoh manam.*

O'zi yosh hukmdorning ortidan daryoni kesib o'tdi. Bitta ham talafot berilmadi. Lala Husaynbeyning qalbidan «sherning bolasi sher bo'ladi» degan naql kechdi. Ko'z o'ngida katta bo'lgan, ayni paytda piri murshidiga aylangan bu yigitchaga nisbatan qalbida ajib bir farah uyg'ondi. Lala Husaynbey va Xulafobey ich-ichlaridan unga ofarin deyishardi.

–Piri murshidimiz mingga kirsinlar!  
–Murshidi komilimiz bor bo'lsinlar!  
–Shohi javonbaxt omon bo'lsin!

Ovozlar, xitoblar, ofarinlardan yeru osmon zir tiradi. Endigina o'n to'rt bahorni ko'rgan qalbi intiqom hissi bilan



yonsada, keyinchalik tarqoq xalqni bir hokimiyat bayrog'i ostida birlashtirmoqchi bo'lgan yosh shoir hukmdorga hozirdan olqishlar yog'ilardi. Ta'riflar, yoshiga mos bo'lmagan laqablar, unvonlardan boshi aylanmadi. O'ziga bino qo'ymadi. Barchasining nufuzini orttirish barcha yaqinlari uchun muhimligini anglab yetdi.

## BIR QABILANING OXIRI YOKI OYTEKINNING QISMATI

Hazarim, yuragim. panohim mening, sohilingdan ancha uzoqlarda Langabiz tog' tizmalarining etaklarida bir qabila bor edi.

Qabila karvon o'tadigan joylardan uzoqda, shaharlardan olis hududda joylashgandi. Yuz yillardan beri dunyoda ko'p ishlar yuz berayotgandi. Bu tuproqlar kunda bir jahongirning qo'liga o'tardi. Goh mo'g'ullar, goh temuriylar, goh oqqo'yunli, goh yana kimlardir kelib ketardi. Ammo, qabilaning bu mojarolardan, aytish mumkinmi, xabari yo'q. To'g'ri, bir paytlar qaysidir arab shayxi bu muzofotni zabt etib, aholini islomga kiritgan, odamlarni shariat ahkomlariga o'rgatgan, o'zi ham umrining oxirigacha shu yerda yashab vafot etgandi. Uning qabri ustida keyinchalik maqbara tiklandi.

Shayx o'tganidan keyin aholining bir qismi eski e'tiqodiga qaytdi. Qadimgi urflarni asosan keksalar asrab kelishar. qadimiy an'analarga yangicha to'n kiydirishardi. Yangi kelin tushgan kunning ertasi quyosh chiqishi bilan kampirlar kelinchakni quyoshga salom berish uchun olib borishardi. Odamlar ko'pincha qasam ichishganda «o't haqqi, suv haqqi, Quyosh haqqi» deb ont ichishardi.

Bu yerda hali bolalarga Qur'ondan ism qo'yuvchilar oz edi. Pir tirikligida o'zi bolalarga Qur'ondan ism tanlab berardi. Shu sababli bu yerlarda bir paytlarda Muhammad, Ahmad, Bakir, Ahad singari ismlar ko'paygandi. Qabilaning keksa momolari bu ismlarni uncha xushlamas, ular eski odatlariga mos tarzda chaqaloqlarga ot qo'yishni xohlashardi. Shu bois qabila ahli orasida bolalarning odatda ikki ismi bo'lardi. Bittasi rasmiy, diniy an'analarga mos ism, ikkinchisi odamlar chaqiradigan, mahalliy an'analarga xos ot. Qabilada ko'pchilikni Bo'ron, Yag'mur, Bulut, Turon, Sahar, Guney, Kuzay, Kuntug'di, Oytug'di, Oytug'mish, Ayozi, Tuman, Chovg'un, Gunash, Oytekin,

Oyxonim, Kuntekin, Tug'ay, Oysel, Oysu, Qorajig'a, Olchechak singari ismlar bilan atashardi.

Yilda bir bor katta shahardan kelgan soliq yig'uvchilar qabila boshlig'ining uyida bir-ikki kun qolib, qabila ahlining hayot tarziga ham qiziqishar, ham allaqanday qo'rquv bilan qarab, tanbeh berardi.

–Tavba, sizlar o'zi qanaqa musulmonsizlar? Ma'jusiylar ham sizdan yaxshi.

Bir paytlar shayx qabilaning eski nomi «O'dli»ni «Muhammadiya» nomiga almashtirgandi. Ma'murlarning kitoblarida ham qabila nomi ana shunday qayd qilingandi. Ammo ma'murlar o'zlari bu qishloq ahlini «gavrlar»<sup>1</sup> deb atashardi. Ulardan kimdir «qayerga boryapsan?» deb so'rasa, albatta «Gavrlar qishlog'iga» deb javob berishardi.

Hikoyamizdagi voqealar yuz bergan yillarda qabila yarim ko'chmanchilik bilan kun kechirardi. Qabiladoshlar ham chorvachilik, ham dehqonchilik bilan shug'ullanishardi. Agar bir yil o'ng sohilda g'alla ekishsa, keyingi yil beda va boshqa ekinlarni ekishardi. Tog' yon-bag'irlarida ham dehqonchilik qilishardi. Unchalik baland bo'lmagan vodiyni o'rab olgan qoya atrofida chorvadorlik qilishardi. Yoz oxirlaganda, aholi bola-baqrasini olib, shu tarafdagi ko'chib chiqardi. Dalada asosan erkaklar qolib, ekin-tikinga qarashardi. O'rim-yig'im odatda yozning oxirlarida, kuzning boshlarida boshlanardi. Ayni shu paytda g'allani sovurish uchun qulay payt bo'lardi. Ana shunday paytda qishloqqa soliq ma'murlari oralab qolardi. Ularning izidan nasibasini istab darvishlar, qalandar, murid oviga chiqqan piru eshonlar qadam bosardi. Qabila ahli hamon musulmonchilik bilan an'anaviy e'tiqodni qorishtirgani sababli mullalardan qo'rqishardi. Ular nimani so'rasa, berib yuborishardi.

Qolgan bug'doydan bir qismidan kuzning dastlabki oylarida suv tegirmonida un tortishar, qishlik ozuqani uy oldida qazilgan qaznoqlarda g'amlab qo'yishardi.

---

<sup>1</sup> Gavrlar – otashparast, ma'jusiylar.

Qabila ahli bozor–o'charni bilishmas, shaharga hadeganda boravermasdi. Har–har zamonda qishloqqa sayyor olibsotlarlar qopda turli yeguliklar, matolar, ro'zg'or buyumlarini olib kelishardi. Goho attorlar ham kelib qolar, shunda qiz–juvonlar ularning atrofini o'rab olardi. Ayollar asosan mahalliy to'quvchilar to'qigan matodan kiyim tikib kiyishardi.

Asosan, erkaklarning kiyimlari uy sharoitida to'qilgan shol yaktak, shalvar va paytavadan iborat bo'lardi. Sotuvchilar, attorlar, baqqollarning savdosi asosan qishloq ahli arpa–bug'doyini yig'ishtirib sotgan paytlarida rosa avjiga olardi. Qabila oqsoqlari aynan o'sha mehmolar orqali dunyoda yuz berayotgan voqealardan xabar topishardi.

Yilning qolgan yetti–sakkiz oyi mobaynida qabiladoshlar o'zlaridan boshqa odamlarni ko'rishmasdi. Qabilada alohida cho'pon yoki o'rimchisi yo'q edi. Odatda har bir uydan bir erkak navbat bilan qo'y boqishga yoki dalaga yo'l olardi. Erkaksiz xonadonlar uchun qo'shni hovlidagi erkaklar navbatchilikka chiqishardi. Qabilada ko'zga ko'ringan boy odamlar bo'lmasa–da, faqirlar bor edi. Boquvchisini yo'qotgan bir oilaning yosh o'g'il farzandi qo'zi, buzoqlarni sug'orib yurardi. «Sut kuni» deb nomlanadigan hafta kunlarining birida qabilaning barcha xonadonlari sutni shu buzoqchiga berishardi. Chorvasi yo'q xonadonning ayoli sut kunining sutini to'plab ivitardi. Nasibasi shunga qarab qolgandi.

Qabila ahliga o'sha pir hafta kunlari qanday atalishini o'rgatgan bo'lsa–da, bu qiyin otlar kampirlarning esida qolmasdi. Ular hafta kunlarini ham azaliy an'analarga xos tarzda, xos kuni, tuz kuni, toq kun, Oyna kuni degan nomlar bilan atashardi. Oylarning nomi ham chorvadorlik, cho'ponlik bilan bog'liq edi: Go'zduk, do'l, do'lori, qarbasan, bo'za, ko'rpa, dibara, emlik...

Hikoyamizdagi voqealar yoz oylarida yuz bergandi. Qish quruq o'tgani uchun qabila ahlining ro'zg'ori u qadar aytarli emasdi. Yoz kechikib, maysalar kech ko'kargan, hayvonlar ham

qishdan ozib, to'zib chiqishgandi. Sut ham oz edi. Chechak xotun ham havoning bu injiqligidan noligani noligan.

–Parvardigor osmondan bir tomchi yomg'ir bermaganidan keyin o't qayerdan bo'lardi? .

Xotin o'zicha g'udrangancha qabila oqsoqoli Muhammad Bulutning uyi tomon yo'l oldi. Sut idishining tagida ozgina sut qolgandi. Hozirgina qo'shnisi Oysu qiz soqqan sutni unga bergandi

–Quyosh haqqi, Chechak xola, sutning bori shu chiqdi, degandi.

–Bilaman, bolam, nega qasam ichasan? Hozir hammanikida shu ahvol. Yaratgan egam osmondan yog'dirmasa, nima ham qila olardik?

Muhammad Bulutning eshigiga yetganda, o'sha yerda Umaro'g'li attorni ham ko'rdi. Attor otidan tushib, jilovini sayixona devoridagi ilma qoziqqa bog'ladi. Kampirni ko'rib, eski tanishlardek so'rashdi:

–Xush ko'rdik, Chechak hola!

–Xushvaqt bo'l, inim, xush kelibsan. Nega bugun bir o'zing kelding?

–E, ko'p qiziq zamonlarga qoldik–da, Chechak xola.

–Zamoni qo'y, ob-havoni aytmaysanmi? Halitdan yondiryapti. Yaratganga nima yozgan ekanmiz?

Unaqa dema, Allohning qahri keladi. Nima qilsa. O'zi biladi.

–Men nima deyapman? Bugun sut kuni, sut yig'ib yuribman. O'g'limning ham yetti kundan beri orqasini yer iskamadi. Odamlarning echki ulog'i, sigir–buzog'ini ertayu kech boqib keladi. Bular bergan sutni qara, ko'z–yoshimdanam oz.

Shovqinni eshitib, Muhammad Bulutning ayoli Kumushbeka yugurib chiqdi. Umaro'g'li bilan salomlashdi:

–Xush kelibsiz, og'a! Erim uyda yo'q edi. Oq o'rkachga ketishgan. Kecha bolalar aytishuvdi. Kecha bir poda qo'y bo'ridan qochib qayergadir ketib qolganmish. Kumushbeka

gapira—gapira sut idishini opchiqib, ichidagi yarim cho'mich sutni kampirning xurmachasiga ag'dardi.

—Har sut kuni ikki cho'mich sut berardim. Chechak xola. Zamonaning zayliga qarang.

—Bilaman, o'rgilay, nima ham qilardik? Ko'pga kelgan to'y. Alloh boriga barakasini bersin. O'zing tuzukmisan. Kumush?

—Qaynonamga non olib boruvdim. O'rniga yoyma olib keldim. Erim tandir nonini yaxshi ko'radi. Men esa, ko'chmanchilar oilasidanman. Tandir nonini yeyolmayman.

Chechak xola hali hovlidan chiqmasdan turib, Muhammad Bulut o'g'li Ahmad Guntekin bilan yetib keldi. Otlardan tushib. Umaro'g'li bilan bilan ko'rishdilar.

—Xush kelibsan.

—Xushvaqt bo'l.

—Salomatmisan? Uydlagilar yaxshimi?

—Salom aytishdi.

—Nima gaplar olamda?

—Ko'hna dunyoda yangi gap ko'p. Yaxshisini ko'rmadim. yomoniga tilim bormaydi. Hamma yoqda tahlika. vahima...

—Hozir kim kim bilan urishyapti?

—Anavi Ardabil shahri bor—ku, o'sha yerda bir podshoh paydo bo'libdi. Shayx o'g'li shoh emish. Yangi din olib kelganmish.

—Musulmon emas ekanmi?

—Musulmon ekanu, lekin bizga o'xshagan musulmonlarni qirarmish.

Chechak xotun xurmasini yerga qo'yib, ularning suhbatiga quloq osdi. Muhammad Bulut va Ahmad Guntekin hayrat ila Umaro'g'lining so'zlarini eshitishar, ammo tushunishmasdi.

—Ha, bular musulmon ekan, lekin boshqacharog'idan ekan. Botmon Qur'oni bilan o'n ikki imomga qasam ichdirarmish.

—Botmon Qur'onini—ku, ko'rganman. lekin o'n ikki imom kim ekan?

–Men ham senga oʻxshab, bexabarman.

–Xoʻp, biz bilan nima ishi bor ekan? Har kim oʻzining dinida qolaversa boʻlmasmikin?

–Yoʻq! Aytishlaricha uning ota–bolari bilan bizning Shirvonshoh ajdodlari oʻrtasida azaliy adovat bormish. Shuning oʻchini olayotganmish. Bizni ham oʻzining qavmiga ogʻdirmoqchi emish. Ogʻmaganlarni qilichdan oʻtkazarmish.

Chechak xotun bilan Kumushbeka birdan soʻz boshlashdi:

–Allohim, oʻzing asragin!

–Ha, bolam, Yaratganning oʻzi asramasa, bizning qoʻlimizdan nima ham kelardi? Ishqilib shu aytgan gaplaringi haqiqatmi, shunchaki choʻpchak boʻlmasin?

–Nimalar deyapsan, inim? Agar aniq eshitib bilmaganimda, kunning shu issigʻidan shuncha yoʻl bosib, qoshingga kelarmidim? Ham seni xabardlor qilay, ham uch–toʻrtta nasyalarim bor edi, shularni yigʻib ketay, deb keluvdim.

–Yaxshi qilibsana, ammo, nasyalaringni oʻlmaysanmi deb qoʻrqaman. Hozir xalqning qoʻlida pul yoʻq. Hammaning ahvoli ogʻir.

–Toʻgʻri aytasiz, ammo, biz ham sizning ahvolingizdamiz. Uylarning qozon–kapgir ovozi kelmay qoʻyganiga ancha boʻldi. Qurgʻoqchilik bizni ham holdan toydirdi. Harqalay, donmi, echki–uloqmi, biror nima qoʻlimga ilinarmikin, deb kelaverdim.

–Echki–uloqni bilmadim, lekin don odamlarda ham anqoning urugʻi. Mayli, bir surishtirib koʻr, nasibaga yarashasi chiqib qolar. Uygʻa kir. Bir burda nonimiz bor sen uchun.

Kumushbeka yemak taderigi uchun oʻchoq boshiga oʻtdi. Chechak xotuni ham oʻz odatiga koʻra mingʻirlagancha, xurmasini koʻtarib, ortiga qaytdi.

–E, Yaratgan egam! Bu yana nima koʻrgilik boʻldi? Bir kamimiz allaqanday podshoning ustimizga bostirib kelishi qoluvdi. Oʻsha yerlarda daf boʻlib ketmaydimi?

Umaroʻgʻli hali ovqatini yeb tugatmay, urush haqidagi xabar butun qishloqqa yoyilgandi. Butun dunyoni oʻz qabilasidan

iborat deb biladigan Chechak xotun urush haqida faqat ertaklarda eshitgandi. Yoshligida bir necha marta qabiladoshlari o'rtasidagi mushtlashuvlarga guvoh bo'lgandi. O'shanda ikki yigit qishloqdagi bir go'zal qizni sevib qolgan, keyin yigitlar o'rtasidagi janjal kelib chiqqandi. Keyin bu janjalga ikki yigitning qarindosh—urug'lari ham qo'shilishdi. Odamlar bir—birini rosa toshbo'ron qilgandi o'shanda. Ancha—muncha odamning boshi yorilgan, oyoq—qo'li singan, faqat qishloq oqsoqollari o'rtaga tushgach, janjal tugagandi.

Yana bir marta boshqa bir ko'chmanchi qabilaning odamlari ularning yerida qo'ylarini o'tlatgani olib chiqqani uchun qishloqdoshlar chiqib, ularni quvib solishgandi. Bu jangda odamlar o'rog'u ketmonlarini ham ishga solishgandi. Bunda ham ancha muncha odam yaralangandi. Lekin hech kim o'lmadi. Chechak xotin o'lim faqat kasallik va qarilik tufayli kelishini bilardi, xolos. Ertaklardagidek qaysidir zolim podshoh u bilan hech qanday ishi bo'lmagan begunoh odamlarni qirishi mumkinligini u tasavvuriga ham sig'dirolmasdi.

Umaro'g'lidan eshitgan gaplari uni dahshatga soldi. Shuningdek yuragining qay bir burchagida «balki bu ham biror ertakdir» degan umidbaxsh shu'la porladi. Shunday bo'lsa—da, sut uchun kimning eshigini qoqsa, hammaga urush haqida xabarni yoyib chiqdi.

Muhammad Bulut bilan Umaro'g'li tashqariga chiqishganda, maydonda ancha—muncha odam to'plangandi. Hammaning ko'zi qabila oqsoqolining og'ziga qadalgandi. Muhammad Bulut bir qancha ko'zga ko'ringan odamlarni chorlab, qolganlarga tarqalishni buyurdi. Odamlar tarqalishdi. Oqsoqollar uyga kirib, mashvaratni boshlashdi. Qishloq ahli bu gal ham o'roq va ketmonlar jangi bo'lishini chamalab, ish qurollarini to'play boshlashdi. Ancha—muncha ketmon, bel, o'roq, tosh jamlandi. Shu bilan taraddud ham tugadi.

Muhammad Bulut mehmonni kuzatib qo'ygach, ich—ichidan allanechuk tashvishni his etdi. Umaro'g'li urush ketyapti, degan



tarafga odam jo'natib, vaziyatni o'rganmoqchi bo'ldi. Buning uchun o'g'li Ahmad Guntekindan munosibroq odam topilmadi.

Ertasi kuni tong yorishganda, Guntekinga zarur ko'rsatmalar berib uni qabila hududining sharqiy qismiga, Umaro'g'ri aytgan manzilga yubordi. Guntekin o'sha kuni uyga qaytmadi. Ertasi kuni shom mahali qaytib keldi. Otasiga ko'rgan bilganlarini gapirib berdi:

–Juda katta qo'shin to'plangan, ota! Hammasi tish–timog'igacha qurollangan. Hali ularning men bilmagan yana qancha qudratli qurollari bor. Bu qo'shinga biz qarshi chiqolmaymiz, ota. Bizning bel, ketmonlarimiz hech baloga yaramaydi.

–Nima qilsak bo'larkin, o'g'lim?

–Bilmadim, ota! Menimcha, eng yaxshisi bu yerlardan bosh olib ketishimiz kerak.

–Qayoqqa? Odamlarga nima deyman? Ekin–tikin, mol–hollarini nima qilishadi? Uylarini qayerga tashlab ketishadi?

–Bilmayman, ota! Ammo bir kun ot choptirib ko'rganlarim qanchadan qancha qishloq xarobalari bo'ldi. Odamlarni qirib tashlashibdi. Qo'lga tushganlarni qul qilib sotishyapti ekan. Odamlar qon yig'layapti, ota.

Qariya o'yga toldi. Biroz so'ng tilga kirdi:

–Bilasanmi bolam, men bir oqsoqlar bilan gaplashay. Ular bilan kelishib, anavi Kunko'rmas tog'ining etagidagi yalanglikda yerto'lalar qazib, ayollar va bolalarni o'sha yerga ko'chirsak. O'zimiz chorvamizu, ekin–tikinlarimizga qorovullik qilib turamiz. Men aytgan tog' etagida ham bir qancha qorovullarni qoldiramiz. –Shunday deya qariya yalanglik tugagan joyni, daryoning ikki sohili yalang'och qoyalarga tutashib ketgan tomonni ko'rsatdi. Chindan ham Ko'nko'rmas tog'i xuddi tabiiy istehkomni eslatardi.

–Suvni nima qilamiz? – so'radi yigit shubha va umid ila.

–To dushman yetib kelguncha qiz–juvonlar daryoga tushib, hamma idishlarni suvga to'ldirishadi.

–Bizni qurshovga olishsa–chi?

–Iloji bor. Kunkoʻrmasning shimoliy qismida bir eski dara bor. Daryoga oʻsha yerdan tushsa boʻladi. Tashqari tomondan qaralsa, koʻzga ham chalinmaydi. Balki oʻsha yerdan gʻordan daryo tomonga lahm orqali yoʻl ochsa boʻlar?

Ota–bola bu borada ancha payt gaplashib oʻtirishdi.

–Dada unda yertoʻlani ham, lahmni hozirdan tayyorlab qoʻyish kerakdir?

–Ha, koʻchish boshlansin–chi?

Bomdod namoziga qadar bu reja qabila ahliga maʼlum qilindi. Hech kim eʼtiroz bildirmadi. Chunki, togʻ yonbagʻriga koʻchishni Muhammad Bulutning oʻzi boshlab berdi. U tezlik bilan yosh qabiladoshlarini ikki qismga boʻldi.

Birinchi qism Ahmad Guntekin boshchiligida Bulut koʻrsatgan joydan yertoʻlalar qazishni boshlashdi. Ikkinchi guruh boʻlsa, Guntekinning doʻsti, Yigit Ayoznning rahbarligida yangi qishloq oʻrnida tezlikda kapalar, dahmalar qura boshladi.

Ali hassasiga tayanib turgan Bulutning yoniga yugurdi.

–Bizga ham biror munosib yumush topshir, –dedi.

Biroq, urush boʻlishiga ayollarning uncha koʻzi yetmay turardi. Ular oʻz uylarini tark etishni istamasdilar. Bulut ayollarni yoʻlga solishga urindi:

–Aziz opa–singillarim, qizlarim, Er saksovulning boshida oʻtirsam, ayol yantoqning ustida oʻtirishi kerak, degan gap bor. Biz hozir oʻsha joyga borib turishingizni toʻgʻri deb bilamiz. Maqsadimiz sizlarni, farzandlarimizning dushmanning yomon koʻzlaridan asrash. Qoʻshinni Ahmad oʻz koʻzi bilan koʻrib keldi. Ularga kuchimiz yetmaydi. Shu bois Kunkoʻrmasga chekinishni maʼqul topdik. Sizga vaʼda beraman, dushman bu tomonlardan oʻtib ketganidan keyin, oʻz uylarimizga qaytamiz.

Uning soʻzlari ayollarga taʼsir qildi. Shu tariqa, ayollar bolalarini opichlab, togʻ yonbagʻrida ishlangan qoʻnalgʻalarga yoʻl olishdi. Qurilishdan boʻshagan erkaklar chorvaga qorovullik

qilishga tushishdi. Cho'ponlar ham xanjar va qilichlarni har ehtimolga qarshi osib olishgandi.

Chechak xola qo'llarini duoga ochgandi:

–Hazrati Xizr, hazrati Ilyos, bandani qil bandadan xalos!

Kimdir shu paytda ham kampirga tegishgan bo'ldi:

–Xola, bu duoni tug'adigan xotinlarga atab o'qishadi–ku?

–Aylanay bolay, hammamizam xudoning bandasimiz. dushman ham, do'st ham, sen mening ishimga aralashma!

Peshin namozi jamoat bo'lib, qoya ortidagi yalanglikda o'qildi. Pastdan turib qaralganda, u yerda na yerto'la, na chodirlar ko'rinardi. Qabilaning eski, tark etilgan uylari g'alati alfozda mung'ayib qolgandi. Xuddi uy egalari allaqayerga mehmonga ketib qolishgandek, ko'p o'tmay hamma qaytib keladigandek, mo'rilardan tutun chiqadigandek, qishloq odatiy shovqinga ko'miladigandek edi...

\* \* \*

... G'oziyarning old dastasi qishloqqa yetib kelganda, antiqa holatga guvoh bo'lishdi. Bo'sh uylar xuddi mayitsiz lahaddek og'zini ochib yotardi. Og'illarda na biror qo'tir echki, tovuqxonalarda na bitta o'limtik jo'ja topishdi. Askarlar hayron qolishdi. Qishloqqa urushning qo'li yetmagan bo'lsa–da, nafasi urilgandi. G'oziyar bo'sh uylarga joylashib, asosiy kuchlarning yetib kelishini kuta boshlashdi. Kuchlar birlashib, Shirvonshohlarning asosiy qarorgohi bo'lgan Fit tog'i tomon yo'l olishlari kerak edi. Qarshidagi tog'larni oshib o'tish uchun quvvat to'plash zarur. Yo'l o'sha tarafga Gunashli daryosining darasi bo'ylab ketardi, bu esa, qo'shinni o'zi bilan suv zahiralarni tashish zahmatidan xalos etardi. G'oziyar avval daryoda cho'milib, keyin tamaddi qilishga hozirlik ko'rishardi. Oqshom tushgan bo'lsa–da, atrofda hali qishloq ahliidan hech kim ko'rinmasdi.

## DARVISHLAR

Hazarim, Umidim, Ummonim Mening!

Xuddi shu onlarda dunyoning boshqa bir burchagida bizning Sultonxonimizni, Oyttekinni va kichkina Shoh Ismoilni tanimaydigan, ularga hech qanday aloqasi bo'lmagan bir savdogar oilasida ular bilan deyarli tengdosh ikki egizak bolalar voyaga yetishardi.

Ularning nasl-nasabi bir necha yillar avval parokanda qilingan. Shirvon shohligini tark etib, Ko'niyodan makon topgan Ozarboyjon hurufiyilariga borib taqalardi.

Hoji Bashirning turk qizi Lemandan tug'ilgan egizak o'g'illarining qadami qutlug' keldi. Hojining savdosi yurishib ketgan, kutilmagan joydan yaxshigina foyda olgandi.

Bolalar ko'z o'ngida katta bo'lishayotgani ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratardi. Ammo vaqt o'tishi bilan Hoji Bashir bolalardan ancha uzilishib qoldi. Egizaklardan biri Isrofil boshida dindorligi bilan ajralib turardi. Otasining san'atiga, ya'ni tijoratga uncha mayl ko'rsatmagandi. Aksincha qozining o'ng qo'li sifatida bozordagi savdogarlarning ashaddiy g'animiga aylangandi. Savdogarlar, baqqol, allof, attor va boshqa sotuvchilar oldida otasining tilini qisqa qilib qo'ygandi.

Egizaklarning ikkinchisi Ibrohim unaqa emasdi. U Isrofil singari zohiran otasiga, botinan g'addor bir jallodga o'xshamasdi. Baland bo'yli, ochiq yuzli, istarali bu yigitcha ko'proq onasi Leman xonimga o'xshab ketardi.

Sokin harakat qilar, yumshoq gapirar, alaviy, bektoshiy jamoalariga aralashib yurar, bu esa, otasining g'ashiga tegardi.

Kunlarning birida otasi unga qattiq gapirdi:

O'g'lim, faqat soqol-mo'ylovini emas, qosh-kipriklarigacha qirqib yuradigan o'sha bitliqi darvishlarni nima qilasan?

Ibrohim qizarinib, otasi ga e'tiroz bildirdi:

–Ota, men ularning tashqi ko‘rinishini emas, fikrlarini qabul qilaman xolos. Men dunyoni ko‘rishni xohlayman. Bu dunyoda qanday odamlar, qanaqa tillar, urf–odatlar borligini bilsam deyman.

Hoji Bashir ovozini balandlatdi:

–Bolam, sen bu olamni savdogar sifatida kezishing mumkin. Istagan joylaringni, odamlaringni ko‘ra olasan. Shuning uchun tijorat ishlariga kirish. Men ham keksayib qoldim. Karvonlarga qo‘shilib, mol olib kel, men sotib beray. Ota–bola qo‘lni qo‘lga beraylik. Ham chorvamiz ko‘paysin, ham sening orzularing amalga oshsin.

Ibrohimm yengil kulimsiradi:

Kechiring ota, men dunyo moliga qiziqmayman. Uni orttirish ham xayolimga kelmaydi.

Boyatdan beri ularning suhbatini eshitib o‘tirgan Isrofil dag‘al tovushda kularkan, suhbatga qo‘shildi:

–Yaxshi... Ovqat yemaysanmi? Kiyinmaysanmi? Oila qurish niyating yo‘qmi? – keyin ovozini pasaytirib akasidan so‘radi. Anavi Nasrinni qanday boqasan? Ko‘ylak–ishtonini kim olib beradi? Yoki otam boqadilarmi?

Ibrohim g‘azabdan titrab ketdi. «Senga nima?» deb pichirladi. Keyin baland ovozda so‘z boshladi:

– Ota, siz mendan ranjimang! Siz bu ishlarni katta akamiz Hamidullaga topshiring. Mening bu dunyo bilan biror aloqam yo‘q, bo‘lmaydi ham. Yaratganning qudrati bilan yastangan sahrolar yotog‘im, Razzoqning hukmi bilan yerdan ungan ne‘matlar rizqidir. Tijorat ishi bilan shug‘ullanishni boshqa o‘g‘illaringizga topshiring. Men butun unrimning Yaratganning rizoligi uchun bag‘ishlaganman. Siz buni anglamadingizmi, ota? Siz dunyo ko‘rgan, aqli–hushi butun jahongashta insonsiz. Siz ham mendan rozi bo‘lib, oq yo‘l tilang. Ilm va ibodatga mashg‘ul bo‘lay.

Yon xonada ota–o‘g‘ilning suhbatini eshitib o‘tirgan Leman xonimning ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi. Bu so‘zlarda qanchalik

haqiqat borligini u bilmasdi. Ibrohim va Isrofil ayni paytda shu ayolning ikki siynasini emib katta bo'lishgan esa—da, na zohiran, na botinan bir—biriga o'xshamasdi. Ibrohim onasining qo'ynidan bir muncha halim, mehribon bo'lib chiqqandi. Onasining allalari, ertak va matallarini katta hayrat bilan tinglagandi. Bora—bora onasidan ko'plab she'ru g'azallarni yod oldi.

Keyinchalik Ibrohim hammadan bekitib o'zi she'r mashq qila boshladi. Hozirda shayx o'g'li Xatoiyning nomi ham, ash'ori ham tilidan tushmay qolgandi.

Leman xonim o'g'lining qo'shnining qizi Nasringa qarashlari o'zgarib qolganini ham sezdi. Lekin keyingi paytlarda negadir Nasrin ham unutilgandek edi. Xatoiyning nomi va aqidalari Ibrohimning fikru xayolini band etgandi. Leman xonim o'g'li tobora qo'lidani ketayotganini tushundi.

Hozir ham ichkariga kirib, eri Hoji Bashirning oyog'iga bosh urib, o'g'lini bu yo'ldan qaytirishini yalvorib so'ragisi keldi. Ammo Leman xonim hozir Ibrohim darvishlik dunyosida yashayotganini bilmasdi. Yigit o'zini tamoman boshqa bir safarga hozirlamoqda edi. Bu yo'lda Eranlar unga hamroh bo'ladi. Ermish eranlarning hukmi bilan tepgan yurakka otaning amri kor qilmasdi.

\* \* \*

Aziz o'quvchi!

Bu ulkan kurash maydonida sen Bibixonim sultonim, Oytekin, Ibrohim va o'sha paytlar Shayx o'g'li Shoh sifatida tanilgan Shoh Ismoil Xatoiy bilan yuzlashasan. Bu uchrashuvda Bibixonim Sultonim, Oytekin va Ibrohim o'z tushunchalari bilan o'z aqidasi binoan o'n to'rt yoshida, o'n to'rtta viloyatni fath etgan sarkarda, hukmdor va eng nafis g'azallar muallifi bo'lgan shoir Xatoiyning idrok etishga harakat qiladilar.

\* \* \*

Xazarim, ummonim, qismatim mening! O'g'illaring, qizlaring qismati aslida sening kechmishingdir. Yurak zarblarini aks ettiruvchi to'liqlarning titramasin! Bu taqdir qismat tarixining birgina pillapoyasidir. Narigi zinalarda ne mojarolar yuz berganini sen o'zing ham yaxshi bilasan.

Sen mening tayanchim bo'l. suyanchim bo'!! Farzandlaring, tortgan azoblarni birma-bir yosh avlodga yetkazishimda o'zing madad ber.

Ko'kka sapchigan asov to'qinlaring shiddatidan meni ham bahramand et. Hazarim, go'zalim mening!

## QUZG'UN

Oq o'rkach tog'ining kulrang ko'ylagini qop-qora qoya teshib, ko'kka o'rlagandi. Qoyaning yalang boshida bir quzg'un turardi. Xuddi u ham qoyadan yo'nilgan haykalni esga solardi. Boshini qimirlatmasdan, atrofni o'tkir ko'zlari bilan kuzatar, alvon munchoq shodasini eslatgan qo'shin safini ziyraklik bilan ko'zdan kechirardi.

U ana shu tog'lar singari uzoq umr kechirdi. Keksa quzg'un askarlar qo'nalg'asini hididan bilardi. Qo'shinni izma-iz kuzatib borardi. Bilardiki, qayerda odamlar jamlansa, o'sha yerda ko'p o'tmay qon to'kiladi, jasadlar ko'payadi. Uning uchun qon hididan ko'ra iforli is yo'q edi. Jang tugagach, har tomonda cho'zilib yotgan o'liklarning go'shtini cho'qilashdan ortiq lazzat yo'q edi uning uchun. U tezroq o'sha huzurbaxsh onlar kelishini istardi. Ammo tajribadan ma'lumki, shoshilishdan foyda yo'q.

Tezroq bellarga osilgan qilichlar qinidan chiqishi, qalqonlarga urilib jarang sochishi, kuraklarga osilgan qizil sadoqlardan olingan yoqlar havoda vizillab uchishi kerak. Asl shirin qonlar o'shandan so'ng tizillab otiladi.

Qo'shin ketib borar, quzg'un kuzatardi. Birozdan so'ng bu navqiron gavalarning qanchasi unga yem bo'ladi. Qiziq, bunaqalarni u hididan taniydi. Shu paytgacha qancha navqiron lohlarni ko'rmadi u. Insonlar aynan quzg'unlarga yem bo'lishga hozirlik ko'risharkan, bir yerda jamlanishadi. Axir ularni o'laksaxo'r qushlarga yem bo'lishga hech kim majbur qilmaydi-ku?

Buni odamlarning o'zlari qilishadi. O'zlari!

Nimagaligini tushunolmaydi. Sal pastroqda qop-qora qarq'alar ham o'z nasibalarini kutib turishibdi. Ular murdalarning ko'zlariga ishqiboz...

Maxluqotning eng sharaflisi deb nomlangan inson zoti shumi? O'z aqlu zakovati bilan qushlardan bir necha qatla yuksakda turgan mavjudot shumi? Insonni boshqa jonivorlardan



yuksak tutib turgan miyalari ham o'laksaxo'r qushlarning jig'ildonini to'ldirishdan boshqaga yaramas ekan—da?

Ey inson, qoya tepasiga qara! Ajal quzg'un shaklida seni kuzatmoqda. U hali sening to'kilmagan qoning hidini tuymoqda. Undan pastroqda payt poylayotgan qarg'alar ham...

Yoshgina g'ozu qari quzg'unni ancha oldin ko'rgandi. Bu qush anchadan beri ularni poylab yurardi. O'ng qo'lini chap yelkasi osha o'tkazib bitta o'q oldi va quzg'unni nishonga oldi. Biroq o'q kamondan chiqqan zahoti quzg'un shiddat bilan havoga ko'tarildi va qoyaning ortiga o'tib, ko'zdan yo'qoldi. Yosh g'ozining yonida borayotgan qizilbosh kulimsiradi:

—Qanoti bo'lmaganda tegarmidi? Bu quzg'un juda pixini yorganlardan. Senu menga o'xshaganlarning qanchasining go'shtini yegan bo'lsa? Bunga bekorga o'qingini sarflama.

... Qo'shin ilgarilar, qizimlbosh g'oziyalar oldinda, oq ot ustida, yuzi niqobli murshidlarining she'rini o'qishardi:

*Bukun g'am takyugohinda fido bir jonimiz bordir,  
Ko'ngil abdoli ishq o'lmish, kelur qurbonimiz bordir,  
Avval birdir, oxir birdir, zohir birdir, botin birdir.  
Chu hildik, birliga erdik, shukur irfonimiz bordir,  
Safiyullh, Xalilulloh, Asadulloh demish billoh,  
Bihamdullahki, hulardan qadim arkonimiz bordir.*

Nazmning ohangi g'oziyalarning harakatiga hamohang edi. Go'yoki, ko'ngillarda ko'rinmagan jang nog'orasi chalinar, harbiy qo'shiqlar kuylanar, muridlar Murshid uchun, Shayx o'g'li Shohning yo'lida, dinu diyonat yo'lida, dunyoda haqiqatni barpo etish, sunniy—yazidiy deb hisoblaganlari Shirvonshohlardan shahid Shayx Haydarning qasosini olish uchun qurbon bo'lishga chaqirardi.

Hijoziy tuyalar pishqirishar, arab otlari kishnar, yetti bo'yin ho'kiz qo'shilgan yuk va ozuqa aravalari g'ichirlardi.

Qo'shin ilgarilab borardi.

\* \* \*

Qoya ustida ko'chganlaridan keyin uch kun o'tdi. Kechagi kungacha atrofda begona odam ko'rinmasdi. Ilk qo'rquv, hayajon o'tib ketdi. Odamlar ehtiyotkorlikni unutishgandi. Qiz-juvonlarini ko'zalarini ko'tarib, Gunashli daryosiga borishar. zahmat chekib, qoyaning boshiga suv chiqarish lozimligini maslahat qilishardi.

Uchinchi kuni Oytekin barvaqt uyg'ondi. Oyoq-qo'li chaqqon qiz edi. Onasi Kumushbekadan tezroq uyg'onar, hovli-haramni supurar, mol-holga qarardi. Hozir hovlilari bo'lmagani uchun mollarni ham akasi Guntekin odamlarning suruviga qo'shib olislarga haydab ketgani bois, qiladigan ish qolmagandi.

Otasi ham ko'rinmasdi. Qayoqqadir ketgandi. Suv tashishdan boshqa ishi qolmagandi. Ko'zasini ko'tarib, suvga yo'l oldi. Yo'l ancha uzoq edi. Qiz jayrondek chaqqonlik ila qoyadan-qoyaga, toshdan-toshga sakrab, qo'nalg'adan Gunashli sohiliga tushdi. Katta-kichik toshlar orasida na'matak, anjir, anor butalari ko'zga tashlanardi. Qiz har-har zamonda egilib tog'ne'matlaridan bahra olar. ba'zan qirmizi mevalardan peshonasiga xol qo'yardi.

U Gunashliga yetganida, quyosh endigina ko'kka balqqan edi. Qiz sohilga yetdi. Daryoning tiniq suviga yuz-qo'llarini yuvdi. Sohildagi xarsang ustida o'tirib, oyoqlarini suvga tashladi. Xuddi bolalik chog'laridek oyoqlari bilan suvni haydadi. O'z harakatidan o'zi kulimsiradi. Turib ko'zasini suvga to'ldirmoqchi bo'ldi. Shu payt kimdir uni kuzatayotgandek tuyuldi. Beixtiyor boshini ko'tarib, olislarga qaradi va tosh qotdi.

O'n qadam narida unga notanish bir yigit qarab turardi. Egnida hozirgacha u ko'rmagan qizilbosh g'oziyalarining kiyimini kiyib olgandi. Ko'rinishidan boy oilaning farzandi ekani bilinib turardi. Egniga chiy duxoba sholvor, oq ipak yaktak ustidan yoqasi uzun chakmon kiygan, beliga kumush kamar taqqan, unda alvon toshlar ila bezatilgan xanjar osilib turardi.

Tagidagi otning egar-jabdug'i ham kumush bilan sayqallangan. ot ustiga zarhal yopinchiq tashlangan, otning jilovi ham ajabtovur ohanjamalar bilan ziynatlangan edi.

Aftidan yigit ham, kutilmaganda qiz bilan yuzma-yuz kelib qolgani sababli hayratlanib qarab turardi. Qizning mayin, oppoq oyoqlari, qo'llari, oqqushnikidek silliq bo'yni, yelkalarini tutib turgan kokillari, moviy suvlarga shafaq tarovatini berayotgan ol yonoqlari askarning haris nigohlarini o'ziga sehrlab olgandek edi.

Oytekin seskanib ketdi. Sakrab o'rnidan turdi—da, toshdan-toshga sakrab qochishga tushdi. Ammo shoshganidan suvga yiqilib tushishiga sal qoldi. Qizning dovdirashi yigitga jur'at bag'ishladi. Hatto kula boshladi. Qiz esa ko'zasini tashlab qochib horardi. Qo'rquv va hayajondan o'takasi yorilgudek edi. Ortdan yigitning xitobi eshitildi:

—E, qiz, shoshma, shoshma, nega qochyapsan?

Oytekinning xayolida faqatgina dushman suvoriysidan qochib qutulishdan boshqa narsa yo'q edi. Qoyalar ostiga yetgach, orqasidan hech kim quvmayotganini payqadi. Eng baland toshning tagida to'xtadi. Qo'rquvdan, qattiq yugurganidan yuragi ko'krak qafasini teshgudek tipirchilardi. U xarsang panasida ancha turgach, atrofga bo'ylandi. Ko'zasini borib olishga yuragi betlamadi. Faqat o'zi va qabiladoshlari biladigan lahm orqali qo'nalg'aga qaytdi. Lahm og'zida otasi Muhammad bulut turardi. Qizini ko'rib, hayratlandi:

—Qayerdan kelyapsan. Oytekin?

—Daryodan, dada.

Qizning qo'lidagi obkash va ko'zani ko'rmagan otasi yana so'radi:

—Daryoda nima qilayotganding, qizim?

—Suvga boruvdim.

—Suving qani?

—Ko'za... sohilda qoldi, dada.

Bulut endigina qizining rang-ro'yiga e'tibor berdi. Uning holatidan sergaklandi:

–Senga nima bo‘ldi. Oytekin? Nega ranging oqarib ketgan?  
Qiz otasining pinjiga kirib ho‘ngrab yubordi:

–Daryoning bo‘yida begona bir odamni ko‘rib qoldim.  
Otliq, qurolli odam.

–U ham seni ko‘rdimi?

– Ko‘rdi, dada. lekin indamadi. Qo‘rqib qochib ketdim. U ham otini minib uzoqlashdi.

–Sening qaysi tarafga ketayotganingni ko‘rmadimi?

–Yo‘q, qochib katta bir toshning tagiga bekindim. Aftidan, qayerga yo‘qolganimni payqamay qoldi.

–Yaxshi, qizim, uyga qayt! Guntekinga ayt, ovqatini yeb bo‘lgan bo‘lsa, oldimga kelsin.

Keyin qizining peshonasini siladi. Iyagidan ko‘tarib, ko‘zlariga qaradi. U haligi suvoriy qiziga biror nojo‘ya harakat qilgan–qilmaganini otalarga xos qo‘rquv va g‘azab hissi ila bilmocqchi edi. Yo‘q, bu ko‘zlarda toptalgan nomus izlarini ko‘rmadi. Otaning yuragi biroz sokinlashdi. Qiz o‘sha dushman askarini o‘ylarkan, birdan ukasi esiga tushdi:

–Dada, Guntekin mollarimizni qayerda boqqani chiqargandi?

–Qonliqishloqda. Qo‘rqma, u yerni jin ham topib borolmaydi.

–Ukam qaytgan bo‘lsa, mollarning yonida kim qolgan?

–Chechak xolaning o‘g‘li bilan Samandar tog‘ang.

Qonliqishloq atamasi ham qizning yuragiga xavotir soldi.

–Dada, u yerni nima uchun Qonliqishloq deyishadi?

–Keyin, fursatini topib aytmib beraman, qizim, Tarixi juda uzun. Senga faqat shuni aytishim mumkinki, bir paytlar katta bobolarimizdan birining qizi qabila joylashgan hududni dushmanga ko‘rsatib beradi. Ma‘lum bo‘lishicha, Qiz dushman sarkardasini sevib qolgan ekan. Buni eshitgan ota o‘z o‘g‘liga qarata, qizini o‘ldirishni buyuribdi. Shuning uchun nomi Qonliqishloq bo‘lib qolgan ekan. Hozir vaqtim yo‘qroq, keyinroq gaplashamiz bu haqda.

Otaning qisqacha hikoyasi biroz oldingi tushunchalari bilan bog'liq edi. Ammo yana ota qalbi shubhalardan g'olib keldi. Qiziga taskin berishga urindi.

– Qo'rqma. inshoolloh, bu balodan ham eson–omon qutulamiz. Ammo, aytib qo'y, qishloqning qiz–juvonlari bu yo'ldan boshqa o'tishmasin. Hammamiz Guntekin ochgan so'qmoqdan yuramiz. Albatta, bu biroz og'ir, ammo boshqa choramiz yo'q. O'zingni qo'lga ol, dono qizim. Hozir zamon shunaqa, sizlar ham er yigitlar singari dushmanga qarshi mardona turishingiz kerak. O'limdan qo'rqmang. Borib, Guntekinning chaqirib kel.

Qiz ho'ngrab yubormaslik uchun lablarini qattiq tishlab, ko'zlarini ro'molini uchi bilan artdi. Keyin bir muddat otasining yelkasiga bosh qo'yib turdi. Uning gaplariga diqqa ila quloq soldi. Har bir so'z uning quloqlariga sirg'adek taqilar, yurak – yuragigacha kirib borardi.

–Shu yerga kelsinmi?

– Yo'q, Urfulla amakingnikiga. Men ularning yerto'lasida bo'laman.

Oytekin ancha sokinlashgandi. Ketmoqchi bo'lganida, otasi to'xtatib qoldi.

–Dushmanni ko'rganingni onangga aytma, siqilib yurmasin.

–Xo'p bo'ladi, dada.

Qiz tor so'qmoq bo'ylab tepaga, qo'nalg'aga yo'l oldi. Shoshardi. Uyga yetib borganida, Guntekin tushligini yeb bo'lgan, dalaga chiqishga hozirlik ko'rardi.

– Dadam chaqiryapti, Guntekin, seni Urfulla amaking yerto'lasida kutarkan.

– Yaxshi.

Yigit eshikdan uzoqlashdi. Oytekin ham otasining topshiqklarini qizlarga va onasiga yetkazish uchun yo'lga tushdi.

\* \* \*

Yosh suvoriy bir kun avval quzg'unga o'q uzgan Rahimbey edi. Yosh bo'lsa–da, qo'shinda ancha hurmati bor edi. Yosh,

kelishgan yigit edi. Xulqi ham joyida edi. Shayx o'g'lining eng yaqin, sadoqatli muridlaridan biri edi. Ibodatlarini vaqtida ado etar. Bayrambey Qoramondidek tagli–zotli odamning jiyani, shohning xos davrasiga yaqin, boy oilaga mansub edi. Yigit tog'asining qo'li ostida yaxshigina jangovar tayyorgarlikdan o'tgandi. Bayrambey har doim Rahimbey nafaqat jangga, ilm–fanga, o'qishga yozishga ham rag'bat ko'rsatganida, shohning yaqin a'yonlaridan biriga aylangan bo'lur edi, deya taassuflanardi. Endilikda uning kelajagi faqatgina qilichga, harbiy salohiyatiga bog'liq bo'lib turardi. Undan buyuk bir sarkarda chiqishi kutilayotgandi. «Yaxshi yigit tog'asiga tortadi» deydi donolar. U ham Bayrambey Qoramonga tortgandi.

Rahimbey daryo bo'yidagi sirli malak g'oyib bo'lgach, shartta otiga sakrab mindi. Keyin lashkargohga yo'l oldi. Lashkargoh qabila ahli tashlab ketgan qishloq etagida tiklangandi. Hukmdor, amirlar va sarkardalarning chodirlari ham shu yerda, qarshida tepalikda qurilgandi. Yigit olg'a borarkan, atrofida qarab, boyagi qiz haqida xayol surardi.

«Kim bo'ldi bu qiz? Nega bu kimsasiz kengliklarda bir o'zi yuribdi? Balki men bu qizni shunchaki tushimda ko'rgandirman?»

Yo'q, u qizni aniq–taniq ko'rdi. U nozik, bejirim oyoqlari bilan suvni chayqaltirib o'tirgandi–ku? Rahimbeyni ko'rishi bilan cho'chib tushgani ham ko'z o'ngida turibdi. Qayerga qochib ketdi? Balki, yo'l boshlovchi «g'ayridinlar» deb atagan qabila vakillaridan birimikin? Nima bo'lganda ham, daryo bo'yida odam qorasiga duch kelganini tog'asiga aytishi shart. Balki bu ma'lumot unga asqotib qolar? Lekin bu xabar bechora qizga va uning yaqinlari biror ziyon yetkazsa–chi? Rahimbey har qanday vaziyatda bu ohu ko'zlarda biror qo'rquv, g'am–andug' paydo bo'lishini istamasdi.

Rahimbey lashkargohga yetib keldi. Tog'asi Bayrambey chodir oldida yo'l boshlovchi Omil bilan nimalarnidir gaplashib turardi.

– Salom, tog'a!

– Tuzukmisan, Rahimbey? Ertalabdan yo'l bo'lsin?

– Daryo bo'yiga tushgandim.

Bayrambey otidan tushib, jilovni xizmatkorga tutqazgan Rahimbeyga boshdan–oyoq nazar soldi. Yigitning xuddi o'zinikiga o'xshagan qaldirg'och mo'yloviga, yoshlik tarovati barq urib turgan, quyoshda qoraygan yonoqlariga, qalin qoshlari orasida chaqnab turgan o'tkir ko'zlariga tikildi. Hatto har zamonda mo'ylovining uchini chimdib qo'yishlari ham xuddi o'zi.

–Tonggi sayrning foydalari ko'p, jiyan!–dedi.

Rahimbey tog'asiga yaqinlashdi.

–Tog'a... daryo bo'yida bir odamni ko'rdim.

U «qiz ko'rdim» demadi. Bayrambey ham, yo'l boshchi ham shu gapni kutib turishgandi. Ikkovi ham yalt etib yigitga qarashdi.

–Qayerda?– so'radi Bayrambey.

Rahimbey o'ng qo'lidagi qamchining uchi bilan daryoning yuqori o'zani tarafga ishora qildi.

–Ho'o', anavi tarafda.

–U odam qayerga qarab ketdi?

–Bilmadim, meni ko'rishi bilan qoyalar orasiga kirib ketdi.

Bayrambey shubha aralash yo'l boshchiga tikildi.

–Kim bo'lishi mumkin? Shirvonshohning ayg'oqchisimikan?

Yo'l boshchi ikkilanib boshini chayqadi:

–Bilmadim, aqlim yetmay qoldi. Shirvonshoh Farrux Yasor Gabala taraflarda qo'shin to'playotgandi. Shamahi bo'sh turibdi. O'g'li G'ozibey ham Boku taraflarda ekan. Buni aniq bilaman. Bu odam mana shu atrofda yashaydigan g'ayridinlardan bo'lsa kerak. Biz kelayotganimizni eshitib, qochishgan. Shu yaqindagi tog'lar orasida bekinishgan bo'lsa kerak. Biz qilich kuchi bilan bularni imonga kiritishimiz kerak. Yo'l–yo'lakay. Bu ishimiz Allohga ham xush keladi.

\*\*\*\*

... Omil bu atrofda qabilalar bilan uncha kelisholmasdi. Bu orada Rahimbey ikki navkar arang sudrab kelgan qum to'la qopni qo'lga olib, bir necha bor yelkasiga oldi, Boshi uzra ko'tarib, mashq qildi. Bayrambey Omil bilan gaplashib turarkan. Jiyaning har bir harakatini diqqat bilan kuzatardi.

—Yaxshi, unda sen borib, Rahimbey aytgan joylarni yaxshilab tekshir. Men ham bu masalani qiblai olamga aytay.

Rahg'imbey qo'lidagi qopni bir qo'lidan ikkinchisiga o'tkazib o'ynarkan, keyin chaqqon harakat bilan uni ikki navkarning o'rtasiga uloqtirdi. Navkarlar sapchib tutshishdi. Bayrambey faxr bilan, Omil yaltoqlanib kulimsiradi. Rahimbey darhol otga minib, boyagi tarafga qarab yo'l soldi. Nazarida u o'sha qizni yana uchratib qoladigandek edi. Omil yigitning ortidan borarkan. Bayrambey shohning chodiriga qarab odimladi.

Sekin—asta ot surib borayotgan suvoriylar biroz avval Rahimbey xayoliy malagini uchratgan joyga qarab borisharkan, yigitning qalbida bir titroq uyg'ondi. Kattakon bir ko'zaning og'zi suv tarafga yonboshlagancha to'ng'ayib yotardi. Nahotki qiz ham shu atrofda bo'lsa? Yo'q, ayni paytda boyagi orzusiga qarama-qarshi o'laroq, bu qiz uzoqlarda bo'lishini istardi. Omil uni ko'rmasligi kerak.

Shu payt ortdan otlar dupuri eshitildi. Bayrambey va hukmdor shu tarafga ot choptirib kelishardi. Hukmdor odatiga ko'ra niqob taqqandi. Omil va Rahimbey darhol chetga chiqib yo'l bo'shatishdi. Jilovni chap qo'lga olib, o'ng qo'llarini ko'kraklariga qo'yishdi. Rahimbey shu onda qizni ham, xayollarini chetga surib, shohga tikildi. Muridlari hali toj kiydirish marosimi o'tkazilmay turib, podshoh deb nomlagan bu yigitning kichik bir ishorasi bilan uning yo'lida jonidan kechishga—da shay turishardi.

Ismoil ularga yuzlandi:

—Sen o'sha odamni shu yerda ko'rdingmi, Rahim?



–Shundoq, hukmdorim, shu yerda.

–Qachon?

–Boyagina, a'lohazrat.

–Qayerga g'oyib bo'lganini ko'rmadingmi?

–Diqqat bilan qaradim, qiblagoh, toshlar orasida ko'zdan yo'qoldi. Yerga kirgandek g'oyib bo'ldi. Ehtimol qayergadir bekingandir? Men ketishim bilan balki yana chiqib ketgandir? Rahimbey shohga toshlar orasini ko'rsatdi.

Qoyalari bu yerda xuddi askarlardek bir tekisdan saf tortgandi. Tog'asi nimadir demoqchi bo'ldiyu, nimanidir o'ylab fikridan qaytdi. Qolaversa, undan hech kim hech narsa so'ragani yo'q.

Uning fikrini xuddi o'qib turgandek, hukmdor kutilmaganda Bayrambeyga o'girildi:

–Chorvador yo'l boshchingiz nima deyapti?

Yo'l boshchi Omil oldinroq chiqib, boshini quyi solganча duduqlandi:

–Onhazrat, bu qoyalarga hatto qush ham qo'nolmaydi. U yerga odamzot qanday chiqa olishi mumkin?

–Balki narigi tarafdin chiqish yo'li bordir?

–U taraf ham yalang qoyalardan iborat. Qadam qo'yishga joy yo'q.

Omilning chechanligi Ismoilning ensasini qotirdi:

–Har qalay bu yerga odam osmondan tushib qolmagandir? Narigi qirg'oqqa o'taylik–chi, balki biror nimaga ko'zimiz tushar?

Shoh so'zini tugatishi bilan daryoga ot soldi. Daryoning o'rtasida suv girdob yasab aylanar, ilingan narsni o'z komiga tortardi. Hozir ulkan otni ham bu girdob o'z qa'riga olishga intilardi. Ammo, Bayrambey shohning asov Kur daryosidan ham bemalol kechib o'tganini o'z ko'zlari bilan ko'rgan.

Shu sababli torgina daryodan o'tish unga mashaqqat tug'dirmaydi. Ammo, kutilmagandla sel kelib qolishi ham

mumkin. Chunki bunaqa kichik daryolarda bahor paytida kutilmagan holatlar tez–tez beradi.

Bayrambey bir zumgina shularni o'ylab turarkan, hayajonlandi. Nimadir demoqchi, shohni xabardor etmoqchi edi. ammo Ismoil o'zi otning qorniga urilayotgan suv tobora chuqurlashib borayotganini payqab, ulovini chapga, oqimga qarab burdi. Oqim bo'ylab, otini jilovini bo'sh qo'yarkan, suv zarralari ot tuyoqlari zarbidan favvora bo'lib ko'kka o'rlardi. Xullas. Shohning ortidan Bayrambey va ikki navkar narigi sohilga eson–omon o'tib olishdi.

Qarshi sohildan ham azim qoyalar ustidan biror tirik jon qorasini ko'rolmadilar. Uy, chodir yoki ungurlardan asar–alomat ko'rinmasdi. Otliqlar boshlarini ko'tarib, ancha alanglashdi. Ular ot choptirib, Gunashli daryosining har ikki sohili bo'ylab, yalang'och, baland qoyalar bilan o'ralgan eng so'nggi bo'g'oziga qadar borishdi. Baribir hech nima topisholmadi.

Orqaga qaytisharkan, yana ko'zlarini qora devorga o'xshash qoyalardan ko'z uzmay ilgarilab borishardi. Birdan hukmdorning e'tiborini daryo suvi bilan birga qoya ostidagi kattakon o'ra tortdi. Bu g'orni suv teshib ochgan. o'ra emas, u inson qo'li bilan ochilgan tuynukka ko'proq o'xshab ketardi.

Ismoil otining jilovini tortdi. Sekin odimlatib yura boshladi. Diqqat ila g'orning og'ziga tikildi. Yonidagi soqchilarga nimadir deb, ularning ham e'tiborini o'sha tuynukka qaratgan chog'da, o'radan ikki qo'l chiqib, ko'zani suvga botirdi va zum o'tmay g'oyib bo'ldi.

Izohga hojat qolmagandi. Boshqalar ham bu ko'za va qo'llarni ko'rib ulgurishgandi. Birinchi bo'lib Omil so'z boshladi:

–Gavrlar o'sha yerda, qiblai olam! Ular tepadan lahm qazib tushishgan ko'rinadi. Suv olish uchun qoyani teshishgan.

–Hammasi oshkor bo'ldi!

Bayrambey yo'l boshchiga ta'nali tikildi:

–Demak, qoyaning tepasiga tog' tomondan yo'l bor, to'g'rimi?

–Shunaqaga o`xshayapti, taqsir!

–Bayrambey, – amr qildi hukmdor. Hoziroq tayyorgarlikni ko`r. qoyalarning atrofini qamalga olishsin.

–Bosh ustiga qiblai olam!

Rahimbey otini hukmdorning oti bilan yonma–yon surib borarkan, yolvorgandek so`z qotdi:

–Mening guruhimga izn bersangiz, qiblai olam!

Hukmdor niqobi ostidan o`zidan bir–ikki yosh kattaroq bo`lgan sodiq mulozimiga qaradi. Rahimbeyning chap qoshi ustidagi tirtiq qizarib turardi. Podshoh bu chandiq tarixini yaxshi bilardi.

Bu hodisaga hali bir yil bo`lgani yo`q. Yodida: o`sha paytlar Lahijonda o`tgan olti yildan so`ng Mirzaali Hakimning mehmondo`st saroyini tark etib, o`z odamlari bilan Ardabilga yo`l oldi. Lekin Ardabil hokimi Jayirli Sultonalibey Alvand Mirzoning nomidan uni shaharga kiritmadi. Hali yosh Ismoil boshiga shohlik tojini kiymagandi.

Qo`l ostidagi 1500 qizilbosh otliq ichidan eng yaqin mulozimlari Lala Husaynbey, aka–uka Rustambey va Bayrambey Qoramonlilar, Xinishli Ilyosbey, Ayquto`g`li, Qora Piribey Qojorlar bor edi. Daylamdan o`tib, Talish hokimining roziligi bilan Astaraga o`tishdi. Qishni Arjuvonda o`tkazishdi. O`sha hodisa ham shu yerda yuz berdi. Demak, Alvand Mirzoning roziligi bilan Jayirli Sultonalibey Ismoilga qarshi suiqasd tayyorlabdi. O`sha kecha Ismoilning chodiri qarshisida Bayrambeyning odamlari, eshik olida esa, uning jiyani Rahimbey qo`riqchilik qilishardi.

Rahimbey shu qadar sezgirlik qildiki, o`sha kecha ko`zda tutilgan suiqasd fosh bo`ldi, Ismoilning jonini asrab qoldi, o`zi esa boshidan jarohat oldi. Xuddi shu payt Shirvonshoh Farrux Yasor Tolish hokimiga ming tuman mukofot yuborib, Ismoilni berishni so`raganidan xabar topishdi. Yarador Rahimbeyni ham o`zlari bilan olib, Arjuvonni tark etishga majbur bo`lishdi. Safar

payti uni ot ustida, kajavada olib yurishdi. Safar bir yilga yaqin davom etdi.

Xullas, vaqtlari yo'lda o'tdi. Har ikki xiyonat qizilbosh amirlaridan bo'lgan Bayrambey va Rahimbeyning qo'li bilan ochildi. Shu bois ularning darajasi Ismoil va uning yaqinlari nazarida ancha yuksaldi. Arjuvondan chiqishda Rum, Shom va boshqa hududlarga jarchi yuborildi. Ular din yo'lida, shayx Junayd va shayx Haydarning qotili bo'lgan Shirvonshohlarga qarshi kurashda odamlarni birlashishga chaqirishardi.

O'zlari esa, Qoraboqqa, Go'ychaga kelishdi. Go'ychada Qoraqo'yunli amirlaridan Sulton Husayn ham Ismoilga qarshi xiyonat va qatl majlisini tashkil etdi. Lekin qizilbosh amirlari uning tilyog'amaligiga uchishmadi, Ismoilni Chuqursadga o'tkazib yuborishdi. Majlisga o'zlari borishdi. Shu tariqa amirlar o'z murshidlarini bir suiqasddan xalos etishdi. Arzinjonda barcha qizilbosh amirlarining qurultoyi chaqirildi. Ismoil majlisga hammadan oldin yo'l oldi. Safarlari og'ir bo'lishiga qaramasdan, Rahimbeyning ahvoli yaxshilanib borardi. Shu tariqa, Chuqursaddan Ismoilning aynan sadoqatli Qoramoni avlodining vakili kuzatib bordi.

Arzinjonda ikkita muhim qaror qabul qilindi. Birinchisi, safaviylarga qarshi adovatda bo'lgan Shirvonshoh Farrux Yasorga qarshi kechiktirib bo'lmaz urushni boshlash, ikkinchidan, urush uchun moddiy mablag' va zahira to'plash.

Shu tariqa, talon-toroj yo'li bilan zahira to'plash uchun Xinisli Ilyosbey Mantash qal'asiga, Xulafobey esa, Axalsixga borib, zahira hozirligini ko'rishdi. O'sha yerda Farrux Yasor din dushmani deya e'lon qilindi. G'oziyar g'azotga kirib, Arzinjondan Shirvonga yo'l olishdi. Endilikda Ismoilning qo'li ostida yetti mingdan ortiq otliq, o'shancha piyoda g'oziy askarlar bor edi. Arzinjondan shu yerga qadar uning chodir qorovuli, shohning xos sarkardasi Bayrambey Qoramoniylarning g'oziyarlari va ular orasida jiyani Rahimbey bor edi.

Ismoil hozir ham ko'ziga qontalash bo'lib ko'ringan shu jarohatni qoshi ustida olib yurgan bu yosh g'oziyning g'ayrati sabab eson-omon Shirvonga yetib kelolgan. uchta yirik halokatdan omon qolgan, muzaffar sarkarda va hukmdor sifatida qadim Shirvon tuprog'ini fath eta boshlagandi. Butun bu qirg'inlar birodarkushlik mojarolari uning qalbidagi she'r go'shasiga yetganida, g'ayriixtiyoriy tarzda bir sahnani xotirlardi.

«Bolaning xotirasi o'tkir bo'ladi», deyishadi. Hozir hukmdor bolaligida ko'rgan voqealarning barini kattakon bir ko'zguda tomosha qilayotgandek ayon ko'ra olardi. Otasi Sulton Haydarning xohishi bilan Olamshohning ukasi Sulton Ya'qub ibn Uzun Hasanning yoniga yo'l olishgandi. Ketayotganida onasi hali emizikli Ismoilni ham o'zi bilan olgandi. Usiz bir lahza turolmas, ham bolani tog'asiga ko'rsatgisi kelardi. Sulton Ya'qub u paytlarda Tabrizda turardi. Ismoil hamma narsaga katta qiziqish bilan qarar, yoshiga nisbatan ancha ziyrak va zehnl edi.

U yerda bir necha kun qolishdi. Shu vaqt oralig'ida aka-singil mazhab masalari haqida ancha bahslashishdi. Oxirida Sulton Ya'qub tog'asining bir so'zi bolaning zehnda muhrlanib qoldi: «Aziz singlim, sen eringning yonini olish bilan bizni mahv etasan. O'z ota uyingga, aka-ukalaringga dushman bo'lib qolasan. Butun dunyo biladiki. Shirvon ahli sunnaga mansub. Sening ering esa, ularga qarshi. Biz esa, sizga qarshimiz. Agar davlat ishlarini, siyosatni oz-moz tushunolsang, buvimiz Sora xotunning yo'lidan borishni istasang, yaxshilab o'ylab ko'r. Kimga ta'sir o'tkazish to'g'ri ekanini o'zing anglab yet. Birodarkushlik kimga foydayu, kimga ziyon keltiradi? Har qalay bilamanki, eringning orzu-havaslariga qarshi chiqib, bizning yo'rig'imizga yurmaysan. Chunki, uning g'alabasi sening zafaringdir. O'zing qaror chiqar»

Butun bu xayollar bilan ham Ismoil yigitga javob bermas. «sen meni xavf-xatardan asrab qolding, men ham seni asrab qolishim kerak» deb o'yvardi.

Lekin bu yerda xatarning o'zi yo'q. Kichik bir toifa. qabila tog' etagidagi g'orga berkinib olgan xolos. Gavr bo'lishsa ham, Omil aytganidek juda qaysar odamlar ekan. Har qalay shu tog'ning orasidan makon topib, jon saqlashning o'zi bo'lmaydi. Ular bilan jang qilish ham xavfli bo'lishi kerak. Ba'zan butun boshli qo'shından jondan to'ydən bir to'da ahmoqlar ustun kelishi mumkin. Buni unga Xulafobey ham, Lalabey ham bir necha bor aytishgan. Dushmanni o'zidan ojiz deb bilgan sarkarda eng uquvsiz sarkardadir

Ismoil o'ng qo'lini undan biroz oldinroqda borayotgan Rahimbey tarafga uzardi.

—Nima bo'lganda ham ehtiyot bo'l, Rahimbey! Sening birgina tirnog'ing mingta gavrning boshidan ko'ra qimmatlidir biz uchun.

Rahimbey eshilib, hukmdorning oq, chiroyli, biroq qilich tutganidan biroz dag'allashgan qo'llarini ko'zlariga surtdi. Yigitning ana shunday havas, sadoqat va g'ayrat ila bu amrni qabul qilishi hukmdorning shoir qalbida yengil bir taassuf uyg'otdi. Ko'z o'ngida boshqa bir manzara jonlandi.

U o'shanda o'limni ilk bor yaqindan ko'rgandi. Aslida u juda ko'p o'limlarni ko'rgan. O'q bilan, xanjar va zahar bilan o'ldirilgan maqtullarni tomosha qilgan. Bu bu qatllarning aksariyati boshqalarning qo'li bilan, navkar, xiyonatkor yoki jallodning qo'li bilan amalga oshirilgan edi.

O'shanda u ilk bor o'z qo'li bilan qilich zarbasi ila bir boshni tanasidan judo qilgandi. Shoirona qalbli yigit uchun bu manzara bir muncha dahshat va hayrat aralash taassuf hissini uyg'otgandi. O'sha lahza, faqat bir lahzagina qotib qoldi. U o'z qo'li bilan bir insonning hayotiga nuqta qo'ygandi.

Bu kimsa ham yosh, ham tajriba, ham jussasiga ko'ra ancha katta odam edi. Ehtimol bir oilaning egasi, bir qancha farzandning otasi bo'lgandir?

«Xalloqi olamning lufu marhamati ila baxsh etilgan jonni boshqa bir banda tortib olishi haqlimi?» bu savol uning miyasidan

bir ongina chaq nab o'tdi xolos. Shu asnoda otalig'i Lala Husaynbey va Bayram Qoramond i bir ovozdan uni olqishladilar:

–Ofarin hukmdorim, qilichingiz doim keskir, zarbangiz hamisha qudratli bo'lg'ay.

Shu lahzada u Rahimbeyning ham ko'zlarida porlagan havas va farah sochib turgan nigohlarini ko'rib, xiyla dadillangandi.

Do'stlari hamisha uni o'ng va chap tomondan qo'riqlab borishardi. U ham yoshlikka xos jasorat va shiddat bilan o'ngu so'lidagi g'animlarni yanchishga kirishdi. Ilq sachragan qon uning ko'zlarini bosgan, miyasini g'ovlatgan, shoir yuragida tug'ilgan taassuf va shafqat hissini surib tashlagandi.

Ilk o'limdan bir kun o'tib, uning otalig'i va murabbiysi o'rtasida g'alati muloqot kechgandi. Murabbiy otaliqqa shunday degandi:

–Balki, hokimiyatni o'zing qo'lga olarsan? Bu go'dak qilichdan ko'ra kitobga ko'proq e'tibor beradiganga o'xshaydi. Undan biror ish chiqmaydimi, deb qo'rqaman.

Otaliq javobni hayallatmadi:

–Siz xavotir olmang, Uning yuragiga zulm va nafrat urug'ini ekanman, hatto uncha–muncha jallod ham uningdek shafqatsiz bo'lolmaydi. Hali ko'rasiz, bunday jasur va yovqur sarkardaning dovrug'i dunyoni tutadi. Shoir ekanidan o'zi ham uyaladi. Mening hokimiyatimga keladigan bo'lsak, bu haqda o'ylab ham ko'rganim yo'q. Shayx Safiyuddin ning avlodlariga muridlari sidqidildan e'tiqod qilishadi. Uning ortidan ko'r–ko'rona ergashishadi. Bizga keragi ham shu!

Bu muloqotdan Ismoil xabar topmagan bo'lsa–da, jang maydonlarida u murabbiysini bir necha bor hayratga sola oldi. Demak, muallimlar ham xato qilishlari mumkin ekan.





## BIR QABILANING OXIRI (davomi)

Qamal kutilganidan ko'ra uzoqroq davom etdi.

Hukmdor va sarkardalar qo'shinga jangni boshlash bo'yicha ko'rsatma berishdi. Ularning boshchiligida g'oziyalar Shamahiga yo'l olishdi. Sohilda faqat Rahimbeyning odamlari qoldi. Ular bir kun ichida qoya ustidagi qo'nalg'a keyinchalik «Govurqazma» nomini olgan qo'nalg'aga qayta-qayta hujum qilishdi. Lekin faqat bir odam o'ta oladigan tuyruk olida bir qancha qurbon berib, ortga qaytishdi.

Rahimbeyning sabri tugab borardi. Shoh uning yo'liga muntazir edi. U govurlarni tog'dan tushirib, shialikka da'vat qilishi lozim. Xuddi shu paytda g'oziyalardan biri to'yruk og'zida jang qilayotgan yigitlarni birining bo'yniga kamand tashlab, asir oldi va Rahimbeyning huzuriga olib keldi.

Rahimbey taxminan o'zi bilan tengdosh bu yigitning yuzida tanish chizgilarni ko'rganida, hayratdan o'zini to'xtatib tura olmadi. U umrida bu yerlarga kelmagan, yigitni ham uchratmagan, uni tanimasdi. Bu tanishlik nima bilan izohlanishi mumkin? Bu yigit bir kun avval daryo qirg'og'ida ko'rgan qizning akasi Guntekin ekanini u qayerdan bilsin?

–Seni dini mubinimizning muqaddas arkonlariga rioya etishga chaqiraman. Qabul qil va qabiladoshlaringni ham bu dinga chaqir. Taslim bo'linglar, behuda qon to'kilmasin.

–Allohga shukurki, biz hammamiz musulmonmiz, aka-ukalarim ham, men ham...

–Men seni shia e'tiqodiga da'vat etaman.

–U nima degani, tushunmadim, og'a?

–Kalimai shahodatini ayt.

–Ashhadi alla ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rosuvluhu.

–Qo'shimcha qil: Ashhadu anna Aliyan valiyulloh.

–Nima uchun?

–Paygʻambarimizning oʻrnilariga vasiy boʻlgan Aliyul-Murtazo, Shohi Mardonni tan olmasanmi?

–Bir Alloh bir paygʻambar va bir kitobi bor dinning yana boshqa bir valiyga ehtiyoji bormikin?

–Qabilangiz oqsoqollarini chaqir!

–Qabul qilishmaydi!...

Savo–javob anchaga choʻzildi. Yigit oʻzi shialikni qabul qilmaganga yarasha qabiladoshlari uchun omonlik ham tilamasdi. Rahimbeyning sabri tamomila tamom boʻldi. Soʻnggi chorani topgandek boʻldi. Rahimbeyning amri ila qoya ustidagi boshpanadan yaxshi koʻrinadigan yalanglikka tomon oʻtishdi. Bir payt qabilaning oqsoqollarini islomga chorlagan qariyaning mozori ustiga kelib qolishdi.

Bu yerda mozorning tekis tomli turbasi eng baland yer hisoblanar, qabilalar hukm ijrosini koʻrib qoʻrqishlari va taslim boʻlishlari mumkin edi. Rahimbeyning topshirigʻiga koʻra, xos qismdagi gʻoziylardan eng baland ovozlisi turbaning ustiga chiqdi. «Alloh» lafzi bitilgan eshik tavaqasi ustida joylashdi va qoya tomonga qarab baqirdi:

–Ey govurlar, eshitmadim demanglar! Qarang, mana bu yigit koʻzingizning oldida faxri koinotning vasiysi boʻlgan Shohi Mardonni va shialikni qabul qilmagani uchun, yazidiy shirvonshohlarga, Shayx Junaydning, shayx Haydarning qotiliga laʼnat oʻqimagani uchun din yoʻlida qatl etamiz. Sizga vaʼda berib aytamizki, agar qatldan soʻng bir soat ichida taslim boʻlmasangiz, barchangizni shu taxlit qilichdan oʻtkazamiz.

Qabiladoshlar shinaklardan nafaslarini yutib, pastga termilishar, biroq oʻzlarini sezdirishmas, pir turbasi ustida yuz berayotgan hodisalarni aniq–tiniq koʻrib turishardi.

Shu on kutilmagan holdisa yuz berdi. Ikki nafar gʻozi jallodning koʻmagida qoʻllari orqasida bogʻlangan Guntekinni turbaning ustiga olib chiqishdi. Uning boshini, gʻoziylarning biri qoʻlidan oshirib yerga qoʻygan qalqonning ustiga egishdi. Jallod Rahimbeyning ishorasi bilan yigitning boʻyniga qilich soldi.

Shoʻrlik hatto gʻiq deyishga ham ulgurmadi. Soʻnggi soniyaga qadar yalinib shatqat soʻramadi. Yigitning qoni qalqondan toshib. «Alloh» nomi bitilgan eshikni alvon rangga boʻyadi.

Qoya ustidagi qoʻnalgʻadan ohu nolalar eshitildi. Yarim daqiqa oʻtmasdan erkaklarning qarshiligiga qaramasdan, Kumushbeka bilan Oytekin oʻz koʻzlarini tirnab, boshyalang, oyoqyalang tor toʻynukdan tashqari otildilar.

Ona-bolaning yuz-koʻzlari qonga belangan. Guntekinning jasadi tomon oʻzlarini otishdi. Ularning ortidan dod-voy solgancha boshqa qari-qartanglar chiqib kelishdi. Shundan soʻng erkaklar ham ularning ortidan tushishdi. Rahimbeyning odamlari oʻz maqsadlariga bu qadar oson va tez erishganlaridan boshlari osmonda edi.

Kechga qadar togʻ tepasidagi qoʻnalgʻada bu qabila odamlaridan hech biri qolmadi. Shialikni qabul qilmaganlarning aksariyati qilichdan oʻtkazildi. Qolganlari asir olindi. Ularning asosiy qismi xotin-xalajdan iborat edi. Hammasining qoʻllariga zanjir urilgan, ularni bir necha poshon orqalaridan podadek haydab borardi.

Shirvonshoh Farrux Yasor magʻlub etilganidan keyin Shamahida qul bozori ochilishi koʻzda tutilgan edi. Sarkardalar asirlarni shu bozorga olib borishlari kerak. Savdo boshlanishidan avval hukmdorning hojibi bozorga keladi, yosh podshohga peshkash qilish uchun qul sotib oladi. Keyin gʻalaba sharafiga, Paygʻambarning qul ozod etish haqidagi hukmi ijrosi boʻyicha olingan qullarni shohi javonbaxt nomidan ozod etadi. Qolgan asirlar «kim oshdi» usulida sotiladi. Hijoz, Eron yoki Rum tomonlaragi olib ketiladi, saroylarga, amir va sarkardalarga qaytadan bir necha baravar qimmatiga pullanadi.

Bu muddat ichida qul jaloblari asir qizlar orasidan eng goʻzallarini podshohlar harami uchun tanlab olishadi, ulardan raqqosa, xonanda va navozandalar tayyorlashadi, maxsus maktablarda oʻqitishadi, keyin qimmat narxlarda savdoga chiqarishadi.

Bunday qul bozorlari har bir g'alabadan keyin katta shaharlarning yirik maydonlarida tashkil qilinadi. Bu bozorlarda faqat urushlarda qo'lga tushgan asirlar emas, Shimoliy Qo'qozdan va qo'shni mamlakatlardan qarz evaziga, ichki va tashqi to'qnashuvlar natijasida qo'lga olingan bolalar, o'smirlar, navqiron yigitlar ham olib kelinardi.

Rahimbey asirlar orasini har qancha ko'zdan kechirsa—da, bir kun avval daryo suvini nafis oyoqlari bilan chayqatib o'tirgan o'sha go'zal qizni topa olmadi. Asir qizlarning hozirgi holatiga ko'z tashlab bo'lmasdi. Ularning yuz—ko'zlari yig'idan va kaltakdan shishib ketgan, chang—tuproqqa belangan, sochlari, kiyim—kechaklariga qarab bo'lmasdi. Ular qul bozoriga olib borilayotganidan yaxshi xabardor edilar.

Avval Rahimbeyning xos harbiy qismi, orqasidan asir olingan qullar va chorva mollari karvoni (ularning joyini qabiladoshlardan biri o'limdan qo'rqib sotib qo'ygandi) borardi.

Kamoliddin va Injabel tepalik osha Shamahiga yo'l olishdi. Bir kun avval o'tib ketgan shoh qo'shinining iziga tushishdi. Rahimbey o'tib ketgan yo'lda ikki xaroba qoldi. Biri qabilaning asrlar bo'yi yashagan qishloq, ikkinchisi esa yangi solingan qo'nalga. Keyinchalik qo'shni qishloqdagilar «Qal'a qoloq» deb nom bergan bu manzilgohda hozir ham «Govurqazan» degan joy nomi saqlanib qolgan. Hayotga muhabbat, ozodlik ramzi sifatida.

Qo'shin o'tib ketdi. Jasadlar ustida kekxa quzg'un charx ura boshladi. Qo'shin Ismoilning Farrux Yasor bilan bo'ladigan mashhur jangi tomon ilgarilab borardi. Shamahiga olib boradigan yo'l bo'ylab «Aliyan valiyulloh» demagan barcha qishloqlar o'rnida kultepalar qolmoqda edi.

\*\*\*

Hazarim, daryoi muhabbatim! Yillar, asrlar o'tgach, bu hududlarda ish olib borgan arxeologlar eski qishloqlar o'rnida 25 santimert qalinlikdagi kul qatlamiga duch kelishadi.

Kunko'rmasda, Hoji Sataz o'rkachida, Chuxanni qishlog'ida, Jankan yaylovda. Berkdara ustida Hamdashquyu yurtida. Qonlilahs ustida. Qonliqishloqda. Qonlichay bo'g'ozida. Qonlitepada, (qonli joylar buncha ko'p bo'lmasa?) Tava tekisligida bobolarning qadim maskanini izlab topishadi, singan ko'zalar va laganlar siniqlarini to'plab, muzeylarga olib borishadi. Birodarkushlik urushlarini la'natlovchi dalil, isbot sifatida yoshlarga ko'rsatishadi.

Ey, dardi baloyingni olay, yana nima bo'lishini Alloh biladi. Hazarim, men yana nima dey? Nimalarni aytay? Eslaganim sari dunyo boshimda aylanadi. Har sahifasida tariximizning allaqaysi davridan so'z ochiladigan qo'lyozmalarni, har naqshida kechmishning bir nishonasi qolgan sopol idishlarni... Xullas...

Keling, qora quzg'un ta'qib qilayotgan qo'shin ortidan bormaylik. Qonli urush Chabanida bormoqda. Biz esa, Bokuga qaytaylik. Axir Shirvonni fath etish uchun kelgan shayx o'g'li shoh o'z kuch-qudratining bir qismini Bayrambey Qoramoni boshchiligida ajratib, Bokuga G'ozibeyning zimmasida qolgan Shirvonshohning qishki saroyini egallab kelishga yuborgandi. Sening sohiling tomon tushay. Hazarim! U yerda sening pokiza suvlarinigga qancha og'alar o'z inilarining qonini to'kkaniga bir nazar solaylik.

Tog'laring qanchalar Vatan farzandlari qoniga bo'yalgan, o'ynoqi, shoshqaloq to'lqinlaring sohildagi qancha-qancha qon dog'larini yuvib, oqizib ketmadi ekan? Sen ko'z yoshlar sababli sho'r, oh-nolalar sababli hazin, g'azablar bois bu qadar jo'shqinmisan, Hazarim mening?

## HUNARMANGLAR MAHALLASIDA

Bu shaharda baland devorli hovlilar yo`q. Uylar zich, bir-biriga taqab qurilgan, uylar oralab, torgina yo`laklar o`tib borardi. Xuddiki, aholi kutilayotgan falokatlar sababli bir-biri bilan jipslashib olgan, yoki usti moviy qubbali, tagi yerli bu olamda shu mo`jaz katalaklarga qanoat qilib, yerini ekin-tikin, dehqonchilik uchun asragandi.

Aholining qo`y-moli, hosili mo`l bo`lsin, deyishgandi. Shaharda hatto uylarning oldida ham qabrlar bor edi. Bu shaharda asosan zargarlik va kulolchilik rivojlangandi. Kulolchilik mahsulotlar ikki qavatli imoratlarda pishirilardi. Pastki qavatda tezak, o`tin qalab olov yondirilar, ichi loy bilan suvalgan, ust qavatda idish-tovoqlar terib qo`yilar, yoqilgan olov ta`sirida idishlar qizarib pishardi. Kulollar qishda tezak, yozda turli butalar va o`tinlarni ishlatishardi.

Xonalar ham uy egalari ishlab chiqargan idishlar bilan bezatilardi. Raflarda kosa, piyola, guldon va ko`zalar did bilan terilardi. Ularning ustida qora, qizil tusli gullar, naqshlar, shakllar solinardi.

Hovlidagi pista daraxtining shoxiga sanchilgan doskalla va o`roq uy sohibining dehqonchilik bilan shug`ullanishini ko`rsatardi.

Kulollarning hayot tarzi bir muncha keng edi. Tayyor mahsulotlarni eshaklarga yuklab bozorga olib chiqarishardi. Ularni sotib, puliga arpa olishardi. Shaharliklar bir boshdan sigir, qo`y ham boqishardi. Shahar tashqarisida yeri borlar g`alla ham ekishardi. Aholining aksariyatini dengiz sohilidagi bog`larda kichkina bir uy, biroz uzum, anjir bog`lari bor edi. Yozlarda butun lash-lushlarini olib shu bog`larga ko`chib kelishar, oltinrang qumlar ustida kishmish, husayni, og`atayi, qorashan, doroyi singari uzum navlarni yetshitirishardi. Ayollar bu hosildan qishga mayiz, murabbo, shinni, holva singari ne`matlarni g`amlab qo`yishardi.

Zargarlarning hayoti esa ixchamgina edi. Odatda ikki uyning birida ularning ahli ayoli joylashardi. Narigi xonada zargar o'z ishi bilan mashg'ul bo'lardi. Buyurtmachi va mehmonlar ham aynan shu yerda qabul qilinardi. Bu yerda zargar o'zining mo'jaz tarozizida oltin yo kumush o'lchar, eritar, turli shakllarga solib bejirim taqinchoqlar yasardi.

Biz tasvirlagan ikki xonali hovli ham zargarlardan birining xonadoni edi. Bu yerda shoxlari qo'shni hovlilarga oshib turgan ulkan pista daraxti ham bor edi.

Pistaning tagiga to'shalgan nimdosh palos ustida ikki ayol va 5–6 yoshlardagi bir qiz o'tirgandi. Ulardan biri miqti gavdali, girdig'umdan kelgan, o'z kokillari to'pig'iga yetadigan ayol edi. Boshiga ro'mol tashlab olgandi. Yoshi qirqlarga borib qolgandi. Keng, ikki baloqli tuman (yubka) kiyib olgandi. Chordana qurib o'tirgancha, qo'lidagi mis qolipga qizil baxmaldan sochiq tashlab, gulabatin tizish bilan ovora edi. Sochiq naqshlarini mis qolipning doiralariga qarab tikardi. Yonidagi qurama bo'xcha ochiq edi. U yerda gulabatin, ipak, oltin igna to'plami turardi.

Ora–sirada kerak bo'lgan ignalarni olib ishlatishardi. Ayol uy egasi zargar Dargohqulining zavjasi Xirdaxonim edi. U erining sayyor san'at ko'rgazmasiga o'xshardi. Quloqlarida asl usta qo'li bilan, muhabbat ila ishlangan alvon qoshli, nozik bezakli qirqtugma sirg'alar, bo'ynida «baliqko'z» galband, barmog'ida xotami uzuk, qo'llarida lojuvard ko'zli qo'lbog'lar bor edi. Shaharning boshqa ayollari singari, u ham bor taqinchoqlarini yechmasdi. Uyda ham, hammomda ham, to'y–hashamda ham.

Xirdaxonimning suhbatdoshi ham ikki baloqli tuman va orqalik kiyib olgandi. U tizzalab o'tirgancha, oldida turgan taroq bilan yung tarardi. Yonidagi qopdan hovuch–hovuch jun olib, tarog'iga o'tkazar, idishdan bir chimdim yog'ni barmoqlariga surtar, taralgan tolalarni boshqatdan siypalab chiqardi. Atidan, jun tolalarni ular qishki kiyimlar va qimmatbaho gilamlar uchun tarashmoqda edi. Xirdaxonimning yonida o'tirib, u bilan

havasmandlikka ishlayotgan 30–35 yoshli ayol esa, yaqin qoʻshnisi kulol Valiyullohning xotini Balaxonim edi.

Qarshisida oʻgay qizi Sokina oʻtirardi. Qizcha bukilgan tizzalariga uchidan kalava ip oʻtkazib olgandi. Bir–bir yonidagi dukchalardan ip olib kalavalar, keyin onasi koʻrsatgan usulda ipni toʻpcha qilib oʻrardi.

Balaxonim Valiyulloh bilan yetti nafar yetim bola ustiga yaqinda turmush qurgandi. Shu bois hali mahalladoshlarining hayoti bilan qadar tanish emasdi. Xirdaxonim ham hayotidagi boʻshliqni toʻldirish uchun erinmay hikoya qilishga tushgandi:

–Ha, desangiz, keyin urush boshlandi. Qoʻshin biznikilarni oʻrab oldi. Qochgan qochdi. Erim shu yerda edi. Axir podshohning jangu jadallari bilan nima ishimiz bor? Yangi tushgan kelin edim. Oʻzi oʻsha kunlar homilam nobud boʻlgandi. Ertalab erim bozorga ketgandi. Tezda qaytib keldi. Eshikda qurollangan qoʻshin yigʻuvchi yasovul turganini aytdi. «Meniyam urushga olib ketisharkan, Yaratganning ishini qara, yaxshiyam berganini darrov qaytarib olgani, boʻlmasa ikkiqat boʻlib, bir oʻzing qolarding. Endi bir oʻzing bir amallab kuningni koʻrarsan. Qaytsam, yana yashashda davom etaniz. Qaytmasam, biror yaxshi odamni topib, teg». «Bunaqa gaplarni qoʻying, tish bergan Xudo rizqimni ham berar, och qolmasman, oʻzingizdan boshqaga ravo koʻrmang» dedim. «Kelsangiz siznikiman, kelmasangiz qora tuproqnik» dedim. Xullas koʻz–yosh bilan xayrlashdik. Yetti yil yoʻliga koʻz tikdim. Tiq etsa eshikka qaradim. Xabari kelmagach, oʻzim soʻroqlab yaqin–yiroqlarni surishtirishga tushdim. Kimdir oʻldi, deb aytdi, kimdir qayerdadir koʻrdim, dedi. Xullas, umid uzmadim. Menga odam qoʻyganlarni eshikdan qaytardim. Oʻsha paytlarda mana shu gulabatin tizishni ermak qilib oldim. Qizlar uchun sepsandiq, taroqxalta, kitobjild, muhrdon, surmadon, qalpoq tikib sotardim. Bir amallab non pulimni topardim. Allohga tavakkal qildim. Erimni kutib yashayverdim. Xullas yetti yil deganda qaytdi. «Gulalining qizi, ming rahmat senga, shu paytgacha meni kutibsan, baraka top» dedi.



Xirdaxonimning ovozi eshitgan odam uni qo'shiq aytyapti, deb o'ylashi mumkin edi. Ovozida faqat qo'shiq ohangi bor edi. Balaxonim ana shu ohangga erib, ulkan muhabbatning sodda qissasini, o'ziga nasib etmagan taqdir ertagidek berilib tinglardi. Ora-sirada serkiprik ko'zlarining ostini bosma kelagayining yengi bilan artib qo'yar, jub qirqimlarini qo'lidan pullab tozalardi.

–Ko'z tegmasan, baxtli ayol ekansiz. Ilohim. Dargohquli akamiz bilan qo'sha qaring...

Xirdaxonim baxtliyorlik bilan kulimsiradi:

–Ha, o'ziga ming shukur, lekin shu bittagina tirnoqdan qismaganda... Erimga vaqtida tug'ib berolmadimda. Ancha kech tug'ildi. Ertaroq tuqqanimda hozir nevarimiz shu o'g'lim tengi bo'lardi.

Balaxonim dugonasiga tasalli bergan bo'ldi:

–E, bu ham Xudoning bir yozgani–da, sizning qo'lingizdan nimayam kelardi, egachi?

– Ha, nimayam derdim. Shu birinchi bolam turganida yaxshi bo'lardi–da! Yana Allohning bilgani bilgan. Erim ham shunaqa deydi. Har ishning bir hikmati bor. Boriga shukur. Shu bitta o'g'limizning boshi omon bo'lsin.

Eshik ochilmay turib ovoz keldi. Xirdaxonim erini yo'talidan tanidi. O'z uyiga kirsada yo'talib kirardi. Ehtimol, uyda qo'shni ayollar, nomahramlar bo'lishi mumkin. Rostdan ham, ovozni eshitishi bilan Balaxonim kelagayining uchi bilan yuzini bekitdi.

–Dargohquli akamiz keldi, men ketdim, –dedi Balaxonim.

–Bugun xo'jayiningiz tezroq qaytibdi. Biror narsa olib ketsa kerak. Uyga yur, ishimizni qilaylik.

Balaxonim shoshildi:

–Yo'q, balki non–pon kerakdir? Sen ishingni qilaver, ketsa chaqirarsan. O'zim boraman.

–Yaxshi, yaxshi.

Balaxonim dukchalarni hovlida, palosning ustiga qo'yib. Sokina bilan ichkari kirgan Dargohqulining oldidan bir amallab sirg'alib chiqdi:

–Ha, otasi, nega muncha tez qaytdingiz? Kechroq kelaman. demaganmidingiz?

Erkak un olish uchun olgan yarmi bo'sh to'ralarni pista daraxti tagiga qo'yib, sal avval xotinlar o'tirgan palosning ustiga cho'kdi. Hayajonlanayotgani sezilsa–da, o'zingi qo'lga olishga urinardi.

Qarshisida tippa–tik turgan xotiniga qaradi:

– Padariga la'nat. Bu qanday zamon bo'ldi? Usmoniyar ketsa, eroniylar keladi, eroniylar ketsa shirvoniyar keladi. Endi Shirvonshohning ham adabini berishibdi.

–Nima bo'пти?

Erkak ayolidan umrida hech narsani yashirmagandi. Nima dardi bo'lsa, Xirdaxonim bilan bo'lishardi:

– Bilasan, xotin. Ardabil tomonlarda bir shoh paydo bo'lgan. Payg'ambar naslidan ekan. Mana shu Shirvonshohlardan birovi uning dadasinimi, bobosinimi o'ldirgan ekan. Endi o'shaning qasosini olish uchun kelarkan. O'zi bu shirvonshohlar payg'ambarning dinini ham o'zgartirib yuborishgan emish.

–Ha, juda chatoq bo'пти.

– Yomon dedim qo'ydim. Besh o'n yildan beri quloqlarimiz tinchimadi. Yaxshimi–yomonmi. Shirvonshohlar davrida tinchgina yashagandik. O'zlari xalqning etini yesalar ham, suyagiga tegishmasdi. Bizni to'plab, qurilishga, hasharga olib ketishardi. Ammo qirg'in yo'q edi. Endi urush boshlansa...

–Ha, urush boshlansa oddiy xalqqa qiyin bo'ladi.

–Ha, odamlar bir–biri bilan qirpichoq bo'larkan–da! Kimdir kimnidir bobosini o'ldirgan bo'lsa, oddiy odamlarda nima gunoh? O'sha aybdorni o'zini topib o'ldiraver!

–O'zi shu gap aniqmi?

–Aniq ham gapmi? Saroy maydonida bir olomon to'planibdiki, asti qo'yaverasan. Qal'aning teshik–tuynuklarini

bekitishdi. Hech kimni chiqqani qo'yishmadi. Shuning uchun men ham un olgani borolmadim. Maydonga bordim. It egasini tanimaydi. Chopar kelib. Shirvonshoh Farrux Yasor Shamahi tarafda urushga ketganini aytdi. Aytishlaricha yo yaralangan, yo o'ldirishgan. Qal'ada o'g'li G'ozibey o'tirgan emish. Ikki kun ilgari nima xabar olgan bo'lsa, u ham otasiga yordamga ketibdi.

–Ey Xudo o'zing asragin.

–Hali buyam holva! Qal'a o'z havoniga qolib ketibdi. G'ozibeyning ayoli Sultonxonimning aytishicha, to eri qaytguncha qal'ani o'zi qo'riqlarkan.

Xirdaxonim o'ylanib qoldi. U Sultonxonim haqidagi gaplarga e'tibor ham bermadi.

–Kim ekan u ayol?

–O'zimizning rahmatli Shayx Karbaloyining nevarasi. Bibixonim bor edi—ku? Uni shahzoda G'ozibey nikohiga olgandi. Eshitgandirsan?

–Eshitganman, – dedi ayol boshini quyi solib.

–Endi jarchilar jar solib, qo'shin to'plasharkan.

–E xudo o'zing asra! Hali o'g'lingiz ham darsidan qaytmadi.

Xotining bolasidan xavotir olishi erining kulgisiga sabab bo'ldi.

–Obbo, hali dushman ostonangga kelib, qilich yalang'ochlab turgani yo'q—ku? Bibiquliga hech narsa bo'lmaydi. Nega muncha ich—etingni yemasang?

–E. sizga qolsa, hech kim bilan ishingiz yo'q, bola qachon keladi, qachon ketadi, bilmaysiz.

–Nima qil deysan, axir?

–Boring o'g'limizni o'zingiz borib topib keling. Bibiquli ko'z olimda bo'lmasa, ko'nglim joyiga tushmaydi. Devorni nam yiqar, onani g'am...

Nima qilsin, ona—da, bechora...

\*\*\*

Dargoqulining gaplarida jon bor edi: Rostdan Sultonxonim saroyda bir o'zi qolgandi. Ikki kun avval saroyga borgan elchi Ardabil shayxlarining oxirgi yodgori Ismoilning Shirvonga hujumi haqida ma'lumot olib kelgandi: «Yazidiy Farrux Yasordan Shayx Haydarning qasosini olish uchun kelgan qizilbosh qo'shinlarining seldek oqayotganini» xabar qilgandi. Buni eshitgan G'ozibey saroyni yashirincha tark etgandi. U yaqin qishloqlardan qo'shin to'plab, otasiga yordamga borishni istardi. Ketayotib, Sultonxonimning qo'llaridan ushlab shunday degandi:

– Sultonxonim, azizim, mening saroydan ketganimni hozircha hech kim bilmasin. Turli bahonalar bilan har kimni xonamga kiritaverma. Meni kasal deb ayt. Nima qilsang qil, lekin shaharning egasiz qolganini hech kim bilmasin.

Keyin barmog'idan Shirvonshoh jangga ketayotib unga qoldirgan muhrli uzugini chiqarib, Sultonxonimning barmog'iga taqqancha qo'shimcha qilgandi:

–Bir kerakli, zarur ish chiqsa, meni kutib turmasdan o'zing qaror qabul qil. Men ikki–uch kunda o'zingga ma'lum bo'lgan yo'llar bilan qaytaman. Kechikadigan bo'lsam, albatta elchi yuboraman.

Sultonxonim yoshli ko'zlarini ko'rsatmaslik uchun erining ko'ksiga bosh qo'ydi.

Yuragim sina–sina,

Yor kelar, sina, sina!

Dunyoga sig'mas boshim.

Sig'ibdi siynasina

–deya pichirlarkan, ovozini balandlatib so'radi.

–Birdan malikaning o'zi sizning kasalligingizni eshitib kelib qolsa–chi?

–Qo'lingdan kelsa, uni tinchlantirasan, qo'lingdan kelmasa, xonangga chaqirib, bor gapni yotig'i bilan tushuntir. Ammo o'zim sendan shuni talab qilganimni ayt. Bu sirni to men borguncha hech kimga ochmasin. Bir ikki kunda albatta ko'rishamiz.

«O ayol qalbi! U folbinmi? Bashoratchimi? Nima? Ammo negadir bu xuddi so'nggi uchrashuvdek tuyulyapti men uchun. Men sizdan ayrila olmayapman. Qo'llaringizni qo'yib yuborgim kelmayapti. Koshki sadoqqa aylanib, o'qlaringizni bag'rimda saqlab, yelkangizda osilib yursam. Sizni quchog'imdan bo'shatgim kelmayapti. Hech qachon bunday bo'lmagandi. Hech qachon sizni yig'lab kuzatmaganman. Lekin hozir ko'zyoshlarimni arang tutib turibman. Menga nima bo'ldi? Nega mening taqdirim bunday ekan a?

Sultonxonim eri ovga chiqqan paytda, harbiy mashqlarga chiqqanda, navkarlarga uncha ishonmasdi. G'ozibeyning sadog'iga o'qlarni o'zi to'ldirar, qilichini o'zi charxlar, xurjuniga ozuqalarni o'zi joylardi.

Sultonxonim shahzodaning ayoli bo'lsa—da, navkarlar xizmatidan voz kechgan saroydagi birinchi ayol edi. Eriga ham xizmatni o'zi qilar. u bilan birga ovqatlanar, harbiy mashg'ulotlarga borardi. Yozni Gulistonda, Fit tog'ida Lahijda o'tkazgan paytlarida u bilan birga ovga chiqardi. Bu o'z davrida juda qiziq ko'ringan yaqinlik, ikki yoshning birgalikda kamol topishiga sabab bo'lgandi. O'zlarini ikki badandagi bir jon deb bilishardi.

G'ozibey shoshib turgan bo'lsa—da, Sultonxonimning qo'llarini yelkalaridan ayirolmadi, o'zi qo'yib yuborishin kutdi. Aslida u o'zi ham bu navozishli qo'llarni bo'ynidan ajralishini istamasdi.

Qo'lini ko'tarib, ayolining tillaqosh tagidan ko'rinib turgan sochlarini siypaladi, barmoqlarini uning nam kipriklariga tekkizdi. Qo'lga tekkan ho'l ko'zyoshlardan ko'ngli ezildi.

—Sen ham yana ayolga aylandingmi? Sultonim, unda nega yig'layapsan? Men seni er yurakli, mardona qalbli Vatan o'g'lonlari bilan bir xil deb bilardim. O'zimning kabutarim, qumrim!

Sultonxonimning kipriklari bir—biridan uzoqlab, ko'zlari charaqladi:

–Kabutar bilan mardona soʻzlari bir–biriga qovushmadi.

–Sen bilan hamma narsa qovushadi, sultonim mening!

– Boʻldi, boring azizim, sizni Vatan chorlamoqda. Farzandlik burchingizni bajaring! Mendan ham, saroydan ham, bergan topshiriqlaringiz ijrosidan ham xavotir olmang.

–Koshkiydi xavotir olmasam? Mayli, seni qalbingni czgʻilamoqchi emasman. Boshqa safarlarda bemalol ketaverardim. Sen oʻzing bu yerda qolsang ham xavotir olmasdim. Hozir nimagadir, koʻnglim gʻash.

–Meniki ham.

–Salomat qol, sultonim.

–Salomat qayting, sevgilim.

–Allohga omonat.

Hech ajrasholmadilar. Gʻozibey egilib, Sultonxonimning hali qizlik tarovatini yoʻqotmagan yuzlariga lab bosdi. Keyin uning boʻynidan, yelkalaridan oʻpdi. Siynalari orasidan ufurib turgan mushk va gulob hididan toʻyib–toʻyib hidladi. Shu onda ich–ichidan kuchli bir ehtiros qaynab toshayotganini his qildi. Shu onda mahbusaning belidan ana shu kuchli xirs ila qattiq quchdi. Ammo, ketishi kerakligini his qilib, beixtiyor uni bagʻridan boʻshatdi.

–Salomat qol, sultonim!

–Omon qayting azizim!

Kelin pastakkina miz ustida turgan kumush piyola bilan erining orqasidan suv sepd.

Bir soatcha hamon sevgilisining hidi ketmagan yotoq havosidan toʻyib nafas oldi. Uning qalbini nomaʼlum bir xavotir hamon gʻijimlab turardi. Oʻrnidan turib, asta–sekin alvon oynalar oʻrnatilgan derazaga qaradi. Undan qalʼaning tosh devorlari koʻrinib turardi. Qalʼadan chiqqan chang tuproq yoʻl esa ufqqa sanchilib ketgandi.

U ana oʻshu manzaraga mahzun tikilganча ogʻir–ogʻir xayollarga tolgandi.

Nazarida nafaqat bu saroyda, balki bu olamda yakka-yolg'iz qolib ketgandek edi.

Sultonxonim tunni yotoqda tanho o'tkazdi. Yoniga saroy xonimlari yo joriyalaridan hech kimni chaqirmadi. Chunki, saharlab chiqib ketgan G'ozibey saroyda yo'qligini nadimi Solehdan boshqa birov bilmasdi.

## QO'SHIN KELMOQDA

Sarkarda to'xtadi. Qo'shin otning qansharidan askariy qadamlar bilan ilgarilab borardi. Oldinda jangovar tug'lar, yarim oy ostida ot dumidan qilingan tug'dona, besh panja tasviri tushirilgan yashil bayroq mardona hilpirab borardi.

40 bo'yin ho'kiz qo'shilgan to'p va manjaniq aravalari orqadan kelardi. Askarlari hali unchalik charchashmagandi. Ammo, ancha yo'l bosishgandi. Sarkardaning oxirgi hukmiga ko'ra, bugun ular ancha barvaqt turishgandi. Qoq yarim tunda uning huzuriga chopar yetib kelgan, otdan tushmasdan xatni unga tutqazib ortga qaytgandi. Yosh sarkarda g'alaba ishq'i bilan tong yulduzi ko'rinmay turib, qo'shinga uyg'onish amrini berdi. Jang maydoniga hammadan oldin yetib borishga shoshib, tez chiqqandi. Shu bois askarlarning yuzlaridan horg'inlik alomatlarini sezilardi.

«Hali ancha yo'l bor» deb o'ylardi sarkarda. Charchab qolishsa, jangda zarur jasoratni ko'rsatishlari qiyin bo'ladi. Nimadir qilish kerak».

Quyosh endigina bir enlik ko'tarilgandi. Hali tunning nurlari ko'z qamashtira olmasdi, olislardan ko'rinib turgan dengiz uzra bu nurlar qirmizi yo'lak solgandi. Ufqdan bosh ko'tarayotgan qo'yosh dum-dumalog' cho'g' parchasiga o'xshardi.

Atrof yorishib ketgani bois, sarkarda chang-tuproqqa belangan, uyquga to'ymagan yigitlarning siymosida qanaqadir norozilik tuydi. Holbuki, qarshidagi og'ir jang uchun unga bardam, tetik jangchilar kerak edi. Mustahkam Boku qal'asini, Shirvonshohlarning qudratli qishki qarorgohini olish u qadar oson bo'lmasligi aniq. Sarkarda qo'shinni kuzatarkan, muntazam qadam tovushlariga qorishiq nayza, qalqon, qilichlar jarangini tinglagancha, chora izlardi. Dengiz esa, mis piyolada erigan oltin kabi porlar, insonlarni go'yoki bag'riga chorlardi.



Sarkarda birdan nimanidir o'ylab qoldi va qo'llarini yuqori ko'tarib, to'xtashga ishora qildi. Yuzboshilarni yoniga chaqirdi.

–Qo'shinni to'xtating! Dovulchini yonimga chorlang!

Ovozlar yuksaldi:

–To'xtang! Hamma to'xtasin!

Dovulchi sarkardaga yaqinlashdi. Bosh egib ta'zim qildi.

–Dovulingni chal! Men ishora bersam, ming besh yuzta zarb urilishi bilan sanoqni to'xtat!–Keyin ko'makchilariga o'girildi. – Qo'shinga cho'milish uchun ruxsat berildi. To sanoqchi ming besh yuz marta zarb urmaguncha. Charchoqlari chiqar!

Qizilboshlar buyruqni olishlari bilan xursandchilikda shovqin solishib, yechina boshlashdi. Askarlar shosha–pisha o'zlarini yozning iliq suvgi otishdi. Ular faqat yoshlarga xos beparvolik bilan cho'milishardi. Sohilda to'qmoqning dovulga urilishi haybatli sas chiqarardi. Bir... ikki... uch...

Qumloqda bir sarkarda va bir dovulchi qolgandi. Dovulchi zarbalarni sanar, sarkarda esa, dovul zarblari sadosi ostida o'yg'a tolgandi.

«Boku qal'asini juda mustahkam deyishadi. Kim biladi, ertalabki jang g'alaba keltirarmikin yoki mag'lubiyat? Ertalabki bomdod azoniga qadar bularning qay biri tirik qolarkin? Qay biri hozir so'nggi bor cho'milayotganini anglamas? Shahid ketganlarning mayiti yuvilmaydi. Mayli, cho'milib olishsin. Yo'llar, suvsiz sahrolarning changlaridan tanlarini tozalashsin. Dam olishsin. Mardakon qal'asini, shohning dala hovlisini olgandan to shu yerga kelgunga qadar ularga tinchlik bermadim. Nihoyat, birozdan so'ng Xulafobey yetib keladi, menga iddao qiladi. Mayli–da! Bu iddaolardan ham bir miriqaman. Ertalab ko'zining oldida din yo'lida, yoshgina shayx–shohning yo'lida balki men ham qatl etilarman? Kim bilsin? Shunda mening ham sadoqatimga ishonishar, bugungi iddao uchun pushaymon bo'lishar?»

U ana shularni o'ylagancha dovul saslariga quloq osardi.

Ovoz tugadi. Oraga sukut cho'kdi. Endi buyruqni unutilib, suvni shaldiratib cho'milayotganlarning ovozidan boshqa sas eshitilmasdi. «Ota—a—a—an!» deya amr berildi. Salqinlashgan, chang—tuproqdan tozalangan qizilbosh g'oziyolari shosha—pisha kiyimlarini kiyib, otlandilar. Yarim soat ichida qo'shin Boku tomon yo'lga tushishga tayyor edi.

—Hamma ortimdan!

Sarkarda Damashq po'latidan quyilgan sadaf dastali qilichini qinidan chiqarib, havoda o'ynatdi. Quyosh tig'ida yarqiragan qilichni butun qo'shin ko'rdi. Bu shahd ularni muqaddas din yo'lida olg'a borishga undardi. Hamma sarkadaning ortidan otiga qamchi bosdi.

Ularning hazar sohili bo'ylab borishardi. Sohil bo'yidagi manzaralar tez—tez o'zgarar, moviy to'lqinlar kimgadir qasd qilgandek guvillab kelib qirg'oqqa bosh urgach, ortqa qaytishardi. Ora—sirada dengizning moviy ko'ylaklarini yirtib chiqqan yalang'och qoyalar ko'zga tashlanardi. To'lqinlar bu xarsanglarga kelib urilgach, o'zlaridan oppoq ko'piklar qoldirishardi.

Shaharga yaqinlashishgan chog'da ularning ko'zlariga olisdan oltinrang g'alla xirmoni ko'ringandek bo'ldi. Yosh sarkarda sergak tortdi, bu nima bo'ldi, sarobmi? Xayolmi? Axir bu qumli barxanlar orasida g'alla nima qilsin?

Ammo sarkarda g'alla xirmonlari atrofida kuymalanib yurgan dehqonlarni ko'rgach, bular sarob emasligini angladi. Olisdan hali qo'shin kelayotganini tushunmagan yosh bir yigit o'zicha qo'shiq xirgoyi qilardi:

Dalasida bitar arpa,  
Otlar kelar serpa, serpa,  
Go'zal yor qo'ynida ko'rpa,  
Kel—a, bulbulim, kel—a!  
Kul—a, bulbulim, kul—a!  
Bog'laringda bitar uzum,  
Qosh—ko'zingda qoldi ko'zim,  
Mening yorim, jonim qo'zim,

Kel-a, bulbulim, kel-a!

Kul-a, bulbulim, kul-a!

Buni eshitib turgan qizilbosh g'oziyalaridan biri sherigiga qaradi:

-Qara, dushman bo'lsa ham, zap ajoyib qo'shiq aytarkanmi?

-Ha buyam senu menga o'xshaganlardan bittasi! Tili bir, qoni bir... Faqat bizga o'xshab «Aliyan valiyulloh» deyishmaydi xolos.

-Nima? Shohi Mardon Ali Murtazo tan olishmaydimi?

-Ha-da, bo'lmasa nega urishib yuribmiz? Mazhab masalasi-da!

«Nimani eksang shuni o'rasan, deydi donolar. Bu dunyoda neki qilsang, narigi dunyoda ajrini topasan. O'z qilgan ishlaring uchun o'zing javob berasan. Nega biz bularni qirishimiz kerak». o'yladi haligi askar. Lekin qo'rqqanidan bu fikrlarini tiliga ko'chira olmasdi. «E padaringga la'nat» deb ko'nglidan shayton vasvasasini haydadi.

Shu payt o'roqchilar qo'shinning hovurini payqadi, orqa-oldiga qaramay qochayotganida, qo'shiq ham o'rtasidan bo'lindi.

Yosh sarkarda yo'lini o'zgartira olmasdi. Sal avvalroq o'roqchi dehqonlar mehnati o'laroq yuksalgan bu xirmon sanoqli daqiqalardan so'ng yer bilan yakson bo'lishi turgan gap. Chora yo'q! Chunki qo'shin uchun bunday holatlar yangilik emas. Qalbida zarracha taassuf ham uyg'onmadi. Ortidan kelayotgan qo'shin Shayx o'g'li shohning bir baytini takrorlab kelardi:

Biz azaldan to'abad maydona kelganmiz inon,

Shohi Mardon ishqina mardona kelganmiz inon.

Ovozlar ko'kka yuksalardi. Bir zumda o'roqchilar o'rib dastalab qo'ygan hosil g'oziyalar tomonidan g'orat qilindi. G'oziyalardan ba'zilari nima qilarini bilmay, bug'doy, arpa boshloqlarni qo'llariga olib, kaftlari orasida ezg'ilar, sitilib chiqqan donlarni og'izlariga solib chaynashardi.

Qo'shin shu tariqa o'tib ketdi. Ular ortidan hamma yoqqa somondek sochilgan g'alla boshoqlari qoldi. Endilikda g'oziyalar Boku tomon ilgarilab borishardi.

Xulafobey yetib kelganida, yosh sarkarda qo'shinni to'xtatib, amirning amrini kutib turardi. Qal'a atrofida qo'shından bo'lak biror jonzot ko'zga tashlanmasdi. Mudofaachilar qal'aning ichiga chekinib, darvozalarni mahkam yopgan, shinaklardan dushmanlar joylashgan nuqtalarni kuzatishmoqda edilar.

Qal'a muhtasham va baland edi. Qalin devorlari, shinaklar o'rnatilgan minoralari bor edi. Peshtoqida, Qo'shaqal'a eshigining ustida bir-biriga qarab turgan sher va ho'kiz boshlari darj etilgandi. Xulafobey sher va ho'kizlar boshini ko'rib, ich-ichidan nafrat hissini tuydi: Bu kofirlar musulmonman deb o'zlari hamon butparastlik odatlarini tark qilishmas ekan-da?»

U yosh sarkarda tanlagan joyni ko'z ostiga oldi. Ertalab qilish kerak bo'lgan tadbirlar rejasini tuza boshladi. Qo'shinga bir kun dam olishni buyurdi. Erta tong hujum manzillarini belgilash uchun Bayrambey Qoramoni bilan birga otlanib, qal'aning atrofini ko'zdan kechirgani ketdi.

Yo'l boshchi ularni kuzatib kelardi. Qal'aning dengizga qaragan tarafida muhtasham bir imoratni ko'rib, hayrat bilan turib qoldilar. Xulafobey yo'l boshchidan so'radi:

–Anavi baland bino nima ekan?

–Taqsir, bu mashhur «Qiz qal'asi»-ku? Xuddi qiz boladek biror fotih iffatini ololmagani bois «Qiz qal'asi» deyishgan ekan.

Xulafobeyning qalin lablarida iste'zo yugurdi:

–Bomdod namozidan keyin men olaman-da, bu qal'aning iffatini.

Xulafobey Bayrambey bilan qizilbosh askarlari turgan boyagi joyga qaytishganida, bu joy harbiy qo'nal'aga aylangandi. Sarkarda uchun oq chodir tikilgandi. Yerdan qazilgan o'choqlarda katta qozonlar osilgandi. Oshpazlar ham yeng shimarib ishga kirib ketishgandi.

yuborilgan bo'lib, u G'ozibey bilan ko'rishmoqchi ekan. Sultonxonim va malika bir muddat bir-birlariga qarab qolishdi.

–Uni G'ozibeyning xonasiga olib boring, dedi Sultonxonim nihoyat.

O'zi yotoqxonaga chekinib, bir paytlar eri bilan ovga chiqqan paytlari kiygan suvoriylar kiyimini kiydi. Shu ko'rinishda chopar bilan ko'rishish uchun erining qabulxonasiga qarab yurdi.

Chopar o'rta bo'yi, ozg'ingina, o'ttiz–o'ttiz besh yoshlar chamasi odam edi. O'rtasi qirtishlanib, chekkalaridagi sochlari ko'rinib turgan boshiga o'n ikki burchakli kuloh bostirib olgandi. Suvoriy qizilboshlarning asosiy nishonasi ostida, belidagi Damashq qilichini hisobga olmaganida, xuddi Farrux Yasorning bazmlarini qizitib yuradigan qiziqchilarga o'xshab ketardi.

Boku dorug'asi Abdulfattohbey ham uning yonida turardi. Ulardan sal chetda, o'ng tomonda shahar a'yonlari, ikkinchi darajali yosh sarkardalar turishardi. Yosh sarkardalarning ko'pchiligi G'ozibeyning do'stlari edi va ular Sulton xolnimni tanishardi. Ular G'ozibey va uning rafiqasini bir necha bor mana shu ov kiyimida ko'rishgan edi. G'ozibeyning o'rniga Sultonxonimning kirib kelishi ko'pchilikni hayratga soldi. Ammo chopar oldida hech kim sir boy bermadi.

Sultonxonim borib, erining muzayyan taxtidan joy oldi. Qo'li bilan choparga gapir, degandek ishora qildi. Saroy ahli qo'lida Farrux Yasorning uzugini ko'rib, qaytadan bosh egishdi.

Chopar mavjud vaziyatni yaxshi anglab turardi. Ammo u yosh shahzodani tanimasdi. U ayni paytda erkakcha kiyimda o'tirgan Sultonxonimni shahzodaning o'zi deb o'ylamoqda edi. Chopar ham yosh shayx hukmdorning eng ishonchli navkarlaridan biri edi. G'urar bilan o'rnidan turib, ko'kragini oldinga berganicha so'z boshladi:

–A'lohazrat! Dini mubinimiz pushti panohi, podshohi javonbaxt, qiblai olam Shoh Ismoil hazratlari tarafidan huzuringizga taslim bo'lishni so'rab keldim.

Uning bunday dadil gapirishiga sabab yonida turgan shahar dorug'asi Abdulfattohbey edi. Erkak ko'rishishlari bilan unga hamma narsa tayyorligini, shoh allaqachon saroyni tark etganini, saroyda faqat «majnunsifat shahzoda» qolganini xabar qilgandi. U saroy a'yonlarining aksariyati «shohi javonbaxt» tomonlariga o'tishga hozir ekanini aytgandi.

Sultonxonim choparning so'zlaridagi talabchanlik, iddaodan anchagina jahli chiqdi. U ham eri va qaynotasi singari yangi shohning zafarlaridan bexabar edi. Shu bois, choparning ayrim so'zlari xonimning tabassumiga sabab bo'ldi:

–Mehmon, namoz paytida yuzingizni qaysi tarafga burasiz?

Chopar savoldan shoshib qoldi, hayratlanib, askarlarga xos soddalik bilan duduqlandi:

–Albatta, Makkai mukarrama tomonga, a'lohazrat!

Sultonxonimning atrofidagi a'yonlar bu savolning maqsadini tushunmaganlari uchun bir–birlariga ma'noli qarab qo'yishdi.

– Siz o'z podshohingizni qiblai olam dedingiz, to'g'rimi?. – so'radi Sultonxonim ma'noli tomoq qirib. Sizning–o'z qiblangiz bor ekan, unda nima uchun boshqalarning qiblasi bo'lgan Makkai mukarramaga yuz burasiz?

Saroy a'yonlari beixtiyor kulimsiradilar. Chopar esa...

Bu savol diniy bilimi u qadar chuqur bo'lmagan safaviylar vakilini g'alati vaziyatga solib qo'ygandi. U biroz o'zini yo'qotib, dorug'a Abdulfattohga qaradi. Shu onda «shahzoda»ning ovozi ham qandaydir g'alati ohang borligini tuydi. Bu nimasi? Uni kalaka qilishmoqchimi? Birdan o'zini qo'lga ololmay qoldi:

–A'lohazrat, meni masxara qilishlarini istamayman! Men bu hukmni Ardabildan Arjinjonga, Shirvonshohlardan Shomga qadar bo'lgan hududni o'z tasarrufiga olgan hukmdor nomidan olib keldim va sizlarga taslim bo'lishni taklif etmoqdaman. Aks holda, ikki kundan so'ng qal'a yer bilan yakson qilinadi. Hammangiz asirga tushasiz.

Choparning bunday jangovar ruhdagi xitobi, elchilarga yarashmagan iddaosi Sultonxonimning g'ashiga tegdi. Choparning Abdulfattohga qarab qo'yishi ham uning nazaridan chetda qolmadi. Atrofdagilarga birma-bir ko'z tashladi. Dorug'adan boshqa barcha a'yonlar g'azablanib turishardi. Kimdir mo'ylabini chaynar, yana birovi tirnog'ini kemirardi. Yana kimlardir beliga osilgan qilich dastasini changallab turishardi. Aslida bir ishora choparning masalasini hal qilishi mumkin edi. Ammo, Sultonxonim yana bosiqlik qildi:

–Yetti yuz yillik Shirvonshohlar xonadoni vakiliga bunday ohangda gapirish uchun qayerdan jur'at topdingiz? Yana bu saroyda taslimdan so'z ochmoqdasiz.

–Siz aytgan xonadonning chirog'i allaqachon so'ngan, shahzodam. Boshingiz omon bo'lsin! O'tgan oyda Gulistonda yashirinishga uringan muhtaram otangizni shohi javonbaxtimiz Jabani qishlog'i etagida qo'lga tushirdi. Podshohimiz atigi yetti ming qo'shini bilan otangizning 20 ming piyoda, 6 ming otliq askaridan ustun keldi. Otangiz Bug'urd qal'asi tomon qochmoqchi bo'lganida oddiy qizilbosh askarining qo'lidan ajal sharobini ichdi. Shirvoniylar Farrux Yasorning oti va kiyimlaridan tanib, guvohlik berishdi.

Shu joyga yetganida, chopar tili tutilib qoldi. U Farruxning qay tariqa o'ldirilganini o'z ko'zi bilan ko'rgan edi. Ammo bu haqda batafsil aytishga tili bormasdi. Qizilboshlar Farrux Yasorning jasadini jang maydonidan topib keltirgach, murshidi komilning roziligi ila kesilgan boshini badaniga birlashtirib, keyin bo'yraga o'rab yoqib yuborishgan, «Sulton Haydarning qotili ana shunday qismatga munosib» deya har yoqqa jar solishgandi.

Biroq, shunday bo'lsa-da, elchining ruhi baland edi. Qal'aning narigi tomonida urushga hozirlik borardi. Uning ortida Xulafobey, Bayrambey Qoramoni singari jasur sarkardalar turardi. Qolarversa, «elchiga o'lim yo'q» deyishadi. Bu xotinsifat shahzodaning qo'lidan nima ham kelardi? Baribir taslim bo'ladi.

Nasib etsa, shohi javonbaxt sanoqli kunlardan keyin Boku qal'asiga muzaffariyat bilan kirib kelishi muqarrar!

–Xalq–chi? Jamoat–chi? Ular taslim bo'lishni istaydimi yo yo'qmi bu bilan hech kimning ishi yo'q. Shunaqami? –so'radi Sultonxonimning ovozi titrab.

–Xalq? Jamoat? chopar «shahzoda»ning so'zini bo'lishga bu gal ham jur'at topdi. Xalq deganingiz cho'ponning yetovidagi bir suruv qo'y emasmi, a'lohazrat?

Sultonxonim choparga zimdan tikilib, o'yga tolgandi:

«Joningdan to'yganga o'xshaysan! Ajal seni bu yerga yetaklab kelgan ko'rinadi. Bobom aytganidek, sichqonning o'lgisi kelsa, mushuk bilan o'ynasharkan».

G'ozibeyning do'stlaridan ikki yosh askarga qarata buyurdi:

–O'z izzatini bilmagan bu nokasni maydonga olib chiqib, dorga torting! U qo'y deb bilgan xalq bu pastkashning qismatini o'z ko'zi bilan ko'rsin. Jarchilar uning gunohini jar solib tarqatishsin.

Ikki yigit choparning qo'llarini orqasiga qayirib bog'lashdi. Elchi negadir xotirjam, boshini tik tutib turardi. Shu payt oraga Abdulfattohbey qo'shildi.

–Bir qoshiq qonimdan keching, axir elchiga o'lim yo'q, deganlar! Shirvonshohlar xonadoni tarixida hali elchini dorga tortish holati uchramagan.

U iltimosdan ko'ra ko'proq nasihat ohangida gapirar, zotan taxtda G'ozibey emas, uning zavjasi o'tirganini yaxshi bilardi. Qal'aning narigi devori ortidan Xulafobey jangga hozir turganini ham bilardi.

Sultonxonim qo'lini ko'tarib, sarbozlarga ishora qilganda, Abdulfattoh uning qo'lidagi Farrux Yasorning muhrli uzugini ko'rdi. Hukm qat'iy va shikoyatga o'rin qolmaganiga ishondi. Shu bilan birga Sultonxonimni bu niyatidan qaytishi uchun nimadir so'z izlashga tushdi. Abdulfattohning hukm qarshisida jim qolgani, o'zini tashqariga sudrab ketishayotganini ko'rgan



elchining ham ko'ziga jonidan boshqa narsa ko'rinmay qoldi. Boyagi kibr va g'ururidan asar ham qolmadi.

Bir muddat avval sodda, murti chiqmagan o'smir yigitcha deb bilgan «shahzoda» aslida qo'zichoq terisini yopingan yo'lbars ekanini anglaganida kech qolgandi.

Amallab yigitlarning qo'ltig'idan chiqib, o'zini Sultonxonimning oyoqlari ostiga tashladi:

–Meni afv eting, shahzodam, xato qildim, bir qoshiq qonimdan o'ting...

Sultonxonim nafrat bilan qoshlarini chimirdi: «Seni axmoq desam, g'irt qo'rqoq ham ekansan» deya ko'nglidan kechirdi. Erkak kishi o'linga ham tik qarasa–da, ko'z–yoshni oqizmay... «

–Olib chiqing!..

–Gunohimdan o'ting!

Elchini saroy maydonida ilingan dor ostiga sudrab, xaloyiqning ko'z o'ngida, uning gunohini bo'yniga qo'ygan holda osib o'ldirishdi.

G'ozibeyning qabulxonasida hali majlis tugamagandi. Elchi olib ketilganidan keyin Abdulfattohbey aytishi lozim bo'lgan so'zlarni topgandi. U bir oy muqaddam Xulafobeyning odamlari tomoniga o'tib bo'lgandi. U ancha ishlarni amalga oshirgan, qal'ani topshirishga tayyor holga keltirgandi. U G'ozibeyning qayerda ekanini bilmasa–da, har qalay saroyda og'ir kasal bo'lib yotganiga, ehtimol allaqachon jon taslim qilganiyu, bu haqida xalqdan yashirilganiga ishonch hosil qilgan, hozir esa o'zining qanchalik haq ekaniga ich–ichidan yana bir amin bo'lgandi.

–Xonim, bu ishingiz yaxshi bo'lmadi...

–Nechun?–so'radi Sultonxonim qiziqsinib.

Shirvonshohlarni oyoqosti qilgan, xalqimizni qo'zi deb atagan bu yovvoyini kechirishim kerakmidi? Yo unga ta'zim qilib, qo'llarini tavof qilishim kerakmidi?

–Siz qarshingizda Shoh Ismoil turganini tushunmayapsiz, xonim. Uning g'azabidan qo'rqing! Shirvonshoh Farrux Yasor sizning hurmatli qaynotangiz, bizning podshohimiz. Jabanida

halok bo'ldilar. Ularning o'rnida shahzoda G'ozibey o'tirishlari lozim edi. U esa bu maydonda yo'q. Biz qaysi jur'at ila Qiblai olamga qarshi bosh ko'tara olamiz?

—Qachondan beri u sen uchun Qiblai olamga aylandi?

Savol shu qadar g'azab va shiddat ila berildiki, Abdulfattohbey ham o'zini yo'qotib qo'ydi. Miqti gavdasini ter bosib, qora soqollari titradi. Ammo shu paytgacha olgan in'omlari, bergan va'dalari bois tavakkal qilishga bel bog'ladi:

—Xonim, jang-jadal, toju taxt er kishilarning ishidir. Siz ayol kishisiz, shu bois uning Qiblai olam ekanidan ham balki xabaringiz yo'qdir? Sizdan iltimos, xalqning uvoliga qolmang, shaharni topshiring! Yo bo'lmasa, shahzoda qayerda ekanini ayting!

Sultonxonim g'azab ila uzuk taqilgan qo'lini oldinga cho'zdi:

—O'chir ovozingni! Mening shahzoda nomidan gapirishga vakolatim bor. Buni sen ham bilasan! Bir rivoyat bor, eshitganmisan? Qadim zamonda mag'lub bo'lgan podshohni o'z raqibi g'olib shahanshoh qarshisiga olib kelishibdi. Mag'lub esa o'z raqibining yuziga tik boqib, unga qattiq gaplarni aytibdi. Uning jur'ati, jasorati saroy ahlini ham hayratga solibdi. Shoh vazirlari ila maslahat qilibdi. Bir keksa donishmand vaziri unga qarab: «bu dushmaningiz turgan joyni bir kavlab ko'rishsin, amr bering» debdi. Haqiqatan o'sha yerni kavlab ko'rishsa, yer ostida juda katta xazina ko'milgan ekan. Mag'lub podshoh o'sha xazinadan quvat olib, o'z dushmanining yuziga tik boqib. Jasorat ila so'zlagan ekan. Bundan chiqdi sen ham yaxshigina mo'dunyoning ustida turganga o'xshaysan. Balki Shoh Ismoilning odamlari sening qo'yingni oltinu javohirlarga to'ldirgandir? Sen xiyonatga qo'l urgansan Abdulfattohbey!

O'zi kutilmaganda Sultonxonimning bunday qat'iy gapirishi Abdulfattohbeyning ham tiliga qulf osdi.

«Qayerdan bildi? Balki shoh qarorgohida odamlari bormikin? Sirlarim hammasi unga ayon bo'lsa—ya?»

Axir elchini uning ko'z oldida sudrab dor ostiga olib chiqishmadimi?

Dahshatdan tomirlaridagi qon to'ngib qoldi. Inkor qilish befoydaligini tushundi. Taxt qarshisida, Sultonxonimning oyoqlari ostiga o'zini tashladi:

–Malikam, meni aldashdi. Shafqat qiling. Muhtaram gaynotangiz ruhi poki haqqi. Meni afv eting.

–Men shunchaki seni sinash uchun so'ragandim, bey,–dedi Sultonxonim. –Xiyoningni o'zing tan olding. O'z vatanining mag'lubiyatini tilagan xoinning jazosi tayin. Olib chiqing!

Kutilmagan iqror hukmidan so'ng saroy mulozimlaridan biri dorug'ani sudrab jalloq qo'lga topshirdi.

–Jarchilar dorug'aning xiyonatini xalqqa e'lon qilishsin.

Endi esa, Sarkarda va a'yonlar mashvarat xonasiga kirib ketishdi. Endilikda Sultonxonim qarorgohning rahbari, qudratli sarkarda maqomida edi.

\*\*\*

Bobolarimiz bunday qizlar haqida «Vatan chorlaganda yigit saralanadi, arslonning erkagu ayoli bo'lmas» deydilar. Ona Hazar! Sening sohillaringdagi mayin qumlar, tepangda porlagan porloq quyosh, qudratli to'lqinlarning farzandi edi Bibixonim Sultonxonim.

Naq ikki kundirki, Xulafobey va Bayrambeyning sarkardaligi bilan Boku qal'asi qamal qilindi. To'xtovsiz hujumlar natija bermadi. Bokuliklar taslim bo'lishni xayollariga ham keltirishmas, matonat va mardlik ila shaharni mudofaa qilishardi. Ikkinchi oqshom, shom namoziga biroz qolgan payti Shoh Ismoil Lala Husaynbey va boshqa a'yonlari bilan Shamahidan yetib keldi. Qal'a hali–hanuz zabt etilmaganini ko'rib, hujumni o'z qo'lga oldi. Avvaliga ikki nafar abjir yigiti ihotasida qal'a atrofini bir necha bor aylanib chiqdi. Ular shinaklardan otilgan o'qlarga nishon bo'lmaslik uchun o'q yetmas masofada ot choptirib borishardi.

Keyin shoh yaqinda qurilgan, oltin qubbali yashil chodir yoniga keldi. Otidan sakrab, ichkariga kirdi. Niqobini yechib, eng yaqin murid va sarkardalarini yoniga chorladi. Chodir eshigining qarshisida turgan ko'chma taxtga o'tirdi. Xulafobey, Lala Husaynbey va boshqa yaqin bek va amirlarini yoniga chorladi. Ustajli, shamlu, afshar, zulqadar, qajar, rumli qabilalariga mansub sarkardalar ham shu yerda edilar. Shoh ularning har biriga o'tirishga joy ko'rsatdi.

Sarkadalar shohning o'ng va chap tomonlarida tartib bilan joylashdilar. Shoh tomoq qirib so'z boshladi:

–Qamal uzoqqa cho'zilishi mumkin. Shu holatda davom etsak, Boku qal'asini egallashimiz qiyin kechadi. Bekorga qurbon beramiz. Men qal'a eshiklarining ostidan turib minorani portlatishni maslahat beraman.

Lala Husaynbey yosh hukmdorning tez va jur'atli qarorlar chiqarishiga hamisha tahsin o'qirdi.

–Qiblai olam, agar siz lozim ko'rsangiz, Qo'shqal'aning tagidan lahm qazishni buyursangiz.

Shoh bir muddat o'ylab qoldi:

–Yo'q, menimcha Qo'shqal'a darvozasining ust tomonidan yuz–yuz ellik qadam masofadagi shimoliy eshik oldidagi minorani portlatish kerak. Chunki qamal ichidagilarning asosiy diqqat e'tibori Qo'shqal'aga qaratilgan. Yuqori darvozasi tor bo'lgani uchun u qadar e'tibor qaratilmagan bo'lishi mumkin.

Bayrambey Qoramonli ila Lala Husaynbey hukmdorning zakovatiga tahsin o'qidilar:

–Qiblai olam haq gapni aytdilar. Lahmni o'sha yerdan qazish kerak.

Shoh majlisni yakunlash uchun so'z oldi:

–Ma'qul, unda Bayrambeyning yigitlari kechasi bilan lahm qazishga safarbar etilsin. Ertalab Lala Husaynbey shahar ichidagilarga xabar beradi. Asosiy maqsadimizga erishgunimizcha yolg'on hujumlar bilan ularni chalg'itib turamiz. Hozir hamma o'z chodiriga borib, biroz dam olsin. Ammo

diqqatli bo'lish kerak. Yuzboshilarga ayting, qorovullarni ikki baravar ortirishsin. Kechasi kutilmaganda hujum qilib qolishlari mumkin. Chunki shahar himoyachilarining shundan boshqa choralari yo'q. Lekin ehtiyot bo'ling, yana Istanbul foijasi boshingizga tushmasin.

–U qaysi fojea, hukmdorim?

–Sulton Mehmet Fotih Istanbulni qo'lga kiritgan chog'da, qal'a ostidan bir necha joyda lahm qazdiradi. Vizantiya hukmdori ham buni fahmlab qarma–qarshi tarafdin lahm kovlashni buyuradi. Bir nechta lahmlar cho'kib, har ikki tarafning qo'shinlari yer ostida qolib ketadi. Ba'zi lahmlarda ikki tomondan askarlar to'qnashib, urush tarixida ilk bor yer ostidagi janglar bo'lib o'tadi. Tarixchilarning aytishicha, yer osti jasadlarga to'lib ketgan ekan.

Hamma yosh sarkadaning topshirig'iga diqqat bilan quloq osardi. Sarkadalar xayrlashib chiqishdi. Hali xufton namozigacha ancha vaqt qolgandi.

\* \* \*

... Lahm ertasi kuni kechgacha bitishi kerak edi. Minora esa oqshom portlashi belgilangan edi. Shohning qaroriga muvofiq, ishlar bir maromda ketardi. Bugun bomdod namozi arafasida u o'rnidan turdi. Sahib ismli hijozlik g'ulomining yordamida tezda kiyindi, otlandi. Qo'shin to namozga turgunga qadar, qal'aning atrofini bir o'zi aylanib chiqmoqchi edi.

Unga yetib borgan xabarlarga qaraganda, ora–sira shaharliklar ham ko'zga tashlanib qolar, ular qal'a devorlari ostida ko'zdan g'oyib bo'lishardi. Ismoilning qal'a ostida yashirin yo'l borligiga imoni komil edi. Hozir buni aniqlashning ayni vaqti edi. Balki, o'sha yashirin yo'lni topishga muvaffaq bo'lar? Shundan aziyat chekib, lahm kovlab o'tirishning hojati ham qolmasdi. Shahar mudofaachilarining o'qiga duchor bo'lmaslik uchun devordan bir o'q otimi uzoqligida otini sekin yo'rttirib borardi. Nihoyat u otini Qiz qal'asi tomonga burdi.

Bu yerlar tamomila sokin edi. Qal'a devorlari bu yerda, baland qo'yali tepalar ustida qurilgani uchun yanada baland ko'rinardi. Minoralar orasidagi masofalar ancha yiroq edi. Shinaklar ham ancha tepada edi. Mudofaachilar uni kuzatib turishganini yaxshi bilardi. Atrofda biror tirik jon asari sezilmasdi.

Birdan qarshisida yosh bir suvoriy paydo bo'ldi. Avvaliga o'z qo'li ostidan qizilbosh suvoriylaridan biri bo'lsa kerak, deb o'yladi. Diqqat bilan qarab, uning umuman notanish yigit ekanini sezdi.

Qal'a atrofida tong saharlab kezib yurgan bu yigit kim bo'ldi? Mudofaachilardan birimi yoki qamaldan bexabar Shirvonshohning yigitlaridan birimikin? Shoh bularni o'ylab turib, yigitga yaqinlashdi. Aslida ularning boshqa yo'li ham yo'q edi. Qiz qal'asining etaklarini yuvib turgan Hazar dolg'alari bu yerdan qal'aning narigi tomoniga o'tib olishga imkon bermasdi. Bir oz avval u Hazar suvlariga maftun termilib qolgan bir shoir edi. Qalbida farahli, gulgun misralar tug'ila boshlagandi. Mayda to'lqinlari erkalanib o'ynayotgan dengiz shu qadar beg'ubor va yoqimli ediki.

Hozir esa, begona yigitni ko'rib, qalbidagi shoir sukutga toldi.

–Sen kimsan? Qaysi bo'lukdansen? –deya yosh suvoriyga yuzlandi.

Suvoriy uni diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi. U shohni tanimaganini ko'rinib turardi. Biroq, u diniy jihatdan ham rahnamo bo'lgan shoh har doim niqob bilan yurishini eshitgandi. Shu bois kim bo'lsa ham, bu kimsa oddiy odam emasligini ich-ichidan sezib turardi.

Soqol–mo'ylabi chiqmagan, o'smiringa o'xshab ketadigan bu suvoriy aslida Shirvonshohlarning kelini Sulxonxonim ekanini ham uning qarshisida turgan shoh tasavvuriga sig'dirolmagan bo'lardi.

U ham bomdod namozidan avval qal'adan tashqariga chiqqandi. Bibihaybatdan Xayriniso xolaning o'g'li Og'adoyi keksa bobosi shayx Karbaloyining vafoti haqida xabar olib kelgandi. Tongda dafn etilishi kerak edi.

Sultonxonim o'zi uchun ota-ona o'rnini bosgan bobosining oldida farzandlik burchini ado etish uni so'nggi yo'lga kuzatish uchun hatto jonidan kechishga ham tayyor edi. Sirini G'ozibeyning nadimi, hozirda saroyda uning eng yaqin sirdoshi bo'lgan Solihga aytgandi.

Ikkovlashib, faqat ulargagina ma'lum bo'lgan sirli yo'l bo'ylab, oldinma-keyin qal'adan chiqishdi. Harbiy amaliyot boshlangunga qadar sohil bo'yidagi qishloqqa borib qaytishni ko'zda tutishgandi.

Qiz qal'asining ostki qismidagi faqat uning o'zi biladigan bu yo'lni bir paytlar saroy a'yonlarining ko'zlaridan panada, erkin mashqlar o'tkazish uchun uni qal'adan olib chiqqan G'ozibey unga ko'rsatgandi.

Hozir u dushman qo'shini namozini o'qib bo'lguncha, qamal janglari boshlangunga qadar Shixlarga borib kelmoqchi edi. Bibixonim otini biroz oldinroq haydab, Solehni ortda qoldirgandi.

Kechadan beri qal'aga hech kim kirib chiqqani yo'q. Endi eridan yordam kutishning ma'nosi qolmadi. G'ozibey omon bo'lganida, bunaqa paytda har qayerda bo'lsa ham qal'aga yetib kelardi. Chunki qal'ada kuchli sarkardalardan deyarli hech kim qolmagan, otasi ham jang qilish uchun yo'lga otlanganini bilar, o'z harami, ahli ayolining himoyasi uchun ham Bokuga qaytishi muqarrar edi. Aftidan u bilan bir kor-hol yuz bergandi. Shu xayollar sabab Sultonxonim saroy odamlari bergan ma'lumotlarga ishonmagandi.

Hali kechga yaqin minoralarni kezib, mudofaaga otlangan shaharliklarning holidan xabar ham o'tgandi. Qo'shqa'aning tepa tarafidagi minora ustida soqchilik qilayotgan bir kishi unga

yaqinlashdi. Sultonxonim soch-soqoli oqara boshlagan bu odamni dastavval tanimadi. Haligi kishi unga yaqinlashib:

–Qizim, senga bir gapim bor. –deganidan kiyin ovozi unga tanish tuyuldi.

Bunga ancha yil bo'lgandi. U paytlar Bibixonim kichkina qizaloq edi. Ota-onasi yaqinda qazo qilishgandi. Bobosi bilan yashardi. Bobosining do'sti zargar Dargohquli qaysidir jangdan salomat qaytgani uchun xotini Xirdaxonim bilan birga Bibihaybat ziyoratiga kelgan va ularning uylariga kirishgandi. Ayol erining sog' qaytgani uchun Imomzodaga nazr keltirgandi. Shu-shu har gal Bibihaybatga kelishganda, ularnikiga kirib o'tadigan bo'lishdi.

Dargohquli yetim qizaloqni tizzalari ustida erkalatib o'tirardi. Xirdaxonim har gal unga yangi kiyimlar olib kelar, qizchani sochlarini yuvib, o'rardi. Qo'shnilari Valiyuloh otaning kulolchilik ustaxonasidan ham ularnikiga nazr kelib turardi.

Oradan bir yil o'tib, Xirdaxonim kichkina o'g'li bilan birga keldi. Dargohquli amaki bilan shayx Karbaloyi Bibihaybatning hurmatiga bolaga Bibiquli deb ism berishdi. Shuning xursandchiligiga Xirdaxonim qizaloqning qulog'iga qirqtugma sirg'a taqib qo'ydi.

–Amaking sen uchun yasatibdi,–deya Dargohqulini ko'rsatgandi ayol. Nasib etsa amaking kelin bo'lganingda bunday ham yaxshisini ko'rmanaga olib keladi.

Erga tegib, saroyga kelganidan so'ng Bibixonim Dargohqulini ko'rmagandi. Uning yuzi ham esidan chiqib ketgandi. Ammo ovozidan tanidi:

–Xush ko'rdik, Dargohquli amaki, Xirdaxonim xolam tuzukmi?

–Baraka top qizim, esingdan chiqarmabsan. Xolang ham yuribdi, o'zing ko'rganingdek,

–Menga biror gapingiz bormidi?

Qariya uning qulog'iga yaqinlashib shivirladi:



–Qizim. shu minoraning tagida kechadan beri notanish odamlar o‘ralashib yuribdi. Dushman bu yerda nimadir rejalashtirgan.

Qiz minoraga chiqib. Dargohquli ko‘rsatgan tarafga qaradi. Chindan ham pastda. ancha olisda dushman g‘oziylari ivirsib yurganini ko‘rdi.

–Dargohquli amaki. Siz ularga ko‘z–quloq bo‘lib turing, – dedi Bibixonim. O‘zi bu haqda kechasi bilan o‘ylab chiqdi. Ertalab yashirin yo‘l bilan qal‘adan chiqarkan, shu tarafni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib ketmoqchi edi.

Ismoil bilan yuzlashgan onda yashirin eshikdan uzoqlashganiga besh daqiqa ham bo‘lmagandi. Avvaliga dushman sarkardasi eshikni ko‘rib qolmadimikin, degan xayolga ham bordi. Keyin sarkardaning biroz avval dengizga xayolchan tikilib turganini esladi. Otining jilovini egar qoshiga bog‘lagandi. Egnida oq, zar yoqali zarbof chopon kiygandi. Chopon tagidan esa sovut kiygandi. Boshiga o‘n ikki burchakli qizil papoq kiyib olgandi. Shu yodiga tushib, Sul-tonxonim xotirjam tortdi. Sarkardani yana bir diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Shu onda qarshisidagi kimsa shoh ekaniga shubhasi qolmagandi. Shu bois xotirjamlik bilan berilgan savoliga javob qaytardi.

–Men sizlarning bo‘lakingizdan emasman.

–Sen kimsan?

–Dushman qasdan yer bilan yakson qilishni istagan bu mamlakat askarlaridan biriman. –U boshi bilan qal‘a tarafga ishora qildi.

–Bu yerlarda nima qilib yuribsan? Qal‘a qamalga olingan–ku?

–Sen nima uchun kezib yurgan bo‘lsang. men ham shuning uchun...

–Demak, sen G‘ozibey ekansan–da?

–Xuddi shunday.

–G‘ozibey saroyda emas degan gaplar yuribdi.

–Odamlar aytaveradi. Menga ham seni niqobda yuradi. deyishardi.

Ismoil xuddi shu asnoda yuzini ochib yurganini, notanish odam bilan suhbat qurayotganini esladi.

–Sen mening elchimni osishga qanday jur’at etding? Elchiga o’lim yo’qligini Shirvonshohlar saroyida senga o’rgatishmaganmidi?

–O’zingni qo’lga ol! Elchi o’zini elchidek tutganida edi, unga hech qanday yomonlik qilinmas edi. Holbuki, sening elchilaring o’z maqomini, o’z haddini bilmaydigan odamlar ekan.

–Meni qo’pollikda ayblama! Men bu dunyoda qanday muomala ko’rgan bo’lsam, shu taxlit javob qaytarishga o’rganganman. Men bobom, otamning Shirvon mulkida Farrux Yasor ismli g’ayridin tarafidan qalt etilganini yaxshi bilaman.

–Ular Ardabilidan bu yerga kelishmaganda, hech kim ularga qo’l ko’tarmasdi.

–Ularning Allohning payg’ambari va rasulullohning vasiysi Ali Murtazoning amallarini yoyish yo’lida shahid bo’ldilar. Mening yo’lim hazrati Alining yo’lidir. Men Alining Qambariga qambarman.

–Ma’zur tut, biz taraflarda Qambar deb manavi oyoq ostida yotgan toshlarga aytiladi.

Sultonxonimning so’zlari Ismoilning yuragiga xanjardek sanchildi, beixtiyor qo’li qilichining dastasiga yugurdi. O’z kuch–qudratiga ishongan yoshlarga xos o’ktamlilik bilan xitob qildi:

–O’zingni himoya qil, men seni erkakchasiga jangga chorlayman. Haq kimning tarafida bo’lsa, to quyosh chiqquncha o’sha g’olib bo’ladi. Shunday deya u qilichining uchi bilan mashriq tomonni ko’rsatdi.

–Yigit, mening qalqonim yo’q. Lekin jangdan qochadigan nomard emasman. Ammo, kel, aka bilan ukani qirpichoq qilmaylik. O’zing ham yaxshi bilasan, urush ikki dushman xalq orasida ketmayapti. Qiradigan ham, qiriladigan ham bir elning farzandlari. Og’a inining qonini to’kadi. Shirvonda ham, bu yerda

ham. Mayli, sen aytgandek bo'lsin. Kim mag'lub bo'lsa, qo'shini ham taslim bo'ladi. G'olibga bay'at qiladi. Qani, Alloh kimga madad berarkin?

–Yo Alloh...

–Bu dunyoda hamisha qochgan ham, quvgan ham Xudo deydi. Tiling burrogina ekan, ko'raylikchi qiliching qanaqa ekan?

–Men ham shuni ko'rmoqchiman...

Ikkovi ham qilichga qo'l cho'zdi. Ufq qizargan joyda quyosh mis tangadek qizarib bosh ko'tarmoqda edi. Bu on ikki raqib shiddat va havas ila qilichbozlikka o'tishgandi. Chetdan qaragan odam ularni shunchaki mashq qilayotgan bo'lsa kerak, deb o'ylardi.

Solih biroz narida, qoyatosh panasida turar, zarur paytda ko'mak berishga hozirlashmoqda edi. Joy tor, bemalol olishish uchun imkon yetarli emasdi. Shu bois ular ot ustidan kurashish maqsadga muvofiq emasligini anglashdi.

–Otdan tushasanmi, yigit?

–Tushaman.

Har ikkisi sakrab otlaridan tushishdi. Qilich zarbalari yana avjiga mindi. Shu onda minora ustidan o'q uzildi. Qal'a tepasidan ovozlar kela boshladi:

–Ur bosqinchi yovni!

–Ey, axmoq o'qing xato ketib, Sulton xolnimga tegsa nima bo'lishini bilasanmi? Agar shunday bo'lsa, o'zim kallangni olaman, og'ayni!

–Nima, unda biz qarab turaveramizmi? Bo'lmasa arqon otib, bu yaramas qizilboshning kallasiga sirtmoq solaymi?

–Mardona jang qilamiz, deyishdi—ku, Ishing bo'lmasin!

Quyosh yog'dulari kuchayib, jangchilarning zirh va qilichlariga urilib, yarqiratdi. Goh—gohida ikki raqib quyoshga ko'zi tushganda, yuzini burib olar, lekin darhol dushman zarbasiga duch kelmaslik uchun esini yig'ardi.

Bellashuv borgan sari qizir, zarbalar soni ortgani sayin ikki raqibning yuzidagi g'azab, shiddat uchqunlari ham alanga ola

boshladi. Qal'a tepasidagilar Sultonxonimning g'alabasini tilab duoga qo'l ochib turishardi.

Ko'zlariga quyosh nuri sanchilib, qamashtirgach, sohil qumlari oyog'i ostidan sirg'alib, Ismoil kutilmaganda cho'kkalab qoldi. Sultonxonim fursatni qo'ldan bermadi. Darhol qilichini chetga irg'itib, kamariga qistirilgan xanjarini sug'urdi. Bu xanjarni to'y kuni qaynotasi Farrux Yasor hadya qilgandi. Sultonxonim tizzasini chalqancha yiqilgan shohning ko'kragiga bosgancha. Dog'iston po'latidan quyilgan o'tkir xanjarini raqibining bo'g'ziga qadadi. Shu on uning ko'zlari raqibning nigohlariga to'qnashdi. Beixtiyor vujudiga nedir iliqlik oqib kirganini tuydi. Beixtiyor ayol vujudidagi shiddat so'nib, qo'llari bo'shshishb qolganini his qildi. O'lim bilan yuzma-yuz turgan yigitning hatto soqol-murti ham nish urmagandi.

«Tavba, bu hali go'dak-ku? O'sha mashhur sarkarda shumi? Balki adashayotgandir? Yo'q, bo'lishi mumkin emas! Bu Shoh Ismoilning o'zginasi!» Shartta u raqib ko'ksi ustidan tizzasini nari tortdi va xanjarini yana qiniga joyladi.

Allaqachon jonidan umidini uzgan yigit ko'zlariga ishonolmasdi.

«O'ldirmadi. Axir bir lahza qolgandi-ku? Yo qo'rqdimi? Yo qo'rqqanimni sezdimi? Bu o'limdan ham battar-ku? Balki hali kimligini yaxshi anglab yetmagandir?»

Qal'a ustidan «ofarin» «moshoolloh» singari xitoblar yog'ilardi. Ammo shu onda qamaldagilar ko'z oldida ularning sarkardasi yerda ag'anagan raqibining qo'ldan tortib turg'azarkan, bir qadam orqaga chekinib unga nimadir dedi.

—Tur o'rningdan yigit—dedi Sultonxonim unga kinoyali tikilib. — Biz taraflarda birinchi marta yiqitish bilan o'ldirishmaydi.

Ismoil o'rnidan turdi. Telbavor na'ra tortib, yana o'zini raqibining ustiga tashladi. Qo'qqisdan hujumni kutmagan Sultonxonim o'zini yo'qotib qo'ydi. Shu onda boshidagi

dubulg'asi yerga tushdi—yu, bir juft kokili yelkalari osha ilondek to'lg'andi.

Ismoilning ko'zlari hayratdan chaqnaq ketdi:

—Subhonolloh, ayol kishi ekan!

Ayol tezlik bilan dubulg'asini boshiga bostirdi—da, bir sakrab otga o'tirgancha, undan uzoqlashdi.

Hayrat domiga tushgan Ismoil esa, og'zini ochgancha uning orqasidan tikilib qoldi. «Ayol ekan! Ayg'oqchilar keltirgan xabar rost bo'lib chiqdi. Bu kunimdan o'lganim yaxshimasmidi? Unda nega u o'zini G'ozibey deb tanishtirdi? U Farrux Yasorga kim bo'larkin? Qizimikin yoki kelini?»

Shu xayollar bilan ham yosh Ismoil raqibining kim bilan qaysi tomonga qarab ketganini anglolmay qoldi. Bir muddat qotib turgach, shartta o'midan turib, o'z chodiri tomon yo'l oldi. Qal'a tepasidagi shinaklardan ularni kuzatib turgan qo'riqchilar va shahar himoyachilari ham hayron qarab turishardi.

—Manga qara, Jonqobil, xanjarni naq bo'g'ziga qadagandi, kallasini shartta olib tashlasa bo'lardi. Nima bo'ldi o'zi, tushunolmay qoldim.

—Ayol zotini tushunish qiyin. Ularning maqsadi bir Allohga ayon.

—E, gapingni qara, urushganini ko'rdingmi? Uning nimasi ayol? Uncha—muncha erkakning o'ntasini yer tishlataman, deb turibdi—ku?

Kim bilsin, aynan shu onda, voqea ishtirokchilarining ko'zi o'ngida «Shoh Ismoil va Arabzangi» dostonining poydevori qo'yilgandir?

\*\*\*

Ismoil niqobini tushirib, o'z chodiriga qaytib kirganida, g'oziyalar bomdodni tugatib, uni kutib turishardi. Kimdir hujumga, yana kimdir tuprog'i olib chiqilgan lahmda qazish ishlarini olib borish uchun chuqurlarga tushishga hozirlashar, yana bir qism askarlar otlarini sug'orish, qilichlarini charxlash bilan ovora

edilar. Askarlar o'z ishlari bilan ovora ekan. shayx o'g'li Shohning misralarini ohangga solib, kuylashardi:

*Yaqin bil Abjadu burhon Alidur,  
Bayoni tavhidu Qur'on Alidur,  
Bu bechora Xatoyining panohi,  
Davosiz dardlarga darmon Alidur.*

Ismoil chodiriga kirib, nonushta qilishga o'tirdi. 8–9 yoshli zanj yugurdak dasturxonga turli noz–ne'matlarni tera boshladi. Boshqa bir qul uning tepasiga tovuş patlaridan yasalgan yelpig'ich bilan pashshayu chivinlardan shohning muborak yuzini pana qilib turardi.

Shohning nadimi o'zi tengi bir sarkarda edi. U ham tamaddi uchun shohning qarshisidan joy oldi. Xizmatchilar chilobchin tutib, ularning qo'llariga suv quyishdi. Har ikkovi bittadan qovurilgan jo'jadan tanovil qilib, o'midan turdi. Ismoilning ertalabki sarguzashtidan bexabar nadim hukmdorning nima uchun xomushligini tushunolmay, uning kayfiyatini ko'tarish choralarini izlardi.

Ismoil esa, jangda uning qonidan o'tgan ayolning ko'zlarida onalik mehrini his etar. vujudi xijolatdan jiqqa ter ichida qolgandi:

«Demak, u mening yoshligim uchun o'ldirishga ko'zi qiymadi. Men esa, uning ayol ekanini tushundim. Nima dedi? «Bu urush ikki dushman xalq o'rtasida ketmayapti, dedimi? Qiradigan ham, qiriladigan ham shu xalqdan bo'ladi, dedimi? Ha! Ayolning farosati shu–da! Tushunmadim! Erkakka qara! Shoirga qara! Men his–tuyg'ularini turli urushlar, qirg'inlar o'tmaslashtirib tashlagan askarga aylanib boryapmanmi? Buni nega oldinroq, u menga omonlik berishidan avvalroq tushunib yetmadi».–deya o'z–o'zini koyirkan, hali oldinda, jang maydonida bir necha ayollar bilan yuzma–yuz kelishi mumkinligidan xabardor emasdi. Chaldiran urushida Tojli xonim, jang qila–qila, mag'lubiyatdan xalos bo'lib, qizilbosh g'oziyolari tarafidan maydondan olib chiqib ketishidan, Behruza xonim esa,

sulton Salimga asir tushishidan, Shoh Ismoil uni qaytarib olish uchun bir necha bor elchi yuborishiga qaramasdan, sulton ayolni saroydagi shoirlardan biriga erga berib yuborishidan bexabar edi.

Ismoil albatta hali bularni bilmasdi. U o'z xayollariga tolgancha ovqatlanar, nadim uning parishonligi boisini bilolmay xunob edi. Ismoil chodiridan chiqqanida hujum uchun hamma narsa tayyor edi. Shayxulislom qo'llarini tepaga ko'tarib, duo qildi:

–Xudoyo xudovando, sening dushmanlaring ila, Shayx Junayd, Shayx Haydar jannatmakonning qotili yazidiy Yasorning pastkash tarafdorlari bilan jangda podshohimizning qilichini muzaffar ayla. Sen belgilab bergan yo'ldan yurmagan. rasuling va uning izdoshlariga bo'ysunmagan, ahli bayt qotili bo'lgan kimsalar yo'lini tutganlarning qoni haloldir! Hukmdorimiz dushmanlari o'z qoniga g'alton bo'lgay! Parvardigoro o'zing askarlarimizni sarbaland et! Dushmanlarimiz ustidan zafar qozonmog'imizni taqdir ayla. Bu jangda shahid bo'lgan yigitlarimizga o'zing jannatingdan joy ato et. Omiyn, yo rabbil-olamiyn!

Duo tugadi. Hamma yuziga fotiha tortishi bilan atrofni karnay sadolari tutib ketdi. Baxshilar oldingi safda turib, qo'shinni sharaflovchi jangovar o'lanlarini boshlashdi. Shoh shundagina olis bir dunyodan qaytgandek bo'ldi.

Qo'shqal'a eshigi oldidagi ikki yon minora ostida qamalchilarning hujumi boshlandi. Qal'a mudofaachilari devorga tiralgan narvonlardan dushmanlarning tepaga tirmashishiga yo'l berishmadi. Juda qulay joylashib olishgandi. Dushmanlar ulardan pastda, ochiq maydonda. lagan ustiga sochilgan guruch donalaridan aniq ko'rinardi. Shinaklardan yog'ayotgan o'qlarning birortasi ham bekor ketmas, yer ostida olib borilayotgan lahm amaliyotidan bexabar shaharliklar qal'a ustida sherdek urishardilar.

Yosh qizilboshlar ham Shayh Haydar ibn Junayd So'fining muridlari sifatida yosh Ismoilga hayrat va ixlos to'la nigoh bilan

qarashardi. Bu nigohlarda bir ibodat, e'timod, iymon va e'tiqod barq urardi. Qalblari Xatoiyning bir baytini yurak tepkilari, tomir urishiga hamohang bir zarb ila kuylardi:

*Yo Muhammad, Mahdii sohibzamon, ayla zuhur.*

*Naslini qat' ayla mushriklar ila kofirlarin.*

Ular endi Ismoilga topinishardi: «Mahdiy –sohibi zamonning zuhur etishini talab qilasan she'rlaringda; ammo vohidi mutlaq parvardigor bizga ilhom etadiki, ehtimol, ana shu sohibi zamon sen o'zingsan».

Rostdan ham, muridlarning ba'zisi uning siymosida kelajakda zuhur etishi va'da qilingan o'n ikkinchi imomi Mahdii sohibi zamoni ko'rishardi. Shuning uchun ham narvonlarni devorga tirab qal'aning ustiga mard yurak bilan chiqib, yomg'irdek yog'iladigan o'qlarga ahamiyat berishmas, narvonlardan ag'anab tushishar, yana o'rnilaridan turib, hujumga kirishardi. Qal'a ustiga eng avval Devsultonning o'g'li chiqa oldi. U bo'zluk bayroqdori edi. U yashil bayroqni minora uchiga qadadi. Ammo shu onda shahar ichidan otilgan o'q uning kuragiga sanchildi. Qal'aning bu tarafiga narvon ostiga yuztuban ag'anadi.



## LAHM AMALIYOTI

Dargohquli amaki oqshomga yaqin uyga qaytdi. Bir luqma yemak yeb, yana o'zi navbatchilik qilayotgan minoraga qaytishi kerak edi. Yuragi taka-puka edi. Minoradan sal narida borayotgan lahm amaliyotidan xavotirda edi. Dushman u tarafda nimadir qilayotgani aniq. Dargohquli va uning do'stlari har qancha urinsalarda, buni aniqlay olishmadi.

U hovliga kirganida Bibiquli eshik oldida, Xirdaxonim hovlida xavotirnok kezib yurganini ko'rdi. Ular Dargohqulini ko'rib, xursand bo'lishdi.

–Yaratganga shukur, sog'–salomat qaytibsiz.

–Nimang bor, xotin? Tez bo'l, ochimdan o'lay deyaipman.

Xirdaxonim darhol jonlandi:

–Ertalab ovqat ham yemay ketgansiz, axir...

U shosha-pisha hovlidagi pista daraxti ostiga to'shak soldi. Ko'rpacha to'shadi. Quroq dasturxon yozib, ustiga sirkada o'ldirilgan piyoz, non, tuz, qalampir, tutmayiz keltirib qo'ydi. Alvon chinni kosalarda ko'fta-bo'zboosh suzib keldi. Ovqatga solingan za'faronning hidi Dargohqulini bahri dilini ochdi. Ishtahasi ochilib ketdi. Bir on dushmani ham, qamalni ham, minora ostida ketayotgan ishlarni ham unutib yubordi. Dasturxon boshida o'tirib, tamaddi qilishga o'tirdi:

–Gulalining qizi, umringdan baraka top. Ovqating rosa shirin bo'пти. Maza qildim.

–Osh bo'lsin, dadasi, o'zingiz charchamadingizmi? Nima gap o'zi?

–Nima bo'lardi? Urush–da! Himoya qilyapmiz. Allohning o'zi asrasin. Shirvonshoh yetib kelguncha chidab bersak bo'ldi.

Ayol bir erining, bir o'g'lining xavotir oralagan yuzlariga qaradi. Bibiquli dasturxon boshida kattalarning ishiga aralashishni o'ziga munosib ko'rmay, ovqatini ichganicha, ularga quloq solib o'tirardi. Xotin qiziqishini yashira olmadi.

–Shirvonshoh Farrux Yasorni o‘ldirishibdi. degan gap so‘zlar yuribdi. O‘g‘li ham qal‘adan chiqib ketibdi.

–Ha bunaqa gap–so‘zlar menga ham yetib keldi. Bilasanmi, bugun kimni ko‘rdim?

–Kimni?

–Shayx Karbaloyi esingdami? O‘shaning nabirasi Bibixonimni.

–Rostdanmi?! Bu qizni G‘ozibeyga tekkanidan beri ko‘rmagandim.

–Men ham. Qal‘ani shu qizning o‘zi qo‘riqlayapti.

–Shunaqa deng?

–Rost. Oldimizga erkakcha kiyinib keldi. Bir shahzodaning shaharda yo‘qligi, erkakcha kiyimda sarkardalarni boshqarib yurganini eshitgandim. Esingdami? Ko‘rishim bilan tanidim.

–U ham sizni tanidimi?

–Oldin tanimayroq turdi. Keyin o‘zimni tanishtirdim. Seni ham so‘radi. Bibiqukini ham.

–Baraka topsin. O‘zi yaxshi yuribdimi?

–Juda yaxshi. Ammo, jangga qattiq kirishgan ko‘rinadi. Nima bo‘lganda ham urush ayol kishining ishi emas.

–Ilohim dushmanlarimizni zabun qilsin. Uyimizda tinchgina o‘tirgan edik–a? Boshimizga ne kunlarni solishmadi.

–Bilasizmi, nima? – Dargohqulni o‘rnidan turib, qo‘liga qilichini olgan paytida xotini qo‘rqib ketdi.

–Ketyapsizmi?

–Ketishim kerak, Gulalining qizi! Xalqning qizlari maydonga tushganida, erkaklarning uyda o‘tirishi uyat.

–Bizdan xavotir olmang, siz o‘zingizga ehtiyot bo‘ling!

–Sen ham bolalardan ko‘z–quloq bo‘l. Huda–behuda ko‘chaga chiqarma. Dunyoning ishlarini bilib bo‘lmaydi, Gulalining qizi.

–Allohgga omonat. Xotirjam boravering.

Dargohquli xotining oldida ham tortinib, bolasining boshidan o‘polmadi. Qo‘li bilan uning peshonasini siladi.

–Sen mening aqlli bolamsan. Onangga ehtiyot bo‘l. So‘zidan chiqma! Ot izini toy bosadi. Izimda qolgin.

Har uchovi bir–biridan ko‘z–yoshlarini yashirishardi. Erning ham, ayolining ham bo‘g‘ziga nimadir tiqilgandi. Dargohquli g‘alati bir his ta‘sirida eshikdan chiqdi. Xirdaxonim erining ortidan ko‘chaga suv sepdı.

... Dargohquli minoraga yetganida, qosh qoraygandi. Soqchilardan ba‘zilari namoz o‘qir, ba‘zilari boshini shinakka qo‘yib, dushmanlarning harakatini kuzatardi. Qarshidagi maydonchada neftga belangan tezak parchalari uyulgandi.

Mudofaachilardan biri Dargohqulini ko‘rishi bilan imlab uni yoniga chaqirdi. Bu uning qo‘shnisi Valiyulloh kulol edi.

–Dargohquli, anavi yerga diqqat bilan qara. Xuddi quduq qaziyotganga o‘xshaydi. Nazarimda xarrak bilan tuproq tashishyapti. Sen urushda ko‘p bo‘lgansan. Qara–chi?

–Bu yerda quduq nima qiladi? To‘xta, ular lahm qazishyapti–ku? Bu haqda Bibixonimga darhol xabar berish kerak.

Xuddi shu payt qo‘rqinchli shovqin eshitildi. Dargohqulining gapi og‘zida qoldi. Minora kuchli zilziladan silkingandek titradi. Toshlar birini ketin har yoqqa sochila boshladi. Hammayoqni quyuq chang to‘zon qopladi. Ko‘z ko‘zni ko‘rmas, atrofni shovqin, oh–voh ovozlari tutib ketgandi. Devor ostida namoz o‘qiyotganlarning ham anchasiga tosh tegib yaraladi. Minora ustida turganlarning birortasi ham sog‘ qolmagandi. Dargohquli bilan Valiyullohning ham jasadlari toshlar ostida qolib ketdi. Sog‘ qolgan, kamroq jarohat olganlar o‘z do‘stlarini tosh–tuproq orasidan qutqarishga kirishdi.

Noxush xabarni eshitgan Sultonxonim ot ustida voqea joyiga yetib kelganida, jasadlar bir joyga to‘plangandi. Bibixonim Dargohqulining jasadi ko‘rib, o‘zini tuta olmadi. Ko‘zlaridan duv–duv yoshlar oqdi.

–Sho‘rlik amakim,–deya pichirladi. O‘lganlar haqida kerakli topshiriqlarni berganidan keyin, minora o‘rnida ochilib

qolgan kattakon yoriqqa qarab, o'ylar botdi. Nimadir qilish kerak. Bo'lmasa, dushman shabixun urib, yarim kechasi qal'aga bostirib kiradi. Bu yer Shirvonshohlar saroyining eng yaqin minoralaridan biri bo'lgani uchun uning qulashi katta tahlikalarga sabab bo'lardi. Sultonxonim biroz o'ylab turgach, hojibni yoniga chaqirdi:

–Hojib, uylarda qancha kigiz, namat bo'lsa, to'plashsin. Kutaman.

Bir necha sarboz mahallar tomon ot qo'ydi. Ko'p o'tmay, odamlaridagi bor kigiz–namatlari, topolmaganlar eski gilam yoki to'shamalarini olib kela boshlashdi. Sultonxonimning amri bilan to' dushman bu holatdan xabar topguncha minora yorig'ini namat va sholchalar bilan tiqib, zichlab berkitishga tushishdi.

... Ertasi kun ertalab, Bayrambey Qoramoni portlatilgan minora oldiga kelganida, ko'zlariga ishonmadi. Bir kechada ochilgan yoriq berkitilgan, baland devor tiklangandi. Bayrambey Qoramoni shoh huzuriga yugurdi.

–Qiblai olam, tadbirimiz ish bermadi. Shimol darvozasi tarafidan bo'ladigan hujumni to'xtatishimiz kerak.

–Nega?

–Qal'a mudofaasiga kim boshchilik qilayotgan bo'lsa, juda dovyurak, tadbirkor odam ekan. Ochilgan tuynukni namat–kigizlar bilan zichlab berkitishibdi. Uni ochish uchun ancha ter to'kish kerak bo'ladi.

Bayrambey sarkardaning mardligidan so'zlarkan. Ismoil Qiz qal'asi oldida u bilan qilichbozlik qilgan ayolni xotirladi.

Qulog'ida ayolning aytgan so'zlari aks sado berardi: «Qiradigan ham, qiriladigan bir millatning farzandlari...», «ne uchun og'ani ini bilan qirpichoq qilmoqdasan, hukmdor?» Ammo shoh Ismoil ota–bobosining qotilidan o'ch olmaganicha, o'zi ishongan e'tiqodni tarqatmaguncha ko'ngli joyiga tushmasdi.

Tamom! Sharoit uni shunga o'rgatgandi. Intiqom hissi unga ona suti bilan kirgandi go'yo. Boshqa gap yo'q!!!

... Urush qaytadan har ikki darvoza qarshisida, ham Qo'shqal'a eshigi, ham shimoliy darvoza oldida yangicha quvvat kasb etib, jonlandi.

Baxshilar jangchilarni ruhlantirish uchun jangovar o'lanlarni boshlasldi. Ular jangchilarning old tomonida ketib borishardi. Ko'p o'tmay jang boshlandi. Karnay sadolari dunyoni boshiga ko'tarib, jangchilarning qonini jo'shtirdi. Ular qal'a devori tomon seldek oqishar, o'zlarini «Jahonoroyi Shoh Ismoil» muallifi aytganidek, «jang daryosiga yurishardi»

Bokuliklar yana uch kun mudofaani davom ettirishdi. Shaharning barcha minoralari va darvozalari oldida shiddatli janglar borardi. Qamalning yettinchi kuni shahar zabt etildi. Lekin hamon bokuliklar taslim bo'lishni istamas, itoat haqida so'z ham bo'lishi mumkin emasdi. Shaharning egri-bugri, tor ko'chalarida, dahalarida, mahallalarida qonli to'qnashuvlar yuz berar, har bir uy qarshilik ko'rsatar, har bir xonadon bir qal'aga aylandi. Qamalning yettinchi kuni shohning hukmi bilan Bayrambey shahar bo'ylab jar soldirdi:

«O'z ixtiyori bilan taslim bo'lmagan, Aliyul-Murtazo demagan, Yazidiy Farrux Yasorga la'nat o'qimagan kimsalarga omonlik berilmasin. Bolalar ham, erkaklar ayollar ham, keksalar ham agar qarshilik ko'rsatishsa, qilichdan o'tkazilsin».

... Oqshom payti qizilboshlar g'oziyalarning mayitlarini yig'ib shahid qabrlariga dafn etmoqchi bo'lishdi. Ularni dushman jasadlari orasidan ajratib olisharkan, bir qancha bokulik ayollarning ham murdalariga duch kelishdi. Shaharning ayol himoyachilari erkak libosida bo'lishsa-da, ularning oppoq yuzlari, yoyilgan sochlaridan aniq bilinib turardi. Xulafobey antiqa havas hissi bilan yuz bergan hodisalarni so'zlayotganda, yosh podshoh dedi:

—Ayollarning mayitlarini alohida jamlang. Shahidlarimiz qabrlari yonida ularni ham izzat-ehtirom ila dafn qiling.

\* \* \*

Tarixda shunday hodisalar borki, aynan takrorlanadi. Xususan, aynan bir xalqning qismatida. Vaqt o'tadi, Ismoilning bugungi amrini Chaldiran mag'lubiyatidan keyin, jang maydonida Tabriz ayollarining jasadlarini ko'rgan Sulton Salim berishi lozim edi.

\* \* \*

Sultonxonim Boku mudofaasining yettinchi kuni qaynotasi Farrux Yasorning o'lganiga ishonch hosil qildi. G'ozibey qayerlardadir boshi jang-jadaldan chiqmay yurganini tasmolladi. Tashqaridan keladigan yordam kuchlaridan ham umidini uzdi. Shuningdek, saroy a'yonlarining taslim bo'lish haqidagi beto'xtov iltimoslariga ham quloq osmadi. Malikaning ham talablari javobsiz qoldi. U antiqa o'jarlik bilan kurashni davom ettirar, shaharni topshirishni aqliga ham keltirmasdi. Hozir uni saroyda ko'rishning inkoni yo'q edi. Ko'chadagi to'qnashuvlar uning fikri xayolini egallagandi. Sultonxonimning saroyda yo'qligidan foydalangan mulozimlar allaqachon shaharga kirgan shohning xizmatiga o'tish uchun elchi jo'natib, omonlik so'rash qaroriga kelgandi.

\* \* \*

Qal'a maydonida ancha-muncha odam to'plangandi. Qo'lida ochiq Qur'on tutgan 70 kishi ilgarilab borardi. Har qadamda «hukmdorim, afv eting, omonlik bering» deb borishardi. Bo'yniga kafan osib, «al-afv» deb borayotgan bu olomon Ka'ba tavofi uchun otlangan hojilarni esga solardi. Yosh Ismoil odati bo'yicha niqob taqqan bo'lsa-da, uning teshiklaridan kelayotgan odamlarning vaziyatini ko'rib, ich-ichidan g'urur va kibr hissini tuymoqda edi.

Yonida davlat arboblardan bir qanchasi turishardi.

Otalig'i Lala Husayn Bekdili, Muhammadbey Ustajli, Bayrambey, Shirvonshohlarning qishqi qarorgohi Boku qal'asini fath etishga yuborilgan sarkarda Xulafobey ham shu yerda edi. Hamma zafar quvonchini tuymoqda edi. Yetmish nafar mulozim

Qur'onni boshlari uzra ko'tarishdi. Tizzalagancha, shoh turgan joyga emaklashdi.

Ularning bari shohga yaqinlashgan onda, o'zlarini yerga tashlab:

–Omonlik, hukmdorim, omonlik, –deya faryod urishdi.

Qal'a devorlari ustida, uylar orasida hamon qilichlar jarangi eshitilardi. Taslim bo'lishni istamagan bokuliklar qilichdan o'tkazilardi.

Bu ovozlarni Ismoilning muzaffar, tiniq ovozi bosdi:

–Faqat bir shart bilan omonlik beraman: xunbahosi uchun ming ashrafiy oltin to'laysiz, saroy xazinasini topshirasiz, bobom shayx Junaydning qotili bo'lgan Yazid Ibrohimning qabrini ko'rsatasiz!

–Bajonu dil, qiblai olam, bajonu dil.

–Izn bersangiz, topshiraylik!

–Izn...

... Maydonda qoziaskar tik oyoqda turardi. Taslim bo'lgan shaharliklar navbat ila uning qarshisidan o'tardi. Qozi ularga navbatma–navbat kalimai shahodatni aytirar, kalimaga Hazrati Ali nomini qo'shishni so'rardi. Bunga ko'nmaganlarni alohida guruhda jamlashardi. Hali ular oradan bir necha kun o'tib, Suvqayti daryosi Hazarga qo'yiladigan joyda qilichdan o'tkazilishini, keyin hamma jasadlar shu yerda kattakon bir chuqur qazilib ko'milishini bilishmasdi. Bu ommaviy qabriston keyinchalik Qoratepa nomini olishini ham u paytda hech kim bilmasdi.

Shialikni qabul qilish marosimi shahar ashroflarining Ismoil bilan suhbatı vaqtiga to'g'ri kelgandi. Hali shialikka o'tganlar ortga o'girilmay turib, kimdir «anavi tarafga qaranglar» deb yubordi.

Hamma qatori hukmdor ham beixtiyor o'sha tarafga o'girildi.

Qiz qal'asining ustida nozik gavdasiga mos sovut kiyib olgan bir jangchi turardi. Hamma jim qotgani uchun uning ovozi hammaga birdek jaranglab eshitildi:

–Kimdan omonlik tilayapsiz, xoinlar? Nega vaqtida hammangizni o'limga buyurmadim? Shu kuningizdan ko'ra o'lganingiz yaxshimasdimi?

Jangchi shu gapni tugatishi bilan bor ovoz–la «alvido, ona yurt» deya o'zini pastga otdi. Hayratdan katta–katta ochilgan ko'zlar qarshisida avval uning boshidagi dubulg'a otilib ketdi, keyin esa ikkita katta–katta kokili havolanib, o'z sahibi bilan dengizga otildi.

–Bibixonim sultonim!

–Sultonxonim.

–Hukmdorning kelini, –singari xitoblar ketma–ket yangradi.

Ismoil bu kokillarni ikkinchi bor ko'rib turardi. Birinchi marta bu ayol uni yakkama–yakka jangda yengib, omonlik berganini aniq esladi. Hukmdor hayotida ayollar bilan kamdan–kam holatda yuzma–yuz kelgandi. Ular yo Ismoilni dushmanlardan yashirgan, yo ovqatini yedirgandi. Onasidan boshqa faqat o'z otalig'ining ayoligina unga onalik mehri bilan qaray olgandi. Bu go'zal ayol uni ofatlardan asrab kelgan otaliq singari unga sidqidildan xizmat qilardi. Keyinchalik nisbiy ozodlikka erishganida, 13–14 yoshida bir sarkarda sifatida shakllangan paytida ham hali qiz–juvonlar bilan uchrashmagandi. Hatto saroyda, yuzida niqob bilan yurgani uchun joriyalar ham undan o'zlarini chetga olishar, unga noz–ishva qilishga jur'at etisholmasdi. Otaliq va muallimlar tomonidan u hukmdor, shayx sifatida tarbiyalanmoqda edi. U o'z vaqtini yo kitob mutolaasi, yo jang–jadalda o'tkazardi. Tabiat undan o'z karamini darig' tutmagan, jang va siyosat uchun tug'ilgan bu bandaga shoirlik iste'dodini tuhfa qilgandi.

She'riyat unga tarbiyachilari istamagan, orzu ham qilmagan bir hisni baxsh etgandi. Ana shu tuyg'u endi bosh ko'tardi.



Ayni u ham beixtiyor «Sultonxonim» deya ojiz pichirladi. Uning bu jangchi ayol ila ilk uchrashuvi boshqalar uchun sir bo'lib qoldi. Vaqti kelib, u o'z qizini ham jasur ayol nomi bilan ataydi. Alhol, uning qalbi bir shoir yuragidek titroqqa tushgandi

«Dunyo o'zining qanchalar ajoiib—g'aroyib bir mo'jizasini yo'qotdi, ming afsus...»

Ammo bokuliklarning aksariyati Sultonxonimning o'lganiga ishonmadilar. Hatto Qiz qal'asidan sakragan qiz Bibixonim emas, dushmanlardan qochgan boshqa bir qiz ekanini aytganlar ham bo'ldi. Kimdir malika qal'adan sakrab tirik qolgan, degan gaplarni ham aytdi... Ammo aniq haqiqatni hech kim ayolmasdi.

\* \* \*

Boku arab sarkardasi Ash'os ibn Qays tomonidan qo'lga olinganidan beri o'tgan bir necha asr davomida bunday katta qirg'in va talon—torojga guvoh bo'lmagandi. Sahar bo'ldi. Shohi javonbaxtning amri bilan hojib unga Shirvonshohlar turbasini ko'rsatdi. Yosh qizilboshlardan bir necha nafari qo'llarida bel va ketmon olib, turbani buzishga kirishdilar. Sulton Ibrohimning qabrini ochishdi. Suyaklarini chiqarib, bir yerda to'plashdi. Keyin bir bo'yraga o'rab, yoqib yuborishdi. Bu manzaralari alvon g'alaba libosiga burkangan shoh va uning a'yonlari zavq ila kuzatishardi. Bu holatni dahshat ila kuzatayotgan shaharliklarga jarchi alohida «dars» bermoqda edi:

—Odamlaru odamlar! Ibrohim Yazidiyning ahvolini ko'rdingiz. Uning o'g'li Farrux Yazor ham shu holga tushgandi. Agar kimdakim, isyonga jur'at etsa, uning ham ahvoli bundan besh battar bo'ladi.

Shoxning farmoni o'qib bitirilgach, aholi orasida yoshi yuzdan oshgan bir qariya ajralib chiqdi. U Bokuning taniqli olimlaridan biri Imomuddin Bokuviy edi. U titroq, lekin baland ovozda ham shohga, ham uning a'yonlariga yuzlandi:

—Gunohkorni jahannamda yondirish bandasining emas, Allohning ishidir. Islom dinida tavhidga, Qur'onga ishongan

banda boshqa birovni o'tda kuydirmaydi. Allaqachon vafot etgan insonning suyaklarini qabrdan chiqarish, tahqirlash ham shariati islomiyaga ziddir.

Cholning gapi og'zida qoldi. «Sunniiy, Yazidi Shirvonshohlarning quli» deya uning bo'yniga sirtmoq tashladilar.

G'alabadan, otasining qotili deb bilgan Shirvonshohlar naslida intiqom olganidan sururga berilgan shoh atrofdagilarni kuzatarkan, ko'zi saroy a'yonlari orasida qora bayroqqa o'ralib olgan Shayx Muhammad Siyohpo'shga tushdi.

–Shayx janoblari bu g'alaba va tantana kuni nega qora kiyib olganlar?

Kulimsirab turgan a'yonlar qo'llarini ko'ksi ustida qovushtirib, haykaldek qotib turgan shayxga qarashdi. shayx qora sallali boshini biroz egib, so'z boshladi:

–Hukmdorim, men marhum otangiz, aziz ustozim Sulton Haydar vafotidan keyin qora kiyimdan boshqasini kiymadim. Mening sallam ham, choponim ham, belbog'im ham qop–qora.

Ismoil bo'ya ichida qirsillab yonayotgan suyaklarga ishora qildi:

–Sulton Haydarning qasosini olganimizdan mamnun emasiz? Bugun uning o'g'li sizni motam libosidan chiqishingizni istaydi, – deya u kaftini kaftiga urdi. Shayxga zarbof to'n keltirilsin.

Shayx Muhammad Siyohpo'sh boshini egib, qulluq qildi:

–Hukmdorim, ustozim dorul–baqoga rihlat qilganidan keyin men o'z nafsimni o'ldirib, zinhor qora libosdan boshqa...

–Shayx, bu juda a'lo! Siz dunyodagi eng qudratli ajdahoni o'ldiribsiz. Eng kuchli dushmanni mahv etibsiz. Siz qahramonsiz. Qahramonga esa, zarbof to'n yarashadi.

Shu onda yetib kelgan hudaychi shayxning yelkasiga zarbof to'nni tashladi. Shayxning hukmdorga qulluq qilishdan boshqa chorasi qolmagandi.

\* \* \*

Ismoil Otashgoh xabarini ancha oldin olgandi. Bokuda qulay fursat topishi bilan otashparastlar qiblasini sanalgan Suraxoniya shoshildi.

—Shusiz ham aslida musulmon boʻlgan sunniylarni shialikka oʻtkazish u qadar qiyin ish emas. Ammo 7–8 asrdan beri islomiyatdan qochib, otashparastlikka eʼtiqod qoʻygan gʻabrlarni islomga kiritish ulkan sharafdir. Bu savob yetti pushtimizga yetib ortadi. Tasavvur qiling, Rasululloh nasroniylik va yahudiylikni Alloh nozil qilgan din hisoblab, ulardan jizya undirish bilan kifoyalangan edilar. Lekin, mushriklarga, otashparastlarga, butparastlarga dinimizda shafqat yoʻq.

Ular Suraxoniya'dagi barcha otashparastlarni islomga kiritish maqsadi bilan Suraxoniya'ga yoʻl olishdi. Yoʻlda Ismoilga yaqin mulozimlardan biri shivirladi:

—Jonim sizga qurbon boʻlsin! Aslida suraxoniyliklarning koʻpchiligi otashparast, ularni islomni shunchaki tillarida qabul qilishgan xolos. Koʻpchiligi Hindistondan kelib oʻrnashib qolishgan.

Otashgohga yaqinlashganlarida, binoning baland gumbazi, toʻrtta minorasidan koʻklarga oʻralayotgan olov qizilboshlarning diqqatini tortdi.

Musulmonlarning «Bast» bitimiga asosan hindlarning aksariyati otashgohga, bir qismi esa, mahalliy sunniy musulmonlarga qoʻshilib, qishloq masjididan joy olishgandi.

Qishloqqa yaqinda tayinlangan imom masjidda, jarchi maydonda hammaga Shayx oʻgʻlining yaqinlashayotgani, shialikni qabul qiladiganlar omon qolishi, qolganlar qilichdan oʻtkazilishini xalqqa maʼlum qilishmoqda edi.

Oʻn ikki burchakli qizilkulohlilar Otashgohga yetib kelganida, koʻplar hujralarning kunjiga bekinib olishdi. Faqat keksa bir kohin oʻrtada hujraning markazida qoʻllarini qovushtirganicha, qotib turar, aftidan teran tafakkurga choʻmgandi. Lablari pichirlab, duo oʻqir, ammo ovozi eshitilmasdi.

Ismoil qiziqish bilan termildi. Dafatan uning ishorasi ila ikki qizilbosh kohinning ikki qo'lini ortga qayirmoqchi bo'lishdi. Ammo kutilmaganda, qariya ularning qo'llaridan yulqinib chiqdi. Tezda ibodatxona zinalaridan yuqoriga ko'tarildi. Keyin gurrillab yonayotgan muqaddas gulxan – dxoti qarshisida tushunarsiz tilda nimadir deb hayqirdi va o'zini olovga tashladi. Butun hujralardan achchiq faryod qo'pdi. Shohning shoir qalbi bir ongina ingradi. Ammo shoirning shohona yuragi zafardan hapqirdi.

«Yo rab, o'zini e'tiqodi yo'lida qurbon qilish, tiriklay olovga tashlash, mudhish bir jasoratdir! Bu qahramonni kimlardir qayerlardan kuzatib turgan bo'lishi kerak. Ular o'z piri murshidlari dinidan qaytmaslik uchun qanday qahramonlikka qo'l urganini ko'rishdi. Balki bu cholning menga ma'lum bo'lmagan ismi o'z hamqavmlari tilida bayroqqa aylansa ajabmas»

Otiga minib, ortiga qayrilgan shoh ana shularni ko'nglidan kechirardi. Negadir tilidan biror so'z uchmasdi. Faqat qo'l ishorasi ila ortida turgan odamlariga ergashishni buyurdi. Buyuk qurbon uni mag'lub qilgandi.

Suraxoniya qolmadi. Biror bir insonga shialik kalimasini majburan aytirmadi. Qishloq taqdirini yangi tayinlangan multasib va imonga topshirib, o'zi Otashgohni tark etdi.

## YILLAR O'TDI...

Hukmdor bu gal Tabariston va u yerdan Shirvon tuproqlariga qaytib kelganida, dunyoga mashhur podshohga aylangandi. O'rta Osiyoda, Iroqi Arabda, Kichik Osiyoda katta-katta hududlarni qo'lga kiritgan shoh shia-alavitiylar qiblagohi, yosh bo'lishiga qaramasdan, haqiqatga yetishgan piri murshid sifatida shuhrat qozongandi.

Endi uning shuhrati Istanbuldan Balxgacha, Darbanddan Bandargacha yetib borgandi. Tabariston va Shirvonga u fath uchun kelmagandi. Maqsad yanada ulkan edi. U Ardabilda shialar uchun yana bir muqaddas ziyoratgoh yaratmoq shavqi bilan yonardi. U o'z ona shahrini Samarqand va Najafdan ham yuqoriroq ko'rmoq istardi. U o'zi bilan avval bir dasta askar olib, avvaliga Tabaristondan otasi Shayx Haydarning xokini muvaqqat turbasidan tobutga solgan, Hazra qishlog'idagi Bobosi Shayx Junaydning jasadini ko'chirishga hozirlik ko'ra boshlagandi. U kelguniga qadar Devsultonning boshchiligida Ardabilda Shirvon, Boku, Ganja, Buxoro, Samarqand, Tabriz ustalari maqbaralarni tiklash ustida ish olib borishardi.

Ikki kundan beri hukmdor shosha-pisha bobosi shayx Junaydning qabri ustida tiklagan kichik savmaadan chiqmasdi. U chilladan darvishlar singari e'tikofga kirgan, bir burda non, bir ko'za suv bilan kun o'tkazardi.

Samur vodiysida daraxtlar yaproq ochgan, daryoning har ikki sohili yam-yashil libosga burkangandi. Tog'lardagi jilg'alardan hosil bo'lgan Samur suvi ancha ko'paygan, ko'piklangancha o'zaniga sig'masdan oqar, qoyalarni kemirar, toshlarni oqizib ketishgan urinardi. Vodiya barq urib ochilgan lolalar shabodalarga uyalib bo'sa berishar, mastona chayqalishardi.

Sohilda bir guruh askarlar muvaqqat qarorgoh atroyida ish olib borardi. Qo'lida hunari yo'q askarlar o'rmondan o'tin terib keltirishar, shotirlar o'choqlarga o't qalashar, oshpazlar qo'zi va

buzoq go'shtlaridan barra kaboblarni sixga o'tkazishib, ko'ralardan pishirishardi. Bir necha yosh askar daryoning seldan avvalgi o'zaniga band solib, suvni tinitib, kiyim yuvishardi.

Sarkardalar, aslzoda yoshlarning ba'zilari chodirlarda joylashib, nard, shatranj o'ynashar, boshqalari bekorchilikdan atrofdagi o'rmon oralab ovga chiqishgandi. Har kim o'zicha vaqt o'tkazardi.

Qabristondan ancha berida Lala Husaynbeyning nazorati ostida duradgorlar tobut yasashardi. Ertalab bomdoddan keyin askarlar yo'lga chiqishi, bir necha kunlik safardan so'ng Mahmudobodda dam olayotgan qo'shinga qo'shilib, Ardabilga ketishlari lozim edi. Lala Husaynbey ancha keksayib, soqoli oqarib qolgandi. Qabriston, ko'chiriladigan mayitlar hayot-mamot haqida janglarda anchadan beri unutilgan fikrlarni uning yodiga solardi. «Bu osmon chodiri ostida hech narsa mangu emas. Buni hammamiz bilamiz, ammo barchamiz o'limni, boqiy dunyoga safarni eslamaymiz. Bir-birimiz bilan talashamiz... Qiziq. Menimcha, inson faqatgina bu dunyodagidan ko'ra yanada go'zalroq bir olamga amin bo'lgani uchun o'limdan qo'rqmaydi. Men ham shulardan biriman. Ammo bu yo'l qo'rqinchi yo'l.

«Rostdan ham, kecha bir qabrdan qazib chiqargan suyaklarga qaytadan jon kirarmikin? Shu qurigan so'ngaklar jannatning rizvon bog'larida hurlaru g'ilmonlar bilan hamnishin bo'larmikin? O'ylaganim sari shubhalarim ortaveradi. Bu iymonning zaifligidanmi? O'zing gunohlarimizni kechir, parvardigor! O'zing bizni shaytonning makru hiylalaridan asra!»

Tarqoq fikrlar unga xalal bermas, tayyorgarlik ishlari bir maromda davom etardi.

Hukmdorning esa bulardan xabari yo'q edi. Ikki kun avval qorilar o'qigan Kalomulloh qiroati ostida qabr ochildi. Shayx Junaydning kafanga o'ralgan suyaklari o'g'li shayx Haydarning yoniga, yuzi qiblaga qaratib qo'yildi.

Hukmdor yerga to'shalgan kichkina gilamchaning ustida tizzalab, goh qur'on o'qir, goh namozga mashg'ul bo'lar,

duoxonlik qilar, kunda ikki marta, bomdod va asr namozlaridan so'ng bir burda non, bir kosa suv tanovul qilardi.

Rangi so'nib qolgan, anchadan beri qirtishlanmagan yuzini tuk bosgan, ko'zlari ham xiyla cho'kib qolgandi. Ibodat uning asosiy mashg'uloti edi. Faqat ovda, janglarda uning jismi yoshlik harorati bilan qizir, ikki dunyoni unutardi. So'nggi o'n yilda uning jangdan boshi chiqmadi. Ibodatni ham tark etmadi. Uni ham otalig'ini o'ylantirayotgan fikrlar holdan toydirgandi.

Uning ichki dunyosida shoh va shoir o'rtasida ziddiyatli kurash borardi:

«Bobo, sizni Ardabildan bu yerga nima yetaklab keldi? Yalang qoyalaridagi burgutlar, yashil butazorlardagi bulbul va bedanalar ovozi, o'rmonlaridagi jayronlar sasini siz qayerdan eshitgandingiz? Nahotki siz bu yerlarga faqat o'z e'tiqodingizga boshqalarni ham ergashtirish maqsadida kelgan bo'lsangiz? Axir siz Chingizxon yoki Amir Temur singari jahongir emas edingiz—ku? Siz shayx edingiz, Sulton Haydarning otasi shayx Junayd! Din va e'tiqoddan tashqari sizni bu yerlarga qaysi kuch sudrab keldi? Sizni ko'rmagan bo'lsam—da, aqidalaringiz ona sutidek tomirlaringma, vujudimga singdi.

Axir bu aqida urush kurashlarimizda odamlarimizning qoni behuda oqmayaptimi? Yarmi sunniy, yarmi shia bo'lgan xalqimizni bir—biriga qayrash nahotki to'g'ri yo'l bo'lsa? Bobo, o'sha bokulik ayol menga to'g'ri gapni aytdi. Aka ukaning qonini to'kayotir. Qirgan ham qirilgan ham o'zimiznikilar! Quدرات va azamat sohibi bo'lgan Robbim yaratgan insonlarni qay yo'l bilan bo'lmasin, bir—birini qirishiga izn berishim haqning irodasi zid emasmikin? Yo Alloh, o'zing qilayotgan ishlarim to'g'ri yo noto'g'riligi haqida menga biror nishona ber! Bobo, siz hozir Rasuli akramning huzuridasiz. So'rab bering, tushimga kiring! Menga bularning haq yo nohaq ekaniga ishontiring! Dunyoda musulmonlardan ko'ra g'ayridinlar ko'proq. Ularning barchasini shialikka kiritish uchun besh kishining umri ham yetmaydi. Dunyoni larzaga solgan Chingizxon ham, Amir Temur ham butun

Yer kurrasini zabt eta olmadilar. Men nima qila olarkanman? Agar bizning aqidalarimiz Alloh nazdida to'g'ri bo'lsa, nima uchun Yaratganning o'zi qolganlarni qahru g'azabi ila yo'q qilib yubormaydi? Siz va otam shayx Haydar o'tgan yo'l, biz o'tgan yo'llar menga xuddi mutlaq haqiqatdek tuyuladi. Ammo qalbimning tub-tubidan bir isyon qalqib chiqadi. Nima uchun o'z xohishim bilan Xoliqning nomidan uning o'zi xalq qilgan insonlarni qiryapman va qirishga undayapman? Dahshatga tushipman bobo! Dardimni, qalbimga cho'kkan isyonni sharob qadahlariga cho'kdilirishni istayman. O'zing menga haqiqatni ayon et, Allohim! Bomdoddan keyin dini mubin yo'lida vafot etgan bir safdoshimizning shahid jasadini, sevimli bolangiz, hatto yuzlari xotiramda qolmagan otam shayx Haydarning muqaddas tobutini o'z ona yurtiga olib ketyapman.

Sizning beozor bobongiz, aqidangiz haqqi ont ichib aytamankim, bobojon, na sizning, na otam rahmatlik Husayn Haydarning qoni yerda qolmaydi. O'ch olaman. Keyin esa so'nggi nafasgacha ishonch bilan o'zimiz ishongan dinimizni dunyoga yoyamiz.

Qo'lim qilich tutishga qodir ekan, qilichim dastasini qo'yib yubormayman. Haq yo'lida kurashaman. Sizning mana shu muqaddas qabringiz haqqi ont ichaman. Sizning qotilingiz Sulton Ibrohimning suyaklarini qabrdan chiqarib yondirishim ham ana shu maqsadda edi. Qal'a devoridan o'zini dengizga tashlagan ayol menga ko'p narsani o'rgatdi. Men parokanda Vatanni qo'limdan kelgunicha birlashtiraman, tilimizni, adabiyotimizni, she'riyatimizni, san'atimizni qo'limdan kelgunicha rivojlantirishga harakat qilaman. Oshiq-baxshilarimiz uchun saroyga yo'l ochaman. Buni siz va otam istaganmidingiz, buni bilmayman. Ammo Vatanning Sultonxonim singari farzandlari shuni istaydi. Men ularning ovozigina ovoz qo'shaman, orzularini ijobat qilaman. Shundagina men to'kan qonlar, ko'zyoshlarning haqqini oz bo'lsa—da ado etgan bo'laman. Ruhingiz shod bo'lsin!»



Bu uzundan–uzoq xayollar duo va ibodat payti uning qalbini tark etmasdi. Tili Allohning zikri bilan, qalbi esa, ana shunday qarama–qarshi fikrlar izdihomida edi.

Shayx Sadriddin bomdod azonini o‘qidi. Namozdan so‘ng hamma janoza namoziga turdi. Askarlar Jam bo‘lib salovot o‘g‘irishga tushdilar. Bu ilohiy sadolar Samur to‘lqinlariga qorishib, ajib bir oang kasb etardi.

Havo ochila boshladi. Besh juft ho‘kiz qo‘shilgan arava ichida alvon gilamlar tushalgandi. Gilamlar ustida esa, yashil va qora yopinchiqlar bilan o‘ralgan tobutlar terildi. Aravaning har ikki tarafida qora kiyimli o‘n askar ot minib borishardi. Qora otlarga mingan askralar xuddi motam haykallariga o‘xshab turishardi.

Arava ortidan hukmdor Bayrambey Qoramoni, Muhammadbey Ustajli, Lala Husaynbey Bekdili, singari a‘yonlar iholatisida ketmoqda edi. Arava oldida borayotgan yagona otliq boshdan oyoq qora libosga burkangan shayx Sadriddinning o‘zi edi. Shayx ilk salovotdan so‘ng qabristonga yangi mayit qo‘yilgandek, «Ar–Rohman» surasini o‘qishni boshladi. Boshqalar ham qiroatga qo‘shildi.

Hazralilar va hozir bo‘sh qolgan qabr o‘rnida Shayx Junayd masjidini tikishga mas‘ul etib belgilangan 20 nafar usta olislashib borayotgan tobutdan ko‘z uzmay turishardi. Ular masjid qurishi, bosh me‘mordan qolganlar Hazra atrofida joylashishlari kerak edi. Hukmdor ularni o‘zi birma–bir qo‘shin orasidan tanlagandi. Ularga yer, joy ajratdi. Ular shu yerda qolib, hovli–joy qilishi, uylanib, bola–chaqa orttirishi kerak edi.

Shoh shunday o‘ylagandi: «bu shunday obida bo‘lsinki, yuragida shubhasi borlar, qilich kuchi bilan shialikni qabul qilganlar uchun avlodimizning qanchalik yuksakligini, dinimizning abadiyligini talqin etsin».

Yalang‘och qoyalar ustida chumchuqlar, maynalar in qurgan. baland samoda esa, burgutlar qanot qoqardi. Samur

vodiysi shu yerdan boshlab, torayar. daryoning guvillashi ortib borardi.

\* \* \*

Janoza marosimi motam yurishi bilan ilgari lab borardi. Havo ajoyib edi. Xayol hukmdorni Samur darasining goʻzalliklari, daraning azaliy taronasining alladek shirin ohanglari ila erkalar, uzoqlarga, qisqa umrning mojarolaridan qutqarib, ilk gʻalaba, ilk zafar, ilk saodat taʼmini totmish yillarga tomon olib qochardi. Hozir u Tojli xonimning yonida edi.

... Goʻzal bahor sekin-asta, goʻzallarga xos nozlana-nozlana kelardi. Bahor xuddi tomirda ohista oqayotgan qondek bir maromda oʻtar, gohida oshiq-maʼshuqlarning qulogʻiga «hozir kelaman, shoshmanglar» deya pichirlardi goʻyo.

Shohobod qishlogʻida hijriy 919 yil zulhijja oyining 9-kuni (22 fevral, 1514 yil) juda qulay bir paytga chorshanbaga toʻgʻri kelgandi. Jahon podshohi birinchi bora uylanayotgandi, saroyida ilk haramini qurayotgandi. Uning mankuhasi eski turk qabilalaridan boʻlgan Bekdili-shomli urugʻining eng moʻtabar shaxslaridan biri, Sulton Yaʼqubning nabirasi, Abdinbeyning qizi Tojli xonim edi. Ismoil Tojli xonimni bolalik paytlaridan, ot minib yurgan kezlari, tengqurlari bilan qilich oʻynab yurgan damlarida koʻrgandi. Bir necha yil oldin Tojli xonim «uy qizi, uy kelini» nomi bilan kichik yoshida saroyga keltirilgan, uning dugonalari:

Taxting muborakdir kelin, baxting muborakdir kelin,

Oq qoʻllara alvon xino, taqding, muborakdir kelin.- deya uning ustiga oqlik tashlab, alyorlar aytishgandi. Qiz saroy odatlarini oʻrganib, balogʻat yoshiga yetganidan keyin haram bekasi vazifasini qoʻliga olishi lozim edi.

Hozircha, Mavlono Oxun Ahmad Ardabiliyning nikoh oʻqiganiga qaramay, yoshlar kam koʻrishishardi. Ammo harbiy yurishlardan, kamonbozlik, gurzi oʻynatish, qilichbozlik mashgʻulotlaridan, ovdan boʻsh paytlarda Ismoil Tojlining aylana chodrada, sarvqomat boʻy-bastini, gohida yuzini koʻrish baxtiga

musharraf bo'lardi. «Atirgulim, sarvim, sanobarim, yagonam mening» deya xayolidan o'tkazardi. Qizning go'zal yuzlariga termilganча o'ygа tolardi. «Senga ehtiyojim bor. Seni har kun ko'rsam deyman. Har kun qo'llaringdan tutib, quvvat olsam deyman. Atringni hidlay deyman. Har kun ovozingni eshitsam, lablaring qimirlashini ko'rsam, hayratda qolsam»

Tojli xonim ona tabiatning mo'jizasi edi. Go'zal edi. Jangovar edi. Xuddi u tug'ilgan paytidayoq kelgusida bir podshohning ayoli, boshqasining onasi, bir sulolaning ibtidosi bo'lishi ma'lumdek edi. Go'yoki, buyuk bekdili qabilasining go'zali qilichbozlikda sevimli erining taxtini, ona yurtini va o'z nomusini qo'riqlay olishi avvaldan oshkor edi. Shuning uchun ham ona tabiat unga hamma narsani mo'l-ko'l bergandi: shoir ayoli sifatida go'zallik, podsho ayoli sifatida aql va tadbirkorlik, vatan uchun, nomus uchun qahramon yuragi, qilich chopganida yigit bilagi ila siylangan edi. Bir tom ostida yashasalar—da, shar'an er-xotin bo'lsalar ham, hali jismoniy yaqinlik bo'lmagandi. Ismoilning asosiy vaqti dalalarda o'tardi. «Ayrin sigirdan, qichitqon adirdan» deb yiqqan terganin uyga tashirdi.

Ammo tez-tez almashtira olgani uchun ham goh o'zini taxt ustida podshoh, goh minbarda murshid, goh jangda sarkardadek his qilardi. Uyga keldimi, shoirga aylanardi. Janglarda shuuridan, qalbidan quvib chiqargan hislari junbushga kelar, ko'zlari Tojli xonimning aylana chodrada sarvmonand qomatini, quloqlariga tanbur sadosini oqizgan ovozi izlardi. «Sarvim, sanobarim, savsanim, sumbulim, yagonam mening» deya ilhomi jo'sh urar, muhabbatdan shira olgan g'azallarini bitardi. Ana shunday uchrashuvlardan bir qanchasi xotirasida muhrlanib qolgandi.

—Sarvim, sanobarim, savsanim, sumbulim, yagonam mening, deya qizning, hali 15 ga ham to'lmagan Tojli xonimning qo'llarini qilich qabzasiga o'rgangan mahkam qo'llari bilan qisdi.

—Hukmdorim, agar gapingiz rost bo'lsa, sizga kerak bo'lsam, yo o'zingizni asrab, janglarga bormang, yoki eski qabila odatiga ko'ra, meni ham o'zingiz bilan olib keting.

–Orolim. Orolim, tog’dagi maralim. Seni ko’p izlayman, nozli go’zalim! Ne qilayki, seni janglarda olib yurolmayman. Shaxsiy qasosimni oldim. Bobomning, otamning qotillarini yer yuzidan supurib tashladim. Ammo xalq uchun o’ch ololmadim. Parokanda qabilalarni bir bayroq ostida birlashtirish, sarhadlarimizni kengaytirishni bobolarimiz vasiyat qilib qoldirganlar. Men bu borada hali safarimni bitkazganim yo’q. Bitiklarimdan, ijodimdan ham xalqning imon–e’tiqodini mustahkamlash maqsadida foydalanaman. Ammo bu olamda bitta boyligim bor, u ham bo’lsa muhabbatdir. Haqqa yetish uchun muhabbat oralab boraman!

Qiz unga ziddiyat, ishonch to’la suhbatlarini ba’zida uncha tushunolmas, shu bois ko’zlarini katta–katta ochib tikilib o’tirardi.

Og’ir safarlar oldidan Ismoil qiz bilan uchrashgan paytida safarning mashaqqatini, qo’rqinchililigini hassos ayol qalbi ila oldindan sezish qobiliyati bilan anglagan Tojli chidab turolmadi. Xumor ko’zlari jiqqa yoshga to’lardi:

–Iltimos, ketmang, bunday qilmang. – derdi u, keyin esa qo’lidan o’pard. – Zafar bilan qayting. Alloh sizga yor bo’lsin. Pirlar madadkor bo’lsin. Keyin xalq qo’shiqlaridan o’qirdi:

Suv ichdim qultum, qultum,

Qo’lingni ber, xurshidim,

Ikki dunyo bir bo’lsa,

Sensan mening umidim.

Safarlari cho’zilib ketganida, to’rparda ortidan bahorda yam–yashil maysalarga burkanadigan, yozda sarg’ayadigan, qishda muz bog’laydigan yo’llarga qovoqlari tolib qolguncha tikilib o’tirardi.

Oy tug’ar oshmoq istar,

Gul–dudoq yashmoq istar,

Mening bu telba ko’nglim

Yorga qovushmoq istar.

–derdi. Keyin saroydagi o’zi tengi qiz–juvonlarni, mulozimlarning ayollarini to’plab, she’rxonlik qilardi.

«Shoirim, podshohimning she'rlaridan o'qinglar.» deya amr qilardi. Hozirdanoq malika deya nom olgan Tojli xonimning orzusi darhol bajo keltirilardi. Xatoiy g'azallariga bastalangan qo'shiqlar ijro etilar, qizlar raqsga tushishardi. Majlis tobora cho'zilardi. Tojli xonim bu qo'shiqlarni tinglab to'ymasdi. So'z va soz majlisi davom etardi:

Sahardan yig'lagan bulbul, sening o'ringda yig'larman,  
Jigarni tig'lagan bulbul, sening o'ringda yig'larman.  
Yashil to'n kiymisham, gulgul, baayni savsanu sumbul,  
Qo'y endi, yig'lama bulbul, sening o'rnigga yig'larman.  
Kiyibman bulbulum, sorig', dilim qonu, ko'zim yoshlig',  
Yo'qotdim nozi yorimni, sening o'rnigga yig'larman.

Tojli qayta-qayta takrorlardi: «Yo'qotdim nozi yorimni, sening o'rnigga yig'larman». Bu hasratni, ayriliq dardini, hijron paytida nimlarni his qilganini sevikli shoiri shunday der edi go'yo:

Sarvim, sanobarim, savsanim, sumbulim, yagonam mening, men ham sendekman. Yo'llarda, manzillarda, sen uchun kuylagan masnaviyларim, «Dahnomam»ni bitirdim. Uning har bir so'zi muhabbating ila yo'g'rilgan. Ishqing bilan tizilgan o'n maktubni faqat senga bag'ishlaganman. Mening malikam! Yagonam, sarvim, sanobarim mening!»

Ular tez-tez she'r, she'riyat haqida gaplashishardi Gohida Tojli xonim o'zi yod olgan forsiy g'azallarini ham podshohiga o'qib berardi

–Bizning ko'plab buyuk shoirlarimiz fors tilida bitishgan, Nizomiy ham, Hoqoniy ham, – der edi u. – Fors tili she'r tilidir. Mana, qarang buyuk Hofiz nima deydi:

Hama xushdiland, ki mutrib bizanad ba tori changi  
Man az in xusham ki change bizanam ba tori muye  
Hama mavsumi tafarruj ba chaman ravandu sahiro,  
Ki qadam ba chashmi man neh, binishin kanori juye.

(Hamma xursand, sozanda chang torlarini chertadi, men esa, yorning sochiga chang solishdan baxtliman. Boshqalar bahor

faslida gulzor va sahroga chiqib, bahra olishsa, sen ko'zim ustiga qadam qo'y, ko'zyoshim arig'i bo'yida o'tir. )

Shoir uni diqqat bilan tinglardi:

–Ajoyib, juda to'g'ri! Ammo, mening sarvim, sanobarim, savsanim, sumbulim, yagonam mening! Mening davrimda bunday bo'lmaydi. Sen Nasimiyning ishqiy iloiy tarannum etilgan g'azallarini eshitgannisan? Uni o'qib, tilimizning qanchalik go'zal va latofatli ekaniga ishonch hosil qilasan. Buning ona tilimiz naqadar go'zal, Tojlim! Unda go'zal ohanglar, ajib navolar bor. Undi oddiy so'zlar ham she'rga aylanadi. Bu tilda ikki hijodan to 16 xijoga qadar latif, ravon, go'zal she'rlar bitish mumkin. Aruz bilan ham xuddi shunday. Faqat ozroq qunt, zehn bo'lsa bas. Ilhom va qudrat kerak bo'ladi.

Eranlar manzili haq manzilidir.

Eranlar sohibi urfona kelsin.

Gunahkorin gunohindan kecharlar,

Yuz usta surtilib sultona kelsin.

Xatoiy xastadur dori saxovat,

Xabar ber, dardlilar darmona kelsin.

Har biri «kelsin» radifli g'azalning bir misrasi bo'lgan bu jumlar oddiy so'zlashuv tili—ona tilimiz emasmi? Nega biz undan voz kechib arabcha yo forscha yozishimiz kerak. Nega saroylarda, davlat, siyosat tili onamiz bizga alla aytgan til bo'lmasligi kerak. Tojli? Men ana shunga noil bo'lishni istayman, sanobarim!

Qiz ham tobora unga hamfikr bo'lib borardi. Qalbi ham xuddi unikidek ura boshlardi. Axir uning o'zi ham bir paytlar ona tilida allalar, bayotilar eshitib katta bo'lgandi. Garayli bilan tili chiqan, laparlar bilan istagini bayon eta olardi. Qiz uning g'azallarini xazin, shirali ovozdaxonish qilardi. Ismoil boyagina mashqxonada u bilan tengma—teng qilich chopayotgan qizining bu qadar xazinlashib, muloyimlashib qolganini tushunolmasdi bir necha marta ovdan qaytishida yo'lini bir jangari kesib chiqib, undan o'ljalarini talab qilgandi. Har gal endi bu yo'lto'sarning

adabini berish uchun qilichini qinidan chiqarganda, qarshisidagi jangari niqobini yechar, qarshisida Tojli kulib turardi.

Endi esa Tojli uning g'azallarini o'qir, keyin o'zidan o'zi erkalanib, «shoirim, sarkardam, chinorim, sevgilim» deya uning yelkasiga boshini qo'yardi.

Yosh hukmdor shoir janoza marosini kuzatayotganini ham unutdi. Tojlining qadrdon, ehtirosli ifori Samur vodiysida o'sadigan gullarga, anor g'unchalariga qorishib, shoirning boshini aylantirardi. Vujudida yoqimli bir junjikishni tuydi. Nafasi qaytib, ko'z oldi qorong'ilashdi. Samurning gullaridek alvon, porloq, bezakli qalamdonni oldi. Tojlining muhabbati bilan yo'g'rilgan misralarni qog'ozga ko'chira boshladi:

Ey devona, ey devona,  
Oshiq o'lan qiyar jona.  
Xatoiy der Tojli xona.  
Qolsin ko'ngil, yo'l qolmasin.

U o'z yo'lini, a'molini hech kimga, hatto Tojliga ham bermasdi. Ko'nglini bersa ham yo'lini bermasdi. Shoir otining jilovini tortgani uchun jamoat ham to'xtab qolganini sezmasdi. Odamlar sukut saqlab, shoir o'z she'riga nuqta qo'yishini kuta boshladi.

\* \* \*

Yo'l-yo'lakay Lo'lirabot karvonsaroyida qolishdi. Shayx o'g'li shohning chodiri karvonsaroy yaqinida tikildi. Qur'on o'qiyotgan mulla tobutlarning bosh tomonidagi chodirdan o'rin oldi. Sarkardalarning ko'pchiligi chodir tikishga eringani uchun karvonsaroy hujralaridan joy olishdi.

Yoz oqshomi tushdi. Salqin havo karvonsaroyning keng hovlisini tomosha maydoniga aylantirdi. Bir davrada lo'lilar maymun, ot, ayiq o'ynatishar, keyin qalpog'ini maymunga tutqazib, odamlarni pul yig'dirishardi. Maymunning kulgili yuzi, odannikiga o'xshash ma'noli ko'zlariga qarab, kimlardir qalpoqqa pul tashlar, boshqalar esa «shaytonning o'zi-ku» deb,

tangani unga uloqtirib, o'zlarini chetga olishardi. Maymun esa, yerga tushgan pulni shartta olib, qalpoq ichiga solardi.

–Oho, aqlli ekan!

–Ha, sendan ko'ra farosatli ekanku?

–Pulning qadriga yetadi, undan yaxshi baqqol chiqsa kerak.

–Balki arshin–molchi yoki bazzoz chiqar?

Har kim o'z ishi bilan mashg'ul. Keksa bir odam o'z yoshiga yaramagan bema'nilik ila gap sotardi:

–Xotin naryoqqa jo'navordi. Menga yolg'izlik yarashmas ekan. O'g'il–qizlar, kuyovu kelinlar o'zi bilan o'zi ovora. Nima qilay? Boshqatdan uylandim qo'ydim. Uch–to'rtta bola ham tug'dirdim. O'lgunimcha odamzotda bola kerak bo'ladida

Ulardan oldingi davrada esa polvonlar kurash tushishardi. Keyin maydonga yana pahlavon kirdi. Uzun bir tayoqni qorniga tirab turdi. Ikkinchi yoshroq bola tayoqqa otilib chiqib, boshini pastga osiltirib turdi. Turli harakatlar qila boshladi. Tayoqni qornida tutib turgan pahlavonning qo'l oyoqlari baquvvat, yuzlari qizarib turardi. Ularning o'rnini bir ayol kiyimidagi qo'shiqchi egalladi. Surnaychilar sho'x kuyni chala boshlashdi. Xonanda noz–karashma bilan davraga chiqib keldi. Uning har bir barmog'iga yonib turgan sham o'rnatilgan edi. Ajoyib manzara edi. U qo'shiq aytib, shu qadar mahorat bilan raqs tushardiki, barmoqlaridagi shamlar o'chib ham qolmas, uchib ham ketmadi.

Rahimbeyning istagi bilan hukmdor ham sallasining lachagini yuziga niqob qilib, do'stlari bilan birga tomoshalarga qo'shilgandi. Pahlavonning mardligi uni bir sarkarda sifatida qiziqtirmasa–da, hozir raqs tushayotgan xonandaning jozibador, xayol singari go'zal harakati sho'ir ko'ngliga orom baxsh etardi.

U raqqosga qarab o'zini boshqa bir olamga tushib qolgandek his qildi. O'zini saroyda yurgandek his etdi. Beixtiyor Tojlining nozli harakatlarini esladi. Birdan kutilmagan qahqahadan hushiga keldi. Xonanda endi boshidagi ro'molini otib yuborgan, umbaloq oshib, turli harakatlar bilan odamlarni kuldirardi. Turli hukmdorlarga taqlidan harakat qilardi.



Tomoshabinlar esa uni muhokama qilish bilan band edilar:

–O‘la shu kuningdan, ayolning kiyimini kiyib olibdi.

–Masxaraboz–da, san‘at bu.

- San‘ati qurib ketsin shuyam erkakning ishimi? Bundan boyagi maymun aqlliroq edi. Hayvon bo‘lsayam.

Ismoil o‘tirgan davradagi bir darvish gapga qo‘shildi:

–Hayvon bo‘lsa nima qipti. Shoir topib aytgan:

Chubi zaifro agarash tarbiyat kuni,

Joye rasad ki, busagahi xusravon shavad.

(Agar ingichka cho‘pga ham mehr bersang, u vaqti kelib, shohlar o‘padigan joyga–nayga aylanadi)

Darvish bu baytni ajoyib ohangda o‘qidi. Ismoilning soqolmo‘ylovini qirtishlab, odamlar orasida turli tomoshalar ko‘rsatib yuradigan darvishlarga, xushi yo‘q edi Lekin donishmand, ziyoli qalandarlar bilan suhbatlashib turardi. Ular bilan suhbatlashib, aqlu zakosidan bahra olardi. Bu darvishlardan vatanga baholi qudrat xizmat qilib turgan, o‘zini o‘tga–cho‘qqa uradiganlar ham ko‘p edi.

Uning josuslaridan aksariyatini ana shunday darvishlar tashkil etardi. Xalq orasida ular sadaqa to‘plovchi emas, sadaqa beruvchi darvishlar deya ertak va matallarga ham kirishgandi.

Faqiru fuqarolarning eng og‘ir kunlarida ularga qayishib turishardi. Butun bu fikrlarni besh asrlar o‘tib tadqiqotchilar yuzaga chiqarishadi. Hozircha Ismoil qarshisida faqat faylasuf, insonparvar kimsani ko‘rib turganiga ishondi. Negadir bu oqshom u bilan hamsuhbat bo‘lgisi keldi. Istagini Rahimbeyga aytib, o‘zi ortga chekindi.

... Suhbatlari antiqa boshlandi. O‘zi aytmasa–da, qariya uni darhol tanidi. Ismoil bobosini ko‘rmagandi. Hatto otasini ham eslolmasdi. Shuning uchun yoshi katta otaxonlarni ko‘rsa ko‘ngli iyib ketardi. Hozir ham shunaqa bo‘ldi.

–Hukmdorim, insonlarni zamonaning uch ofatidan xalos etmoq kerak. Ochlikdan, uzluksiz urushlardan, joylardagi hokimlar va mulozimlarning zulmidan. Senga qimmatbaho hadya

olib kelgan mulozim nahot senda shubha uyg'otmaydi? U bu qimmatli narsani qayerdan oldi ekan? Maoshi aniq, daromadi aniq bo'lsa, adolatli bo'lishing kerak, hukmdorim! Sandon va bolg'a o'rtasida faqat temir azob tortadi. Sandon va bolg'a emas. Sen va hokimlaring orasidagi xalqni ham ana shu temir parchasidek his et. Ular ham bolg'adan, ham sandondan zarba yeyishadi.

Kechaning yarmidan o'tganida, to xo'roz birinchi bor qichqirguncha suhbat qurishdi. Ibodulloh ota kelini pishirgan boyanali, dashma, paxtadek yumshoq kunjutli non, kiyik o'ti qo'shilgan sho'rtak pishloq dasturxonni bezadi. O'sha kecha u o'zini hali biror marta ko'rmagani otasi Shayx Junayd va bobosi Shayx Haydarning xizmatida turgandek his qildi. Xuddi ota-bobosini o'z qabrlaridan shu kecha uchun tiriltirib kelgandek edi.

Darvish ham otalarcha donolik va g'amxo'rlik bilan unga o'git berardi.

–Hukmdorim, askaringga aytki, Qur'oni karimdan o'rganganlarini faqat ezgulikka ishlatsinlar. Insonni sevmagan odam asl g'oziy bo'lolmaydi. Agar inson o'zining asl inson farzandi ekanini anglasa, hech qachon tubanlikka qo'l urmaydi. Ularga anglatki, Yaratgan egam har birimizga ko'z, quloq va tillarni berdi. Ko'zlar yomon narsalarga boqmaslik uchundir. Quloqlar g'iybat va bo'hton gaplarni eishtmaslik uchundir. Tillar yomon so'zlarini so'zlamaslik uchundir. Oyoqlar yomon yo'llarga kirmaslik uchundir. Qo'llar harom ishlarni qilmaslik uchundir. Yaratgan sizga hadya qilgan bu tana a'zolari faqat yaxshilikka xizmat qildiring. Ularga ayt, Allohga tavakkul qilsinlar. Bahoriy gullarga ibrat nazari bilan boq. Ular tez orada xazonga aylanishlarini bilsalar–da, qor ostidan mardona bosh ko'tarib chiqadilar. Sen ham imkon boricha hayotdan bahra ol. fursatni g'animatni bil. Bugun bor imkon ertaga bo'lmasligi mumkin.

Darvish davom etardi:

–She'rlaring el aro shoyon bo'lgan, hukmdorim! Odamlar ularni yoddan bilishadi. Sen ularnin ona tilingga hurmat bilan

bitgansan. Bu she'rlar ila har doim xalqni, mardlarni maydonga chorlay olasan, birlashtirasan. Arzirumda bir yosh darvishni ko'rdim. Konyadan kelayotgan ekan. Senga arzi borligini aytdi. Men shu paytgacha adolat istab keluvchilarning ko'pini ko'rganman. Qochgan ham, quvgan ham senga keladi. O'sha yosh davrishdan dardini so'radim. «Haqiqat izlab», dedi. «Qanday haqiqatni?» deb so'radim. «Sevgan qizimni olib qochishdimi? Qilich ko'tarib, din yo'lida jihad qiluvchilarga qo'shilmoqchimisani?» Axir sening huzuringga keluvchilarning qay biri shahid bo'lish, birov shuhrat qozonish, yana biri mol-dunyo orttirish umidida keladi.

«Yo'q,—dedi, bularning hech biri emas. Men bir haqiqatning tagiga yetishni istayman. Qilni qirq yorishim kerak. Xatoyning she'rlarini ko'p bor mutolaa qildim. Uning kimligini anglolmadim. U qaysi haqiqatga ishonadi? So'fiymi, bektoshiymi, naqshbandiymi, botiniymi, shiami? Kim o'zi u? Yo hammasini bitta aqidaga birlashtirgan sohibi zamonmi? Chunki, uning asarlarida bularning barchasini ko'rish mumkin». U sening huzuringga yetib keladi. Ularning hech birini noumid qilma. hukmdorim!

Keksa darvish uning yodiga Konyani solgandi. Bu uning Rum diyorida ilk safari chog'ida yuz bergandi.

Konyaning o'n ikki darvozasi har kechasi mahkam berkitilardi. Bu darvozalardan hatto qush ham kirib chiqolmasdi. Ismoil o'z hamrohlari bilan shaharning turli qismlarini, karvonsaroylar, bozorlar, madrasa va masjidlarni kezdi. Donolar «Konyada o'n ikki sulton yotibdi» deyishardi. Afsonalarga ko'ra, mavlaviylarning piri Jaloliddin Rumiyan «ishq nima?» deb so'rashibdi. Shunda Mavlono «Men bo'l—da, bil» degan ekanlar. Asl Ka'ba tosh va tuproqdan qurilgan bino emas. Allohning uyi aslida insonlarning qalbidadir. Uni top va ziyorat qil!»

Bularni eslarkan, darvishni tinglay turib o'yg'a botgandi: «mutlaq ota-bobolarim yurtida, qadrdon Ardabilda men ham azizlarim uchun ana shunday maqbaralar, dahmalar qurdirishim

kerak. Bu yerdan ham hunarmandlarni olib borganman. Ammo u yerdagi, Vatandagi hunarmandlarning tengi yo'q. Tarixchilar Samarqandu Buxorodagi obidalarning ham aksariyati tabrizlik ustalar tomonidan tiklanganini aytishadi. Masalan «Shohi zinda»dagi Tuman-oqo maqbarasini Shayx Muhammad Xoja Tabriziy bezagandi. Samarqanddan, Buxorodan ham tabrizlik ustalar uchun yordamchilar chaqirtirdi. Bokuda, Absheronda zilzilaga bardoshli tosh uylar qurgan ustalarni ham olib bordik. Maqsadim Ardabilda qurilgan ota-bobolarim oromgohi Samarqandu Buxorodagi obidalardan qolishmasligi lozim. Shundagina narigi dunyoga, ota-bobolarim yoniga yorug' yuz bilan boraman».

Yo'llar, bu yo'llarda o'zi chekkan aziyatlar uning zehniyatida boshqacha fikrlar uyg'otardi. Yo'llarni, ko'priklarni obod qilishni, suvsiz hududlarda har ikki farsax masofada suv to'la quduqlar qurishni, yetim va g'ariblar uchun boshpanalar tiklashni, karvonsaroy va muvaqqat qo'nalg'alar barpo etishni, bog'-rog'lar yaratishni, odamlar qorda, bo'ronda yo'lini yo'qotmasligi uchun yo'l nishonalarni o'rnatishni diliga tugdi.

Tobut bilan og'irkarvonlik bilan ilgarilab borayotgan bu safar shoh Ismoilning kelgusi shuhrati uchun samarali bo'ldi.

\*\*\*

Aziz o'quvchim, hikoyamiz avvalida to'rt ismni tilga olgandim. Bu gal ana o'sha to'rt kishi bilan hamroh bo'lishimiz kerak edi. Bibixonim sultonim, Oytekin, shayx o'g'li shoh Ismoil va darvish Ibrohim. Uchovlon bilan ancha yo'l yurdim, ammo to'rtinchisi bilan hali uchrashmadik. Endi vaqti keldi. Shoir yurakli darvish, darvish ko'ngilli shoir Ibrohim bechora Vatanning darbadar o'g'li hoji Bashir bilan turk go'zali Leman xonimning dunyoga o'z xalqiga baxsh etgan egiz farzandlaridan biri edi. Ona duosi bilan ota qarg'ishi shubhasiz mustajob bo'ladi. Har bir farzandga onasi duosi madadkor, ota qarg'ishi benasib bo'lsin. Men ham duodaman.

## AYRILIQ YOMON BO'LAR

Nasrin Ibrohimdan olgan maktubni yoddan bilardi. Aslida bu maktubni yod olishning aslo imkoni yo'q edi. Hozir qiz olg'a borarkan, qalbida o'sha qo'rquv barobarida aziz satrlar xuddi tanbur navolari kabi qulog'i ostida jarang sochardi.

G'arib g'urbat tomon yo'lim tushganda,  
G'aribning holiga yonarsan, so'nam,  
Jamoling ko'rganda men behush bo'ldim.  
Ketaman, qo'llarda qolarsan so'nam!

«Yo rab! Men ne ahvoldaman? Yanicharlarning g'avg'osiga qo'shilib, doru dunyodan bexabar qolgan jangchi otayu. uning chizgan chizig'idan chiqolmaydigan, ko'zlari ko'r onamdan boshqa yana kimim bor mening? Dardim ko'p og'ir, yo rabbim!»

Uning qalb yarasi qo'shiqqqa aylanib oqardi:

Men seni sevganman boshdan binodan,  
Farqing yo'qdir yashil boshli so'nadan,  
Allohim qutqarsa zulmatxonadan,  
Sen ham sevinarsan, kularsan, so'nam!

«Buyur Tangrim! Men qayerdaman o'zi? Bu zulmatxonang nimasi? Men Ibrohimning ishlariga tushunmadim. O'zing uni bu balolardan qutqar, to'g'ri yo'l ko'rsat!»

Keyin band nasrinning yuragini tilka—pora qilardi:

Falakning yozgani bilinmas emish,  
Sadoying quloqdan silinmas emish,  
Dard boshdan oshganda kulinmas emish,  
So'rog'im yellardan olarsan, so'nam.

«Bu qanday dahshat? Unga nima qildiykin? Nega men ularni yellardan so'rashim kerak? Avvaliga yo'lim g'urbatga tushdi, dedimi?»

Men ham bu dardlarga chiolmayman, darvishim! Nega men seni bolalik paytlarimizdagidek Ibrohim—Ibish deb chaqirmasligim kerak? Nega odamlar seni ota—onang qo'ygan ism bilan atamaydi? Nega hamma seni darvish deb ataydi?»

Men seni sevmisham, jondan yurakdan.

Azizimsan yonimda har tilakdan.

Zolim zanjirini uzib bilakdan.

Qaytsam gar meniki bo'larsan so'nam.

«Alloh o'zi qabul qilsin, darvishim! Allohim, men uni yana ushla ro'dapo darvishlar orasidan topa olarmikinman? Kechikmadimmi?» Shunday deya u tugunchasini ko'ksiga mahkam bosgancha, qadamlarini tezlardi. «Darvish, bu bevafo dunyoda meni kechir! Dardingga davo yo'q! Dardlari behisob. So'zi bilan qalbi bir bo'lmaganlarni munofiq deyishadi. Sen ham munofqlik qilmadingmi? Tilingda meni chin yurakdan sevishingni aytasan. ammo qalbing meni zolim otayu notavon onaning qo'lidan olishni istamaydi»

Maydonning chetida bir darvish oldi-sotdi uchun kelgan tanishlaridan biri bilan sulhat qurmoqda edi. :

–Hajja borganmisan? Qora toshni tavof qildingmi?

–Yo'q, men Ardabilda, shayx Safi maqbarasi ziyoratini o'z aqidamga ko'ra afzal bilaman.

–Qaysi oqimdansan?

–Safiy, alaviyman.

–Baraka topkur, qizilboshman, demaysanmi? Piring kim?

–Asadullohi g'olib, Aliyul–Murtazo, sheri xudo. Odamni mazax qilishning nima keragi bor? Bir og'iz Ali deb qo'ya qolsang bo'lmaydimi? – so'radi shu yaqindan o'tib ketayotgan bir ziyoli.

Nasrin ilgari lab borarkan. Ibrohimning va o'zining bolalik yillarini ko'z oldida jonlantirdi. Xayol uni shu qadar osmonlarga uchirardiki, qiz o'sha hodisalarga 10 yil o'tganiga qaramasdan, hozirning o'zida Ibrohimni ham, o'zini ham qo'shni hovlilal orqasidagi o't–alaf bosgan, xandaqli, o'ydin–chuqur joylarda ko'rardi. Ular ana shu tepaliklardan sakrab yurishni yoqtirishardi. Ibrohim har zamonda uning uzun kokillarining uchini qo'liga bog'lab olar. «Ha Qorako'z, ko'zlaringdan o'zim aylanay» deya orqasidan yugurar. qiz ham Safi amakining saman otiga monand

kishnab–kishnab qochardi. Ular «ot o‘yin»ni rosa yoqtirishardi. O‘sha payti yuraklari ham bir–biriga hamohang tepardi. Harakatlari xam, qadamlari ham bir biriga mos, uyg‘unlik kasb etardi. Bu kokillar, bir xilda tepgan yuraklar, bir xil odimlar bilan yugurgan oyoqlar ularni bir–biriga bog‘lab turardi. Nasrin ham Ibrohim ham bir biridan ajralmasdilar. Azaldan yongan bu chiroq so‘nmasdi. Hoji savdogar bir so‘z aytmasa ham, onalari e‘tiroz bildirishmasa ham, birgina Majid jallodning birgina qahrli nigohi ularni bir–birida ajratib yuborishga kifoya qilardi.

Ana shu ayriliqning o‘zi ular uchun yo‘qlik degani edi.

Nasrin otasining manhus siymosini ko‘rishi bilan dahshatga tushar, yuragi titrab, bolalikning beg‘ubor damlaridan, qiziqarli o‘yinlaridan, xandaq tubida Ibrohim uchun lazzatli taomlar pishirib bergan onlardan bugungi kunga qaytdi.

Hozir ham u ko‘zlarining yoshini oqiza–oqiza imkon topishi bilan darvishlar yig‘iladigan joyga borardi. Bu yerda tilak tilab, niyati amalga oshgan xonimlar o‘z xizmatkorlari bilan birga kelib, darvishlarni ehson bilan siylashardi. Nasrin ham ana shunday xonimlarga qo‘shilib., tasodifan bozordan qo‘shin uchun zahira, mayda–chuyda uchun chiqqan otasiga, yana bozor muhtasibiga duch kelmaslik uchun chodrasiga o‘ranib olardi.

Har gal u bu makonga kelganida, bozor shovqinidan qisman tashqarida joylashgan darvishlar jamoasiga qiziqish bilan qarardi. Otasi negadir bu darvishlarni yoqtirmasdi. «Bularning bari dini mubinimizga zid, sultonimizga osiydirlar. Xulafoi roshidining uch nafariga qarshi chiqib, faqat Hazrati Aliga ixlos qilishadi. Yuzlarini Makkai mukarramaga emas, Ardabilga burgan murtadlar!» derdi.

Salim ismli yosh darvish Ibrohimga yaqinlashib, shivirladi:

–Shoh!–bu shartli belgi edi. Aqidadoshlar bir–biri shu so‘z orqali tanishardi.

–Shoh! –javobini olishi bilan Salim bozor muhtasibi tomon yo‘l oldi. Muhtasib kim bilandir gurung berib o‘tirardi.

Darvishlarga qarashga vaqti ham yoʻq edi. Salim Ibrohimga shifshidi:

–Seni piring chaqiryapti, arkoni davlatga yaqinlashasan shekilli?

Ibrohimning koʻzlarida sevinch porladi. Salim yana muhtasib tomon ishora qildi:

Senga juda ham oʻxsharkan, yigit! Bir oʻzingni koʻrsam, seni muhtasib boʻlibdi, deb oʻylardim.

Ibrohimning koʻzlarida nimadir yonib oʻchdi. Xuddiki bir onda lipillagan shafqat uchquni yana nafratga aylandi.

–Adashmading, bu mening egizak akam, Subhonolloh!

Ila, baʼzida taqdirning shunaqa kulgili oʻyinlari ham uchrab turadi. Bir beshikda yotganmiz, bir onani emganmiz. Ammo taqdir ekan...

Darvishlar gʻalati edilar. Baʼzilari soqol–moʻylablarini qirtishlarini yetmagandek, qosh va kipriklarini ham olib tashlashardi. Antiqa kiyinib, qiziq harakatlarni qilishardi. Birovi chilim chekar, yana qay biri to charchab ogʻzidan koʻpigi kelib qolguncha jazava bilan zikr tushardi. Ibrohim jamoasi bilan oppoq kiyimlari, bir joyda tizzalarini quchib oʻtirishi bilan boshqalardan ajralib turardi. Ular ochkoʻz ham emasdilar. Tilanishmas, berilgan ehsonlarga qanoat qilishardi. Berilgan sadaqalarni ham ehtirom va odob bilan olishardi. Boshqalarga oʻxshab, jazavaga tushib, raqsu samo, baqir–chaqir ham qilishmasdi. Bir gal Nasrin Ibrohimlarning jamoasiga yaqinlashganida, yigit uni koʻrmay qoldi. Qiz unga yaqinlashib borardi. Ibrohimning oʻng tomonidan bir shaharlik oʻtirardi. Ibrohim suhbatdoshi bilan shu qadar berilib suhbatlashardiki, orqasidagi sadaqa keltirgan singilcha»dan xabari yoʻq edi. Ularning orasida qiziq suhbat borardi. Ibrohimning narigi darvish oshnalari zikr tushish oʻrniga, Allohning isimlarini sharhlashardi. Bu ular uchun namozning oʻrnini bosardi. Ammo, shaharlik va Ibrohimning munozarasi boshqacha edi.

– Darvish, senga nima kerak?



- Qudrat taomini yeyman.
- Ranging nega sargʻaygan?
- Qudratning qoʻrquvi sababli.
- Koʻzlaring nega qonga toʻla?
- Munofiqlar sabab.
- Uy–joying bormi?
- Ungurlar, gʻorlar. vayronalarda kun kechiraman.
- Koʻrpa–yostigʻing bormi?
- Yostigʻim otamning quchogʻi, koʻrpam koʻm–koʻk

osmon.

- Tilingning zikri nimada, darvish?
- Haq kalomidan oʻzga zikrim, uning ismidan boshqa kalomim yoʻq.

- Eʼtiqoding nimada, yigit?
- Haqdan boshqasiga eʼtiqod qilinadimi?

– Nasrin ichiki bir kuch yordami bilan savol–javob Ibrohimning gʻashiga tegayotganini angladi. Aks holda, u savolga savol bilan javob bermasdi. Nasrin gʻayriixtiyoriy tarzda chodrasining ichidan kokillarini ushladi. Nazarida uning kokillarining uchi Ibrohimning qalb torlariga ulangandi. Ixtiyorsiz ortiga oʻgirildi va birdaniga qora chadraga oʻrangan oppoq haykalni–nasrin gulini koʻrdi. Bir titrab oldi. Lekin oʻsha zahoti xatosini tushundi. Qizni tanib qolganini sezdirmasligi kerak edi. Boshqatdan tizzalarini quchoqlab boshini egdi va zikrni davom ettirdi:

–Huv yo Rahim, huv yo Rahmon, u yo Jabbor, hu yo Qahhor!

Nasrinning ham tizzalari qaltirab, choʻkkalab qoldi:

–Ogʻam, bir tilagim bor...

Allohim tilagingizga yetkazsin...

Bugun Nasrin bozor boshidagi oʻsha joyga yetganida, alaviy darvishlari Ibrohimning sheriklarini koʻrmadi. Tilagiga yetgani bois, nazr–niyoz koʻtarib kelgan xotinlar davrasiga qoʻshildi. Ancha kutdi, tugunchani ochib, kimgadir bir luqma

manzirat qilishga toqati yetmadi. Tizzalari qaltirab qolguncha turdi. Nihoyat, nima uchun kelganini ham unutib, ehsan tugunchasini Ibrohimdan qolgan esdalik singari ko'ksiga mahkam bosganicha, bozorboshini tark etdi, uyga qaytdi. Qizning ko'zlari yoshlanib, kichkina, ammo ulkan muhabbatni o'zida sig'dira olgan qafasiga sig'masdi. Shu qadar tipirchilardiki, xuddi bolalik yillarida Ibrohim uning uzun kokillarini qo'lga o'rab, «ot o'yin» qilgan paytlarini esladi. Nasrinning ham yugarevib, yuragi og'ziga tiqilardi.

Nasrin oxirgi darvishning yonidan o'tayotib, qulog'iga tanish, qadrdon ovoz kelib urildi.

–Asadulloh, Yadolloh, Sherulloh!

Bu Ibrohimning ovozi edi. Ibrohim Alaviy darvishlarning o'ziga xos zikrini takrorlamoqda edi. U Hazrati Alining nomlarini sanardi.

Nasrinning ko'zlari to'rt bo'lib, atrofiga qaradi. Ibrohim qani? Demak, uning oyoqlari ostida, ko'z o'ngida, bozor boshida turgan darvishlar orasida, undan ikki qadam narida yerga cho'kkalab, zikr tushayotgan ekan—da? Balki, atayin Nasringa ovozini eshittirmoqchi bo'lgandir?

«Nega uni boya ko'rmadim? Nega qalbim Ibrohim, ikki qadam narida turgan Ibrohimni payqamagan bo'lsa? Axir men uni ko'rmasdan uyga keta olarmidim? Demak, ketmapti. Balki ketish fikridan qaytgandir? Yo'q, Ibrohim unaqa yigit emas. U o'sha maktub meni qay ahvolga solishini bilmagan bo'lishi mumkin emas. Aftidan o'zi ham bir umid bilan kelgan bu yerga. Mening kelmasligimga ishonmagan, shuning uchun ham kelgan bu yerga. Piru ustozlar senga madadkor bo'lsin, menga ham. Ibrohim!»

Nasrin bu gaplarni ovoz chiqarib aytdi, shekilli. Kim bilsin... Ehtimol, Yoki Ibrohimning qalbi qizning ko'nglidan kechayotgan gaplardan xabardor qildimikin?

Ibrohimning egnida oq surpdan ko'ylagi bor edi. Bu ko'ylakning etagi tizzasiga tushardi. . Ustidan chopon kiyib olgandi. U aynan Nasrin uchun shu so'zlarni zikr ohangida aytdi:

–Ishq o'tida yongan jigari kaboblar bizmiz. Hijron alamidan diydasi giryonlar ham bizmiz. Uy–joysiz qolgan beva–bechorlar ham bizmiz. Biz uchun ko'ngil uyimizning obodligiyu vayronligining farqi yo'q.

Darvishning so'zlarida shunchalik ko'p ramzlar bor ediki, bu so'zlar ibodat ma'nosida aytilyaptimi yoki darvishlarga nazr keltirgan qiz uchunmi, hech kim farqlolmasdi.

Nasrin ham darvish oldida tiz cho'kdi. Boshini egib, tugunchasini ochishga urinarkan, faqat Ibrohim eshitishi mumkin bo'lgan ovozda pichirladi:

–Ibrohim, sen nima maqsadda safarga chiqayotgan bo'lsang ham, yo'lingdan qaytara olmayman. Ammo, iltimos, qayerda bo'lsang ham boshqa bir ojjizaga qarama. Ayol zotining ishvalariga uchma. Sen uchun hayotidan kechishga tayyor bir qiz bor bu olamda va u ham bo'lsa, menman. To yog'och otda bu dunyoni tark etgunimcha, seni kutaman. Sensiz tikan va cho'g'lar ustida bo'lsa ham, kuninni ko'raman. Sensiz ipak–kimxob kiyib, noz–ne'matlar ichida yashamayman. Yo'lingdan ko'z uzmayman. Kelmasang, piru ustozlar g'azabiga duch kelasan, kelsang, men butun borimni senga topshiraman.

Uning gaplarini eshitarkan, Ibrohimning qalbidan bir faryod tug'ildi:

«Sen bir qo'zi, men esa bo'ri edim, seni o'zimdanda ham qizg'anardim, endi seni boshqalarning qo'liga qanday topshirib ketay? Meni kechir!»

Nasrinning yelkalari uning yig'isiga monand ko'tarilib tushardi. Ibrohim chidolmadi:

–Biz eranlarning haqiqatimiz. Hoji Bektosh bog'ining gullarimiz. Yo'l ham, arkon ham bizniki. Yo'limiz haqiqatga olib boradi. Yuzimizning ulug' ustozlarimiz qo'llariga surtib, haqqa qovushgan valiyalarimiz mozorini ziyorat qilib ortga qaytamiz. So'zimiz so'zdir. Seni pirularimizning o'zi qo'llasin.

Nasrin bu so'zlarning ba'zilarini anglamasa–da, darvish Ibrohimning ramzlarga qorishiq muhabbat ahd–paymonini

tushunardi. Shuning uchun darvishning ko'zlarini ham ko'rolmagani bilan, uning qo'llarini ko'rib turardi. Ana shu qo'llarning o'zi unga ko'p narsalarni ayon ko'rsatib turardi.

Ibrohim shu qo'llari bilan Nasrin olib kelgan tugunchani olib, kashkuliga joyladi. Vaqtini o'tkazish uchun o'rnidan turmasdi. Nasrin chodrasini ostidan uchida «Hu» kalomi bitilgan, qoramtir aqiqdan ishlangan munchoqli tumorini Ibrohimga uzatdi. Bu taqinchoqda Ibrohim Nasrinnig bo'ynidagi haroratni his etdi. Yuragidagi otash yanada alanga oldi.

O'zini arang qo'lga oldi.

–Bu tumor seni yeru osmonning balolaridan, yomon ko'zlardan asrasin!

–Aytganing kelsin!

Darvish o'rnidan turdi. Nasrin ham qo'zg'aldi. Ikki tashna vujud bir–biriga shu qadar intilardi, ammo ularning orasini ko'rinmas chegaralar ajratib turardi.

–Seni ko'rmasdan ketolmasdim, Nasrinim. – shamoldek g'ovur ila pichirladi yigit. Aka–ukalarim kecha bu yurtni tashlab ketdi. Ular Jam majlisiga borishadi.

–Maktubingni olishim bilan bu yerga oshiqishimni bilarmiding? so'radi qiz.

–Bilardim.

–Sensiz bu hayot menga zindondan ham battar ekanini bilarmiding?

– Bilardim!

– Bilganing uchun rahmat, kelganing uchun ham.

– Xayr, azizam, o'zingni ehtiyot qil.

– Sen ham, sevgilim.

– O'zingni bunchalar oldirib qo'yma, Nasrin...

– Sen bo'lmasang, o'zimni nima qilay?

Bu og'zaki muloqotmi edi? Yoki bu suhbat biri bozordan shaharga eltuvchi yo'l bilan, boshqachi tog'larga Jam majlisi o'tadigan joyga eltuvchi yo'ldan ketgan ikki yoshning qalbida kechganmidi? Kim biladi...

## O'LIM VA YANGIDAN TUG'ILISH MAROSIMI

Ibrohimga chilla buyurilgandi. Hali Ardabilga yetmasidan burun bu chillani o'tkazishi, asl imtihondan o'tmog'i lozim edi. Piri ham shu fikrni qo'llagandi. Uni hujraga olib kelganlar ichida keksa eranlar, tengdoshlari orasidan alohida ajralib turardi.

G'orning ichi tor va rutubatli edi. Uning nazarida bu g'or xuddi «As'hobi kahf» bir necha yuz yil qo'ngim topgan makonga o'xshab tuyuldi nazarida bu yerga kirishi bilan uyquga ketadigandek, g'or og'zida o'rgimchak in quradigandek edi. Nazarida kulimsirab turadigan insonlarning yuzini boshqa ko'rolmasdi.

Ibrohim ich-ichidan junjikib oldi. Ammo sezdimadi. U allaoqachon ajal sharoibini ichib, dunyoni tark etganlarga o'xshatdi o'zini.

Beixtiyor qulog'iga Jam marosimidagi dutor, tanbur, nay, nog'ora singari cholg'ularning ovozi eshitildi.

Kimdir unga tabassum qilgancha, qirq kun bekiladigan g'orga qadam qo'ydi. Qo'lidagi nastarin guliga o'xshagan ro'molchadagi nonni g'or og'ziga qo'yib chiqdi. U qirq kun davomida har kuni bir ko'za suv, bitta non bilan kun kechirishi lozim edi. Ibrohim shoshib, keksa eranlarning qo'llarini o'pdi. Keyin o'z tengdoshidari bilan quchoqlashib ko'rishdida, g'orning ichiga qarab ketdi. Ortidan kimdir «Al'amon, imdoda yet, yo Shohi mardon Mustafo» deb qolganini eshitdi. Bu eng so'nggi so'z edi. Eni to'rt qadam, uzunligi olti qadam chiqadigan bu hujra odam bo'yidan bir qarichcha baland edi, xolos. Devorlaridan tokchalar o'yib ishlangan edi. Bir burchakda yotoqni eslatuvchi supa, bir burchadagi tokchada ko'zacha va rumolchaga o'ralgan non turardi. Ibrohimning qirq kunlik ro'zg'ori ana shulardan iborat edi. Burniga qayerdandir nastarin hidi urildi. Orqasidan kimdir og'ir tosh qopqoni yopgani eshitildi.

Ibrohim xuddi o'zini tiriklay ko'milgandek his etdi. Yuragini vahima chulg'adi. Supa oldida tiz cho'kib duo o'qishga

tushdi. Kechani kundan farqlab bo'lmaydigan bu qirq kunda Ibrohim nimalarni o'ylamadi? Birinchi kuni xayolini nastarin guli tark etmadi. Uning nazarida butun dunyo nastarin gulining atriga burgangan edi, go'yo.

«Sendan ayro tiriklik yo'q, sensiz yashamoq asl o'limdir» deya o'ylar, ammo qizning nomini xayoliga ham keltira olmasdi. Yuragidan xayolidan chiqarib tashlashga urinardi. Axir asl sufiylar uylanishi mumkin emas. Chunki uning qalbi butunlay Allohga bog'lanishi lozim. Nasrinni, onasini qanchalik sog'inmasin, ayni damda hislariga asir tushmasligi lozim.

Axir bu g'orga, bu xilvatga Yaratganning o'zi bilan yolg'iz qolish uchun kirmadimi? Rasuli akramning «o'limdan avvalroq o'linglar» degan hukmiga tobe o'laroq, shu qismatni tanlamadimi? Endi bu xayollar, tushunchalar undan nima istaydi?

\*\*\*

... U sekin-asta o'rnidan turdi. Rubobning ovozi tingandi. Biror misra she'r bitolmasligini anglardi. U Xatoyning lablaridan uchgan ilk misralarni o'qishga tutindi. Bu jazava uni yaqin o'tmishning go'zal, ammo hozirgi damda kerak bo'lmagan xotiralarini uzoqlaqlashtira olarmikin? U g'azalning misralarini o'tirgan yerida tebrana-tebrana shivirlashga tushdi:

Alarkim lof'etar, maydona kelsin,  
Muxannas kelmasin, mardona kelsin,  
Eranlar manzili haq manzilidir,  
Eranlar sohibi irfona kelsin,  
Jo'sh etdi zulfiqorim qinda turmas,  
Kim inkor ahlidir, imona kelsin,  
Azaldan haq degan ahli tariqat,  
U kondan surilib, bu kona kelsin,  
Rivoyatdir hadisi Mustafodin  
Ming yil avval o'lanlar jona kelsin.

Hozir u hech narsani ko'rmas, o'z ovozini ham eshitmasdi. Qalbida u irshod yo'lga kirgan kun chalingan navolar takror jarang sochardi. She'r o'qilardi. Hamma aylanar, u ham

boshqalarga ergashardi. Har-har zamonda quloqlariga antiqa, qonni jo'shtiradigan, tomirlarni larzaga keltiruvchi musiqa qaridan pirining ovozi eshitildi.

Hali Jam majlisiga olib kelinmasidan avval pir unga asl insonning kamol topishiga ikki kishi sabab bo'lishini ta'kidlagandi: Birinchisi bel otasi uning tug'ilishiga sabab bo'lgan zot. Ikkinchi esa, yo'l otasi uning tariqatga boshlovchi ma'naviy padar. Inson tariqatga yuz burib, ikkinchi marotaba tug'ilmaguncha haqqa erisholmaydi. Ikkinchi tug'ilish komil murshidga bog'lanib, unga iqomat qilishdan keyin yuz beradi. Kim uni o'sha murshidning huzuriga olib borsa, onalik maqomiga erishadi. Yangi tug'ilgan inson esa yo'l bolasidir. Yo'l o'g'li murshid yoniga kelganida, taomillarning ijrosidan avval murshid unga tahorat oldiradi. Bu tahorat to unga berilgan nasihat va o'g'itlar buzilmaguncha sinmaydi. Taomil ijrosi jarayonida yo'l bolasi o'zining xos borlig'idan chiqadi, jismonan o'ladi, ya'ni dunyo hayotidan etak silkiydi. Ma'naviy jihatdan yangi hayot boshlaydi...

... Uni Jam rasm-rusumlari o'tkaziladigan maydonga katta bir xonaga olib kirdilar. U yerda ulug'vor, nuroniy, basavlat bir darvish o'tirardi. Ibrohinning qo'li uning qo'liga bog'langandi. Bir qo'li bilan u murshidning etagidan tutib turardi. Davrada o'n ikki eran o'tirardi. Yo'l otasi uni davra o'rtasiga sadr tepish uchun olib kirdi. O'rgatilganidek, Ibrohim o'ng oyog'ining boshmaldog'ini chap oyog'inikiga qo'yib, qo'llarini ko'kragi ustida qovushtirdi. Qo'lining barmoqlari yelkasiga yetib turardi. Boshini egganicha shu turishda qotib turdi.

Ilk savol-javobdan keyin eranlardan biri maqomidan turib, ularga yaqinlashdi va Ibrohimning ma'naviy qusurlaridan so'z boshladi.

—Juda qiziqqon, hamma narsaga osongina ishonadi, sodda. Biroz xayolparast. She'riyatga qiziqadi. Hali qalbini dunyo muhabbati tark etmagan.

Shundan so'ng boshqa bir eran so'z oldi:

–Bu yigit shu sheʼrlari bilan tariqatimizning mohiyatini oddiy odamlarga tushuntirishga harakat qilib keladi. Nosharʼiy ishlardan yiroq. Xuddi yosh boladek pok, begʻubor.

Shundan soʻng «masnad»da davraning toʻrida oʻtirgan Qutb qoʻlini samoga koʻtarib, «huv» dedi. Keyin barcha qoʻlini duoga ochdi. Tariqatga yangi qabul qilingan yosh yigitchaga Allohning rizoligi va ikki dunyo saodatini tilashdi. Xuddi shu payt ikkinchi xonada nay, tanbur, ud va nogʻora saslari yangradi. Samo majlisi boshlandi. Eranlar turib, Jam majlisidan samo marosimiga oʻtdilar. Oʻrtaliqda alvon dasturxonlar ustida anvoi yeguliklar, ichimliklar tizilgandi. Biroz oʻtgach, dasturxon yigʻildi. Sheʼr va samo tadbirlari boshlandi. Eranlar boshlarini yelkalariga qoʻyib, qoʻllarini ochib, avval turgan joylarida, keyin esa davra boʻylab aylana boshlashdi. Dunyo Ibrohimning koʻziga gardish misol surʼat bilan, jozibali tarzda aylanmoqda edi. U oʻzi ham anglamagan holatda gʻoyibona ilhom tufayli miyasiga quyilib kelayotgan satrlarni ovoz chiqarib aytishga tushdi.

... Ibrohim oʻziga kelganida, gʻorning oʻrtasida chalqachasiga shiftga qarab yotardi. Bu gʻorga qachon kirgandi oʻzi? Aylanishni qachon boshlagandi? Eslolmadi. Quloqlari ostida hamon yoʻl otasining oʻgitlari jarang sochardi:

–Qutbimiz oʻtgan paygʻambarlarning, eranlarning siridan voqif boʻlgani uchun ularning davomchilari sanaladilar. Oʻzi Haqqa qovushib, bu dunyoni jisman tark etgan chogʻida oʻrniga boshqasi zuhur etadi. Qaytadan oʻsha shaxsning timsolida tiriladi. Alloh bu olamning har zarrasida aks etadi. Borliqning oʻzi Yaratganning tajassumidir. Tangri bir dengizga oʻxshaydi, barcha mavjudotlar uning qatralaridir. Jam marosimi ham ana shu vahdatul–vujutni oʻzida ayon etadi. Tariqatga kirgandan soʻng, muhabbat majlisi quriladi. Bu marosimda musiqa va raqs hamrohlik qiladi. Sheʼrlar oʻqiladi. Eranlarning, Haq siridan ogoh pirlar va valiyarning suhbatini olmoq Kaʼba ziyoratiga barobardir amallardandir.

Murabbiy unga aytgandi:



–Bu bogʻning gullari orasiga kirishdan avval ikki rakat hojat namozini ado qilish lozim. Ana undan soʻng davraga kirish mumkin.

... U aytilgan taomillarni bajardi. Ammo hanuz Rabbiga erisha olmadi. Chunki u xalqining tilaklariga bogʻliq boʻlgan shoir edi. U dunyoning Vatan deb nomlangan bir parchasini darvish boʻlib kezib chiqdi. Poyu piyoda. Vatandoshlarining holini oʻz koʻzlari bilan koʻrdi. Insonlarning qanchalar mashaqqatlar ichida yashayotganiga amin boʻldi. Odamlar bu hayoti dunyodan lazzat, xotirjamlik, saodat topa olmaganlari uchun oxirat makoniga yuz oʻgirib, butun umidlarni Yaratganning rizosiga tikkan edilar. Bu darvishlar, tariqatlar hamma oqibatlarni oxiratda vaʼda qilishsa–da, besh kunlik dunyodan ketishga, abadiy saodatga qovushishga chaqirsalar–da, majlislarida musiqa va xursandchilik bois dunyo tashvishlarini unutishardi.

Darvish oʻzini shoh, sulton deb atash orqali insonlarga barobarlikdan xabar berardi. «Haqning qarshisida hamma barobardir», deya hukmdorlar, zolim shohlarni insofga chorlashardi. Faqirlarning dardiga malham qoʻyar, qalbini umidlarga toʻldirishardi. Yoʻl boʻylab gʻorlar, hujralar ana shunday «shohu sulton»larning makoniga aylangandi.

Bu davralar benavolar qiblasiga, umid oʻchogʻiga aylangandi. Ibrohim borgan sari koʻzi ochilayotganini angladi. Bu hujralar murshidlar va qutblar uchun oxirat eshigi emas, siyosiy dushmanlarga qarshi kurashda hokimiyatni qoʻlga olish uchun yashirin markaz, tayanch nuqtasi edi. Ular istagan paytlarida ming bir umid bilan bu yerga chorlagan faqirlarni jihod nomi bilan oyoqqa turgʻazar, oʻz siyosiy dushmanlarining qarshisiga chiqara olar, shu tariqa raqiblaridan ustun kelishardi.

Bu hujralarda Ardabil, Xuroson, Najaf madrasalarida mukammal tahsil olgan, yashirin taʼlim maydonlarida quvvat toʻplagan asl vatanparvar yoshlar ham koʻp edi. Ular Jam davralarida murid, jihod janglarida sarkarda, tinch kunlarda oʻz kunini koʻrib yurgan dehqonu chorvadorlar edi. Hujralar goh

«huv», goho «ur–sur», gohida ekin–tikin xitoblarini tez–tez eshitishardi. Faqirlar, kambagʻallar hamma yoqda boʻlganidek, bu yerda ziyon–zahmatdan boshqa narsani topolmasdilar. Eli Turonli, tili iymonli, zikri Subhonli pirlar bu bechoralarni hayot–mamot urushlariga oxiratdagi halovat vaʼdasi ila yoʻllasharkan, hech narsani, hech kimni ayab oʻtirmasdilar. Yunus Emroning mana bu satrlari faqirlarning tilidan tushmasdi:

Bu dunyoda koʻpdir vali.

Hammasiga dedik «balli»

Ey tangri arsloni Ali,

Yordam ayla qiyomatda...

Murshidning vaʼdalari shu qadar shirin boʻlardiki, ayollar umid bilan ularning yoʻllariga atirgul lachaklarini sochishardi. Murshid ibodatini ana shu lachaklar ustida qilardi. Keyin faqirlar ustida ibodat yoki samo raqsi bajarilgan gulbarglarni tabarruk bilib asrab qoʻyishardi. Xuddi shu ezilgan gul parchalari ularni biror bir balodan qutqaradigandek. Bir paytlar bu odamlarning Ibrohimning ham soʻfiyona misralarni duolardek zikr qilib yurishardi. Endi Ibrohimning koʻzlari ochilgandi. Bu hujralar qanchalik qorongʻi, gʻalati koʻrinsa–da, uning tafakkurida bir yogʻdu paydo boʻlgandi. Endi u oʻzining bechora hamyurtlariga oxiratda emas, shu dunyoning oʻzida yordam berishni istardi. Buning uchun u Shayx oʻgʻli shoh saroyiga yoʻl topishi kerak. Qalbi aldanganlar va aldoqchilar, iymon va shubha orasida tipirchilardi. Oʻzi ham aldanadimi–yoʻqmi, farqiga bormay, katta bir umid bilan Shayx oʻgʻli shohdan madad kutardi.

Ibrohim joyidan turmasdan qoʻlini koʻzachaga uzatdi. Jumrakdan suv simirdi. Ovqat yegisi yoʻq. Nastarin rangli roʻmolchaga oʻralgan non allaqachon qotib qolgandi. Shu boisdan yegisi kelmadi. Nimadir ichki gʻalayon uni tezroq turishga, qayoqqadir borishga undardi. Miyasida orzu–istaklar toʻla misralar qaynab toshardi.

Ibrohim ayni onda Yaratganga emas, Shay oʻgʻli shohga yulvorardi goʻyo:

Zulm arshga yetibdi, omon og'alar,  
 Eshiklar, ochiling, Shohning hurmati!  
 Na omon, na gumon qolmadi bizda,  
 Eshiklar, ochiling, Shohning hurmati!  
 Ko'ngil berdim hazratimning ishqiga,  
 Bo'yadi ruhlarni pirim mushkina,  
 Kel chiqaylik, Shoh Ismoil ko'kiga,  
 Eshiklar, ochiling, Shohning hurmati!  
 Ardabilning yo'li changdir, tumandir,  
 Zolimning zulmi arshga tayandi,  
 Haq qo'llari o'z qoniga bo'yandi,  
 Eshiklar, ochiling, Shohning hurmati!  
 Ibrohimshoh imomlarning qulidir,  
 Uzoq yaqin yo'li Haqning yo'lidir,  
 Bo'sh bormas dargohga, ko'ngli to'ladir,  
 Eshiklar, ochiling, Shohning hurmati!

U nechanchi marta turishga uringanini payqamadi. Lekin yozgan she'ri o'ziga yoqmadi. Nima uchun qul deyishi bilan qalbida tashnalik, intizorlik, alam, yuksak bir muhabbat jonlanadi? Hammasi bir-biriga qorishadi? Goh onasi, goh Nasrinning xayoli hujra devorlariga sirli ko'lankalardek titraydi?

«Inson o'z kamoloti uchun harakat qilmog'i kerak. Komil inson birovlariga ziyon yetkazmaydi. Hech kimni qul qilmaydi. Shundan keyingina Yer yuzidan zulm yo'qoladi, dunyo jannatga aylanadi. Bu gaplarni unga kim aytdi? Kim aytirdi? Titardi. Yig'lamoqchi bo'lardi. Yig'lolmasdi. Ko'zlari qurib qolgandi. Tomog'iga nimadir tiqilgandi. Onasini, Nasrinni unutishga, faqat Robbini zikr qilishga urindi. Ammo bir ish chiqmadi. Uning xotirasi ham ko'zlaridek qurib qolgandi. Darvish Robbi bilan yuzma-yuz turarkan, hir on qalbida, ko'zlarida, tilida undan boshqa hech kim bo'lmasligi kerak edi.

«Bir ko'ngilda ikki muhabbat bo'lmas, huv!.. Robbim Alloh, payg'ambarim Rosululloh, zikrim qul huvalloh! Yo Robbim, yo rahbarim! O'zing madad ber! Ey ruhi ravonim.

qiblagohim, panohim, madadkorim! O'zing marhamat qil!  
O'zingdan bo'lak tayanchim yo'q, suyanchim yo'q, madad ber,  
huv, huv, huv!»

Samodan tashqari shu qirq kunning ichida to'rt yuz rakat  
nafil namozini o'qidi. Mansur Hallojning so'zlarini dilida zikr  
qildi:

«Men Uning o'ziman, uni sog'indim! Men O'zimni  
sog'inganman! Biz bir badandagi ikki ruhmiz. Kim meni ko'rsa,  
uni ko'radi. Uni ko'rganlar esa, meni ko'radilar!»

..Gor og'zidan tong yog'dusi sirg'alib kira boshladi. G'orga  
toza bir havo oqib kirganida Ibrohim kutilmagan bir g'ayrat ila  
o'rnidan sapchib turdi.

Eranlardan ikki nafari ichkari kirdi. Qo'llaridan tutib,  
tashqariga olib chiqishdi. G'ordan chiqqan paytida Ibrohim ozib-  
to'zib ketgandi. Kimdir «ushlanglar, yiqiladi» dedi. Ammo uning  
o'zi kim yiqilishi, bu xitob kimga tegishli ekanini bilolmadi.  
Qo'lidan ushlagan do'stlarining quchog'iga qulab tushdi.  
Ko'zdagi suv, ro'molchidagi nonning ham bir qismi qushlar  
uchun qolgandi.

\* \* \*

Bozor boshida alaviy darvishlar yig'iladigan maydonchada  
bugun haddan ortiq odam to'plangandi. Juma kuni edi.  
Qishloqlar, yaqin mahallalardan kelgan odamlar bozor-o'charini  
qilib bo'lgach, ataganini darvishlarga ulashish uchun shu yerga  
kelgandi. Ularning aksariyati alaviylar, shiyalar va Xatoiy  
muridlaridan iborat edi. Jonli devorning o'rtasida oppoq kiyingan  
yosh bir darvish ham bor edi. Navbat uniki edi. U endi  
hammaning sevimli piri, shoiri Ibrohimshoh edi. Yig'ilganlar  
uning va'zini jon qulog'i bilan tinglashardi. U bugun qalbida har  
doim ardoqlab asraydigan Shoh Ismoilning g'azallaridan o'qirdi.

Xalq bu g'azallarining so'nggi misralarini jo'rovoz bo'lib  
o'qiyotgan paytda bu umumiy ovozga qilichlar jarangiyu oh-  
vohlar qo'shilib ketdi. Jonli devorni undan ham kattaroq bir xalqa  
ihotalab olgandi. Navkarlar qo'lga tushgan odamlarga kishan

qolishlari, o'zini oyoq ostiga olib ezishlaridan qo'rqardi. Qozining ro'molchasini ko'rishi bilan sovunlangan sirtmoqni mahkumning bo'yniga kiritdi. Shu payt Ibrohim tomonga toshlar otila boshladi. Toshalarni yanicharlar va dindorlar otmoqda edi.

Ibrohim ularning orasida qo'lida tosh ushalb turgan muhtasib Isrofilni ko'rganda, ich-ichidan bir oh tortdi.

«Qiziq, tarixda ayrim hodisalar aynan takrorlanadi. Mansur Xalloyni «anal-haq» degani uchun dor ostiga olib kelishganida, unga tosh otuvchilar orasida do'sti shayx Shibliy qo'lida bir gul tutib turganini ko'rdi. Majburiyat sababli ana shu gulni u Xalloy tomon irg'itdi. Mansur ich-ichidan bir oh tortdi. Jallod buni ko'rib so'radi:

«Shuncha toshga e'tibor bermasdan, bitta gul tekkani uchun buncha dod solasan?» Mansur esa, «ular kimga tosh otayotganlarini bilishmaydi, Shibliy esa bilardi—ku?» degan ekan. Endi esa men bilan bitta beshikda yotgan, bir onani emgan ukam Isrofil kimligini bila turib toshbo'ron qilmoqchi...»

Maydonda yig'ilganlar orasida turgan darvishlar arqon Ibrohimning bo'yniga tushganini ko'rishlari hamono bir ovozdan «hu, hu» deb uvvos solishdi. «Hu» tovushi maydonni larzaga soldi. Na qozi, na uning yordachilari, na jamoat orasida turgan askarlar darvishlarga bir og'iz gap aytolmasdi. «Hu» bu Allohning nomi, Allohning nomini tilga olganlarni esa, qo'lga olishning imkoni yo'q.

Qozi o'rnidan turib, ro'molchasini uchinchi bor silkitdi. Jallod shoshilinch mahkumning oyog'i ostidagi kundani tepmoqchi edi, maydon yana bir bor «Hu» ovozidan titradi. Alaviy darvishlardan Salimning boshchiligida xalq harakatga keldi. Bu yerlarda shayx o'g'lining tarafdorlari ancha ko'payib qolgandi. Daf'atan maydonni o'rab turgan yanicharlar ham darvishlar tomonga o'tib, qozi tomonga otilgan paytda qozi va uning odamlari otlarga minib darhol maydonni tark etishdi. Qolganlar ham ularning ortidan yo'l olishdi. Majburiyat qarshisida zo'rlab maydonga keltirilgan odamlar shodlanib

darvishlarni olqishlashardi. Ibrohimning ozodlikka chiqqanini ko'rgach, hamma o'z ishiga uyiga tarqaldi. Shu onda minoralardan azon ovozi eshitildi.

Dindorlar shom namozini o'qish uchun masjidlarga yuz tutdilar. Qosh qorayib, dor ostida Salim va G'ani ismli ikki qorovuldan boshqa hech kim qolmadi. Sulton Salimning adashi tezlik bilan Ibrohimning bo'ynidan arqonni yechdi. Jallod to's-to'polon payti o'zini odamlar orasiga urgandi. Janub kechalariga xos tarzda birdaniga qorong'i tushdi. Dorni yanada qoramtir sharpalar o'ray boshlashdi. Shu payti Salim sherigiga pichirladi:

–Menga qara, bolalaringga rahming kelsa, damingni chiqarma.

U hali gapini tugatmasdan turib, qora ko'lankalar dorga yaqinlashib:

–Shoh, – deyishdi.

–Shoh, – dedi Salim ham.

Ikkinchi qorovulning yuragi tovoniga tushib ketgandi. Kelganlar yanicharlarga o'xshamasdi. Darvishlar ularni kuzatib qo'yishgandi. G'ani hamon nimalar yuz berayotganini tushunolmasdi.

Darvishlardan biri shartta Isrofil muhtasibning bo'yniga arqon solib, tortdi. Ibrohim esa atrofidagilarga hayronlik bilan qarab turardi. Boshqa bir darvish Ibrohimning yelkasiga qo'l solib, uni nari olib ketdi. G'ani esa titrab–qaqshab, Salimning etagidan tutdi:

–Salim, men nima qilaman?

–Namuncha qaltiraysan, – dedi vaziyatning noqulay ekaniga qaramasdan, o'zini kulgidan to'xtatolmagan Salim, keyin esa darvishlarga pichirladi. Men buning masalasini hal qilay. Bo'lmasa, adashimning navkarlari kelib, bechoraning terisiga somon tiqishmasin.

–Biz seni Qavl yerida, maydonda kutamiz, – deyishdi Ibrohimni suyab ketayotgan darvishlar.

Salim dorga tortilgan Isrofilni ko'rib, G'aning badani junjikib ketdi. Nazarida Salim uni ham hozir bir bahona bilan o'ldirishi mumkindek edi.

Ammo qochish uchun ham majoli qolmagandi. Salim uni tushundi:

–Dovdirama, G'ani! Seni o'ldirmoqchi bo'lganimda, boya ishingni bitirgan bo'lardim. Kallangni ishlat! Bu qo'rqinchli ishga jonini beradiganlar xuddi senga o'xshab, faqir–fuqaro yo'lida jonidan kechadi bu zolimlarning zulmini yo'qotish uchun. Qara, oshna, seni hozir mana bu ustunga bog'layman. Mahkam bog'lab ketaman. Kelib seni qutqarishadi. Hamma aybni menga ag'daraver, «Aramas Salim ham ulardan ekan» deb meni so'k. Senga hech narsa qilishmaydi.

Salim shu gaplarni aytarkan, G'anini dor yog'ochiga mahkam bog'ladi. Keyin peshonasidan o'pib qo'ydi:

–Yaxshi qol, Alloh o'zi seni haq yo'ldan adashtirmasin, meni unutma!

Maydonda, dor ostida bog'lab ketilgin G'aning qalbini atrofdagi zulmat singari qora qo'rquv qoplasa–da, miyasi fikrlashdan to'xtamagandi. Salimning o'rtoqlari bilan antiqa salomlashishi, sirli gaplashishi hamon uni o'ylantirib turardi.

–Maydonda uchrashamiz, dedimi? Sultonning farmoni bilan o'limga hukm qilingan odamni qutqarib, o'rniga muhtasibni qatl etish uchun odam qanchalik qudratli bo'lishi kerak? Bu shovvozlar shuncha ishni qilib, bekinish o'rnida yana qaysi maydonda ochiqchasiga ko'rishishmoqchi? Sultonning boshqa qo'shini yo'qmi? Nahotki shuncha ishga jim qarab turaversa? Hali sulton ertaga bir qiyomatni boshlasa, bularning holi nima kecharkin?

Salim tezda do'stlariga yetib oldi. Ular yuk ostida, bu esa bir o'zi chopqillab borardi. Yetib olishi bilan qalbini to'ldirgan g'ussani yengmoq uchun Ibrohimning qo'ltig'idan kirdi:

–Kechikmadimmi, birodarim? Yuragim uzilib tushgudek bo‘ldi. Bu darvish do‘stlarimiz nima desa desin. men Haq yo‘lini o‘z qalbidan topdim. O‘z bilganimcha ish tutaman.

Uning quloqlari ostida Pirning so‘zlari yangradi:

«Ey darvishlikka qadam qo‘ygan yigit! Haqni zikr qilishga hafsalang, yuraging bormi?»

«Bor!», degan bo‘lsa–da, ichida «faqat zikrning o‘zi bilan ish bitarmidi? Bu zulm va tug‘yonning oldini olish uchun nima qilmoq kerak?» deya o‘ylagandi.

Shundan so‘ng Pir unga dedi:

–Faqatgina zikrdan ish chiqmaydi. Asl oshiqdan ahvol so‘rashadi. Yolg‘on va makr bilan bu yo‘lga qadam qo‘yma. Tasdiq ahli har so‘zing uchun isbot so‘rashadi. Nima deb javob berasan?

–Men ularga o‘z bilimim va amalim bilan javob beraman, pirim! Sen o‘lmasang men o‘laman. Hu deb chaqirganga ha deyman. O‘zimni o‘limga topshirganim uchun tirik qoldim. Ishim bitdi. Dunyomiz uchun dunyolarga teng bir shoirni xalos etdim. Yaratganning o‘zi nafasini bardavom qilsin. Allohim o‘zing noumid qilma. Balki qo‘rquvdan hushini yo‘qotgandir? O‘ziga keladi. Hech narsa qilmaydi.

Salim do‘stining og‘irligini his qilmasdi. U do‘stini yelkasiga ortmoqlab borardi. Talosh bilan ilgari lab borayotgan yoshlar buni his qilishmasdi. Kecha quyuqlashgani sari havo salqinlashar, yengil shabada etni junjiktirardi.

Shahardan chiqayotib, otliq qorasiga duch kelishdi. Kimdir: –Shoh dedi.

«Shoh» degan javobni olgach, yoshlar darhol yaroqlarini yalang‘ochladilar. Bu ular kutayotgan otliq edi. Ular hamrohlarni tasodifiy yanicharlar hujumidan qo‘riqlashi lozim edi.

Salim otga mindi. Shoirni ham otiga o‘ngarib olmoqchi bo‘lganida, kimningdir taklifi bilan hushsiz yigitni ot ustiga mindirib, bog‘lashdi. Endi Ibrohimning boshi uning qo‘ynida borardi. Har zamonda qulog‘i ostida Ibrohimning notekis natas



olishi eshitalardi. U ayni damda Ibrohimning she'rlaridan birini xirgoyi qilib borardi:

Keldim dargohinga, shayx o'g'li shohim.

Omon, himmat ayla, omon kunidir!

Sensan mening qiblagohim, panohim,

G'arib do'stlarimning yomon kunidir!

Munofiq askari yo'lni kesdilar,

G'oziyar tog'lardan yeldek esdilar,

Rum elinda shialarni osdilar,

Omon, himmat ayla, omon kunidir!

G'arib do'stlarimning yomon kunidir!

Tuyalaring salt boradi, men turay,

Kuchli dushman bilan bir savash quray,

Shianing qoniga bo'yaldi Urum,

Omon, himmat ayla, omon kunidir!

G'arib do'stlarimning yomon kunidir!

Uch kimsa taniyman, foniyl dunyoda,

Yetdilar, yetkazar meni muroda,

Qirqlarning qo'lidan ichmisham boda,

Qirq ming do'stning qoni oqqan kunidir!

G'arib do'stlarimning yomon kunidir!

Xatoiy qulidir Abdol Ibrohim,

Ko'klarga tiranib, oh ila vohim,

Madadkorimiz bo'l, karamli shohim,

Darvishlar yig'iling, omon kunidir.

Shohga ayting, oxirzamon kunidir.

«O'sha oqqan qonlar orasida mening ota-bobolarim qoni ham bor. Meni ham ularning qasдини olishga chaqiryapsanmi, Ibrohim? Do'stim, o'zingning ham qoning oqdimi? Yo'q, agar bu borliqda adolat hukmron bo'lsa, bu mard yigit shunchaki juvonmarg bo'lib ketmaydi». Uning yuragiga yana umidsizlik to'ldi. Salimning nazarida boya Ibrohimning hissiz boshi yelkasiga tushganida, sovuq lablari bo'yniga tekkanida, iliq bir nafasni his qilgandi. Endi esa, bu nafas yo'q. Yigitning qalbini,

butun vujudini dahshat qamradi. Otni qattiqroq qamchilagani uchunmi, yoʻrtib ketdi. Salim ham, uning ortida mingashtirilgan Ibrohim ham munkib ketdi. Salimning nazarida kimdir ingragandek boʻldi.

... Gʻorlarga yaqinlashganda, tun yarmidan ogʻgandi, ularni keksa pir Naftalishoh gʻor ogʻzida qarshi oldi. Parning qoʻlida uzun aso bor edi. U ana shu asoga tayangandi. Otliqlar otdan tushishdi. Ibrohimni hakm otdan tushirib, pirning kuzatuvida mashʼallar bilan yoritilgan gʻorga olib kirishdi. Bu yerda ularni qarshilamoq uchun hamma narsa bor edi. Tajribali keksa hakim faqat oʻziga maʼlum boʻlgan oʻsimliklardan dorilar, malhamlar tayyorlab qoʻygandi. Ibrohimni yerga toʻshalgan yumshoq teri ustiga yotqizishdi. Hakim birinchi navbatda yigitning koʻylagi yoqasini ochib, tomir urishini tekshirdi. Pir Naftalishoh boshchiligida barcha darvishlar Ibrohim bilan Hakimni oʻrtaga olib, xavotir bilan kuzatishar, hakimning har bir harakatini koʻzdan qochirishmas, hech biri oʻtirishga, tizzalashga, nafas olishga jurʼat etmasdi. Ibrohim oʻlikmi yoki tirik? Nega harakatsiz? Balki yuragi yorilgandir? Shuncha harakatlari behuda ketdimikin? Shoʻrga nima boʻldi? Ehtimol, u allaqachon tiriklar salini tark etgandir? Balki unga hir qarich kafan, ikki quloq yerdan boshqa narsa kerak boʻlmay qolgandir?

Keksa hakim boshini yigitning oppoq koʻkrigidan koʻtardi. Yuzidan na sevinch, na qaygʻu alomati bor edi. Uning oppoq qalin qoshlari ostidagi tiyra nigohlarida umidsizlik ham koʻrinmasdi.

–Huv! Umid Haqdandir, eranlar! Badani juda sogʻlom, tezda oyoqqa turadi. Faqat juda majolsiz.

Pir Naftalishoh bilan birga Ibrohim va hakimni oʻrab olgan, xuddi janozaga hozirlik koʻrayotgandek turgan darvishlarning va Salimning yelkasidan togʻdek yuk tushgandek boʻldi. Hamma yengil nafas oldi. Naftalishoh dedi:

- Eran, izohga ehtiyoj yoʻq, umidimiz sendan va Haqdan.
- Qoʻlimdan kelgunicha kamarbastaman, pirim!

Keksa hakimning ishorasi bilan uning yosh ko'makchilaridan bir darvish tayyorlangan dori va malhamlarni olib keldi. Hakim muolajani boshladi. U Ibrohimning bo'yniga, ko'krasiga, tirsaklariga malham surib, uqalarkan, derdi:

–Yaratganga shukurki, arqon bo'ynini mahkam bo'g'magan ekan. O'zi sog'lom bo'lsa—da, holsizlik va qo'rquv o'z ishini ko'rsatibdi. Shuning ta'siri...

Salimning qalbi farah hissi bilan to'ldi. Agar faqirlar oyoqqa turib, yordam bermaganida, balki hozir bu Haqning benavo quli bu yerda yotmagan bo'larmidi? O'zi ham do'stini xalos etish uchun qo'lidan kelganini qildi.

Bu orada qochoq hakim yosh darvish olib kelgan dorini Ibrohimning yarim ochiq qolgan lablari orasiga tomizib turdi. Suyuqlik dori qurigan tilni namlab, tomoqqa oqarkan, Ibrohimning yuziga rang kira boshladi. Tabib yigitning lablari orasini ochdi.

–Umidimizni uzmaylik. – dedi u. Azizlarim, siz o'z ishingizga qayting. Faqat bitta yordamchim qolsa, yetadi. Hali ertaga xudo poshsho. Har qalay xavf—xatar kamaysa kerak. Shunday deya u Ibrohimning oyoqlarini uqalab, ustiga yumshoq teridan ishlangan to'shakni tortdi. Hamma o'z hujrasiga yo'l oldi. Salim ham o'rnidan turib, g'ordan chiqdi.

Uzoqlarda, Kunchiqar tomonda ufq qizara boshladi. Tong yulduzi ham botmoqda edi. Nihoyat tog'lar ortidan quyoshning ilk shu'lari sizib chiqdi.

Salim tongning sof, salqin havosini to'yib simirdi. Baland qoyalarga termilganicha, o'yga toldi:

«Mayli qo'yaver! Sen Sulton Salimsan, men esa, darvish Salim! Ota—onamning, chimildiqqa kirmagan qizlarning, o'g'il to'yini ko'rmagan onalarning, tobuti farzandining yelkasida ketmagan qariyalarning qoni yerda qolmaydi. Ularning qasosini, men darvish Salim olaman!»

Ertalab Ibrohim o'ziga keldi. Yosh va sog'lom vujud eranlar tayyorlagan darmonlardan quvvat olib, kuchga to'lgandi.

Salim va do'stlarining uchishga qanoti yo'q edi. Zahmatlari bekoraga ketmadi.

Bir necha kundan so'ng Ibrohim o'zi turib yura boshladi, samo majlislarida ham qatnashdi.

Xaftaning oxirida uni mutlaqo sog'ayib ketganini ko'rib, Niftalishoh huzuriga chorladi:

–Bolam, sadoqatingga amin bo'lganim uchun senga bir ikki topshiriqlarim bor. Tabrizga, Shayx o'g'li shoh huzuriga borasan. Fikrimcha tez orada ikki o'rtada shiddatli urush boshlanadi. Sulton Salim Shayx o'g'li shohga qarshi ishlatish uchun faranglardan zamonaviy qurollarni sotib olayotganini eshitdim. Saroydagi vakilimiz yuborgan ma'lumotni qiblagohimizga yetkazishni faqat senga ishonib topshiramiz.

Shu gaplarni aytib, Niftalishoh qo'lini Ibrohimning yelkasiga qo'ydi. Eran va pir o'rtasidagi ikki kunlik sukunatdan so'ng Ibrohim karvonga qo'shildi.

## LO'LI RABOTI

Ibodulloh karvonsaroyi shu taxlit rabotlar ichida eng saranjom, orastasi edi. Biz biroz avval ota-bobosining suyaklarini Hazra va Tabaristondan topib, Ardabilga olib ketgan hukmdorning o'sha karvonsaroyda turgani haqida habar bergandik. Ammo o'sha paytda karvonsaroyini keng tasvirlashga imkonimiz bo'lmagandi.

Bu yerda har doim kunning, kechaning qay paytida kelsangiz, turli yegulik va ichimliklarni topish mumkin edi. Pul bo'lsa bas. Har doim yaxshi dam olish, uxlash uchun ham sharoit yetarli. Karvonsaroy xojasi Ibodullohni Alloh qiz-kelindan qismagandi. Ayoli to'qqiz qorin tuqqan, ulardan uch nafari egizak edi. Bolalardan biri ulg'ayishi bilan keyingisi uning izidan tushar, uy ishlariga yordam bo'la boshlardi. Ibodullohning ayoli Gulsum ham eriga o'xshagan uyim-joyim deydigan, oyoq-qo'li chaqqon ayol edi. O'n ikki bolasidan birini go'dakligida o'lim changaliga topshirgan, qolganlari ochiq havoda, oyoqyalang, boshyalang katta bo'lishgandi.

Ibodulloh otasidan qolgan kichkina Lo'lirabotni kengaytirgan, qo'shimcha binolar qurgan, olti o'g'ildan qay biri ulg'aygan bo'lsa, har biriga bittadan xona bergan, ammo hech birini alohida chiqarmagandi. Hammasi qo'li ostida, ko'zi o'ngida edi. Qizlarini kimga uzatgan bo'lsa, kuyovlarining ham o'z yo'lini topishiga ko'maklashgan, yoki savdogarlarga qo'shib qo'ygandi. Qizlar va kelinlar karvonsaroyini guldek toza saqlashar, oziq-ovqatini o'z bo'yinlariga olishgandi.

Lo'lirabot yonida muzday suvli quduq qazilgan, atrofida so'rilar qurilgandi. Ibodullo og'a va Gulsum xola qarib kuchdan qolishgan bo'lsalar-da, hamon karvonsaroyini o'zlari boshqarishardi. Karvonsaroy har doim savdogarlar, sayyohlar, darvishlar bilan to'la bo'lardi.

Oila a'zolari yashaydigan binolar karvonsaroyning tevaragida edi. Rabotning ustki qavatidagi xonalar boy

mehmonlarga mo'ljallangan. darvishlar, faqirlar pastki qavatdagi kichik hujralarda tunab qolishardi. Keyingi kunlarda karvonsaroy xuddi ari uyasidan g'uvillar, darvishlar, mehmonlar, savdogarlarning keti uzilmasdi.

Bugun tandirda non yopish navbati Ibodullohning kichik kelini Gulyuzniki edi. Keksa darvish tandir yonidagi kursida o'tirgancha, o'z nasibasining tandirdan uzilishini kutib turardi.

Kelin tandirdan chiqqan birinchi kulchani kekxa darvishga uzatdi. Darvish ayolga allanechuk xirs aralash havas bilan boqqancha kulchani olib, duo qila-qila chaynashga tushdi.

Karvonsaroy hovlisida Ibodullohning katta o'g'li katta qozonda jiz-biz qovurardi. Qo'raning tubida kichkina sopol idishlarida piti (ko'za-sho'rva) biqillab turardi.

Bugun kattagina karvon kelgandi. Biri Arash va Gana tomonga ketar. biri Tabrizga ketishga hozirlik ko'rardi. Devor bo'ylab tizilgan oxurlarga ot, xachir, eshaklar bog'langan, sal nariroqda yukli tuyalar pishqirardi. Tuyalar kavsh qaytarar, ot-eshaklar arpa chaynashardi. Ibodulloh mehmonlarni karvonsaroy hujralariga joylashtirish bilan ovora edi.

Tabrizga borayotgan karvon sohibi Ibodullohni chetga tortdi:

– Bu farangi mehmon podshohimizning huzuriga yo'l olgan, unga yaxshi hujra ajratib ber. Yana uyalib qolmaylik, dedi kamzulli, boshiga moviy papoq kiygan bir kishini ko'rsatib. U otining boshida turib, jonivorning arpa yeyishini kuzatardi.

Tuyakashlar ham bir davraga to'planib gurung qilishardi. Bir guruhda ikki tuyakash o'zaro bahslashar, sheriklari ularning bahsinini qiziqish bilan kuzatishardi. Jumar ismli bu tuyakash o'zining hazilkashligi bilan sheriklaridan ajralib turardi:

–Xinislida olomon orasidan bir to'da juvon ko'zimga olovdek ko'rindi. Oralarida bir yoshi kattaroq xotin ham bor edi. Birdan to'da orasidan bir shaddod kelin ajralib, yonimga keldi. «Mana shu opaxonga bitta er topish kerak» dedi. Shoshib qoldim. «Bo'yni murutning dumchasidak qiltillab turgan ekan, uni kim

ham olardi» deb yuboribman. Hammasi kulib yuborishdi. Lekin ochig'i, o'sha hazilkash juvonga rosa dil ketdi. Ko'zlari ohunikidek. kipriklari uzun—uzun, agar o'zi tegsa olardim.

Yana davrada kulgu ko'tarildi. Boshqa bir tuyakash o'z hamqishlog'idan nolirdi:

—Qo'ling singur o'z xotini bo'g'izlabdi. Har gal qishloqqa borsam o'shani betini ko'rmay deb o'taman. Qo'limga pul tushsa, soliq deb yulib ketadi. O'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladi. Unga necha marta aytdim, birodar, jo'jabirdek jonman. bitta xotinimdan boshqa hech kimim yo'q. Bittagina tuyam bor, odamlarning yukini tashib tirikchilik qilaman. Yozda o'tin—cho'p yig'aman, qishda karvonga chiqaman.

Chumchuq emas, lochin beray,

Bedanamas, borin beray...

Bitta tuyadan men senga nima beray?

Sherigi uning yurakni siqadigan suhbat mavzusini almashtirdi:

—E, qo'ysalaringchi, qo'y go'shtining savobi ming yil ibodatning savobi deganlar. Qani kabobdan olinglar, bunaqa dard—hasratlarni unutaylik. Manavi qo'y qatig'idan bir ichib ko'rsalaring, oh—oh, o'lik yesa tiriladi.

Sheriklari uning orqasidan ketishdi.

Sal nariroqda sochlari, soqol—mo'ylavi, hatto qoshlarigacha qirtishlangan alaviy darvish ham o'z do'stlariga shikoyat qilardi:

—Kechasi bilan qashinib chiqdim. Jonga tegdi bu bit degani!

—Kambag'al bo'lishning aybi yo'q, lekin bu darajadamas—da!

Yana bir tuyakash o'z sarguzashtini aytish bilan mashg'ul edi:

—Gedikka yetganimizda rosa qor kuchaydi—ku! Ko'z ko'zni ko'rmaydi. Kunim bitibdi, dedim. Karvonboshining ham kipriklarigacha qor bosib, muzlab qolgan...

Ikkinchi guruh bir qancha darvishlardan iborat edi. Ular karvondagilardan sal beriroqda hujra olishga navbatda turishardi.

Ba`zilari beriroqda terilarni to`shab. ustida namoz o`qishardi. Teri ustida namoz o`qish ham savob, ham xatarsiz edi. Rivoyatlarga ko`ra, teri ustida namoz o`qiyotgan odamni ilon—chayonlar chaqmasmish.

Elchining nazarini ana shu darvishlarning suhbatlari ko`proq qiziqtirardi. U darvishlar orasida Shayx o`g`li shohning anchagina ayg`oqchi va xufiyalari borligini yaxshi bilardi. Ular mamlakatning turli hududlarida darvish qiyofasida kelib, odamlarning hukmdor haqidagi fikri, joylardagi ahvolni shohning shaxsan o`ziga yetkazib turishardi.

Yevropalik elchi uchun bularning barchasi qiziq edi. Uning o`zi shohning huzuriga sovg`a—salom bilan bormoqda edi. Bu hadyalar orasida turfa xil kimxob matolar, besh dona kichkina to`pponcha, elliktacha cho`tkka, qo`l tegirmoni va boshqa mollar bor edi. Hozir u darvishlarga quloq solib o`tirarkan, saroyda uni qanday qarshi olishlari haqida o`ylardi. U asosan Ismoil haqida so`zlayotgan shia darvishlarning suhbatlari tinglardi. Ularning turli rivoyatlari asosida xayolan uzoq qarindoshi bo`lgan shohning tasavvurini yaratardi.

Axir shohning ona tomonidan buvisi Vizantiya hukmdorining qizi edi. Elchining ham Venetsiya dojlariga aloqasi bor edi. Shu bois Shoh Ismoilning tomirida ham turk, ham yevropalik qoni oqardi.

Elchi fors va turk tillarini yaxshi bilgani uchun darvishlarning rivoyatlari, so`z—suhbatlari shuurini ravshan yorib kirardi. Ayni damda kal darvishlardan biri so`z olgandi:

— Bir zamonlar bir podshohning xazinasiga o`g`ri tushibdi. O`g`rini shohning huzuriga olib kelishibdi. U vazirlariga yuzlanib, o`g`riga qanday jazo berishni so`rabdi. «Podshohi olam, bu gunohkorning jismini bir necha pora qilib, har porasini Haraning turli dahalariga osmoq lozimdirki, odamlarga ibrat bo`lsin», debdi shohning o`ngqo`l vaziri. Shu payt odamlar orasida turgan bir oqsoqol ovozi ko`tarib «aslahu aslan» deb xitob qilindi. Podshoh qariyaga indamasdan chap qo`l vaziriga



o'girilib, unga ham o'sha savolni beribdi. «Uni kechirmoq lozim shohim, chunki uning o'zi el aro rasvosi chiqib tavbasiga tayandi». Shu payt yana haligi chol ovozi boricha «aslahu aslan» deb baqiribdi. Shundan podshoh haligi qariyani yoniga chorlabdi. «Bu nima gap, birinchi vazirning gapidan keyin ham, hozir ham bitta gapni qaytaryapsan. Bu nima deganing o'zi? Qay bir vazir to'g'ri hukm chiqardi?» Shunda qariya qulluq qildi: «Shohim, qarisan qartasan, asli naslingga tortasan! O'ng qo'l vazirning otasi qassob edi. Shu sababli ota kasbini eslab, bechorani nimtalashni tavsiya qildi. Chap vazirning otasi esa, yaxshi, muruvvatli odam edi. Shu bois osiyga ham muruvvat ko'rsatmoqchi bo'ldi. Azizlarim, bizning podshohimiz payg'ambar avlodidan. U ham dinimiz rivoji uchun kurashadi. Rivoyatlarga ko'ra payg'ambarimiz (s. a. v)dan so'rashibdi: «Yo rasululloh, do'stingiz kim—u, dushmaningiz kim?» Rasuli akram javob berdilar: «Do'stim dinimni birlashtirgan, unga rivoj bergan odam, dushmanim esa dinimga rahna soluvchilardir».

Yana bir darvish suhbatga qo'shildi:

—Ha, to'g'ri aytasiz, og'a! G'azot paytida bir gal Ardabilga borgandim. Shohning o'zi maydonga tushdi. Aholi ham, qo'shin ham maydonda edi. Shoh odamlarga qarab «vatandoshlarim, Haq ishiga kim ishonadi?» deb so'radi. Sizni din yo'lida, mazhab yo'lida jihodga chaqiraman» dedi. Keyin bir she'rni o'qidi. Odamning eti junjikib ketdi. Ko'rdimki, qilichlar qinidan chiqdi, quyoshning yuzi to'sildi. Maydonda minglab odamlar «shohimiz, biz sen uchun jonimizni berishga ham tayyormiz» deya na'ra tortishdi.

—Ha, Oxirzamonda zuhur etadigan Mahdiy ham shohimizning o'zlari bo'lsalar kerak.

—Ha, ora—sirada urushlar bo'lib, qon to'kilib turmasa, dunyo xuddi qoni ko'paygan bemordek og'irlashib qolarkanda.

Shu payt qizilbosh targ'ibotchilaridan biri oraga qo'shildi:

–Podshohimiz g‘oyat adolatli! U oldingi urushdan g‘alaba bilan qaytgach, xalqdan yetti yillik xirojni olmasligi haqida jar soldirdi.

Darvishlarning atrofini o‘rab olgan savdogarlar, tuyakashlar, jilovdorlar ularning so‘zlarini eshitib o‘tirishardi.

–Alloh qilichini keskir qilsin!

–Arslonni o‘ligi, siqchonni tirigi. Arslon u, arslon.

–Qur‘oni karim yo‘ldoshi bo‘lsin.

Shu payt kimdir karvonboshining yoniga kelib, uning qo‘liga buklangan qog‘ozni olib keldi:

–Mana shu maktubni Shayx o‘g‘li shohga yetkaz. Alloh xayringni bersin. Rahmdil deyishyapti. Balki bizga ham marhamat ko‘rsatsa...

Uning ovozi odamlar shovqini orasiga ko‘milib ketdi. Kimlardir salovot o‘g‘irishar, shohga hamdu sano aytishardi. Darvishlar orasidagi bir yosh yigit hammani jimgina eshitib turardi. Alaviylarga mansub bo‘lgan bu yigit dor ostidan omon chiqqan Ibrohim edi. U bir necha kun avval Tabrizga keladigan karvonga qo‘shilib olgandi. U pining topshirig‘ini shohga olib borardi. Qalbining hukmi bilan haqiqatni izlardi. Odamlar esa shohning ta‘riflashda davom etishardi.

–Bir kuni shohga «dushman bir askarimizni o‘ldirdi, yerlar qo‘ldan ketdi», deb xabar keltirishdi. Shoh ho‘ngrab yig‘ladi. Undan «siz nega yig‘layapsiz, qo‘ldan ketgan yerlargami?» deb so‘rashsa, «erni qaytadan qo‘lga kiritisa bo‘ladi, ammo mard yigit ketsa, qaytib kelmaydi» degan ekan.

Yana bir kishi gapga qo‘shildi:

–Ha, shohimiz g‘oziylarni G‘azotga yuborish payti «dushmanning besh yuzta kallasidan ko‘ra, sizning bittagina ezilgan barmog‘ingiz men uchun aziz, shunday ekan. o‘zingizni asrang!» deya kuzatganlarini o‘zim eshitganman!

«Bechoralar, o‘ylardi Ibrohim. Hammasi o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, o‘z qulog‘i bilan eshitgan. Men esa hammasiga o‘z qalbm bilan amin bo‘lishni istayman. Men o‘zim istagan

savollarga javob olishim kerak. Ammo bu gaplar mening savollarimga javob bera olmaydi. Shubhalarim ortib bormoqda».

Shu xayollar bilan Ibrohim darvishlardan uzoqlashdi. Bir ikki kun avval karvon savdogar Rafining yoshgina o'g'li bilan do'stlashgandi. U bilan topganlarini birga baham ko'rib, birga tunah yurishardi.

Ibrohim o'sha do'stini izlardi. Quyi qavatdagi bir hujrani ijaraga olgan ekan. O'zi ham yon xonalardan biriga joylashdi.

Karvonsaroyda otxonaning yon tomonidagi umumiy xonadan bir guruh masxarabozlar joy olishgandi. Ayni damda ular navbatdagi tomoshaga tayyorgarlik ko'rishardi. Kimdir maydonda tikilgan dor ustida mashq qilayotgan yigitchaga havas bilan tikildi:

–Mashaalloh, xuddi qushga o'xshaydi–ya? Alloh o'zi asrasin!

–E, bular o'rganib ketgan, barmoqdek keladigan dor ustida umbaloq oshishini qarang!

–Alloh asraydi, dedim–ku?

–E, Allohning dorbozlar bilan nima ishi bor? Gunoh–ku?

–Nima dorbozlar Xudoga ishonmaydimi?

Dorboz dordan tushdi. Papog'ini qo'liga olib, davrani aylana boshladi. Odamlar orasida savdogar Rafi ham o'g'li bilan ularni tomosha qilib turardi. Unga navbat kelganida, ko'z qiri bilan papoq ustiga tushayotgan tilla tangalarga qararkan, yuzini chetga burdi. Dorboz uning yonidan o'tib ketgan payti kimdir uning qo'lidan tutib qoldi:

–To'xta! Ertalabdan beri senga umid ko'zi bilan qaraydi. Haqqini bermaysanmi?

–Qanaqa haq? – so'radi savdogar.

–Bu bola sen bir lahzalik zavq olishing uchun kunlab mashq qilgan, jonini xabarga qo'yib dor ustiga chiqqan.

Savdogar ijirg'anib, hamyonidan bir tanga oldida, dorvoz bolaning papog'iga tashladi. Savdogarning o'g'li uning bu qilg'idan xijolat chekib, o'zini qo'yarga joy topolmasdi.

Hamma unga qarab turganni payqagan savdogar Rafi o'g'lining qo'lidan tutib, davrani tark etdi.

–Bu yoqqa yur, bu nomusulmonlar orasida bizga nima bor?

Ular hujraga kirishdi. Ichkari kirishi bilan savdogar bolaning boshiga bir shapaloq tushirdi:

–Hoy itvachcha, senga ming marta gapirdim, odamlar ko'p joylarga kirma deb! Shohimiz nomi bilan qasam ichaman, agar gapimga kirmaydigan bo'lsang, shahar hokimiga borib, seni jazolashlarini so'rayman. Nimalab tashlayman. Itdan tarqagan! Senga nomahram ko'zlardan yiroq bo'lasan, deb erkakcha kiyintirdim. Odamlarning orasida tomosha ko'rib yurgin deb emas. Qulmisan, kanizmisan, jimgina hujrangda o'tirsang o'lasanmi? Manzilga yetguncha jim yurgin padarla'nati.

Oytekni yig'lamadi. Qariyaning u qadar kuch–quvvati ham qolmagan, bir ikki shapatisi qizga ta'sir ham qilmasdi. Keyingi paytlarda savdogar tez–tez bezgak tutib, istmalab qolardi. Bunday paytlarda tomog'idan suv ham o'tmas, ammo bozorda sotib olgan kanizi Oytekinni yonidan qo'ymasdi.

Shu payt eshik taqilladi. Bo'sag'ada darvish Ibrohim turardi. U Ibdulloh otaning nevarasi bilan birga uch kosa piti olib kelgan ekan. Bola darvishning ko'rsatmasi bilan xonaga qo'yib chiqdi. Ibrohim qo'ltig'iga qistirib kelgan issiq nonlarni Oytekinga uzatdi.

–Inim, qorin ham ochib ketdi, bitta dasturxon solsang, manavi nonlarni ham ol.

Ibdulloh otaning kenja kelini yopgan issiq nonlar va qaynoq pitining ishtahaochar hidi qarshisida Rafi savdogar ham g'azabini unutdi. Tekin piti va issiq non teshib chiqarmidi? Bu darvish ham qiziq odam ekan. Boshqa darvishlar nuqul odamlarni shilish payida bo'lsa, bu keksa savdogar va uning «o'g'lini» siylagani siylagan.

Oytekidan ham oldin savdogarning o'zi xurjunini kavlab, belbog'ini bo'yra ustiga dasturxon qilib yozdi. Ko'zachada turgan

muzdek suvni dasturxon ustiga kelitib qo'ydi. Uchovlashib pitini tanovul qilishdi.

Hovlida dor ostida oyoqlariga kumush xalxollar taqib olgan, xotinar kiyimini kiygan masxarabozlar raqs tushishardi. Venetsiyalik elchi Sharq san'atining bu nodir namunalarini diqqat bilan tomosha qilardi. Har zamonda bu raqslarning nomini atrofdagilardan so'rar, yondarftarchasiga nimalarnidir qayd qilardi.

Ibrohim kechgacha Rafi savdogar bilan gaplashib o'tirdi. Rafi shom namozi uchun tahoratga olishga hozirlik ko'rarkan, Ibrohim ular bilan xayrlashib chiqdi.

–Yaxshi dam olinglar!

Rafi o'zicha bir nima deb ming'irlagancha, tahorat olgani quduq tomon ketdi.

Ibrohim tunni turli fikrlar qurshovida o'tkazdi. Avvaliga shom yorug'ida bir qancha kitoblarni varaqladi. Yuragini g'ajiyotgan ayrim savollarga javob izlab topolmadi. Keyin ayrim tushunchalarini qog'ozga tushirdi. Biroz mutolaa qildi. Xayollar qurshovida ko'zi ilinganini payqamadi.

... Karvonsaroy hovlisida azon ovozi eshitildi. Muazzin shia darvishlaridan biri edi. O'rnidan turgan musofirlar tahorat olishga turdilar. Hamma, kattayu kichik, xojayu qul ibodat uchun oyoqqa turdi. Hamma bir paytda sajdaga bosh qo'ydi. Hamma bir vaqtning o'zida duoga qo'l ochdi.

Hamma Yaratgandan o'z hojatini so'rab yolqorardi. Bo'sh otxonalardan joy olgan qullar ham o'zlaricha Yaratganga munojot qilardilar. Peshonasiga cho'rilik qismati bitilgan, qulog'iga qullik sirg'asi taqilgan, bo'yniga kunda solingan, oyog'iga kishan urilgan bandilar o'z parvordigoridan nimalarni so'rarkin? Albatta qaysidir boy odam bir balodan, ofatdan qutulish uchun bir qulni ozod qilishga bel bog'lashini va o'sha baxtli qul o'zi bo'lib chiqishini so'rasa kerak. Axir ular ham kimning jigarbandi, ular ham bir paytlar ozod bo'lib tug'ilgan edilar. Ularni onasi, otasi, singlisi, sevikli yori kutayotgandir?

*Shumidi tushgan dog'lar,  
G'urbatga tushgan yig'lar,  
Dushman ko'ziga tushsin,  
Sochiga tushgan oqlar.*

Oytekning esa hatto biror orzusi ham qolmadi. Qabilasi yer yuzidan yo'qoldi. Ota—onasidan xabar yo'q. Ehtimol bu dunyoning qay bir go'shasida, kimlarning eshigida sargardon bo'lib, jigarbandlari hasratida bu bevafo dunyoga alvido aytishgandir? Oytekning bu dunyoda hech kimi qolmagandi...

## SHOH-DARVISH VA MAJLISI SAMO

Ular yuzma-yuz suhbatlashishardi. Bir necha oylik yo'l yoshlarni bir-biriga ancha yaqinlashtirgandi. Yosh darvish Ibrohim savdogar Rafining «o'g'li»ga mehr bog'lagan, undan bir lahza ham ayrilmas. savdogarni ham ota deb atar, uning hamma topshiriqlarini bajarardi. Gohida qariyaning yuzida keksalik, charchoq alomatlari sezilganida, darhol kashkulidan dorivor giyohlar yordamida damlama tayyorlab, unga ichkizar, ko'p o'tmay savdogar o'zini tetik va bardam his qilardi.

Gohida yo'lto'sar qaroqchilar, qishloq va dara beklari karvonlarni to'qib, o'z haq-hisobini so'rardi. Negadir qariya faqat katta karvonlarga qo'shilar, yosh darvishning ta'kidiga qaramasdan, qalandarlar to'dalaridan o'zini uzoqroq tutardi.

Yaqin bir manzilda to'xtaganlarida yana Rafini isitmasi chiqdi. Boyaqish yotgan joyidan turolmay qoldi. Shunda yosh darvish savdogarning hayhaylashiga qaramay, «o'g'li» bilan birga uni yaqin oradagi qalandarlar xonaqohiga olib keldi. Bir necha kun shu yerda tunab qolishdi.

Xonaqoh Navro'zquli me'mor qurgan binolarning yonida qad rostlagandi. Shu yaqin orada keksa bir tut daraxti o'sib turardi. Tutning ayrim shoxlari qurigani sababli kesib tashlangan, yosh novdalari esa yam-yashil bo'lib, ko'kka bo'y cho'zgandi. Doim bir tomonga esadigan shabadalar uning qaddini janubga egib qo'ygandi.

Savdogar Rafi to sog'ayguncha, uning «o'g'li» va yosh darvish ana shu tut ostida kun kechirishdi. Kechalari esa... Kechalar Ibrohim uchun boshqacha tus olardi. Oqshom tushishi bilan xonaqoh eshigida darvishlardan biri ko'rinib, uni ibodatga chaqirardi. U ham taassuf bilan o'midan qo'zg'alar, do'stini yolg'iz qoldirib, ibodatga qo'shilardi.

Bir gal Oytekin ham bu ibodat qanday bajarilishi bilan qiziqdi. Ma'badning tuynugidan ichkariga mo'raladi. Xona nimqorong'i edi. Uning ko'ziga olti nafar darvish ko'rindi.

Aftidan ichkarida, hujra burchagida o'choq yoki chiroq yonib turardi. Tuproq to'shamaning ustida har bir darvish bittadan qo'y terisini solib o'tirardi. Oytakin ularni tanimasdi. O'rtada o'tirgan darvish boshqalariga qaraganda ancha kekxa edi. Oppoq soqoli ko'ksiga tushib turardi. Egnida eskiroq xirqa, boshida uchi egri papoq kiygandi. Oppoq sochlari papoq ostidan yelkasigacha tushib turardi. U qarshisida tizzalab o'tirgan Ibrohimning savollariga javob qaytarardi.

–Ey shayx, tariqatimizda xilvat va zikr bo'lmasa, bu tariqat nimaga asoslanadi? –savol berdi Ibrohim.

Chamasi, bu suhbat ancha oldin boshlangan, savol–javob esa muttasil davom etardi. Kekxa darvish biroz o'ylab, zaif ovozda javob qaytarardi:

–Tariqatimiz zohiran xaq, botinan xaq bilan bo'lishni taqozo etadi. Tariqatimizning piri murshidlari hazrati Bahovuddin Naqshband hisoblanadilar. Biz avvalo Imom A'zam Abu Hanifa mazhablarida sobitdirmiz.

–Kalomi majid ila munosabatingiz qanaqa? Haq rahmatiga vosil bo'lganlar uchun Qur'on tilovatini zaruriy deb bilasizlarmi?

Shayx biroz o'ylanib, keyin javob berdi:

–Shayx Abu Said hazratlaridan so'rashdi: «Sizning janozangizda qaysi oyatni o'qiylik?» U javob berdi: «Janozamda oyat o'qishingiz g'oyat savob ishdir, ammo bu baytlarni o'qisangiz ham soz bo'lur edi:

Chist az in xubtar dar ofoq kor?

Do'st rasad nazdi do'st, yor ba nazdiki yor...

(Dunyoda do'st do'stni yo'qlashidan ham yaxshiroq nima bo'lishi mumkin?)

Bir go'zal ovoqli tolibi ilm bu ruboiyni o'qisin:

Muflisonem omada dar kuyi tu.

Shoya Alloh az jamoli ruyi tu,

Dast biksho jonibi zambili mo,

Ofarin bar dastu bar bozui tu...



(Biz yoningga kelgan gadolarmiz, jamolingni ko'rish orzusedamiz. qo'lingni bizga uzat. sening qo'ling va bilagingga ofarinlar bo'lsin)

Shayx Abu Said hazratlarining xalafklariga vasiyatidan ma'lumdirki, haq rahmatiga yo'l olgan banda o'z Xallogiga qovushadi, ya'ni do'st do'stning diydoriga yetishadi. Oyati karimalar asosan tiriklar amal qilmoqg'i, haqni botildan ayirmog'i uchundir.

Oytekkin anchagacha ularning suhbatiga quloq solib o'tirdi. U so'zlarning ma'nosini to'liq anglamas, forscha she'rlarni tushunmasdi. Ammo shu onda Ibrohim turkiy tilda o'z satrlarini o'qishga tushdi:

Xojai piri Bahovuddin shohi Naqshband,  
Himmatidin murdalar topdi hayoti jovidon.  
Ziyn etib, nuri viloyat—la karramat kishvarin.  
Etdi izhori karomat—la tariqin gulsiton.

Yosh darvish o'z g'azalini o'qirkan, darvishlar o'tirgan joylarida tebranib qo'yishardi. Yigit boshqa mavzuda so'z boshlaganida, qayerdandir mahzun bir kuy yangradi. Darvishlar xirqalarini yirtib ota boshlashdi. Shu payt tashqaridan, devorlar panasida pisib yotgan boshqa darvishlar ham xonaqohga oqib kirishdi.

Darvishlarning uyqusizlikdan qizargan ko'zlari qonli piyolalarga aylangandi. Endi ular g'alati, guldiros ovozlari chiqarishar, turgan yerlarida aylanishar, kulgili harakatlar qilishardi. Ko'plari allaqachon jazavaga tushgandi.

Bu darvishlarning «Samo majlisi» jazba marosimi edi. Bu antiqa tomoshalar keyingi yillarda kanizga aylanib, qo'ldan—qo'lga o'tgan, boshiga turfa ko'rgiliklar tushgan Oytekkinning ham vujudiga neder bir yengillik olib kirdi. Nazarida ko'p o'tmay Ibrohim ham kiyimlarini yirtib, jazavaga tushayotgan ana shu to'dalarga qorishib ketadigandek edi.

Sabri chidamadi. Qiz darcha yonidan nari ketdi. Xonaqohdan o'ng tarafda joylashgan hujrada yotgan xojasining

huzuriga kirdi. Bu paytda xojaning isitmasi biroz tushgan, ammo titroq va harorat uni anchagina holdan toydirgandi. U «suv» deya ingrab, quruqshagan lablarini yaladi.

Oytekin burchakda qazilgan nam chuqurchada turgan suvdishni olib, cholning ustiga egildi. Keyin xojasining titroq lablariga yaqinlashtirdi. Bemor suvdan bir qultum ho'plab, shukrona aytdi. Oytekinning qalbida antiqa bir og'riq turgandi. Ilk bor qul bozoridan sotib olingan kunini esladi.

Savdo paytida bir marta bo'lsin, boshini ko'tarib atrofga qaramagandi. Boshiga rido tashlagan arablar, ot terisidan chakmon kiygan tatarlar, cho'girmasining junlari ko'zlarini bekitib turadigan turkmanlar, oppoq sallali forslar, yarim yalang'och nubiyaliklar, mo'yna yoqali armanlar, shuningdek, gruzin, farang, rus va boshqa millatlarga mansub savdogarlar butun bozorni to'lib turishardi.

Bozorda boshidagi tovoqda novvot, parvarda, holva boshqa shirinliklarni tashib yurgan qandolatchilar, o'z taqinchoqlarini maqtab sotayotgan zargarlar, oldidagi qutilari ustida turli mamlakatlar tangalarini yoyib o'tirgan sarroflar, julxirs, xurjun, gilam va boshqa to'qima mahsulotlarini orqalagan qo'chmanchilar turli tillaridagi oldi-sotilari bilan g'alati bir shovqin yaratgan edilar.

Qiz bularga qarmasdi. Birgina dardi bor edi. Tezroq bu sharmandalikdan qutulish. Chunki uning yarim yalang'och badani ustidan harir to'rparda tashlab qo'yilgan, o'tgan qaytgan borki, pardani ko'tarib, qizning badanini tomosha qilar, ushlab ko'rar, xuddi ot jaloblari singari hatto uning og'zini ochib tishlarini sanashardi.

Qizni sotayotgan savdogar oluvchilarning yuzidan tanir, shu bois shunchaki hangomatalab erkaklarni oldidan quvib solardi:

–Oladigan bo'lsang, pulni chiqar, olmasang, jo'na!

Keyin boshiga bir savdolar tushdiki... U qisqa vaqt ichida bir necha qo'lga o'tdi. Erkaklar unga xirs bilar qarar, uy bekalari esa, erlarini qizg'anib «qo'ldan biror ish kelmas ekan» deb

sottirardi. Uyidan olib chiqilganida endigina o'n to'rtga kirgandi. Hali qalbiga muhabbat in qurmagandi. Nafrati esa haddan ziyoda edi. U sharmu hayosini ilk bor ota yurti. ona quchog'idan ayirib. qul bozorigiga keltirilgan. qip-yalang'och yechintirilib, kimoshdi savdosiga qo'yilgan kundayoq boy bergandi. Garchi hanuz bokira bo'lsa-da, uning uchun bu matohning qiymati qolmagandi.

Bu vaqt ichida unga o'qish-yozishni, raqs tushishni o'rgatishdi. O'zi bolaligida raqs tutishga qiziqar. to'ylarda ayollar davrasida holdan toyguncha o'ynardi. Raqs va qo'shiqqa rag'bat borligini bilgan qulfurushlar uni cho'rilarga ta'lim beradigan Salima ismli bir xalfaga topshirishdi.

Oytekkin akasining o'ldirilganini bilardi. Ammo, ota-onasining boshiga ne savdolar tushganini bilmasdi. Ulardan ayrilganidan so'ng biror yorug'lik ko'rgan bo'lsa, faqat shu Salima xalfaning uyida, o'ziga o'xshagan qiz-juvonlar bilan o'yin-kulgi qilgan paytida ko'rdi, xolos. Salima unga raqsning eng inja usullarini o'rgatgan, rubob chalish, qo'shiq kuylashdan saboq bergandi. Oytekkinning go'zal ovozi bor edi. Mahorati ortib borarkan, uning xojalari qizning narxini ham oshirishardi. Oytekkin o'z mahorati va malohati bilan har qanday saroyga zeb bo'la oladigan darajadagi qiz edi.

Nihoyat, qarib kuchdan qolgan savdogar Rafining changaliga tushdi. Ochko'z savdogar qizni Tabrizga olib borib, imkoni boricha boyroq vazir yoki zodagon, agar imkonini topsa, shohning o'ziga sotish orzusida yo'lga chiqqandi. Uning niyatida Oytekinni qimmat narxga pullab, uyiga qaytish, qolgan-qutgan boyligini umrining oxirigacha xotini bilan yeb yotish orzusida edi.

Rafi qizni anchagina qimmat pulga olgandi. Keyingi safardan topgan daromadining bir qismini yana tijoratga tikkandi. O'zi ham qo'limdan tortib olishmasin, deya qizga yigitlarning kiyimini kiydirib qo'ygan. uni hammaga «o'g'lim» deb tanishtirardi.

Oytekkin keksa cholning iztiroblarini ko'rib, unga biroz rahmi keldi. Lekin qariyaning ha'zi jirkanch qiliqlarini eslab, ichidagi nafratini yanada ortdi. Ijirg'anib, qo'lidagi suvdishni burchakka qo'ydi.

Rost—da! Uning nimasiga ichi achisin? Agar u yaxshi odam bo'lganida butun umrini qullar va cho'rilar savdosidan keladigan jaraq—jaraq pullarga bag'ishlamagan bo'lardi. Aslida bu iblis boshdanoq Yaratganning murdor bandalari qavmidan bo'lgan, shu qavmda ketsa kerak. Hech zamonda qo'zi ham bo'riga rahm qilishi kerakmikin?

Keksa qulfurush sotib olgan ilk kunlaridagi bir hodisa Oytekkinning hech qachon esidan chiqmaydi: bu hodisa Oytekkinning xayolida xuddi bugun ro'y bergandek chaqnadi. Savdoga Rafining o'sha ondagi xirs va shahvat to'la qiyofasi hanuz ko'z oldidan ketmaydi. Hozir ham xuddi o'shanday, faqat endi og'riqdan uning ko'zlari kosasidan chiqqudek bo'lyapti. Ilk bor ko'rganida Oytekkin savdogarning yuzini tovoqqa o'xshatgan, keyinchalik ich—ichidan unga tovoq laqabini ham bergandi.

O'shanda uning ko'zlari ehtirosdan chaqnaib turardi. Lablarini ishtaha bilan yalar, yutinishi barobarida xalqumi o'ynab turardi. Uning sarg'ish tuk bosgan ozg'in, sertomir qo'llari ham tinimsiz timirskilnardi. Odatiy harakatlar bilan xuddi qulfurushlar singari qizning turli a'zolarini siypalar, o'zini tajovuzdan arang tiyib turardi. Oxiri chidolmasdan qizni og'ushiga tortdi. Qiz uning niyatini anglab, qichqirib yuborgudek bo'lsa—da, bu harakati foyda bermasligini anglab, uning ehtirosli ko'zlariga tik boqdi:

—Esingda tursin, shohning huzuriga borganimda birinchi qiladigan ishim sendan shikoyat qilish bo'ladi. Menga ishonaver, men bir kuni albatta uning huzuriga kiraman. Shohning joni haqqi ont ichaman.

Bu qasam cholning kayfiyatini buzsa—da, sir boy bermadi.

—Nima? Shohga aytasanmi?

—Ha, shubhasiz aytaman!

–U senga quloq osarkanmi? Ishonarmikin?

Qiz qanday bo'lmasin qariyaning yuragida qo'rquv uyg'ota olishiga ishonardi.

–Albatta eshitadi! Hammasini aytaman! «Shohim, men sizga munosib emasman, o'zi men bilan nafsini qondirib, sarqitini sizga olib keldi», deb ayto olmaymanmi?

–Shoh senga o'xshagan cho'rilarning gapini eshitib o'tirsa, unda saltanatni kim boshqaradi?

–O'zi bo'lmasa vazirlari bor. Ammo, hech kimga quloq osmasa ham meni eshitadi. Yaxshisi, meni uning qo'liga topshirib, katta mukofot olish umidida bo'lsang, menga qo'lingni ham tekkizma. Shunda o'zingga yaxshi bo'ladi.

Bunday dadil, burro gaplar uning tiliga qanday chiqayotganini o'zi ham anglolmas, ammo xojasining ko'zlaridagi xirs qo'rquv va iltijoga aylanayotganini aniq ko'rib turardi. «Mayli, shohning huzuriga yetib boraylik, keyin nima bo'lsa bo'lar!» deb o'yladi.

Savdogarning esa xayolida boshqa o'ylar g'ujg'on o'ynardi: «Qanchiq, rostlan ham shohga bir nima desa, xonumonim kuyib ketadi. Shoh ehson berish o'rniga meni dorga osadi—ku? Ehtimol u bir paytlar shohning haramidagi kanizlaridan bo'lib, keyin opchiqib sotilgandir? Podshoh bir ko'rishda yoqtirib qolsa, uning hamma aytganini qilsa nima qilaman? Nima bo'lganda ham nafsimni tiyib turganim ma'qul!»

Qariya xunuk iljayib, qizga qaradi:

–Hazillashdim. Sen bilan nima ishim bor? Dunyoda qiz qurib ketibdimi? O'zim shohga olib borayotgan guldastani o'zim rasvo qilamanmi?

Qizning qalbi sokinlasha boshladi. Oylardan beri kulgi nimaligini bilmagan lablariga tabassum qo'ndi:

–Ishonaveraymi?

–Ishonmayapsanmi? Shohning joni haqqi ont ichaman!

«Yolg'on gapirgan tiling uzilib tushsa—chi? Shu gapingga o'zing ishonasanmi? Biroz avvalgi holating nahot esingdan

chiqdi? Yeb yuboraman deb turganding—ku? Shohning nomi bilan qasam ichganingga o'laymi? Shoh—ku shoh, kerak bo'lsa onangni ham sotasan—ku? Mal'un!»

«Padaringga la'nat, ishonamayapti. O'zim ham kelib—kelib shunga ilakishamanmi? Ammo, rostini aytsa, haqqatan shoh haramiga munosib qiz—da, manjalaqi! Ammo, buni shu ko'rinishda olib yurolmayman. Yo'lda nima ko'p, qaroqchi zo'ravonlar ko'p. Nima qilsam bo'larkin? Haa, topdim! Menda ham kalla bor axir! Kim bilsin, buni shohga tuhfa qilganimdan so'ng, kattaroq bir amalga minarman? Balki bu qiz mening baxt yulduzimdir?»

Shularni o'ylarkan, savdogar qizga qayrildi:

—Menga qara, sen ham o'zingni asra, men ham seni qo'l tegmagan guldek olib borishga harakat qilay. Kel, yaxshisi bir ish qilamiz. Seni o'g'il bola qilib kiyintiramiz. Odamlarga seni o'g'lim deb tanishtiraman. Xo'sh, qalay, zo'r o'ylabmanmi?

Qizga bu taklif ma'qul tushdi. Ich—ichidan sevindi. U endi o'zini nomunosib qarashlardan to'la himoyalangandek his qila olardi...

## MUAMMOLI MUHABBAT

Hozir shu hodisadan bir–ikki oy o‘tdi. Qariyani kutilmagan isitma to‘shakka mixlab qo‘ydi. Jirkanch xayol qizning nafasini bo‘g‘ib qo‘ydi. Qaytadan bo‘g‘ilayotgandek his qildi o‘zini.

"Buni qara–ya, –deb o‘yladi, o‘zidan xafa bo‘ldi. Yo‘lda bir necha bor qochish uchun imkoniyat tug‘ilgandi. Hozir ham Oytekin qochib ketsa bo‘lardi. Ammo qayerga qochsin? Kimning yoniga qochib boradi? Barcha yo‘llari bog‘langan. Ota–onasidan, o‘zi qabilasidan ayro tushgan bo‘lsa.

Qochgandan nima foyda? Yana yo‘lda bir yelkamga duch keladi. Yana qo‘ldan qo‘lga o‘tadi. Bularning barini bilsa–da, qismatiga bosh egishni istamasdi. . Faqat so‘nggi vaqtlarda darvish–qalandar Ibrohimga duch kelgach, ko‘ngliga antiqa bir ilqlik kirgandi. Ammo buning ham foydasi bo‘lmadi. Darbadar darvish o‘zi qay ahvoldaki, unga qayg‘ursin? Zotan, qiz dardini unga ochmay turib, unga hamdardlik qilgan yigitning beg‘araz, og‘alarcha mulozamatini qabul qilardi.

U hujrada biroz aylandi. U endi qariyaning «suv, suv» deb ingraganlarini ham eshitmasdi. Xurjuni ochib, karvonsaroydan olib kelingan non, pishloq mevalardan biroz yedi. Bir qultum suv ichdi. Ibrohim yonida bo‘lganida, loqal o‘tirib suhbatlashisharmidi? Shu umid bilan xonaqohning hovlisiga chiqdi. Ibodat tugagandi. Darvishlar birma–bir ibodat xonasidan chiqib, o‘z hujralariga tarqalishardi. Sokin bir kecha qo‘nayotgandi. Oyning o‘zi ko‘rinmasa ham, hammayoq sutday oydin. Samoning tubsizliklaridan minglarcha oltin tangadek porlagan yulduzlar fitnali ko‘z qisishardi.

Oytekin ibodatgohning naqshinkor eshigiga ko‘z tashladi. Mana, Ibrohim ham chiqdi. Uning ustidagi kiyimlar boshqalarga qaraganda, bir muncha toza va yangi edi. Yelkasiga kitob to‘la xurjunini osib olgandi. Bu kitoblardan ba‘zilarini qo‘nalg‘alarda o‘qir. Oytakinga ham ba‘zida o‘qish uchun berib turardi. «Manozira», «Faroyiz», «Nisob», «Fiqh», «Fanoriy», «sharhi

isoquchi» singari kitoblarni u hatto yotganida ham boshining tagiga qo'yib yotardi. Hujrada ularni namlikdan asrar, quruq tokchalarda joylashtirardi. Qalamdoni va qamish qalamlari ham bor edi. Ba'zida qamish qalamlarni yo'ngan paytida ichidan chiqqan shirin mag'zin do'stiga berar, «esang, xotirang mustahkamlanadi» derdi.

«Ila, menga xotira juda kerak, derdi qiz. Men hech narsani unutmashim kerak. Vaqti kelib, butun ota-onam, qabiladoshlarimning qotiliga duch kelarman? Uning qonidan hovuchlab ichganimda balki qalbidagi qasos o'ti biroz bo'lsa-da, pasayarmidi? U shuncha shoh emas balki diniy arbob emish! Hatto go'zal she'rlar ham yozarmish. Mening qavmdoshlarimni qirib tashlashga hukm qilganida, men bilan teng yoshda bo'lgan ekan. Endi katta shoir bo'lganmish. Salima xola uning g'azallarini bizga yodlatardi. «Bizning ajoyib shohimiz bor, o'z ona tilimizda she'r bitib, forslarning manaman degan g'azalxonlarini ham unini o'chirib qo'yganimish. Bizning ham tilda go'zal she'rlar bitmoqch mumkinligini ko'rsatib qo'yganimish.

«Ul sanamkim kecha kunduz jon aning hayronidir.

Aqli fahm ondin beri ishq ila sargardonidir.

Dilbarim, yorim, azizim, g'amgusorim, munisim,

Jonikorim, sevgi yorim, jolniming jononidir.

Bu Xatoiy she'rina ayb etma ey nokas hasud,

Jumla ushshoq ahlina hamdam oning devonidir.

Nahotki shoir qalbi qon to'kishga qodir bo'lsa? Shoir o'z xalqiga qarshi qilich ko'tarishi mumkinmi? Sening ko'ksingdagi yurak rostdan ham shoironikimi yo shohniki?»

So'nggi so'zlarini u ovoz chiqarib aytdi.

–Sen nega ishonmaysan, inim? so'radi o'zini ham unutgan Oytekindan Ibrohim.

Oytekin o'ziga keldi va darhol mavzuni burdi:

–Og'a, nima uchun darvishlar o'zlarini shoh deb atashadi?

–Buning bir qancha sabablari bor. Inim! Avvalo, bizning mazhabda gado bilan shoh, faqir va boy o'rtasida biror bir farq



yo‘q. Biz o‘zimizni shohu sultonlardan kim deb bilmaymiz. Faqr sultonimiz. Ikkinchidan darvishlar o‘zlarini o‘zlari shoh deb atashmaydi. Shogirdlari bilim va saviyasi bilan boshqalardan ajralib turadigan ustozlarini shoh deb atashadi.

–Tushundim.

–Otang tuzukmi?

Rafini «ota» deyishi Oytekinning etini junjiktirdi.

Yaxshi, boya sal issiqi ko‘tarilgan ekan. tuzalib qoldi. Hozir uxlayotgan bo‘lsa kerak.

–Meni kutganmidi?

–Ha... gaplashmoqchi ekan. Mening ham uyqum kelmayapti.

–Biror narsa yeb oldingmi? Non–pishloq degandek. O‘zi bizga qo‘shilsang bo‘lardi. Har doim ob–ovqating o‘zing bildan bo‘lardi. Xonaqohga tez–tez ehsonlar kelib turardi.

Ular birpas tosh ustida o‘tirishdi. Hovlida ulardan boshqa hech kim yo‘q edi. Hamma ibodatni tugatib, o‘z yotog‘iga tarqagan. taglariga qo‘y po‘stagini to‘shab, xilqasiga o‘ranib uyquga kelishgandi. Bu ikki yoshning esa, ko‘ziga uyqu kelmasdi.

... Holvani mahoratli bir kampir pishirgan. yupqani Gulyuz cho‘zgandi. Taomlar shu qadar totli ediki, og‘izdan ta‘mi ketmasdi. Bu ovqatlar ularga onalarining quchog‘ida o‘tgan shirin damlarga esga soldi. Bir paytning o‘zi har ikkisi xo‘rsindi:

–Senga nima bo‘ldi?–so‘radi Ibrohim. Bir yarim oydan keyin uyingga yetib borasan. Onang bu holvalardan senga yana qanchasini pishirib beradi. Ammo, men endi ota–onamni ko‘rolmayman. Tirik yetimman, qalandarman.

Qiz o‘zini unutdi. Qayerda, kim bilan gaplashayotganini unutib qo‘ydi va ohista pichirladi:

–Mening onam yo‘q,

Ibrohimning ovozi taassuf akslandi. Chamasi u do‘stining og‘riqli nuqtasiga tegib qo‘ydi.

–Kechirasan, inim. ular rahmatli bo‘lib ketishganini bilmagan ekanman.

Oytekini qo‘rqib ketdi. Siri ochilib qolishidan qo‘rqdi.

–Nima ham qilamiz, peshonada bori shu ekan–da! dedi.

–Ha, Alloh rahmat qilsin.

–Aytganing kelsin. Lekin bir gap aytaymi? Bu odam mening otam emas, xojam. Meni qul bozoridan sotib olgan. Men... qulman.

Oytekining og‘zi qurib, ho‘ngrab yig‘lashga tushdi.

Ibrohim qul bozorida bo‘lgan, u yerda qul va joriyalar qanday sotilishidan xabardor edi. Har gal ularning ahvolini ko‘rib, yuragi achishardi. Ammo, qul bilan bu qadar yaqin hamdam bo‘laman, deb o‘ylamagandi.

«Tavba, men o‘z inimdek ko‘ra boshlagan bu bechoraning ham boshiga ne savdolar tushgan bo‘lsa? O‘zim ham nima uchun bular bir–birini ota va o‘g‘il deb chaqirmaganidan hayratga tushgandim. Agar pulim bo‘lganida, hoziroq uni xojasidan sotib olardim–da, «ozodsan inim, istagan tomoningga qarab uchaver» degan bo‘lardim. Yoki o‘zim bilan uni ham darvishlar safiga kiritib, dunyo kezarmidik. Afsuski, bu qo‘limdan kelmaydi.

Shu xayollar bilan u do‘stining yelkasiga kaftini qo‘ydi:

–Hech kim peshonaga yozilganidan qochib qutula olmaydi. Nima ham qilardik? G‘am yema. Ertalab shayximiz bilan gaplashaman. Balki, xonaqohdagi vaqf pulidan bir qisminga seni sotib olib, ozod qilarmiz.

Oytekin o‘ziga kelib qolgandi. Yigit uning dardiga chin yurakdan sherik bo‘layotgani uni ham quvvatlantirdi. Ammo, xojasi uni darvishlarning arzimas puliga sotamasligini yaxshi bilardi. Rafi qizni saroyga olib bormoqchi. Undan kattagina foyda ko‘rmoqchi. Shu bois, past ovozda dedi:

– Salomat bo‘l. Darvish og‘a! Ammo u o‘lsa ham meni qo‘ldan chiqarmaydi. Bekorga og‘zingni og‘ritma.

Ibrohim taajjublansa—da, hech narsa demadi. Do'stining fikrini boshqa tomonga yo'naltirish uchun o'zi haqida gapira boshladi. Do'sti uning ham dardi bortligini bilsin va tasalli topsin.

—Onam juda mehribon ayol edi. Otam ham juda yaxshi inson edi. Meni o'qitib, savodli qilishni istardi. O'zi savdogar bo'lsa ham bilimning qadriga yetardi. Menga juda yaxshi she'rlar o'rgatgandi. Kunlarning birida, maktabni tugatar paytimda bir darvish bilan to'qnash kelib qoldim. Menga bu dunyo haqida juda antiqa gaplarni gapirib berdi. Asl inson Haqqa erishishi kerak ekan. Haq yo'lida jonidan ham kechishi lozimligini aytdi. Axir u dunyoda nimalar bo'layotganini sen ham ko'rmayapsanmi? Biri sevgilisi ila bog' kezza. boshqasi bir tishlam non uchun tilanchilik qilishga majbur. Uyda o'tirolmadim. O'zim o'qigan kitoblarda, buvim aytib bergan ertaklardan taniganim dunyoni ko'rgim keldi. Qalandar darvishlarga qo'shilib jahongashtalikka chiqdim. Ular orasida bilimli, donishmand bir darvish bor edi. Alaviylardan edi. Meni juda ham yaxshi ko'rardi. Tariqat odobini ham menga o'rgatdi. Xullas... yuribman—da!

—Xo'sh, bundan bu yog'iga nima qilasan? Daydib yuraverasanmi?

—Bilmadim. Bu olamda ko'raldigan joylar ko'p ekan. Qayerga borsam, o'sha yurtning olimlari bilan ko'rishaman. Bilmaganlarimni so'rab o'rganaman. Endi esa... maqsadim boshqa. Fabrizga bormoqchiman. Shayx o'g'li shoh bilan ko'rishishim kerak.

Qizning butun vujudi titradi. Shohning nomi tilga olinganda, eng fojeaviy kunlarini esladi. Titroq ovozdada so'radi:

—Shayx o'g'li shohni nima qilasan?

—Undan so'raydigan narsalarim bor. Uning kitoblarini, g'azallarini o'qiganman. Tariqatini tushunishni istayman. Asarlarida ham hurufiylik, ham naqshbandiylik, ham shialik alomatlarini ko'rish mumkin. Chamamda u hokimiyat ishlari bilan ovora bo'lib, tariqat masalasida hammasini chalkashtirgan ko'rinadi. Qaysi to'g'ri kelib qolsa, o'sha haqda yozavergan.

Ehtimol, shu g'azallari bilan turli tariqat vakillarini o'z tarafiga og'rdirish uchun shunday qilgandir? Tariqatlarni birlashtirib, xalqlarni parchalab tashladi. Bularni u qasdan qildimikin yoki...

Oytekin so'radi:

–Qanaqasiga xalqlarni parchalabdi? Lekin ba'zi donolarning aytishicha, u Vatan tuproqlarini bitta bayroq ostida birlashtiribdi–ku? Sen bo'lsa parchaladi deyapsan?

Ibrohim chuqur xayolga toldi:

–Bilasanmi, bizning bir tilda gaplashadigan xalqimizning yarmi sunniy. Yarmi shia bo'lsa, bu parchalanish emasmi? Tili, qoni, urf–odatlari bir xil millat ikki guruhga bo'linib yotibdi.

Oytekin uning gaplarini to'la tushunolmasdi. Tariqat masalalarin esa umuman bilmasdi. Rahimbeyni eslolmas, akasi Guntekin uning qo'li bilan o'ldirilgani, qabilasi uning topshirig'iga binoan qirib tashlanganini ham bilmasdi. Qiz uni daryo qirg'og'ida bir martagina ko'rgan. O'sha paytda qattiq qo'rqqan, keyin esa unutib yuhorgandi. U bolalarining dardidan faryod chekkan onalar, kultepaga aylangan qishloqlar, xaroba qishloqlarni ko'rib, faqat birgina nomni eslab qolgandi Shayx o'g'li shoh! Asosiy g'anim faqat uning o'zi edi. Shohning amallarini Oytekin bu yigitdan ko'ra ko'proq ko'rgan, bilardi. Qabilasi tor–mor qilinganidan keyingi hayot unga ko'p narsalarni o'rgatgan, qizni o'z yoshiga yarashmagan bir ayolga aylantirgandi. Oytekin uning shoir qalbidagi ikkilanish sirini bilgisi kelardi. Qotillik bilan shoirlilik, zolimlik va shoirlilikning, shafqatsiz fotih va noziktab shoir, ilohiy muhabbat kuychisining bitta vujudan qay tariqa joy olganini bilishni istardi. Lekin taassulki, buning imkoni yo'q edi.

–Sen uning she'riyatini, muhabbat, insoniylik, ezgulik haqidagi she'rlarini o'qiganmisan? Unaqada, qishloqlarni yer bilan yakson qilish, begunoh insonlarning qonini to'kish ana shunday insonparvar shoirning qo'lidan kelishi mumkinmi?

Ibrohimshoh yosh do'stidan bunday savol chiqishini kutmagani uchun javob qaytarolmadi. Dovdirab uning yuzlariga

qaradi. To'lin oy shu'la solib turgan bu yuzda shu qadar g'am. shunchalar tushkunlik bor ediki, Ibrohim beixtiyor titrab ketdi. Bu savolni ulkan dard egasi, hukmdorning amallaridan bitmas jarohat olgan insongina bera olardi. U esa do'stining hayoti bilan endi-endi tanishib bormoqda. Savdogarning quli bu qarama-qarshiliklarni qayerdan ham bilsin?

–Yaxshi aytding, inim. ammo sen bu masalalarni bu qadar chuqur bilasan deb o'ylamagandim.

–Nega?

–Chunki, men ham bu savolingga to'laqonli javob bera olmayman.

Ikkalasi ham jim qolishdi. Ikki yosh oy shu'lasi ostida jimgina o'tirishardi. Yigit yonidagi qizning yuragidan kechayotgan gaplardan bexabar edi.

Ammo, bu yaqinlik unga boshqa bir qadrdon qiyofani Nasrinning go'zal yuzini xotirlatdi. Oytokin ham sirli hislar qurshovida qolgandi. Oy nuri, yolg'izlik, yoshlik uning qalbida so'nggi kunlarda g'alati hislarni tug'yonga keltira boshlagandi. U yuragida muhabbat kurtak yozayotganini hali bilmasdi.

Ha, muhabbat qizning qalbini zabt etib borardi. Garchi u yigitning qarshisida erkakcha libosda turgan bo'lsa ham, sodda bir qiz qalbi bilan uni sevib qolgandi.

Yosh darvish esa, bir narsani tushunolmasdi. Yosh do'stining sho'xliklarin oldin erkatoy savdogarvachchaning qiliqlari sifatida, sabr-toqat, samimiyat bilan qabul qilgandi. Hozir esa... U qiz bilan yolg'iz qolgandi. Kechki ovqatni birga tanovul qilishdi. Yoshlar kumush barkashdek yaraqlab turgan oyning porloq shu'lasi ostida yuzma-yuz qolishgandi.

Qiz yigitning oy yog'dusida yanada porloq ko'rinayotgan darvishona libosiga ko'z tashladi. O'zi kezgan ayrim shaharlarda ayollar ham xuddi shu taxlit kiyinishardi.

– Og'a, siz tomonlarda ayollar qanday kiyinadi?–deya yigitning ko'ylagi yengidan tortib qo'ydi. Yigit uning bu harakatidan seskandi. Tariqat unga sevish, uylanish singari

narsalarni ta'qiqlab qo'yganidan beri u qiz bolani ko'rganda qalbida bosh ko'taradigan g'alayonlarni bo'g'ishga urinardi. Nasrin—chi? U bilan—chi? Mumkinmidi? Bu haqda o'ylashni ham o'ziga taqiqlab qo'ygandi. Endi bu nimasi? Uning qalbida shunday bir tuyg'u uyg'onmoqda ediki...

Yosh darvish o'zidagi bu o'zgarishlarning boisini anglolmasdi. Axir yonidagi o'z «tug'ishgani» edi. Unga nisbatan qardoshlik tuyg'usidan boshqa yana nima bo'lishi mumkin? Badanidagi bu o'zgarishlar nimadan dalolat beradi? «Ey Xudo o'zing meni yomonlarning ta'siridan asra» dedi ichida duo o'qib.

Qoshlarini chimirib, qizning qo'lini chetroqqa surdi. Qo'li uning qo'lga tegib ketishidan ehtiyotlandi. O'rnidan turdi:

—Yotadigan vaqt bo'ldi. Sen borib uxla. Men biroz aylanib keyin qaytib kelaman, dedi o'rnidan turarkan.

Sho'xlik chtiyotkorlik tuyg'ularini qizining xayolidan chiqargandi.

Aks holda chorasizlik uni hech narsani eslab qolmaslikka ishonardi.

«Baribir bir kunmas bir kun, bir nomard xojaning qo'lida bargdek so'laman. Balki shunday bo'lgani tuzukdir? Balki unga sirimni ochsam, meni bu zolimning changalidan xalos etarmikin? Yo'q, uning nimasi borki, meni sotib olsa? Unda pul nima qilsin?»

Saroy degan so'z miyasiga urilishi bilan qalbida intiqom hissi jo'sh urdi.

Meni saroyga olib borib, qanchalar narxga Pullamoqni istarkin?

«Yo'q, ketishim kerak. Men o'sha zolimning ko'zlariga tik boqib bir qancha savollarimga javob olganimdan keyin meni istagan jazoga mustahiq qilishsin. Agar u meni jallodning qo'lga topshirsa, o'zi nima uchun sevgi—muhabbat haqida jo'shib yozadi. Jabr—zulm bilan sevgi bir—biriga mos tusharmikin? Bunday she'rlarni faqat pokiza insonparvar qalbgaga ega insonlar yozishlari mumkin. Agar yozsa, bunday vahshiyona hukmlarni chiqara

olmasdi. Onalarni bolasiz, bolalarni otasiz qoldirmasdi. Bu qadar qon to'kmas, yurgan yo'llarida o'zidan keyin boyqushlar in qurmasdi. Men bularni undan so'rashim kerak. Men uning qonidan hech bo'lmasa, bir tomchi ichishim kerak. Shoyad shunda qalbidagi intiqom olovi biroz bo'lsa—da pasayar. «Ona xalqim, otam, onam, aka—ukalarim, opa—singillarim, sizning qasosingizni oldim» deyishim kerak. Shunda bu dunyodan armonsiz o'taman. Narigi dunyoda yaqinlarim bilan yorug' yuzda ko'rishaman. Muhabbat buyuk ne'mat bo'lsa—da, menga ana shunday tor kunda duch keldi. Bu qismat meni ikki karra imtihonga ro'baro' qildi. Men muhabbatdan qasos yo'lida voz kechishga, uni intiqom uchun qurbon qilishga majburman!»

—Xo'p, sen sayr qilaver, men borib uxlayman. Kechir, seni ranjiddim.

Yosh darvish inisining ovoqidagi antiqa titroqni payqab, yuragi uvishdi. Ammo bir oz avvalgi hislar iskanjasidan qutula boshlaganidan sevindi. «Yo'q, unaqa yomon bolaga o'xshamaydi. Men ham ahmoqona xayollarga berilib ketibman. Shunchaki qiziqqon bir o'spirin—da! Men esa...»

Yana ko'zining oldida Nasrin namoyon bo'ldi. Darvish o'rnidan turdi. Oq ko'ylagining yoqalarini ochdi. Ko'ksiga qiz bolaning bo'sasidek yengil havo urildi.

... Shu kunlarda Lo'li rabotida dam olayotgan elchi hordig'ini chiqarish uchun uch—to'rt kun Ibodulloh otaning karvonsaroyida qolib, keyin yo'lga tushish niyatida edi. U ikki yoshni tanimas, ularning qalbidagi hislardan ham bexabar edi. Ularning borligidan, karvonsaroy yaqinidagi darvishlar xonaqohidan ham xabari yo'q edi. Ammo u ham bilganimizdek. Shayx o'g'li shoh huzuriga borardi. U qayerda bo'lmasin, ko'rganlari qora jildli daftariga qayd qilib borardi.

Elchining kundaligida qiziqarli bitiklar bor edi. Bular karvon bilan borib turgan shaharlarda, karvonsaroylarda mollarning qiymati, bu joylarda nima bilan savdo qilish mumkinligi, haqidagi qaydlardan iborat edi.

«Bu yerdan Yevropa bozorlariga, xususan Angliyaga arzon ipak olib borib sotish mumkin. Angliya savdogarlari bu yerda karanki deb ataladigan matoning ikki to'pini olti botmon ipakka almashadilar. Ingichka alvon surpning bir qulochini 25–30 shohiy tangaga sotib, ipakning bir botmonini olti shohiga beradilar. Turk savdogarlari qishloq aholisidan xom ipakni yanada arzonroq narxda olib, har gal 40–50 otda ipak yuklab olib boradilar, evaziga kumush olib qaytadilar. Bu yerdan har bir otga 60–60 botmon yuk ortish hisobidan 300–400 otda ipak olib ketsa bo'ladi. . .».

Elchining kiyimi, yurish–turishi, antiqa lahjada gapirishi, gohida daftariga nimalarnidir yozib borishi, qo'nib o'tilgan karvonsaroylarda odamlarning e'tiborini tortsa ham, hech kim unga hech narsa demas, podshoh yoniga yo'l olgani uchun hamma joyda «kofir» bo'lsa–da, ehtirom ila qarshilanardi.



## CHANG GIRDOBI

Ertalab savdogar Rafi o'zini nisbatan yaxshi his qildi. O'rnidan turdi. Ibrohim xonaqohdan olib kelgan non, pishloq, holva bilan nonushta qilishdi. Qora obdastada qaynagan suvda zanjabil qaytanishdi. Xuddi shu paytda xonaqohga yaqinlashayotgan karvon oldida borayotgan qora nortuyaning bo'ynidagi qo'ng'iroq ovozi eshitildi. Rafi yoshiga yarashmagan tezkorlik bilan o'rnidan sapchib turdi va Oytekinga qaradi:

–Narsalaringni yig'ishtir, men yaxshiman, bu karvonni o'tkazib yuborsak, bu yerda bir necha kun qolib ketamiz.

U tezlik bilan yo'lga tushdi. Ibodulloh karvonsaroyi tarafdin kelib, xonaqoh yonidan o'tadigan karvonni kuta boshladi. Biroz o'tmay, karvonning qorasi ko'rindi. Karvonning boshida arab oti ustida kelayotgan sorbonni ko'rgan Rafining ko'zlari porlab ketdi, bu kishini u tanirdi, uni Hoji Salmon deb atashardi.

–Yaxshi bo'ldi, Hoji Salmon ishonchli odam. – deya o'zicha pichirladi.

... Hoji Salmon bilan ko'rishish chog'ida ikki qo'lini tepaga uzatdi

–Assalomu alaykum hojim, safarlari bexatar bo'lg'ay inshaalloh!

–Va alaykum assalom!

Hoji Salmon Rafini anchadan beri bilar, uning yaltoqlangan basharasini ko'rishga toqati yo'q edi. Rafini o'ta xasis, pastkash bir kimsa deb bilardi. Shu bois u bilan xushlamaygina ko'rishdi. Otdan tushib, meshlarni suvga to'ldirib olishni buyurdi. Keyin rafiga yuz burdi:

–Rafi og'a, siz darvishlar xonaqohida nima qilib yuribsiz?

–Joningiz omon bo'lsin hojim, dedi yana yaltoqlanib Rafi. Ibodullohning karvonsaroyida shamollab qoldim. Bir darvish menga rahmi kelib, shu yerga olib keldi. Bir necha kun shu yerda

davolandidim. Hozir yaxshiman. Karvon kelishini kutayotgandim. Yaratganning o'zi sizni menga yetkazdi. Tabrizga ketyapsizmi?

–Ha.

Xuddi shu payt kekxa darvish hojiga yaqinlashdi:

–Teskari shamol esyapti, hojim, bu gap Hojini biroz shoshirdi, darvishning izidan xonaqoh tomon yo'l olarkan, Rafiga o'girildi.

–Mayli karvonga qo'shil. yuking bo'lsa. sorbonga ayt.

Rafin darhol javob qaytardi:

–Yo'q, yukimni oldingi karvondan jo'natganman. Shu bitta xizmatkor bilan o'zim.

–Yaxshi, bir soatlarda yo'lga tushamiz.

... Suv meshlari to'ldirilib, tuyalarga ortilgach, Hoji Salmon xonaqohdan Ibrohim bilan birga chiqishdi. Karvon yo'lga tushdi.

\* \* \*

Shu kungacha karvonboshi hoji Salmonning ishi ancha jo'nashgandi. Karvon manzil–bamanzil, sog'–omon ketib borardi. Hoji Salmon yorg'a otini oldinda niqtab borar, har–har zamonda qop–qora soqolini qashib qo'yardi. Uning ortidan sarbon Subhon borardi. U o'n yig'och masofadan ovozi eshitiladigan qora nortuyaning burundug'ini bilagiga o'rab olgandi. Tuyaning yopinchig'i mohir gilamdo'zlar tomonidan to'qilgan, bo'yniga ko'z tegmasligi, ins–jins asar qilmasligi uchun turli tumorlar, ko'zmunchoqlar ilib qo'yilgandi. Qora norto'ya orqasidan boshqa tuyalar ipga tizilgandek bir maromda lo'killab kelishardi. Eng oxirida ustiga hech narsa yuklanmagan, yosh va kelishimli oq moya kelardi. U karvonning, xususan sarbon Subhonning erkatoyi, itixori edi. Oq moyani eng qimmatbaho yopinchiqlar va jihozlar bilan bezatishgandi.

Hoji Salmonning moli Tabrizda yaxshi sotiladigan xom ipak, dori va kelagayi matolaridan iborat edi. Tabrizga yetib borishi bilan bir necha tuyadagi yuk saroyga yetkaziladi, farang elchisini ham o'zi bilan birga hukmdor huzuriga olib borishi

kerak. Bu bilan u shohning mehri va e'tiboriga sazovor bo'laman, deb o'ylardi. Shoh uchukn alohida bir matoh ham bor edi. Elchidan tashqari karvonga yana bir baxshi yigit qo'shilgandi. U ham shoh xizmatiga, saroyga yo'l olgandi.

Baxshi yigit shohning san'atkorlar, hattotlar, sangtaroshlarni alohida qadrlashi haqida eshitgandi. Saroyda qadrdon ona tilida so'zlashishar, yozishardi. Turk tilida kuylovchi xonanda va baxshilarga alohida ehtirom ko'rsatilardi.

Baxshi uch torli sozini qo'ltig'iga qistirib olgandi. Yoshgina bu yigit ham dunyo kezishni, ham o'z san'atini namoyish qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandi. Ehtimol boshqa orzulari ham yo'q emasdir. Balki Vatanidan ayrilib, Oshiq G'arib singari cho'llarda sarson kezishining boshqa bir sababi bordir? Balki uning yo'lini bir nozanin mahbubasi kutib turgandir? Kim bilsin? Hozircha Hoji Salmon undan rozi edi. Karvon qayerda to'xtab dam olsa, baxshi yigit sozini ko'ksiga bosib, hazin, diltortar navolarini boshlardi.

Ey og'alar, ey g'oziyalar,  
Yor yomon aldatdi meni,  
Qo'l cho'zdim yor etagiga,  
Bir chekkaga oldi meni,  
To'r otdim ishqning ko'liga,  
Ilindi so'nam toliga,  
Tushdim bir nodon qo'liga,  
Arzon olib sotdi meni.

Har zamonda sarbon Subhon unga jo'r bo'lardi. Subhonni hoji Salmon anchadan beri bilardi. U o'z yuklarini mana shu sarbonning tuyalari bilan tashirdi. Har bir karvonning o'z xonandasi, pahlavoni, ertakchisi bo'lardi. Ular uzoq yo'llarda karvon ahlining ko'nglini chog'lab yurishardi. Qishloq joylarda pahlavon odamlarga tomosha ko'rsatar, agar talabgor chiqsa, kurash tushar, chiqmasa, odamlardan shirinkomasini olib, yo'lida davom etardi.

Subhon baxshi yigitni ancha yoqtirib qolgan, yo'lda charchamasin deb, tuyalaridan birining ustiga chiqarib olgandi.

– Qani, boshlachi, baxshi, – deb imo qilardi. Ovozingni butun karvon ahli eshitsin.

Karvonning ortidan borayotgan piyoda musofirlar, sayohatchilar ketib borardi. Piyodalar orasida savdogar Rafi, uning ketidan Oytekin va darvish Ibrohim borishardi. Sarbon Subhon keksa savdogarga rahmi kelganida har–har zamonda uni yukli tuyalardan birortasiga mindirib olardi. Oytekin Ibrohim bilan birga borishayotganini ko'rib, nimadandir g'ashlanar, tuyanming ustida ham ikki ko'zini qizdan uzmasdi.

Hoji Salmon bu safardan gina qilmasa ham bo'lardi. Qora nortuya ustida rus tojirlaridan olingan mo'yna va teri yuklangandi. Uning ichida esa bokulik mashhur zargar Dargohquli ishlagan zebigardon, sirg'a, tillaqosh, uzuk, buloqi, xalxol va boshqa zebu ziynatlar yashiringandi. Orqada kelayotgan tuyalarda esa, xonandalar, raqqosa va sozandalar borardi. Ularni saroyga olib borishardi.

Karvon ahli yo'l–yo'lakay baxshi yigitning bulbuldek shiradi ovozida yangrayotgan o'lan va bayotilarni tinglab borishardi.

*Dardingni ayt bilganlarga,  
Dard boshiga kelganlarga,  
Har yuzingga kulganlarga,  
Ishonsa bo'lmas anglagil.*

Karvondan turli ovozlar kelardi:

–Yasha, hofiz!

–Ha do'st, baraka top!

–Mingga kir, Otangga rahmat.

–Og'alar og'asi o'zi madadkor bo'lsin!

–Umringdan baraka top!

–Shohi Mardon pirim qo'llasin!

–Yasha baxshi, yasha! Dunyo turguncha tur!

Hoji Salmon kaftini qoshiga tirab, uzoqlarga tikildi. Peshinga qadar manzilga yetib borishlari kerak edi. Uzoqdan yetib borishlari lozim bo'lgan karvonsaroyning qubbalari ko'zga tashlandi. Otlar, tuyalar manzil hidini sezgandek qaldamlarini tezlatdilar.

Birdaniga sarobga o'xshash bir chang girdobi ko'tarildi. Kutilmaganda esgan kuchli shamol quyunga aylanib, sahroda qumli ustun hosil qildi. Qum odamlarning og'ziga va ko'ziga urilar, bo'yin va yonoqlariga qamchidek shiddat bilan urilardi.

–To'xtang, ulovlardan tushing!

–Ro'mollaringizni namlab ot va tuyalaringiz boshiga o'rang...

–Tuyalarning ostida bekininig...

Ovozlar shamolning qattiq o'kirigi ostida eshitilmay qoldi. Tuyakashlar, jilovdorlar va boshqa musofirlar tezda ulovlarni cho'ktirishdi. Qo'llarida qanday latta – putta bo'lsa, meshlardagi suv bilan namlab, jonivorlarning boshiga bog'lashdi. Keyin amma tuyalar va otlarining tagiga kirib, qum bo'ronidan panalandi. Guldiros solib kelgan qum bo'roni bir pasda o'tib ketdi. Chorak soat o'tib, hamma yoq suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Birinchi bo'lib sarbon Subhonning ovozi yangradi:

–Birodarlar turinglar, bo'ron tugadi.

Odamlar bir pasda ust–boshlarini qoqib, o'rinlaridan turishdi:

–Allohga shukur, bir pasda o'tib ketdi.

–O'zi tez boshlansa, tez tugaydi.

Hoji Salmon osmonga bir qarab oldi–da, subhonga o'girildi.

–Subhon, inim! Tuyalarni qo'zg'atma! Peshin vaqti bo'ldi. Manzilga yetgunimizcha, asr ham bo'ladi. Peshinni shu yerda o'qib olaylik.

Sarbon karvon ahlini namozga chorladi. Tuyakashlardan biri hoji Salmonga yaqinlashdi:

–Hoji og‘a, boya ro‘mollarni ho‘llaganimizda, meshlarning og‘zi ochiq qolgan ekan, suvimiz oqib tamom bo‘pti. Tahoratni nima qilamiz? Balki, peshinning qazosini asrga qo‘shib o‘qirmiz.

–Hechqisiy yo‘q, farzni vaqtida ado qilganimiz ma‘qul. Tayammum bilan o‘qiyviz.

Elchidan boshqa hamma chetroqqa o‘tib, cho‘kkalagancha qo‘llarini qumga urib, tayammum shartlarini bajarishdi. So‘ng hamma hoji Salmonning ortidan safga turib, qiblaga yuzlanishdi. Nihoyat peshin namozi o‘qib bo‘lindi. Jamoat namozni o‘qib, ortiga o‘girilganda, Ibrohim bilan Oytekin yerda cho‘zilib yotgan savdogar Rafining tepasida tiz cho‘kishgandi. Rafi titroq ovozda:

–Hoji Salmonni chaqiring!

Darvish o‘rnidan turib, otga minishga hozirlanayotgan Hoji Salmonga yaqinlashdi:

–Hojim, qariyaning kuni bitgan ko‘rinadi, sizni chaqiryapti.

Hoji o‘zi yoqtirmagan odam biror bir ishkal chiqarishidan gumonsirab, aftini burishtirganча xastaga yaqin keldi.

–Ha, Rafi og‘a, nima bo‘ldi?

Rafi ko‘ksini ezg‘ilayotgan xirillashga arang chidarkan, uni imlab yoniga chaqirdi. Karvon ahli ularni o‘rab olgandi. Kimdir luqma tashladi:

–Vasiyat qilmoqchiga o‘xshaydi.

Rafi eshitaman degandek uning boshida tizzalab, engashdi. Boshqalar ortga chekinishdi. Xasta bilan hoji yolg‘iz qolishdi. Hoji Rafining qo‘llaridan ushladi. Rafining qo‘llari sovuy boshlagandi. Jon unig qo‘l va oyoqlarini tark etib, ko‘ksiga kelgandi. Arang eshitalayotgan xirqiroq ovozda pichirladi:

–Yordam... chim... qiz... bola... raqs... Ming dinor... berasiz... tabrizdagi... Jaloyir mahallasida uyim... Mollarim sarbon Muharram... ning karvonida qol... di...

Bu uning oxirgi so‘zi edi. Na kalimai shahodatni qaytardi, na tavba qildi, na biror yaxshi gap aytdi. Farzand, aka–ukalarining ham otini aytmadi.

Hoji Salmon kaftlari bilan uning ko'zlarini yumdi. «Ha, boyaqishning peshonasida sahroning qoq o'rtasida, kafansiz, kalimai shahodatsiz, tavbasiz o'lish bitilgan ekan. Alloh seni o'z rahmatiga olsin. Vaqti ziq odam eding. Endi diydor qiyomatda qoldi.

Karvon ahli yana oyoqqa turib, janoza namozini o'qidi. Savdogar Rafini shu yerning o'zida tayammum g'usli bilan dafn qilishdi. Keyin hoji Oytekinga yuzlandi:

—Bolam, endi sen mening himoyam ostidasan. Inshoolloh, manzilga yetguncha nimadir o'ylab toparmiz.

Shundan so'ng, otiga mindi va karvonga qo'zg'alish ishorasini berdi.

Karvon shaharga kirganida, kun peshindan og'gandi.

Hali uzoqdan shaharda ilk bor ko'zga tashlangan narsalar minorayu gumbazlar edi. Ularning yon-atrofida pastqam kulbalar, xom g'ishtdan tiklangan, derazasiz uylar ko'rindi.

Bu uylarga uzoqdan nazar solarkan farang elchisi «bu tosh va paxsa uylarga havo qayerdan kirarkin?» deb o'ylardi.

Nihoyat shaharga kirib kelishdi. Ko'chalarda bolalar umuman ko'zga tashlanmasdi. Elchi ana shu paxsa devorli uylarning ichida daraxtzorlar ihotasida muzdek suvli hovuzlar borligini bilar, bolalar va ayollar ana shu hovuzlar bo'yida salqinlab o'tirishganini taxmin qilardi. Ularga zamona zayli tashqari chiqishga imkon bermasdi. Har uch—to'rt kun paxsa devorlar oralab o'tgan tor ko'chalarda bir—ikki otliq o'tib qolar, qaysi hovlida erkak kishi bo'lmasa, otliqlar o'sha joyni bosar, qo'lga ilingulik narsani olib, chiqib ketishardi. Shu sababli hech kim uydan tashqariga bosh suqib qarashga jur'at qilolmasdi.

Ko'chalarda birorta do'kon ham ko'rinmasdi. Butun savdo—sotiq shaharga kiraverishda, karvonsaroy oldidagi keng maydoncha atrofida kechardi. Alloflar, baqqollar, telpakfurushlar, zargarlar, misgarlar taqachilar, duradgorlar, kulollar va boshqa kasb—kor egalari o'z matohtarini do'konlari oldiga terib, xaridor kutishardi. Kelgan karvonlar ham o'z mollarini shu yerda yoyar.

oldi—berdisini qilar, bir kun tunab, ertasi kuni katta tijorat shaharlariga yo'l olishardi.

Qadimiy odatga ko'ra, qabriston ham shaharchaning yaqinida, bozor maydonidan uzoq bo'lmagan joyda joylashgandi. Bu yerda bir sayyid qabri ustida tiklangan maqbara va keksa tut daraxtidan boshqa biror bir ko'zga ko'rinarli narsaning o'zi yo'q. Tut daraxtidan sal narida mayitlarni yuvish uchun qurilgan g'assolxona binosi ko'zga tashlanadi.

Hoji Salmonning karvoni shaharchaga yetib kelishganda, kun peshindan oshgandi. Hojining nazarida shaharcha aholisi nimadandir bezovtadek ko'rinarli. Shunchaki karvon kirib kelishi odatda bunday kichik shaharchalarda u qadar shovqin—suronga sabab bo'lmasdi.

Maydonga kirgan karvon ahli to'plangan tumonat odamdan hayratlandi. Tuyalarni cho'ktirib, mollarni tomosha qilish hech kimning xayoliga kelmasdi. Hoji Salmon Oytekinga bir qadam ham nari ketmaslikni tayinlab, o'zi undan uzoqlashdi.

Oldinda bir guruh ko'zga tashlandi. Izdihom markazida shahar hokimi bezatilgan ot ustida ketib borardi. Hokimning orqasida yoshgina yigitcha ergashgandi. Yigitchaning atrofini esa qilichlarni yalang'ochlab olgan besh navkar qurshagandi. Havoga niqtalgan qilichlarning tig'i quyoshda yaltirardi. Ulardan oldinroqda esa, kiyimidan ingliz savdogarlariga o'xshab ketadigan bir kishi eshakka teskari mindirilgan holda ketib borardi. Jilovdor qo'lidagi qamchisi bilan goh eshakni, goh uning ustida kaltak yeyaverib holdan toygan savdogarni savalardi. Hokimning orqasidan borayotgan yigit har har zamonda kalimai shahodatni aytar, gohida salovot tushirardi.

Ulardan bir qadam orqada oppoq xachirga minib olgan shahar qozisi zikr aytib kelardi:

—Hazrati Ali, o'zing madad ber!

Odamlar orasida ham salovat tushirib, omin aytuvchilar ko'p edi.

Elchi hayrat ichida hoji Salmonga yaqinlashdi:



—Hoji janoblari, bu nima hodisa bo'ldi?

Sal avval nima bo'lganini odamlardan surishtirib bilgan hoji ko'zini izdihomdan uzmasdan, javob qaytardi.

—Janob elchi. Ma'lumingiz bo'lsinkim, eshak ustidagi kimsa ingliz savdogari bo'ladi. Anavi o'nta qilich orasida borayotgan yigit uning xizmatkori yoki bizning tilni biladigan sherigi bo'lishi kerak. Aytishglaricha u tushida hazrati Alini ko'rganmish. Shahar hokimining yoniga borib, savdogarning hamma mollari unga tegishli ekanini aytibdi. Shahar qozisining guvohligida dinimizni qabul qilibdi. Hamma mollari unga o'tibdi. Savdogar undan qiblai olamga borib, shikoyat qilishini aytibdi. Qozining fatvosi bilan dinimizga kirgan odamga tahdid qilgani va qo'l ko'targani uchun savdogar jazolanibdi. Men bunaqa voqealarni oldin ham eshitganman. Ba'zi navkarlar va qullar yo o'z og'alaridan qasos olish yo rostlan ham dinga kirish uchun shahar hokimlariga, qozilarga murojaat qilisharkan. Bizlarda ham inson eng muqaddas zot sanaladi. Agar qay bir g'ayridin islomni qabul qilsa, uning barcha gunohlari kechiriladi. Uni hamma joyda ochiq yuz bilan qarshi olishadi, hech qanday soliqsiz savdo qilishiga imkon yaratiladi.

Elchi bularni eshitarkan, o'zicha o'yladi:

«Bu juda qo'rqinchli masalaga o'xshaydi. Agar har bir talonchi xizmatkor o'z xojasining moliga ega chiqish uchun shunday yo'l tutaversa, bizdek chet ellik savdogarlar uchun juda qiyin bo'ladi—ku? Yo'q, shohning oldiga kirganimda bu masalani albatta aytaman. Bunaqa firibgar xizmatkorlarga aslo imkon bermaslik kerak. Bu erkin bozor qonunlariga zid harakat—ku? Bunaqa mamlakatga chetdan savdo—sotiq uchun mol kirmay qo'yadi, deb aytaman!»

Birozdan so'ng elchi bu fikrlarini o'z daftariga qayd qilib qo'ydi. Bu paytda yangidan islomni qabul qilgan yosh yigitga odamlar hamdu sano yog'dirish bilan band edi. Nihoyat guruh qabrison chetidagi Sayid maqbarasi yonida to'xtadi. Otliqlardan

ikki kishi, hokim va yangi dinga kirgan musulmon otdan, qozi xachirdan tushishdi. Har uchovi Sayid maqbarasiga kirib ketishdi.

Qozining ko'rsatmasi bilan ingliz yigiti maqbara qabr toshini o'pdi, nazar qo'ydi. Kalimai shahodatni yana bir karra baland ovozda o'qidi. Nihoyat ular maqbaradan chiqishdi. Yana otlarga minib, yo'lga tushishdi. Qilich yalang'ochlagan navkarlar shaharchaning boshqa tomoniga qarab ketishdi. Otlar tuyog'i ostidan ko'tarilgan chang bosilganda, hoji Salmon va Subhon tuyalarni egarlab, yuklarni saralashni buyurdi.

Elchi karvonsaroyning kichik hujralaridan birida joylashdi. Biroz dam olib, kun bo'yi ko'rganlarini yana bir bor xayolidan kechirdi. Qayd dalillarini varaqladi. Ayrim narsalarni birma-bir qaydga oldi.

Bitta narsa elchining e'tiborini tortgandi. Har manzilga yetganlarida hoji Salmonga bir darvish yaqinlashadi. Nimalarnidir gaplashib, keyin hoji bilan xilvatga o'tib ketadi. Avvalgi manzillarda elchi bu hodisaga uncha e'tibor qaratmadi. Bular boy savdogarlardan sadaqa so'raydigan tilanchilar bo'lsa kerak, deb o'yladi. Lekin bunday tomoshalar muntazam tus olgach, darvishlar va karvonboshining suhbat shunchaki arziyas holat emasligini sezdi.

U aniq eshitdi: Darvishlar har gal karvonboshiga yaqinlashganda, «teskari shamol esyapti» degan uchtagina so'zni takrorlard. Aynan shu jumlani eshitgan hoji darvishni xilvatga olib o'tardi. Hojdi qolgan darvishlarga uncha e'tibor bermasdi. Hozir ham Sayid maqbarasi yonidan o'tishayotganda haybatidan dev hurkadigan bir darvish hoji Salmonga yaqinlashib, o'sha sirli jumlani aytdi. Salmon darhol uni bir chetga olib o'tdi va o'ng qo'li bilan avval yuragini, keyin lablarini, oxirida peshonasiga ushladi. Keyin esa kuliinsirab, darvishga yuzlandi:

– Hujramga o't, darvish og'a, sen bilan bir piyola sharbat ichib, suhbat quramiz.

Keyin Salmon yuklarni ortib-tushirayotgan sarbonni chaqirdi va unga savdogar Rafining navkaridan ko'z-quloq bo'lib turishni tayinladi. O'zi esa Oytekinga qarab qichqirdi:

–Bolam, sen sarbonga ko'maklash, keyin hujramga kir, gaplashadigan gaplar bor.

Shu topshiriqlardan keyin darvish bilan birga hoji uchun ajratilgan hujraga yo'l olishdi.

«Demak, «teskari shamol esyapti» so'zida bir sir bo'lishi kerak. Manzillarda uni qarshilaydigan darvishlar qanaqadir muhim ma'lumotni hojiga yetkazadilar. Hoji yo hukumatga qarshi ishlaydigan maxfiy tashkilotning, yoki podshohning o'z ayg'oqchisiga o'xshaydi.

Elchi shohning qabuliga kirib borganida, bu sirning tagiga yetishiga umid qilardi. Har holda o'zi ko'rgan–bilganlarni ishora bilan o'lsa–da, shohga yetkazib, uni xabardor qilishi shart. Balki bu xabar tufayli elchitning shoh oldidagi hurmati va rutbasi oshib qolar? Balki uni qo'rqinchli bir xavf xatardan xalos qilar? O'shanda shoh ham elchining hamma talablarini bajo keltirarmidi?

## ARSLON OVI

Hoji Salmonning karvoni shaharga kirganida poytaxtda bayram ruhi hukmron edi. Muridlar, g'oziyar, askarlar bir-birini shohning shikorda arslon bilan yakkama-yakka olishib, g'olib chiqqani bilan tabriklardi. Shohga Safalan adirlarida arslon yurgani haqida xabar keltirgan g'ozii Murodbey Shomlu mag'rullangancha bozor maydonida ot chiptirar, qayerda odamlar to'planib turganini ko'rsa o'sha yerga kirib borardi. Hamma Murodbey minib olgan qora to'riq otga havas bilan qarardi.

—Murodbey, bu qora to'riq otingni sotasana shekilli? Shohimiz endi senga yangi ot hadya qilsalar kerak?

—Sotmay nima qilardim? Ikkita otini minib yurolmayman-ku? Yilqichi yoki ot jallobi bo'lmasam. Muhtaram shohimizning sodiq navkariman. Bugun bu yerda, ertaga boshqa bir joyda dini mubinimiz uchun jang qilaman. Ikkita otini nima qilardim?

—Balki sovg'aga oladigan ot bunisidan ko'ra yomonroq bo'lsa—chi?

—Hozirdan sotmasa kerak?

—Bek bergan otning tishini sanama deganlar. Nimani bersa o'shani minadi—da! Buni saqlab, narigisini sotmaydi—ku?

—E bo'lmag'ur gaplarni qo'yinglar! Shoh biror kimsaga o'zi minib yurganidan yomonroq ot, egnidagi kiyimidan arzonroq libos hadya qilmaydi.

Murodbey mo'ylabini buragancha, odamlarning gapini eshitar, otining narxini oshirish uchun maydonda u tarafdan bu tarafga qarab yo'rttirar, choptirar, odamlarni ko'z qiri bilan kuzatardi.

Maydonga to'planganlar ichida darvishlar ham ko'p edi. Ulardan bir qanchasi boyadan beri shohi javonbaxtga atab hamdu sanolar o'qir, madhiyalar aytar, uning bobosi imom Ja'fari Sodiqdan, Aliyu—murtazodan, shahidi Karbalodan qilichiga keskirlik, hilagiga quvvat, qalbida jur'at, ko'zlariga nur tilashardi.

Ko'chmanchi ekani sezilib turgan yoshgina yigit sarrojga o'xshagan qariyadan so'radi:

–Amaki, o'zi Murodbey Shomlu nima ish ko'rsatibdiki, shohimiz unga qimmatbaho ot sovg'a qilishlari kerak?

Keksa sarroj shogirdiga dars beradigan ustod ohangida javob qaytardi:

–Bolam, aftidan podshohimizning farmonidan xabaring yo'q, shekilli. Podshohimiz ovga juda ham qiziqadi. Dunyoda uning uchun ovdan qiziqroq ishning o'zi yo'q. O'ziyam uncha–muncha ovga qiziqmaydi, u asl mard yigitlarga xos shikorni yoqtiradi. Bir o'zi arslon bilan bellashadi. Shunaqa bahodir, azamat podshohimiz bor. Uning farmoniga ko'ra, kimdakim shu yaqin atrofda yo'lbars ko'rgani haqida xabar olib kelsa, egarsiz ot, arslon haqida biror gap aytsa, asbobu anjomi bilan uchqur tulpor hadya qilinadi. Murodbey Shomlu ikki kun oldin Savalan adirlarida arslon ko'rgani haqida xabar olib kelgandi. Shoh esa, ovga bir o'zi ketgan. Navkaru mulozimlari shaharda qoldi. Bir o'zi arlonni o'ldirdi. Chopar saroyga kelib, xushxabarni yetkazdi. Bugun tondan jarchilar shohimizning shijoatlari haqida hamma yoqqa jar solishdi. Murodbey Shomli ham bitta egar–jabduqli otga ega chiqdi.

–Eh o'sha arslonni o'zim ko'rganimda edi, dedi ko'chmanchi yigit orzumandlik bilan. Biroq uning ovozini jarchining baland e'loni bosib ketdi:

–Odamlaru odamlar, eshitmadim demanglar, ey ahli Tabriz! Parvardigori olamning qudrati ila hukmdorimiz, dinimizning najotkori shoh hazrati oliylari ovda zulfiqor damli qilichlari ila arslonni sarnigun etmishlar. Xushxabar olib kelgan Murodbey Ma'had qarorgohiga chaqiriladi. Unga podshohi olamning xos otxonasida egar–jabduq ila saman ot tuhfa etiladi. Marosimni ko'rishni istaganlar Ma'had oldidagi maydonga kelsin heycеyеy...

–Shohimizning saxovatiga gap–so'z bo'lishi mumkin emas.

–Bir xabar uchun egar–jabduqli ot, qoyil.

–Uning dargohi oliysidan biror bir qo‘l bo‘sh qaytgani yo‘q.  
Butun bu hodisalarning shohidi bo‘lgan hoji Salmon elchi bilan saroy maydoni tomon suhbatlashib borarkan, o‘ylardi:

–Chindan ham shohning saxovati cheksiz. Shu bois xazinaning uzoq vaqt bo‘shab qolishiga faqatgina jang–jadallar sabab bo‘lmaydi.

U elchini kuzatib qo‘yarkan, o‘zi shohning xos nadimi bilan ko‘rishib, kelgani haqida xabar berishi, xilvatgohda uchrashuv uchun hozir turishi lozim edi. Shoh arslon ovidan muzaffarona, benihoya xursand qaytgan edi. Hoji Salmon olib kelgan xabarlar va hadyalar unga yanada katta kuch quvvat bag‘ishlashi muqarrar edi.

\*\*\*

Hoji Salmon kunning qolgan qismini savdogar Rafining ayolini topib, uning oxirgi topshiriqlarini bajarishga bag‘ishladi. Tojirning o‘g‘li yo‘q edi. Kichkina hovlida hojini marhumning ayoli va bo‘y yetgan qizi qarshi oldi. Hoji olib kelgan omonatni qabul qilib olishdi. Oytekin uchun ham savdogarning ayoliga bir miqdor pul berib, joriyaning noyob qobiliyatlaridan xabarsiz holda uni keksa vazirga hadya tariqasida olib bordi. Bomdod namozidan o‘tib, xilvatgohning xizmatchilaridan biri uni nadimi xilvatning huzuriga boshladi. Hoji Salmon shoh uchun olib kelgan hadyalarni ham xachirga yuklab, yo‘lga tushdi.

Nadimi xilvat hoji Salmanni xonaga taklif qildi. Bu joy hoji Salmonga anchadan beri tanish edi. Soddagina bezaklar oddiy askar xonasiga o‘xshab ketardi. Yerga ajoyib Tabriz gilamlarining to‘shalgan bo‘lsa–da, devorlar bo‘sh edi. Shoh bu yerda ayrim odamlarni darvishlar, sarbonlar, qo‘shni va uzoq o‘lkalardan ma‘lumotlar olib keluvchi xufiyalarin qabul qilardi.

Hoji Salmon ichkariga kirib, to‘xtab qoldi. Shoh kelishidan avval, unga joy ko‘rsatilmay turib, o‘tirishga haqqi yo‘q edi. Oradan ozroq tanaffus o‘tdi. Xonaning to‘ridan bir qarashda ko‘zga tashlanmaydigan eshik ochildi. Eshik ostonasida qo‘l qovushtirgan nubiyalik habash qul ko‘rindi. Uning ortidan nadimi

xilvat qora berdi. U ham itoatkorlik bilan eshik chetida bosh egib turdi. Shundan keyingina shoh ichkariga kirdi. Hoji Salmon boshini egib turgani uchun shohning yuzini ko'rolmas, faqat uning uchi qayrilib turgan etiklarini, yashil shohi sholvorini va zarbof chophonining etaklarini ko'ra olardi.

–Xush kelibsiz hojim, baxayr!

Hoji Salmon boshini ko'tarib, qo'l qovushtirgancha, bir necha qadam oldinga yurdi. Keyin tiz cho'kib, shohning etaklarini ko'ziga surdi. Shundan keyingina boshini ko'tarib, shohga razm soldi.

Qoramtir, siyrak soqol va ingichka mo'ylab yigirma yoshli hukmdorni biroz kattaroq ko'rsatsa—da, uning oppoq va nurli yuzidagi tarovatni yashirolmagandi. Katta—katta qora ko'zlari uning zarif siymosida yanada yirikroq ko'rinardi. Kulohi ostidan tushgan chakka sochlari soqollariga ulanib ketgandi. Bugun shoh odatiy qimmatbaho ziynatlarini taqmagandi. Etiklaridagi tirnoq izlari yaqindagi yuz bergan arslon ovidan qolgan nishona edi.

–Yegan—ichganingiz o'zingizniki, ko'rgan—kechirganingizdan gapiring, hojim dedi hukmdor ingichka, ammo qat'iy ovozda.

–Ba chashm, hukdoram, ammo izn bersalar, xizmatchilar sizga olib keltirilgan arzimas tuhfalarni olib kirsalar.

Shoh kulimsiradi:

–Hoji bilasizki, oliftagarchilikni xush ko'rmayman. O'z ona tilingizda so'zlangiz.

Hoji aybdorona kulimsiradi:

–Tarki odat amri mahol, shahanshohim, boshu qosh ustiga.

Shohning kichiki ishorasi bilan nadimi xilvat eshikni ochib, laganlarni ko'tarib olgan xizmatchilarni ichkariga kiritdi. Laganlar ustidagi yopinchilar ochilganida, shoh uning ostidagi turli la'lu javohirlar, taqinchoqlarga ko'z qirini tashladi. Yumshoq mo'ynalarni asta silab ko'rdi. Keyin ularni xazinaga olib borishga ishora qildi. Hoji Salmon o'zi kelgan tuhfalarga biroz ta'rif berarkan, dedi:

–Shohim, haramsaroyga o'tkazilgan qirq xos kaniz ham shular orasida. Raqqosa va xonandalari ham bor. Mayl etgan chog'ingiz bu arzimas tuhfalaringizga nazar tashlasalar, baxtiyor bo'lardim.

–Ma'qu!

Shohning ishorasi bilan nadim va habash xizmatkor ham xonani tark etdi. Shoh hoji bilan yuzma–yuz qoldi. Keyin gapir, degandek yana savdogarga qaradi.

–Qiblagohim, – dedi savdogar, berilgan barcha topshiriqlar bajarildi. Elchilarni ziyon–zahmatsiz manziliga yetkazdim. Salim Konyada deb eshitganimiz uchun biz ham o'sha tomondan o'tdik. Saroyda elchingizni katta hurmat bilan qabul qilishdi.

Shohning yuzida iste'zoli tabassum aks etdi. Hoji esa, gapini davom ettirardi.

–Bir necha oy elchilar saroyda mehmon sifatida saqlab turilarkan. Javobini keyin yuborishadi. Men ham karvon bekor turmasin deya ortimga qaytdim. Keyingi safarimizda ular ham ishlarini bitirib, javob xatlarini olsalar, o'zim olbi kelaman.

Shohning yuzida xavotir bulutlar ko'rindi.

–Sivos voqealari to'g'ri ekanmi? G'iyosiddinni ko'rdingmi?

–Taassulki, shaxsan o'zini ko'ra olmadim, shohim. Ular ayni paytda uzlatga chekinmishlar. Alaviylik va Bektoshiylikni nimagadir qorishtirib yuborishibdi. Ular orasida Ibrohim degan bir darvish qirq yigit bilan jihad bayrog'ini ko'taribdi. Bu tariqa u sulton Salimga nisbatan noroziligini ko'rsatmoqchi bo'lgan. G'iyosiddinning o'zi va qirq darvishi Arzirim etaklarida g'orga bekinishibdi.

Albatta, hoji Salmon o'z karvonida yashirin topshiriq bilan kelgan Ibrohimdan bexabar edi. Bu kamtarin yigit el orasida darvish shoir sifatida mashhur bo'lgan Ibrohimshoh ekanini bilmasdi.

–Eshitganman, – bosh irg'adi shoh. – Ibrohimdek yigitlarni arashimiz kerak. Hojim, odamlaringizga ayting, undan ko'z–quloq bo'lib turishsin. Yetti kun avvalgi hodisalarni ko'rolmagan



xotindan. yetti kun keyingi voqealarni ko'ra olmaydigan erkakdan uzoqroq bo'l deyishgan. Shoir esa, yetmish yil keyingi ham ko'ra olishi kerak. So'zning kuchi katta. Taassufki, oldinlar shoirlarimizning ko'plari fors tilida yozgan, shu bois yozganlari oddiy xalq orasida tarqalmagan. Ibrohim esa, bilishimcha, Rumda turib, biz haqimizda bir qancha she'rlar bitgannish. Bu haqda yetti iqlimni kezgan darvishlardan eshitganman.

*So'z borki kesdirar boshni,*

*So'z bor to'xtatar taloshni,*

*So'z borki qayg'uli oshni*

*Asal bilan qaymoq qilur.*

U gapirarkan, hoji Salmon bu misralarni xotirasida saqlashga harakat qilardi. Hoji Salmon bu she'rlarni bir duodek dilida saqlash haqida o'ylardi. U ta'zim qilib, yana bir bor shohning etaklarini tavof qildi. Uzundan-uzoq duo qildi. Keyin yana darvishlar haqidagi qolgan ma'lumotlarini ham aytib bitirdi.

-Darvishlik keng qanot yoymoqda, olampanoh! Janubiy Rumda tarafdorlarimiz juda ko'paygan, sizning muborak ishorangizni kutmoqdalar!

-Benomus Salimni jang maydoniga chaqiryapman, ammo undan sado yo'q, dedi shoh o'ychan.

-Sohibqiron. Qilichingiz shuhrati dunyoni tutgan, qo'rqayotgan bo'lishi mumkin! Hamma yoqda siz haqingizda gapirishyapti. Sizning Mahdiyi zamon deb atashmoqda. Xususan. Ibrohimning sizga atab bitgan she'rlari Rum diyorlarida juda shuhrat topmoqda. Uning she'rlari, meni afu eting, shohim, sizning nazmingizga juda yaqindir.

-Qoramom tarafdarda nima gap?

-Hokimlari sizdan ishora kutmoqdalar.

Suhbat anchaga cho'zildi. Shoh o'z raqibining kuch-qudrati, qurollari, o'zini qiziqtirgan boshqa masalalar yuzasidan hoji Salmon bilan anchagacha gurninglaib o'tirdi. Hoji Salmon fursatini topib, «farang elchisi» haqida bilganlari va kuzatganlarini hukmdor bilan baham ko'rdi.

Shoh hoji bilan sulbatidan ancha qoniqish hosil qilgandi. Har ikki tomon bir-biridan rozi holda xayrlashganda, kun peshinga yaqinlashgandi.

Shoh uni sulton Salim saroyiga juda ham yaqin eranlardan birining elchisi darvish-shoir Ibrohim bilan uchrashuv kutayotganini bilmasdi.

\* \* \*

Shaharga yetib borganida, Ibrohim karvondan ajraldi. Munosabatlaridagi g'alati ishlarga qaramasdan, unga Oytekin bilan xayrlashish juda qiyin edi. Uning qiz bola ekanini bilmasada, hozircha bu ayriliq qarshisida u ojiz va bechoradek his qilardi o'zini. "Men qiz bolaman, o'sha xasis savdogarning joriyasiman, hoji Salmon meni marhum savdogarning vasiyatiga ko'ra bozorga sotib, pulini oilasiga yetkazishi kerak, koshkiydi puling bo'lsayu, meni sotib olsang, bu azoblardan xalos qilsang, bu dunyoda sendan bo'lak hech kimim yo'q" degisi kelardi.

"Bu qanday his bo'ldi? Aytolmayman. Men savdogar Rafining puliga sotib olingan, uning sarqitini yeb, kun ko'rib yurgan bir cho'riman. O'z o'rnimni bilaman. Sevishga haqqim yo'q. Bu ixtiyorimdan mahrum etishgan. Men ham bir paytlar ozod qiz edim. Yalang qoyalar, zumrad bog'lar, quyoshli vodiylar bag'ridagi Vatanim bor edi. Ota-onam bor edi. Atirgul g'unchasidek erka edim. Quyosh nurlarida qirmizi gulbarglarim ochilgandi. Men ham o'zim tengi navqiron yigitlardan birini sevib qolishni istagandim. balki o'sha yigit sen bo'lishing mumkin edi. O'sha g'addor hukmdor ana shu imkoniyatni mendan tortib oldi.

Keyinchalik she'rlari bilan ko'ngimdan joy olgan o'sha mal'un shoh baxtimga chang soldi. qishlog'imni yer bilan yakson qildi. El-urug'imni birgina "Aliyan valiyulloh" demagani uchun qilichdan o'tkazdi. Uning she'rlarini o'qib, savollarimga javob topishni istadim. Topolmadim. Buyuk muhabbat kuychisi va qattol jahongir qanday qilib bitta vujuddan joy olganini haligacha

tushunmayman. Sen uchun bu intiqomimdan ham kechardim. Faqat sen uchun. Ayriliq menga ona yurtim o't ichida qolgan o'sha kunni eslatdi. Yonyapman. azizmm, qovrilyapman. Istasang ko'ksimni yorib qara!"

Yigit ham uning qarshisida turardi. Ibrohimning o'zi ham ayriliqni g'alati, tushuniksiz bir mashaqqat ila boshidan o'tkazardi. Uning nazarida qarshisida turgan, qayeridir qip-qizil qonga to'la piyolani eslatgan bu ko'zlar Nasrinni esga solardi. Axir titrab, yig'lab turgan bu nozanin Nasrin emasmi? U imkon qadar bu badbin xayollardan qutulishga urinardi.

"Yo rabbiy bu qanday ahmoqona his bo'ldi, nega u butun borlig'imni qamrab olmoqda? Men ayrim nopok darvishlarga o'xshab qolmayapmanmi? Nasrin bu yerda nima qiladi? Nega bu porloq ko'zlar vaqti-vaqti bilan Nasrinning qaroqlariga aylanadi? Bu yigit Nasrin emas-ku? Yaxshiyam ayrilyapmiz. Yaqin bir do'stimni yo'qotayotgan bo'lsam-da, bu judolik menga juda zarur.

Hoji Salmon aniq bir qarorga kelgandi. U Oyttekinni bosh vazirning huzuriga olib borishi, ayrim ishlarni bitirish uchun keksa vazirga hadya etishi lozim. "O'zim kuzatib yuribman. qiz pok tiynatli, ozoda, aqlli qiz, vazirning qizlariga xizmat qilib yuradi. Balki o'sha yerda bechora qiz baxtini ham topar? Men ham bu sho'rlikni nokas bir insonning qo'lidan olib, munosib joyga yetkazganim uchun savob olarman"

Shu tariqa Ibrohim Oyttekindan ayrildi. Uning qiz bola ekanini faqat vujudi angladi, qalbi va aqli qabul qilmadi. Yigit qiyin bir imtihon singari mushkul vazifa bilan, piringing amrini bajarish uchun saroyga, shohning huzuriga yetib borishi lozim edi. To'g'ri, unga, "Teskari shamol esmoqda" jumlasiga duch kelgan darvishlar ba'zi muhim xabarlarini yetkazishgandi.

To'g'ri, "teskari shamol esmoqda" kalimasini hoji Salmon ham bilardi. U ham turli yerlardan to'plagan ma'lumotlarni podshohga olib borardi. Lekin bularning bari Ibrohim olib ketayotgan xabarlar oldida daryoga qiyos tomchini eslatardi. Hoji,

bektoshiy va alaviy darvishlar bu zarralarni ming azob bilan to'plab, Ibrohimning piriga yetkazib berishgandi. Pir ham bu yigitning qarama-qarshi to'liqlar ichida qolgan Konyada qolib ketishini istamasdi. Saroydan olingan oxirgi harbiy ma'lumotni ham askarlar va aslahalarning, Farangistondan olib kelingan sirdi o'tochar to'plarining sonini Ibrohimga yodlatgan, uni karvonga qo'shib yuborgandi. Bu sirlarni hatto eng yaqin savdogar va karvonboshilarga ham ishonmagandi.

Ibrohim shaharda bir kun qoldi. Karvonsaroydan o'ziga kichik bir hujra oldi. Hammomga kirib, poklandi. Hali ko'ngli yaqinda ayrilgan do'stining hijroniga ko'nikib ulgurmagan bir paytda o'zi bolaligidan ixlos va e'tiqod qo'ygan pirlar piri Shoh Ismoil Xatoyi bilan uchrashuvga hozirlik ko'rmoqda edi.

Xufton azonidan biroz o'tib, saroy darvozasiga yaqinlashdi. Pir unga bergan aqiq toshli, ko'ziga «hu» kalomi tushirilgan kumush uzukni eshik og'asi Devsultonga taqdim etdi. Ko'p o'tmay nadimi xilvat chiqib, uni shohning xos xonasi tomon boshladi.

... Nubiyalik habash misdek yaltirab turgan bilaklarini ko'kragi ustida qovushtirarkan, Ibrohim tiz cho'kdi. Biroz o'tmay, shohi javonbaxt xonaga kirib keldi. Qo'lini Ibrohimga uzatdi. Ibrohim qalbi hayajondan tipirchilab, turli qimmatbaho toshlar qadalgan uzukli barmoqlarni tutib, o'pdi. Keyin uning qarshisida tizzalab joylashdi.

Shundan so'ng u qiblagohi bilan suhbat asnosida sultonning urushga hozirlik ko'rayotgani, faranglardan o'tochar to'p sotib olingani haqidagi xabarlarni shaxsan hukmdorning o'ziga yetkazdi.

Shoh darvishdan Konya va uning atrofida qirq mingdan ortiq shia va alaviy musulmonlar qilichdan o'tkazilshgani haqida eshitgach, qattiq afsusga botdi.

—Darvish libosingizni yeching, darvish, bilaman bu qiyin, lekin shart. Bugun Vatanning darvishlardan ko'ra, ko'proq bilagi kuch-quvvatga to'la jangchi yigitlarga ehtiyoji ko'proq. Bir

muddat saroyda shoirlar orasida qoling. Ora–sira harbiy mashgʻulotlarda ham qatnashing. Soʻzning vaqti oʻtdi, endi soʻnggi urushdan qilichga oʻtmoq zarurdir. Tayyor boʻlib turing!

Ibrohim hukmdorning soʻzlarini xuddi koʻkdan tushgan oyatdek sidqidildan qabul etardi.

## RAQQOSA

Bu hodisalardan ikki yil o'tib, shoh ancha to'lishib, salobat kasb etgandi. U kekxa vaziriga berilgan va'dasiga muvofiq, antiqa bir narsani ko'rish uchun uning uyiga tashrif buyurgandi. Ular darvoza oldiga yetib borishganda, eshik tavaqalari o'z-o'zidan ichkariga qarab ochildi. Uni uy sohibi kekxa vazirning o'zi qarshi oldi. Shoh xonaga kirishi bilan hayratga cho'mdi. Xona deyarli bo'sh edi. Qora marmarga o'xshagan, lekin sirpanchiq bo'lmagan to'shama ustidan gilam tashlanmagan, yostiqlar ham ko'rinmasdi. Xona juda katta edi. Faqat eng tepada sahnaga o'xshagan maydonda shohona kursilar tizilgandi. Xona devorlariga alvon tUSDagi Koshon, Tabriz, Shirvon gilamlari osilgandi.

Shoh hech narsa demasdan, uy sohibining manzirati bilan yuqoriga chiqdi va kursilardan birida o'tirdi. Shu onda xonaga qayerdandir mayin musiqa sadolari oqib kira boshladi. Avval ud, keyin tor va g'ijjak sadolari quloqqa chalindi. Bu juda latif, diltortar bir tarona edi. Insonni o'zi bilan xayol ummoni tomon olib ketardi.

Shoh bilan vazir musiqani tinglar ekanlar, xonaga yengil odimlar bilan go'zal joriyalar kirib kelishdi. Ular marmar to'shamaga unga o'xshash oq kukunni sepib chiqishdi. Shoh ularning harakatlarini qiziqish bilan, kursining suyanchig'iga tirsagini qo'ygancha kuzatardi.

Joriyalar ishlarini bitirib, chiqib ketishdi. Ularning o'rniga moviy kiyimlardagi boshqa ikki nafar qiz kirib keldi. Ular ikkita qalamkor dasturxon olib kirishdi, yerga to'shab, yana sassizgina xonani tark etishdi.

Uy egasi ehtirom bilan shohga murojaat qildi:

–Qiblai olam, lutfan dasturxon ustidagi baytlarga ko'z tashlasangiz.

*Bardosh qurib o'tirsa nigorim fig'on qo'par,*

*Tursa–o'tirsa, fitnai oxirzamon qo'par.*

*Shirvon xaloyiqi hari Tabrizga ko'chsalar,*

*Mulki Ajam so'rarki, qiyomat qachon qo'par.*

*Yetguncha chun tugar arabin qo'yi maskani,*

*Bag'dod ichinda har necha kim turkmon qo'par.*

Ha... esladi. Shoh bu g'azalni Iroq fathining ta'sirida, Bag'dodda turgan paytida yozgandi. Dajla sohilida, oy nurida, arabiy ohanglar ostida...

Shoh o'rnidan turdi. Mayli—da! Bu yerda hayron qolarli gap yo`q. Sharqning barcha shaharlarida ana shunday qalamkor kashtalar tikiladi. Bunday matolar gohida dasturxon vazifasini o'tar, kezi kelganda joynamoz, sochiq, bo'xcha o'rnida ham ishlatilardi. Hatto ayrim paytlarda kafan o'rnida ham qo'llanilardi. Ba'zilar bunday qalamkor kashtalarda o'zlari yoqtirgan shoirlarning she'rolarini yozdirib olishardi.

Hozir yerga to'shalgan qalamkorlar ustida alvon, qirmizi—moviy naqshlar o'rtasida ikki qator qilib shohning g'azali bitilgandi. Shoh bir ko'rishda buni angladi va «Xo'sh, bu yerda hayron qolarli narsaning o'zi yo'q—ku?» degandek yelka qisib, uy egasiga qaradi.

Vazir lablarini tishlab, kulimsiradi.

—So'z bergan edingiz, olampanoh, biroz sabr qiling!

Shoh bir og'iz gapirmadi. Rostdan ham bu tentak qariya aqlidan ozganmi? Nega bunaqa mayda narsalar bilan vaqtini olyapti? Uning g'azallarini kotiblar yuzlab nusxalarda ko'chirishi oddiy hol—ku? Shoh shu haqda o'ylarkan, musiqa ohanglari o'zgarganini sezdi. Endi raqs havosi kelardi. Shu payt shohning ro'parasidagi eshik ochildi va xonaga yigitlardek kiyingan ikki raqqosa kirib, qalamkor ustida raqs tusha boshlashdi. «Yigitlar» raqs tushayotib, shohga yaqinlashishdi va birdan ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Shoh nima bo'lganini anglab olguncha joriyalar kirib, qalamkorni ko'tarishdi. Endi haqiqiy mo'jiza yuz bergandi. Qora qat bilan oq chang ustida shohning hozirgina qalamkorda o'qigan g'azali yozilgan turardi. Buni raqqosalar o'z oyoqlari bilan «bitishgandi». Shoh va g'azalini ilk bor ko'rib turgandek, qayta o'qishga kirishdi. Oxirgi bandni alohida diqqat bilan o'qidi.

Chiqa saroydin bu jahon vodiysin tutar,  
Bir murshidi tariqati piru javon qo'par.  
Ko'rmishdi to Xatoi azaldan yaqin buni,  
Nuhning alomati kelur andin to'fon qo'par.

Eh... keksa murid! . Bir g'alaba haqida xabar beradigan bu g'azalda oyoqlari bilan «yozayotganda» «hattotlar» bir–bir xatoga ham yo'l qo'yishmadi. Shohning lablari titradi:

–Bular jinmi, shaytonmi?

Mezmonning yuzlarida tabassum o'ynadi:

–Bular jin yo shayton emas, qiblai odam, kaminaning ojizalari, sizning haqir joriyalaringizdir.

–Nima, ular hali qiz bolamidi?

–Ha, qiblai olam, sizning huzuringizda ojiza libosida raqs tushishga jur'at etishmadi. Istasangiz, kelib oyog'ingizni o'pishadi.

Vazir shusiz ham hukmdor qizlarni ko'rmoqchi bo'lganini bilishardi.

–Chaqiring, dedi shoh hayajonini yashirolmasdan.

Zamina va Sabina xonaga kirib kelishdi. Ular endi bezangan kelin liboslarini kiyib olishgandi. Har biri qirmizi tusli harir liboslari kiygan, yuzlari ochiq, bo'ynidariga Shamahi zebigardonini, qo'llariga Ganja bilakuzuklarini taqib olishgan, to'rtta qilib o'rilgan sochlari uchiga marvaridlar taqilgandi. Ular xojalarining imosi bilan shohning qarshisida qo'llarini qovushtirib, bosh eshib, ta'zim qilishdi. Ularning har ikkisi hali o'n to'rtga ham to'lishmagandi.

Shoh ularga tomon qo'llini uzatgach, qizchalar ibo bilan uning kaftlarini o'pib, tavof qildilar.

–Obbo, shaytonchalar, bu hunarni sizlar qayerdan o'rgandingiz? Ustozingiz kim?

Qizlar ikkovi ham otasiga qarashdi.

–Shohim sizga namoyish qilinadigan yana bir mo'jiza e'tiboringizga tushsa, baxtiyor bo'lardik.

–Azizim, xayrli ish uchun ijozat olinmaydi. Marhamat!



Shoh o'tirgan kursi qarshisidagi eshik yana bir karra ochildi. Ichkariga yana bir go'zal malak suzib kirdi. Bu o'sha. ikki yil avval karvonboshi hoji Salmon keksa vazirga katta ehsonlar evaziga hadya qilgan Oytekin edi.

Shoh hayratdan og'zi ochilib qoldi. Kutilmaganda o'rnidan turdi. Bunaqasi hali kuzatilmagandi. Odatda shohning kaniz qarshisida o'rnidan turishi kamdan-kam kuzatilardi. Vazir ham darhol qo'zg'aldi.

Kelin esa... bitta-bitta qadam bosib, sallona-mastona shoh tomon kelardi. Mag'rur boshini tik tutgandi. San'atiga mafun bo'lib turgan shoh uning dushmani, yurtdoshlarining qotili, qon to'kib, uylarni vayronaga aylantirgan, o'lkalarni tor-mor qilgan bir fotih edi. Har doim o'zi bilan olib yuradigan mitta xanjar ingichka va ensiz kamari ostidan qizning kindigini kuydirib turardi. Oytekin bu kunlarni qachondan beri kutardi. Bu kunga yetish uchun oylar, yillarni sarfladi. U necha yildirki shu xanjarni o'zi bilan olib yurar, u bilan g'animining ko'ksini yorib, u yerda turgan narsa yurakmi, boshqa narsami bilishni, bir tomchi qonidan ichishni istardi. Balki shunda butun vujurini qovurib kelgan qasos hissidan qutular? Xuddi shu payt Sabina va Zamina egizak opa-singilning o'ziga qarab turgan muhabbat to'la nigohlarini ko'rdi.

«Yo'q, hozir mavridi emas! Agar nimadir qilsam, muridlar, qizilboshlar bu sho'rtumshuqlarni tilka-pora qilishadi. Keyin vazirga nisbatan nonko'rlik qilgan bo'laman. Hali vaqti keladi, keladi!»

U ketib borarkan, o'yga toldi. Shoh hamon unga qiziqish va havas bilan termilib turardi. U ayni onda bir shoir edi. San'at va iste'dod oshuftasi edi. Oytekin hukmdorga yaqinlashdi. Bir qadam qolganda, tiz cho'kdi. Odat bo'yicha yer o'poqchi bo'lganida, shoh bunga izn bermadi. Egizak qizchalarning yoniga borishga ishora qildi.

—Bu yoqqa kel, ustod! Shogirdlaring seni shunaqa chaqirishsa kerak?

–Uning shu ikki egizakdan boshqa shogirdi yo‘q, qiblai olam! U sizning va kamina navkaringizning sotib olingan kanizidir.

Oytekin bunday so‘zlarga o‘rganib qolgandi. Biroq hozir negadir yuragi zirqiradi. Shoh esa uning qalbidan kechayotgan iztirobni ko‘zlaridan o‘qiy olmas, chunki Oytekin nigohlarini yerdan uzmasdi. «sotib olingan kaniz» so‘zi shohning ham shoir yuragiga og‘ir botgandi. «Shunday betakror san‘at sohibasi ham bozorda pulga sotilsa, bunaqa jamiyatga ming la‘nat» deya o‘yladi. Ayni onda u shohlshigi bir on unutgan. haqiqiy shoirga aylangandi.

–Dunyoning xirojiga teng bo‘lgan bu javohirni qanchaga sotib olgandingiz, vazir janoblari?

Vazir yolg‘on to‘qidi:

–Uch yuz dirhamga...

–Eh, vazir, shu qiymatni aytishga qanday tilingiz bordi? Bu malakning qiymati o‘z vazniga barobar oltinu javohirlardan ko‘ra qimmatroqdir.

–Haqqo rost, hukmdorim! Ammo, men bor gapni aytdim. Aslida uni bir savdogar menga hadya qilgandi. Men esa unga 300 dirham ehson bag‘ishladim.

–Savdogar sizga shohona bir tuhfa beribdi, – dedi shoh ko‘zlarini qizdan uzmay. Vazir kinoyani darhol angladi:

–Podshohim, men ham bu qimmatbaho javohirni muborak nazaringizga loyiq ko‘rsangiz, benihoya mamnun bo‘lur edim.

Yana bu oldi–sotdi suhbatlari qizning qalbiga qanchalar og‘ir botishini xayoliga ham keltirmagan shoh o‘rnidan bir qalqib oldi: u nimani so‘rash, bu tengsiz go‘zalni qanday qo‘lga olishni o‘ylardi:

–Anchadan beri sizning uyingizdami?

–Ikki yil bo‘ldi, qiblai olam! Ammo, uni o‘z qizlarimdan kam ko‘rmadim. Buni o‘zidan ham so‘rashingiz mumkin. Bugundan bu ojiza sizning inon–ixtiyoringizdadir.

Shoh yengil tortdi. Agar vazir o'zi shu so'zni aytmasa, undan qanday qilib, olishni o'ylab turgandi:

–Tashakkur sizga, vazir! Bu qiymatsiz hadyangiz evaziga mendan nima istaysiz?

Vazir sokinlik bilan bosh irg'adi:

–Hukmdorim, men uchun qiblai olamning salomatligi va xushnudligidan ortiq hadya bo'lishi mumkinmi?

«Qari tulki, yuragingdan nimalar o'tayotganini koshki bilmasam? Nimadir maqsading bo'lmasa, bu kanizakni menga ro'para qilmasding. Ammo, bu hadyang uchun har qancha so'rasang arziydi»–Shoh shularni o'ylarkan, ko'zlarini qizdan uzmasdi.

–Vazi, bunday go'zallik va iste'dodning bahosi yo'q. Men uni saroyda o'zim aylantiraman. Saroydagi boshqa san'atkorlarni o'zim tanishtiraman. U o'z san'atini boshqa kanizlarga ham o'rgatsin.

Shoh tilida shu so'zlarni aytgani bilan, dilida boshqa narsalarni o'ylardi

–Hukmdorim, joriyangiz, o'qish–yozishni ham biladi, – dedi vazir xuddi hadyasining narxini oshirmoqchidek bo'lib. Xudovandi karim uni husnu jamolda ham, aqlu kamolda ham benazir qilib yaratgan. Sizning barcha g'azallaringizni yod biladi.

Shoh yengil kulimsiradi. Hatto yuzi ham biroz qizardi. Mastona ko'zlarini Oytekinning qirmizi yuzlaridan uzmay, vazir va uning qizlari shu yerda ekanini ham unutib, so'z boshladi:

–Ammo, go'zalim men hozir o'qiydigan g'azalimni bilmaydi, Bunga kafilman.

Vazir ham, qizlar ham kulimsirab qarashdi. Shoir hozirgina yaralgan g'azalini o'qishga tushdi.

*Dilbaro mehring azaldan sidq ila jonimda bor,*

*Undan o'zga kimsa yo'qdir, ham bilur parvardigor,*

*Bu fano dorinda ahli zavq ilan qilg'il safo,*

*Mulki molu taxi joh o'lmas jahonda poydor,*

*Soyai qaddingla garchi yer yuzi topdi sharaf,*

*Soyaboni rif'atingdin nuh fulak tutmish qaror.  
Kelmamishdir sen kabi olamda ey sultoni husn.  
Sohibi fazlu kamoli izzatu bo iflixor.*

U g'azalning maqta'ini aytmadi. Bir on jim qoldi. Boya yuzlab maqtovlardan qulog'i to'lgan hukmdor endi sodda, odmi bir shoir holiga tushgandi. U o'z she'ri uchun muxlisasidan maqtoV kutmoqda edi. Qiz buni angladi:

–Qiblai olamning bu latif g'azalini bir haqir joriyasi qaydan bilsin? Bu qiymatsiz javohirning yaralishiga ilhom bergan Xoliqi yaktoga hamdlar bo'lsin! Va bu qimmatli baytlarning yaralishiga kamina oz bo'lsa ham ilhom baxsh etgan bo'lsa, bu sharaf menga o'lguncha kifoya qilur.

Qizning lablarida yengil tabassum titradi. Buni ko'rgan shoir qalbdan shu so'zlar kechdi: «Ayolning eng go'zal ziynati uning tabassumidir!»

Qizning jur'atli so'zlarida vazirning qalbi titroqqa tushdi. Ammo shoir indamadi. U anchagacha muallimdan maqtoV eshitgan o'quvchining quvonchi bilan qizga qarab turdi:

–Seni yaratgan parvardigori olamga ofarinlar bo'lsin, isming nima?

Bu gal qizning o'rniga vazir javob berdi:

–Kanizingizning ismi Oytekindir.

–Senga bu ismni qo'ygan ota–onaningning umri uzun bo'lsin. Ular qayerda? Agar qul bo'lsalar, ozod qilay. Zindonda bo'lsalar, yorug'likka chiqaray. Kambag'al bo'lishsa, boy qilay.

Qizning nigohida hamma narsa o'zgardi. Shoir ham, she'r ham g'oyib bo'ldi. Uning o'rniga ko'z oldida qonga botgan ona qishlog'i, jasadi tuproqqa qorishgan akasi, asirlar orasida bedarak ketgan ota–onasi jonlandi. «Oytekin, sen bu yerga qasos olish uchun kelgansan! Sen o'z tug'ishganlaring, ona yurtning intiqomi uchun yashayapsan–ku? Sen she'r majlisida g'azalxonlik qilish, raqs tushib, shohlarning ko'nglini ovlab uchun yashamayapsan–ku?!»

Qizning ko'zlaridagi nur so'nganini, har birida bittadan inju yaltiraganini ko'rgan shoir Oytekinning qalbida og'ir bir dard pinhon ekanini angladi. Nazarida, yetimning yodiga o'lgan ota-onasini solib, uning yarasini yangilagan edi. Shu bois ich-ichidan afsuslandi:

—Afv et.—dedi, bilmasdan dardingni yangilab qo'ydim. Alloh o'z rahmatiga olgan bo'lsin.

Vazir ham, qizlar ham hayrat ichida shoh va kanizning suhbatini tinglashardi Shundan so'ng o'rtada boshqa mavzuda so'z ochishning iloji bo'lmadi. Shox turdi. Uning ortidan vazir ham, qizlar ham qo'zg'olishdi. Shox saroyini tark etayotgan kekxa vazirga yuzlandi:

—Ertaga saroydagi san'at xonalarini Oytekinga o'zim ko'rsataman.

\* \* \*

... Qasr nihoyatda katta edi. Birinchdan yasalgan ikki tavaqali darvoza har kuni ochiq turardi. kattakon tuya karvonlari joylasha oladigan ulkan, dov-daraxtli hovlining chor atrofi katta-kichik hujralardan iborat edi. Darvozadan kiraverishda, ro'parada ikki qavatli imorat ko'zga tashlanardi. Hovli o'rtasida favvorali, suvi tiniq marmar hovuz qurilgan. Hovuzning atrofida ko'kka bo'y cho'zgan turfa manzarali daraxtlar bu hovliga fusunkor xiyobon tusini bergandi. Haram imoratning orqasida joylashgandi. Imorat orqali ichki hovliga o'tilardi. Ikkita hovlini taxtadan qurilgan baland devor ham ajratib turardi. Ayollar va joriyalar faqat tashqi hovliga muhim ehtiyoj tufayli chiqishlari mumkin edi. Hovuzda rang-barang baliqlar suzib yurardi. Sarv daraxtlari orasidan ahyonon jayron yoki tovuqlar ko'zga tashlanardi.

Oytekin saroyga kelgan kunning ertasiga shohning istirohat xonasiga chaqirildi. Shoh uni intizorlik ila kutardi.

—Senga imoratni o'zim ko'rsataman. — dedi va ular kunduzi kelib ketuvchilar, xizmatchilar, qorovullarga to'ladigan, hozir esa

darvozasi zich yopilgan tashqi hovliga chiqishdi. Yosh hukmdori qizga bo'm-bo'sh xonalarni ko'rsatishga tushdi.

—Bu hattotlar xonasi. Qadim zamonda Andalusiyada bir qozi bo'lgan ekan. Kitoblarga juda ham qiziqarkan. Olti nafar hattot unga kitob ko'chirib berarkan. Qayerda yaxshi kitob borligini eshitsa, qimmat narxda sotib olar, kitobning yaxshisini o'qish uchun borini ayamaskan. Men ham bir kutubxona ochish niyatidaman.

Xonaning ichida turli o'lchamdagi kichik kursi va xontaxtalar tizilgandi. Ularning ustida ziynatli qalamdonlar, shamdonlar, yozuv qurollari, turli bo'yoq va siyohdonlar, oltin va kumush suvi uchun piyolalar terilgandi Hattot, rassom, saxhof va bezakchilar bir nechta xonalarda o'tirib ishlashardi.

Qiz katta qiziqish bilan she'r va ilm to'la bu sirli olamni tomosha qilardi. "She'r va so'z sehriga mexr qo'ygan hukmdor bu qadar bag'ritoshlikni qayerdan oldi ekan?" o'ylardi qiz u bilan izma-iz borarkan.

Kutubxona joylashgan o'toq yanada katta edi. Ichida devorlar bo'ylab o'rnatilgan toqcha va jovonlar turli-tuman kitoblar bilan to'la edi. Ular orasida Qur'oni karimning har xil nusxalari, diniy adabiyotlar alohida bo'lmadardan joy olgandi. «Sharhi mazori», «Tarassul», «Mazomir» singari fiqhiy asarlar. Ibn Sino, al-Beruniy, Qora Dovud, Firdavsiy, Nizomiy, ibn al-Asir, Nasimiy, Alisher Navoiy. Husayn Boyqaro qo'lyozmalari alohida qiymatga ega edi

Shoir bu bebaho devonlarning har birini alohida mehr-muhabbat bilan qo'lga olib qarar, yana ehtiyotkorlik bilan silab joyiga qo'yardi. Qiz bitta narsani payqadi: u bu yerda shoh emas, shoirga aylangandi.

Boshqa xonalarda musiqashunoslar, shoirlar, baxshilar joy olgandi. Orqa hg'ovliga kirishganda, shohning ishorasi bilan ichma-ich xonalarning eshigi ochildi. Ular xonaga kirishganda, Oytekinning og'zi ochildi. Bezakli xonaning devorlari oyna va

billurdan edi. Qay tomonga o'girilsang, o'z aksingni ko'rasan. Ikkinchi xona bezakli bo'lsa—da, oddiygina ko'rinardi.

Tokcha va tovadonlarda kumush solinchakli ipak pardalar osilgan bu xonaning bosh tomonida taxt va kursilar, devor bo'ylab ipak va baxmal qoplamali ko'rpachalar, lo'labolishlar, bolishlar tizilgandi. Shoh shu yerda to'xtadi. Bir dam taxt oldidagi kursilardan birida o'tirdi.

—Bu xonalar ustod Oytekinga tegishli, — dedi u. — U endi shu yerda yashaydi. Dam oladi. O'z shogirdlariga hunarini o'rgatadi.

Oytekin oyoq ustida, qo'llarini ko'kragi ustiga qovushtirib, xizmatga shay turardi. Ularga hamkorhlik qilayotgan joriyalar nozik tabassum bilan yangi xonimni tomosha qilishardi. Bir qabilaning eng so'nggi vakilasi bo'lib qolgan Oytekinning saroydagi hayoti shu taxlimga boshlandi.

Shoh tez—tez davlat ishlaridan, baliq va arslon ovidan bo'sh paytlarida uni yo'qlab kelardi. Shogirdlari davrasidagi mashg'ulotlarini tomosha qilardi. So'nggi ikki yil davomida unga otalik qilgan keksa vazir ham, uning egizak qizlari Sabina va Zamina ham Oytekinni unutishmagan, ora—sirada uni izlab saroyga kelishardi. Zamina keyingi oylarda unashtirilgandi. Shu bois, uning yoniga ko'proq Sabina yolg'iz kelib turardi. Shunchaki bulutsizdek ko'ringan taqdir osmonida bir kuni kutilmaganda momoqaldiraq gumbirladi. Bu guldiros sokin suvlarni ham chayqaltirdi. Mening qalbimni ham...

## YANGI «PIYOLA»

... Ertalab joriyalardan biri unga shoh va malika Tojli xonim ishrat va she'r majlisini uning xonasida o'tkazishlari haqida xabar olib keldi. Saroyda she'r o'qish mahorati, qobiliyatiga ega bo'lgan bir qancha shogird ham bu majlisga da'vat etilgandi. Oytekin qizlar bilan bu galgi mashg'ulotlarni tezroq tugatdi. Joriyalar billur xonaga yanada kattaroq qo'shimcha qandillarni ilishdi. Xonaga Koshon, Tabriz va Shirvon gilamlari to'shaldi. Qalin ko'rpachalar, bolish va yostiqlar terib chiqildi. Xonalarda mushki anbar hidi anqir, yanada ko'proq shamlar o'rnatilgan qandillardan taralgan yorug'lik xonaning tarovatini yanada orttirgandi. Qisqasa hujra to'yxonaga aylandi. Shohning ishorasi bilan uning to'riga maxsus taxt keltirib qo'yildi. Xontaxtalar qo'yilib, turfa yemaklar, mevalar, ichimliklar, shirinliklar, chaq-chuqlarga to'ldirildi. Xorazm va Samarqanddan keltirilgan qovun—tarvuzlar tilimlanib, maxsus chinni idishlarga terildi.

Xufton namozidan biroz o'tib, saroy xonimlaridan Jahonxonim, Hayotxonim, Zamina va Sabina shoh bilan birga kirib kelishdi. She'r o'qishda va hozirjavoblikda saroy xonimlari orasida shuhrat qozongan joriya Fano ham ularning orasida edi. U Oytekin kelgan ilk kunlardanoq iste'dodli qizlarni saralashda ishtirok etgan, bugungi majlis uchun bir qancha raqqosalarning raqslarini tayyorlashda qatnashgandi. Ayni payt u ham boshqa qizlar qatori qo'l qovushtirganicha majlisni boshlash uchun shohning ishorasini kutishardi.

Shoh o'zi uchun ajratilgan taxtga kelib o'tirdi. Uning bir tarafida Jahonxonim, boshqa tarafidan Hayotxonimlar joy olishgandi. Sal beriroqda Oytekin egizak opa—singillar bilan yonma—yon turishardi. Shohning orqasida ikki qul tovu patlaridan yelpig'ich tutib turardi.

Qullarning bo'ynida ingichka, kumush zanjir, quloqlarida esa qullik tamg'asi bo'lgan haydariy sirg'alar taqilgandi. Shu payt yon eshik pardalari qimirladi. Bekdili qabilasining eng taniqli



oilalaridan sakkiz nafar qizning qurshovida Shohbonu Tojli xonim xonaga kirib keldi. U ham sher va musiqani sevardi. Tojli xonim shoh tomonga qarab ta'zim qilarkan, o'ng qo'lini chap ko'ksiga qo'ydi, yengil tabassum qildi va o'zi uchun ajratilgan joyga o'tirdi. Uning joriyalari ham o'ng va so'lidan joy olishdi.

Majlisning poygak tomonida o'tirgan sozandalar guruhi oldida, manqalda ko'mir cho'g'lanardi. Xonanda qiz Shamsiya baliq terisidan yasalgan nog'orasini o'tda qizdirardi. Shohning imosi bilan sozandalar chalishni boshlashdi. Zum o'tmay shamsiya shoir Xatoiyning g'azali bilan aytiladigan yangi qo'shig'ini boshladi.

*Oshiq uldurkim, so'zu jonu diliyla yor bir.*

*Birdurur oshiq azaldan sevgili dildor bir.*

Shamsiya kuylarkan. Oytekin uning nafis lablaridan to'kilgan so'zlarning ma'nosiga quloq tutar, zimdan bolishlarga suyangancha maishat qilayotgan shohni kuzatardi. «So'zi boshqayu ishi boshqa! Birgina yordan bahs etib, o'nlab joriyalar. malikalar qurshovida maishat qilish uchun odam qanchalik surbet bo'lishi kerak? Bu ham yetmagandek, yana sozandayu raqqosalarga ko'z suzishini—chi? Shoir tili bilan bashariy, azaliy, abadiy dunyo qadar kekxa va navqiron muhabbatdan, osmonlar singari yuksak sadoqatdan lof urasan! Aslida shoh o'laroq, guldin gulga qo'nadigan kapalakdan farqing yo'q! O'zingga ishonaymi, yoki so'zingga?»

Shamsiya kuylardi:

*Ahli ishqning ma'niyu zotu sifati birdurur.*

*Odama qil sajda zohid, qilmagil inkor bir.*

*Pir birdur, sirr bir, iqror bir, guftor bir.*

*Ikkilik sig'mas bu yo'lda, sirr ila sirdor bir.*

*Otashi ishqing tutashtirdi vujudim shahrini.*

*Boqamenki, hur birdir, nur birdir, nor bir.*

*Sad hazoron zulm etarsan, qaytmam, qaytarmanam.*

*Yuzimi, yo so'zimi, yo ko'zimi, g'amxor bir.*

*Jona minnatdor na kelsa, g'am yemam, shukr aylaram.*

*Jon berdim, boshni qo'ydim, o'lmisham hemor hir.  
Umr birdir, kun bu kundur, yetsa dam, soat demas,  
Boqiy o'lmas jon bu tanda, fonidur advor bir.*

Sozandalar kuyni avjiga chiqarganda, Shamsiya ham nog'orasini baland ko'tarib, gursillatar chog'ida ro'paradagi eshik ochildi. Oytekinning zarrin kiyimli raqqosa shogirdlari raqsni boshlashdi. Shoh esa, musiqa ohanglari mastona chayqalgancha goh raqqosalarning raqsiga mahliyo bo'lar, goh Jahon, goh Hayotxonimning qo'ldan olgan muattar sharoblarni no'sh etardi. Uning bu odatini hatto Tojli xonim ham bilardi. Ayni onda u faqat va faqat shoir edi. She'r o'qishni istardi. Musiqa sekinlashib borardi, keyin u hazin bir navoga aylandi. Raqqosalar yerga cho'kib, alvon gilamlarni ustiga chodirdek yoyildilar. Keyin kapalaklar misoli qo'llari bilan qanot qoqishdi. Xonimlardan biri hukmdorgsha yuzlandi:

–Qiblai olam, siz ham, majlisimizda ishtirok etayotgan sanamlar ham shoir. Ammo negadir she'r tinglamayapmiz. Mushoirani qachon boshlaymiz?

Taklifni hamma qo'llab-quvvatladi.

–Chindam ham she'r tinglaylik!

She'rxonlikni shohning o'zi boshladi. U qo'lidagi kumush piyolaga bir muddat tikilib turdi va she'r o'qidi:

*Nishastaam ha miyoni du dilbaru du dilam,  
Ki mayli dil ba ki bandam, dar in miyon xijilam<sup>1</sup>.*

Shohning she'riga o'zining tezkorligi va zukkoligi bilan tanilgan Jahon xonim javob qaytardi:

*Tu podshohi jahoni, jahon zi dast madeh,  
Ki podshohi jahonro Jahon ha kor oyad<sup>2</sup>  
Shoh uning topqirligiga tan berdi:*

---

<sup>1</sup> Ikki dil bar va ikki dil o'rtasidaman, bu o'rtada dilni qay biriga bog'lolmay xijolatdaman (fors)

<sup>2</sup> Sen Jahon podshohisan, jahonni qo'ldan berma, chunki jahon podshohiga Jahon albatta kerak bo'ladi (fors)

O'farin, Jahon, chindan ham jahon podshohi Jahonni qo'ldan bermasligi lozim.

Bu so'zlar bilan o'ng qo'l harakati bilan Jahon xonimning yelkasini siladi.

Hayot xonimning ko'zlari rashkdan yonardi. Raqibasi Jahonning g'alabasi uning yuragidagi hasad o'tini quvvat oldirdi. Sharbat to'la piyolani qo'lga olarkan, g'amza bilani she'r o'qishga kirishdi:

*Tarki Jahon bikun, hazzi Hayot barxuri.*

*Agar Hayot naboshad, Jahon chi kor oyad?*<sup>1</sup>

Shoh ham, majlis ahli ham baravar qahqaha otishdi. Raqiblar mahorat bilan so'z o'yini qilishardi. Shoh kulib. Hayot xonimning yelkasini qoqdi:

–Barakalla! Ikkingizga ham qoyil. Qani, Fano xonim nima derkin?

Xuddi shu onda shisha ko'zalardan may suzib yurgan xipchabel Fano shohning qarshisida tiz cho'kdi. Har ikki qo'lida turgan piyolalarga tikilgancha she'r o'qidi:

*Hayotu jahon don, chun behaqost,*

*Fanoro talab kun, ki oxir fanost.*<sup>2</sup>

Majlisda gurr qahqaha ko'tarildi. Hammadan ko'p kulgan Fanoga alohida muhabbat qo'ygan Tojli xonim edi. Shoh ham kuldi. Lekin bu kulgida ham qandaydir shumlik bor edi. Go'yo hayotning bema'niligidan so'z ochgan kaniz uning qalbiga aks ta'sir o'tkazgan, sho'irni, tariqat rahbarini, adolatli hukmdorni emas, faqat bosqinchi fotihni uyg'otgandi. Yarim sarmat boshini mag'rur ko'tarib, qarshisidagi Fanodan, undan narida chodir tutib turganlar oldida raqs tushayotgan qizlardan, qo'llaridan cholg'ularini ingratayotgan ham o'tib, devorga ko'z tikdi. Uning

---

<sup>1</sup> Jahonni tark et, shunda hayot lazzatini totasan, hayot bo'lmasa, Jahonning nima keragi bor? (fors)

<sup>2</sup> Hayot ham, jahon ham boqiy emas, sen Fano (yo'qlik)ni talab qil. Chunki hamma narsaning oxiri Fanodir. (fors)

nazarida hozir bu devor yorilib, jang maydoniga ko'z oldida namoyon bo'ladigandek edi.

Mana qarshisida darvish deya haqoratlab, o'zini payg'ambar nasli deb hisoblagan Shayboniyxon turibdi. U o'zining oxirgi maktubida «menga munosib hadyalar va peshkashlar tayyorlashing lozim. Zarbxonangda bizning muborak nomimizga tanga zarb qildirasan. Masjidlaringda nomimizga xutba o'qitasan. O'zing ulug' taxtimiz poyiga emaklab kelasan» deb yozgandi. Holbuki, uning Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy bilan do'stona munosabatlari haqida hamma eshitgandi. Hali o'zbek hukmdorlaridan hech biri uni bu qadar haqorat qilmagandi. U esa...

Podshoh qo'shinni olib, Marvga yo'l oldi. Sakkiz kun qal'ani qamal qildi. O'zbeklar qahramonlarcha jang qilishdi. Shoh ularning mardliligiga ich-ichidan tahsin aytdi. Nihoyat g'alaba qozonish uchun hiyla ishlatishga to'g'ri keldi.

«Toki Shayboniyxon qal'ada ekan, o'zbeklar o'z hukmdorlarini ko'z qorachig'idek himoya qilishadi» deya 916 yil Sha'bon oyining 28 kuni<sup>1</sup> go'yoki Marvni tark etdi. Uch yig'och masofaga chekindi. Mahmud degan qishloqdan qo'nim topdi. Amirbey turkman biror yangilik bilrsa yetkazish uchun orqaroqda qoldi. Aslida u Shayboniyxonni poylardi. O'zbek sarkardalari mahkam va qudratli Marv qal'asini darhol tark etishga qarshi chiqishdi. Ular Shayboniyxonning o'g'illari Ubaydulla va Temur Sultonning yetib kelishini kutish haqida maslahat berishdi. Ammo Shayboniyxonning ayoli Mo'g'ulxonim ularning maslahatini rad etdi. «Siz har doim Shoh Ismoilga maktub bitib, uni xon nomidan jangga chorlab keldingiz!. Mana, qo'shin to'plab, Marvgacha yetib keldi. Siz esa, yuragingizn yorilib, qal'adan tashqariga chiqa olmayapsiz. Qani, chiqib, urishmaysizlarmi mard bo'lsangiz?»

Sevimli ayolining ta'nalari Shayboniyxonning ham g'ururiga tegdi. Sarkardalarning maslahatiga quloq osmay, qal'adan chiqishni va shoh qo'shinlarini ta'qib etishni buyurdi.

---

<sup>1</sup> Milodiy 1510 yil 10 mart.

Ikki qo'shin yuzma–yuz keldi. Amir Najmi Soniy. Devsulton, Jayon Sulton. Lala Husaynbey. Abdolbey, Zeynalbey Shomlu. Badimjon sulton Rumlu singari sarkadalar o'ng va chap qanotda, shohning o'zi markazda jang maydoniga chiqdi. Jang shiddatli tus oldi, kechgacha davom etdi. Shoh jangga yangi g'oziyilarni kiritarkan. ular «yo Alloh» deya o'zlarini dushman ustiga otardilar. Kechga yaqin Shayboniyxonning qo'shini mag'lub bo'ldi. Mayitlar orasidan uning jasadini topishdi. Amir Devsulton uning boshini kesib, shohning oyoqlari ostiga tashladi. Bosh terisiga somon tiqib, uni Rum sultoni Salimga yubortirdi. Bosh suyagiga oltin qoplab, undan maxsus kosa yasashdi. Shoh bir necha bor majlisda shu kosadan quyilgan mayni sipqorib, g'alaba gashtini surdi.

Hozir yana qonli jang nafasini his qilgan hukmdor o'sha kosani keltirishni buyurdi. U Fano uzatgan qadahni rad etib, unga g'azab ila xitob qildi:

–Hozir sen Fano deb atagan dunyoning aslida foni y emasligini men senga ko'rsataman!

Fano aybdorona bosh egib, tashqari chiqdi. Birozdan so'ng o'sha oltin kosani olib kirdi. Ko'zadan qirmizi may quyib, shohga uzatdi va uning qarshisida tiz cho'kdi:

–Hukmdorimning qilichlari har doim keskir, qadamlari shaxdam bo'lsin!

Shundan so'ng kaniz Muhammad Fuzuliyning shohga atab bitgan «Bangu boda» dostonidan parcha o'qidi:

*Soqiyo, subhdandir, ayla shitob,  
Davra kelsun, chu mehr sham'i sharob,  
Jamu may sunki, to dalerona,  
Ul safobaxshi jomi Jamki, mudom,  
Ulki, boshlar zamonda hazmi farah,  
Podshohlar boshinda aylar ayoq.*

Va qiz bu so'zlar bilan kosani shohga taqdim etdi. Hukmdor oltin qoplangan kosani qo'liga oldi. Uni aylantirib, mastona tomosha qilishga tushdi. Lablarida yengil tabassum uyg'ondi.

Oytekini bu kosa haqida eshitgandi. Ammo uni hali ko'rmagandi. Yuragida bir isyen turdi. Aslida u keyingi paytlarda ajib hollarni boshidan kechirardi. Bu hatto nom-nishonsiz ketgan yosh darvishning shohga nisbatan tuyg'ularidan ham farqlanardi. Bu ajib bir olam edi. U Ismoilning ishqqa yo'g'rilgan har bir misrasini, har g'azalini, xususan «Donishnoma»sini o'qirkan, qalbidan noaniq bir hislar uyg'onardi. Bu tuyg'ular san'atni anglaguvchi xushbichim va navqiron yigitga atalgan muhabbat tufaylimi, yoki uni bir shoirning ijodiga jalb qilguvchi ilohiy bir ishqmikin?

Qiz ana shu tuyg'ularning asiri edi. Uning nazarida sekin-asta saroyga yetaklagan intiqom tuyg'usi ham borgan sari so'nib borardi. Axir u ikki yil vazirning uyida tamoman ozod yashagandi. Istagan joyga chiqib ketishi mumkin edi. Ammo shu yillar davomida uni faqat qasos hissi bu olam bilan bog'lab turardi. Holbuki hozir Ismoilning g'azallari muhabbat maqomiga aylangan, uning qalbida yangi-yangi hislar, maqomlar dunyoga kelardi.

Bu qarama-qarshi hislar sal bo'lmasa, Oytekinni mag'lub etayozdi. Shoir va she'r uni yenga boshlagandi. Ammo, hozir qo'lida bosh chanog'idan yasalgan oltin kosani olarkan, o'zini unutdi.

Majlisga shivir-shivir oraladi. Oytekini Fanoning qo'lidagi bosh chanog'ini ko'rishi bilan hammasini angladi. U eshitgan bo'lsa-da, ishonmasdi. Bu shohning yangi kosasi edi. Bu kosa uning akasining bosh suyagidan yasalgandir balki?

Shu onda badanidagi barcha hujayralar tug'yon qildi. Tomirlaridagi har tomchi qon bir qabiladoshining qoni o'laroq jo'shdi. Kosa majlisdan qo'ldan-qo'lga o'tarkan, to'lib-bo'sharkan, qizning ko'zlariga qon to'ldi.

«Yo'q, bu shoir qalbi emas. Shoirning qalbi behuda qon to'kilishiga, inson bosh chanog'idan kosa yasalishiga yo'l bermagan bo'lurdi. Men uni ko'rishim kerak!»

Shunday deya u o'rnidan sakrab turdi. Majlisning o'rtasiga otilib chiqdi. Xuddi raqs tushayotgandek qo'lini kamariga yuborib, akasining kichkina xanjarini oldi va taxt ustida yostiqa suyangancha, mudray boshlagan shohning ustiga otildi. Ammo, zarba berishga ulgurmad. Kuchli bir qo'l uning bilagiga mahkam yopishdi. Bu arslon ovlashga o'rgangan shohning qo'li edi. U barcha ovchilar singari xavf yuz berishini oldindan seza olardi. U yo'lbarsning yengil, nozik hamlasiga ko'p bor duch kelgan. Xanjar bir tarafga, qiz boshqa tomonga borib tushdi. Majlisdagi ayollar qichqirib yuborishdi. Faqat Sabina o'zini yo'qotmadi va jur'at ila muallimasi tomon yurdi. Uning yarim xushsiz tanasini quchoqlab, hozirgina o'tirgan shohning taxti tomon sudradi.

\*\*\*

Sabina oynali xonaga kirganida, bu hujra suvi to'xtagan tegirmonni eslatardi. Bir necha kun avvalgi ishrat majlisidan asar ham qolmagandi. Yarim qorong'i xonada ko'zga chalinadigan xatarli ko'lankalar Sabinaning oynadagi aksi edi. Begona odam kirganida, bu tasvirlarni ko'rib, qotib qolardi. U dugonasining yotog'i eshigiga yaqinlashdi. Yarim ochiq eshikdan otasi va saroy bosh hakimi Taborak hojining suhbatini eshitilardi:

U otasining ovozi aniq tanidi:

–Haq gap! Men ham e'tibor qildim. Qizning ko'zlarida telbavor junun emas, nafrat va g'azab joy olgandi.

–To'g'ri, – dedi hakimboshi. Ammo yana bir gap bor. Hali qiz o'ziga kelgunicha, shoh ham bu haqiqatni anglaydi. O'zi ko'ngil qo'ygan kanizakka nisbatan kuchli g'azab hissini tuyadi. Sababini bilmoqchi bo'ladi. Kim? Nima uchun? Qizni hali savol-so'roq qilishadi. Qiynoqlarga dosh berolmasa kerak sho'rlik.

Sabina suhbatni oxirigacha eshitilmadi. G'ayriixtiyoriy tarzda maxfiy bir suhbatni eshitib qolganini otasi bilib qolishini istamasdi. Saroy hayotini yaxshi tushungan qiz tezda qaytdi, oynali xonani tark etib, o'z uyiga kirdi. Yarim soat ichida kiyimini almashtirib, otasining saroy tomon ketganini ko'rdi.

Sabina Oytekinning yoniga kirganida, karavoti oldiga surilgan harir to'rparda ortida qizning shiftga tikilib yotganini ko'rdi.

Kanizlardan hech biri ko'rinmas, aftidan hakimboshi ham qaysidir topshiriq izidan ketgandi. Sabina havodek shaffof pardani ko'tarib, Oytekinning yoniga kirdi. Dugonasining qo'lini ohista ushlab, uni silay boshladi. Lekin Oytekin qilt emasdi. Kipriklari ham harakatsiz qotgandi. Sabina sekin so'z boshladi:

–Menga ishonmasligingiz mumkin, animo bu kecha qanday bo'lmasin, saroyni tark etishingiz kerak.

Bu so'zlar bilan qiz o'rnidan turdi. Ustki kiyimlarini yechdi. Faqat shu paytda uni zimdan e'tiborsiz kuzatib o'tirgan Oytekin qizning qo'lida ovchilarning kiyimi borligini ko'rdi. Lablari titradi. Ammo yig'olmadi. Ko'zyoshlari so'nggi qabiladoshining qoni bilan birga oqib tugagandi. Sabina esa, joriyalar kelib qolishidan qo'rqib, olib kelgan kiyimini Oytekin yotgan karavot ostiga berkitdi.

–Xavotir olmang! – dedi Sabina. – Shoh bu oqshom saroyda bo'lmaydi. Aytishlaricha Achijaga haliq oviga ketganmish. Ertaga kechqurun qaytisharmish. Bu oqshom eshik og'alariga ham bir ko'za kuchli sharob yuboraman. Ular ertaga peshin namozida uyg'onishsa ham katta gap. Siz saroyni tark etib, bizning hovlimiz tarafga yurasiz. Mening bir navkarim ot bilan yo'lingizda turadi. U katta tog'amning o'g'li. Sizni o'z qishloqlariga olib borib yashiradi. Biroz vaqt tog'amnikida qolasiz. Qolganiga xudo poshsho.

Sabina qo'lining qattiq siqilganini payqab, dugonasining yuzimga egildi. Oytekinning so'lg'in yonoqlaridan o'pib, ko'z yoshlarini tiyolmasdan pichirladi.

–Safaringiz bexatar bo'lsin, ustod, – Sabina xalqning darbadar qiziga ana shunday duo berdi.



## HUKMDORNING SHOIR QALBI. SALIM

Sulton kayfiyatsiz uyg'ondi. Bir necha kundirki, unga Tabrizdan yangi podshohning maktubini olib kelgan elchining kelgani haqida xabar keltirishgan edi. Uning negadir bu uchrashuvga xohishi yo'q edi. Aslida sababini bilardi. Shohning bu maktubi uni jangga chorlashini ham bilardi. Sulton avvalgi maktublarga javobida urushni orqaga surgandi.

Hali vaqtli edi. Hokimiyatni qo'lga olganidan beri bir-ikki yil o'tdi. Hozir urish boshlagisi ham yo'q. Sulton shoh bilan hisob-kitobni noma'lum vaqtgacha cho'zish. Yevropada nasroniylar bilan o'rtadagi sarhadni va Vizantiya bilan aloqalarni mustahkamlash, Farangistondan olgan to'plarni tezroq keltirib o'rnatish orzusida edi. Shundan keyingina qo'shinni to'plab, shohga qarshi yurishga o'tlanishi mumkin edi.

Bir qancha kichkina mamlakatlarni qo'lga kiritgan yosh podshoh esa, bu g'alabalardan sarmast edi. Muzaffariyat uning ko'zlarini qonli parda bilan to'sgan, u qanday bo'lmasin, Sulton Salim bilan jang maydonida to'qnashish istagida yonardi.

Sulton Salim esa, vaziyatni chuqur mulohaza qilib, shohning avvalgi xatlariga «biz bir millat, bir din vakillarimiz, bu kurash bizga foyda keltirmaydi» degan ma'noda javob bergandi.

«Biz sen bilan salkam qarindoshmiz. Begona dushmani qo'yib, dinimiz dushmanlaridan yuz burib, bir-birimiz bilan qirpichoq bo'lishimiz aqldan emas» deyilgandi sultonning maktubida.

Podshoh esa, Farrux Yasorni Shirvonda, Shayboniyxonni Marvda, Alvand Mirzoni Sharurda, Sulton Murod va Eslamish beyni Hamadonda yenggach, bosar-tusarini bilmay qolgan, dunyoning yengilmas sarkadasi deb bilardi o'zini. Uning bosh sarkadasi Muhammad Ustajli ham kibru havodan shohidan oshib tushardi. U Diyorbakirni olib, Zulqadarning qo'shinlarini mag'lub etgan, Sulton Qansuning 300 mamlukini yer tishlatgandi.

Ammo podshoh ham, uning sarlashkari ham ikki—uch yuz askarni yer tishlatib, dunyoni zabt etib bo'lmashligini bilishmasdi. Sulton esa, hozirning o'zida 200 ming yanichar bilan shohga qarshi yura olardi.

«Mening qo'limdagi farang to'plaridan xabari yo'qqa o'xshaydi. Mayli, bu gal ham elchisini qabul qilay. Imkon qadar izzatini joyiga qo'yib, o'g'it—nasihatlar qilay. Ammo bu jang muqarrarga o'xshayapti. Chunki yosh podshohning atrofida Ustajli Muhammadga o'xshagan yana ikkita jangchi bo'lsa, dunyoni o't qo'yishi ham tayin!»...

Sulton Salim o'ziga tolga paytida barvasta habash xizmatkori uning rasmiy qabullarda kiyadigan libosini qo'lida tutib turardi. Bu arab xalifalariga taqlidan rasmiy uchrashuvlarda kiyiladigan qora salla va chakmondan iborat edi.

Nadimi Qarinjao'g'lining ko'magida sulton kiyimlarini almashtirdi va yon xonaga o'tdi. Bu yerda uni bezatilgan nonushta dasturxonini kutardi. Dasturxonda turli noz—ne'matlar uyib tashlangandi. Ammo negadir sultonning ishtahasi yo'q edi. Qoramag'iz kanizi Royiha unga tutqazgan xushbo'y Suriya olmasidan bir tishlab, ovqatlanishga mayli yo'qligini angladi. Yaman aqiqidan yasalgan piyoladagi limon sharbatidan ho'pladiyu o'rnidan turdi.

Saroydagi elchilar qabul uchun belgilangan xonasiga o'tdi. Bosh vazir va qolgan amaldorlar o'z rutbasiga qarab, saf tortishgandi. Sulton taxtga o'tirarkan, yengil bosh harakati bilan salomlashdi. Saroy ahli guvillab, sultonga hamdu sano yog'dirishdi.

Shohning orqasida ikki nafar norg'ul habash askar qilich yalang'ochlab turardi. Sulton salobat bilan bosh vazirga yuzlandi:

—Vazir janoblari, elchilar shu yerdami?

Bosh vazir unga ta'zim qildi:

—Tayyor, sultonim!

—Chaqir, kelishsin.

Bosh vazirning ishorasi bilan nadim Qarinchao'g'li eshikni ochib, podshohning elchilarini boshlab kirdi. Ikki nafar elchi boshiga qizil uchli, atrofiga yashil jiyak to'qilgan papoq kiyib olishgandi. Ular g'urur bilan oldinga chiqib, bosh egmas, salom bermasdan shohning taxtiga yaqinlashishdi. Elchilar odatiga xos ravishda ma'lum masofada to'xtashdi. Ularning biri qo'lida tug'ro, ikkinchisi esa, quticha tutib turishardi.

Sulton imo bilan Qarinjao'g'lini chaqirdi. Nadim elchining qo'lidan tug'roni olib, taxt poyida cho'kkaladi va nomani shohga taqdim etdi. Sulton muhrni sindirib, naycha qilib o'ralgan qog'ozni tekisladi. Maktubga ko'z tashlarkan, daf'atan yuzlarida g'azab o'ynadi.

—Elchilarni kutish xonasiga olib boring! —deya amr qildi.

Nadim elchilarni olib chiqmoqchi bo'lganida, hozirgina tug'roni unga bergan qizilbosh ijizat ham so'ramay, sultonning ko'zlariga tik qarab, so'shz boshladi.

—Sarkardamiz Ustajli Muhammadbey qo'shimcha qilib, shuni aytib yubordilarki. Yer yuzining yagona hukmdori shahanshohi a'zam sulton ibni sulton shoh Ismoil ibn sulton Haydar tezda javob qaytarilishini kutmoqda.

Sulton indamadi. Majlis ahli ham so'zsiz qolishgandi. Nadim bu qo'rslik uchun elchiga nisbatan chora ko'rilishini kutib, hatto shu onning o'zida uning kallasini uzishga shay turardi. Ammo sulton ikkinchi elchiga imo qilgach, uning qo'lidagi qutichani olib, taxtning poyiga qo'ydi.

Keyin elchilarni turtib, saroydan olib chiqmoqchi bo'lganida, sulton tantanavor buyurdi.

—Elchilarning har tola sochi uchun javob berasan, nadim!

Elchilar Qarinjao'g'lining nazorati ostida saroyni tark etishdi. Hamma jim turardi.

Bosh vazir sultonning sabri va bosiqligiga tahsin o'qidi.

—Jahl kelganda, aql qochar, deyдилar, sultonim! Yaratganga shukurlar bo'lsinki, sultonimiz donishmandlik qildilar. Arablar aytganidek «az-zayfa akramu va lav kafirun», ya'ni mehmon

hatto kofir bo'lsa—da, azizdur, Elchi ham aslida mehmon hukmidadir.

Vazirning so'zlarin o'ta sovuqqonlik bilan tinglagan sulton, yana qo'lidagi nomaga ko'z tikdi. Bir qarashdanoq maktubning mazmunidan voqif bo'lgandi. U ayni damda sovuq g'azab bilan qutining ochilishini kutardi. Qarinjao'g'li ortga qaytib kelishi bilan «och» degandek oyog'i ostiga turgan qutiga imo qildi.

Nadim qutini ocharkan, tili lol bo'lib qoldi. Uning ichida bitta ro'mol, bir juft oshiq va bir nechta ayollar ko'ylagi taxlangandi. Majlisga yana o'lik sukunat cho'kdi. Sulton Salim boshqa o'zini tutib turolmadi. Shart o'rnidan turdi. A'yonlar ham unga taqlidan tik turishdi. Ammo sulton yana joyiga qaytib o'tirishi bilan ahli majlis yana uning harakatini takrorladi.

—Vazir, mening qanchalik tamkinli, vazmin inson ekanimni hamma biladi. — dedi sulton g'azabinit arang bosib. Shu paytgacha urushga hozirlik ko'rmadim. Turli bahonalar bilan bu baloni o'zimizdan ham, anavi takabbur tentaklar va ularning badbaxt podshosining boshidan ham nari quvishga urinib keldim. Barcha haqoratomuz xatlariga odob bilan javob berdim. Uni ham aql bilan ish tutishga da'vat etdim. Tushunmadi. Bu maktub shaxsan Shoh Ismoil tomonidan yozilmagan bo'lsa—da, uning irodasini bildirib turibdi. Andishaning otini qo'rqqoq qo'yishibdi. Maktubida ham bu shohning haromzoda lashkarboshisi «agar jang maydoniga chiqmasang, mana shu ro'molni boshingga o'rab, xotinlar ko'ylagini kiyib, manavi oshiq'larni o'ynab yur» debdi. Kim bo'пти bu bu Ustajli Muhammad? Biz bu yaramasga hali ko'rsatib qo'yamiz. Darhol urushga tayyor ekanimiz haqida maktub yoz. Bugunoq elchilaridan maktubni jo'nat. Ammo, ularga biror bir zahmat yetmasin.

Majlisdagilar lom—mim demadilar. Ayni onda so'z aytmoqning imkoni ham yo'q edi. Sulton o'rnidan turdi. Hech kim bilan so'zlashmay, xilvatxonasiga o'tdi. Nadimi sultonga ergashdi. Ammo sulton unga qayrilib ham qaramadi. O'ychan holda zarhal yostiqchalar tizilgan taxtiga o'tirgancha, bir nechta

kun ilgari Tabrizdan qaytib kelgan do'stini esga oldi. Arg'unbey sultonning eng ishonchli kishilaridan edi. U hoji Sayyoh nomi bilan dunyo kezar, har zamonda qimmat mollar savdosiga bosh qo'shar. Eron va Rumda, Shirvonda eng boy tojir, mashhur sayohatchi sifatida dong taratgandli. Uni Tabrizda ham yaxshi tanishlar, davralarda izzat qilishardi. Shu bilan birga u sulton uchun eng qimmatli ma'lumotlarni olib kelardi. Oxirgi safaridan Arg'unbey Tabriz saroyida g'alaba sharafiga uyushtirilgan ziyofatda qatnashgandi. Quvvai hofiza va notiqlikda tengi yo'q Arg'unbey ziyofatni shu qadar aniq ta'riflab bergandiki, sulton o'sha majlisda o'zi qatnashgandek bo'lgandi. Hozir ham sulton o'sha suhbatni ko'z oldiga keltirdi.

Mana o'sha ziyofat. Sarmast sarkardalar ketma-ket qadah bo'shatib, jangdagi qahramonliklarini aytib, maqtanishardi.

–Kelishyapti, deyishlari bilan otga mindik. Kamonchi, qilichboz, nayzachilar bir-biriga aralashib ketdi...

–Shashpar gurzim bilan kallasini olib bir soldim...

–... Bu sarkardaning oldida hatto podshohlar ham bosh egadilar. Ustajli Muhammad deyishadi. Maydonga tushsa bormi...

–Mard yigit yarasidan bilinar, deydilar. Yoqasini ochib qaradim.

–Otining taqasidan naq olov chaqnaydi...

–Ha... Ustajli ro'mol yopinadiganlar toifasidan emas. Ayollarning etagiga kirib bekinmaydi. Mard maydonda sinaladi.

–Aytganidan qaytmaydi. Diyorbakirni nima qildi? Podshohimiz ham va'da qilgandilar...

–Xurjuni to'la qonli kallalarni olib, shohimizning oyog'i ostiga tashladi. Keyin qilichini ikki qo'llab hukmdorga tutqazdi.

–Otiga po'latdan mix, kumushdan taqa yasatgan...

Ustajli nomi tilga olinganda, ayniqsa, «ro'mol o'raydiganlar toifasidan emas» so'zlari esiga tushib, sultonning vujudi titradi. Boyagi quti ko'z oldida jolandi. G'azab bilan lablarini tishladi. Arg'unbey tilga olgan boshqa suhbatlar ham esiga tushdi.

«Men bu Ismoilni anglashim, tushunishim kerak, deya g'ijindi sulton.

... Lala Husaynbey shohning o'ng tominidan o'tirgancha, karillardir:

–Hukmdorim, g'alaba juda shirin narsa. Dunyoda shuhratdan yoqimli narsa yo'q. Odamlar ko'cha–kuyda yurganingda «falonchi sarkarda–ku» deya qo'l bilan ko'rsatishsa, bundan totli nima bo'lishi mumkin? Afsuski, bu shuhrat mening peshonamga ancha kech bitildi. Men bu baxtni jannatmakon otangizning zamonlaridan beri kutardim. Oxiri kutishdan charchab ham ketdim. Siz esa... podshohim, sizga shuhrat juda erta keldi. To'g'ri sizning ham boshingizdan og'ir kunlar o'tdi. Tutqunlikni ham, quvg'inni ham nima ekanini bilasiz. Ammo ular bolalik xotiralari singari tez unutilib ketdi. O'rnida jangovar va yengilmas hukmdor shuhrati qoldi. Bu shuhrat kelganida siz o'n to'rtta edingiz. Ammo, bu shuhrat sizga osonlik bilan kelmadi. hukmdorim...

–Ammo zanbilni esimdan chiqarganim yo'q. Yetti yoshimda bo'lsam ham, o'sha zanbilda yotgan paytlarimni hamon hayajon va qo'rquv bilan eslayman...

Shu payt sarmast sarkadalardan biri hukmdor qarshisida tiz cho'kdi.

–Qiblai olam, Muhammaddek bir sarkadani yetishtirgan Ustajli qabilasi uchun qadah ko'tarsak...

Podshohni ilon chaqqandek bo'ldi. Mastligi ham bir zumda tarqadi. Taxt ustida tik turdi va hayjirdi:

–Bas! . Qachongacha tushunmaysizlar? Ustajli, Shomlu, Takali, balo–battar... Men uchun ularning hammasi bir. Bitta xalq. Men dini, aqidasi, mazhabi turli xil bo'lgan xalqni bir bayroq ostida birlashtirib, bitta davlat tuzdim. Bularning tepasida mening birodarlarim, maslakdoshlarim, hamfikir do'stlarim turishibdi. Siz esa, odamlarni hamon qabila–qabilaga ajratasiz. Men falon qavmdanman, sen piston joydansen deb ayirmachilik qilasiz. Mahalliychilik barchangizni parchalab tashlaydi. Bu illat bor

ekan. yagona xalq bo'lib shakllana olmaymiz. Birlik bo'lmagan joyda g'alaba ham bo'lmaydi. Faqat birlik! Onalarga ayting. bolalarini yagona Vatan uchun askar, fidoyi o'g'lon qilib tarbiyalasinlar! Beshikning orqa tomonini begona joy deb bilmasinlar. «Dushmanga ters qarasang, Vatanga xoin bo'lsang, senga bergan oq sutim harom» desinlar. Aks holda Vatan bo'lmas!

Sulton bu so'zlarni Arg'unbeydan emas, naq shohning og'zidan eshitgandek edi.

«Yo'q, agar burniga solmasam, ishtahasi ortib boraveradi. Uzoqqa boradi. Yana bir qancha g'alabadan so'ng osmondan tushmaydi!»

Arg'unbeyning aytishicha, g'alaba majlisi antiq yakun topgandi. Yosh, jangovar so'fiylardan biri oldinga chiqib, g'alati savol berdi:

–Shialik—chi? U xalqni ikkiga bo'lmadimi? Qo'rqmaysizmi, hukmdorim? Kelgusida bitta makonda yashab, bitta tilda so'zlagan xalqingizning yarmi shia, yarmi sunniyga bo'linib, qirpichoq bo'lsa, nima qilasiz?

Shoh yosh so'fiyning jur'atiga qoyil qolgan va javob qergan:

–Aksincha, men xalqni birlashtirdim. Qilichimni kuchi bilan sunniyni ham, shiani birlashtirdim.

–Xalq qilich kuchi bilan birlashmaydi, olampanoh! She'r kuchi bilan ajralgan xalqni yana she'r ila birlashtirmoq mumkin edi. Sizning shialarni maqtab bitgan she'rlaringiz odamlar orasiga nifoq soladi. Siz bu she'rlarni o'z bayrog'ingiz ostida to'plash uchun bitgansiz, birlik uchun emas!

Arg'unbey so'zining davomida sultonga dedi:

–Shoh so'fiyning gaplaridan zarracha g'azablanmadi. «Adashyapsan, men Vatan tuproqlarini birlashtirdim. Kelgusida hamma yagona aqidaga amal qilsa, qolgan narsalar unutiladi. O'sha kunlarda shoirlar faqat Vatan haqida she'rlar bitishadi.

Yosh shoir e'tiroz alomati o'laroq, bosh chayqadi:

–Yo‘q, esdan chiqmaydi. Bu nifoq hali ko‘p dahshatlarga sabab bo‘ladi. Vaqti kelib, sizni la‘natlashlari mumkinligidan qo‘rqing, shahanshoh!

Bir qancha yigitlar yosh so‘fiyning ustiga tashlanishdi. Boyadan beri hamma, hatto eng sarxush odamlarni ham kayfini uchirgan holda, hukmdor bilan aytishishga jur‘at etolgan bu yigitga achinishar, uni hoziroq o‘limga hukm qilinishi, kamida zindonga tashlanishini kutishardi.

... Shu yerda Arg‘unbey shunday izoh ham berib ketgandi:

–Ochig‘ini aytsam, sultonim, o‘zim ham shu yigitchaga achinib ketdim. Yigitlar uning qo‘lini qayirmoqchi bo‘lib turganda, shoh qo‘lini ko‘tardi. Hamma uning hukmini kutardi. U baland ovozda dedi:

–Unga tegmanglar, u dushman emas. Sofdil yigit. Nimani o‘ylasa shuni gapiradi. Dilida borini tiliga chiqaradi. Xalqimizning taqdiriga kuyunib shu gaplarni aytyapti. Qaniydi hamma shu yigitdek o‘ylaganida.

Yigitlar shashtidan qaytdi. Yosh darvish indamay. Boshini egib, majlisni tark etdi.

Sulton esa, hamon o‘yga tolgandi:

«Ismoilning ziddiyatlarga to‘la she‘rlaridan, maktublaridan hech narsani tushunmayman. Tushunganim shuki, u ham Uzun Hasan singari «Faqat menman, boshqa hech kim» deyishni xush ko‘rar, dunyoni zabt etishni istarkan.



## MALIKUSH-SHUARO

Majlis tor doirasida o'tardi. Faqat she'rga qiziqqanlar chaqirilgan edi. Jangchi, sarkardalarning birortasi kirmagandi. Ular hozir urfga kirgan farangi to'plarni o'z ko'zi bilan ko'rgan savdogar, sayyoh va darvishlarni to'plab, ularning hikoyalarin tinglash bilan tand edilar.

Hozircha taklif etilganlarning majlisida allaqachon «Iskandarshon» deya ta'riflanadigan Shoh Ismoil Xatoiy saroyning malikush-shuarosi bilan yuzma-yuz o'tirardi. She'r majlislarida Xatoiy faqatgina shoirga aylanar, butun g'avg'olar, jang-jadallar, g'alabayu mag'lubiyatlarni unutar, qalbidagi to'rt shaxsdan bittasi qolardi. Ana shu to'rt shaxsning biri mard, yengilmas, qo'rqmas, har doim olg'a borishni yoqtiradigan, sarkarda, ikkinchisi ko'plab insonlarning boshini tanidan judo etishga farmon bergan qasoskor, taxtu toj oshig'i bo'lgan podshoh, uchinchisi dunyo hoyu havaslariga etak silkigan tariqat rahnamosi, to'rtinchisi esa, nafis, rubobiy she'rlar muallifi. Shoir Xatoiy edi.

Bugungi majlisda ana shu to'rt boshli, to'rt qalbli insonning faqat bir qismi nozikta'b shoir siymosigina hozir edi. Bunday paytda Xatoiyning yuzlari yanada tiniqlashib, nuroniy qiyofa kash etar, bunday knlarda «shohu gado» munosabatlariga yo'l berilmasdi. Shuningdek, biror ko'ngilsizlikka yo'l qo'ymas, she'r majlislarida erkin bir muhit yarata olardi. Bugungi majlisda yangi nom tilga olinishi kerak. Xatoiy avval bu ikki shoirning she'rlarini eshitgan, bayozlarda o'qigandi. Ammo bugungi majlis to'la-to'kis ikki shaxs Muhammad Fuzuliy va Miskin Abdolga bag'ishlangan edi.

Qo'shni xonada dasturxon yozilgandi. Sal o'tib, boshqa mehmonlar bilan birga g'ozu bo'lishiga qaramasdan she'rga mehr qo'ygan mavlono Oxund Ahmad Ardabily kelishi lozim. Bu o'sha, hijriy 919 yilda<sup>1</sup> yosh hukmdor va Obdinbey bekdilining

---

<sup>1</sup> Milodiy 1514 yil

qizi Tojli xonim bilan nikohlagan oxundning o'zginasi edi. Tojli xonim safarlardan birida, Shohobod qishlog'ida hukmdorga bir o'g'ul hadya qilgan. uning ismini Tasmosp deyb qo'yishgandi. Ayni paytda Tojli xonim tahmosp bilan birga Xuroson viloyatini boqarishardi.

Beixtiyor Tojli xonim haqida o'ylarkan, vujudida iliq bir his uyg'onganini sezdi. Biroz yostiqa yonboshlarkan, hamsuhbatini ham, majlisni ham unutdi. Beixtiyor qo'lini davotga uzatib, yorning siynasidek oppoq Samarqand qog'oziga sheroziy qalamlar ila qalbidan toshayotgan satrlarni bitdi:

*Ul parikim, chashmi soqiy, la'li jonimdur mening,*

*Qoshi mehrobu yuzi baytul-xazonimdur menging,*

*Dilbarim vaslidan ayru istamam har subhi shom,*

*Yuzi subhimdur, valekin, zulfi shomimdur mening.*

*Ul pari paykar nechun jonim qushin band etmasin,*

*Donadur xoli, parishon zulfi domimdur mening.*

*Volumen bir qaddi tubo, la'li kavsar yora man,*

*Ostoni ravzai dorussalomimdur mening.*

*Bu Xatovining so'ziga munkir o'lma, zohido,*

*Bir parining husni vasfinda kalomimdur mening.*

Uning nazarida mavlono bu g'azalni eshitishi bilan kulinsirab, nozik qo'li bilan soqolini tutamlashini ko'z oldiga keltirdi.

Xatoiy qo'lini qalamdonga uzatishi bilan malikushshuaro uning she'r yozish qaroriga kelganini anglagandi. Sekin o'rnidan turdi. Bugungi majlis uchun eng mohir hattotlarga berib ko'chirtirgan «Bangu boda» dostonini kumush rafdan oldi. Qaytadan ko'z tashlab chiqdi.

Malikush—shuaro baland bo'yli, qotmadan ketgan odam edi. Sarg'ish yuzlarini har doim kiyib yuradigan oq yaktak va jubbasi yanada xastaxol ko'rsatardi. Qalin, oppoq qoshlari ostida goh sokin, goh tug'yonli boqadigan ko'zlaridagi teran ma'no har qanday odamni shoshirib qo'yardi. Beixtiyor shogirdi va kuyovi bilan suhbatlari yodiga tushdi. Bu suhbat Karbaloda bo'lgandi.

O'tgan yili Muhammad bilan poytaxtga, shoh saroyiga ko'chish haqiga gap ochgandi.

—O'g'lim, bu shoh avvalgilarga o'xshamas. Hukmi ham, hikmati ham bor. Bir tarafdin mamlakatlarni zabt etsa, boshqa tarafdin she'riyatga ravnaq beradi. Mana bu she'rini bir eshitgin:

*Bu kun bo'ldi, olmas bo'ldim men sozim,*

*Arshga yetib, sado herar ovozim,*

*To'rt narsa bor, bir qarindoshga lozim,*

*Bir ilm, bir kalom, bir nafas, bir soz,*

Qariya uning ko'zlarida go'yoki shu ma'noni o'qidi: «Nima qipti? Hammasi riyo uchun—ku? She'r ham, san'at ham, soz ham unga mamlakatlarni fath etish va saltanatini barqaror tutish uchun lozim bo'ladigan vositalardan emasmi?» Qariya bu so'zsiz savolni javobsiz qoldirmadi:

—Mayli, ammo arablar istilosidan keyin tilimiz endi saroyga yo'l topib kirdi. Siyosat arboblarning tiliga ayiandi. Davlatlararo xat-xabarlar ham endi go'zal turkiyda bitilmoqda. Shohning o'zi bu ishda hammaga o'rnak bo'layotir. Shu tilda she'rlar bitmoqda. Shu paytga qadar she'r tili sifatida faqat fors tili tan olinardi. Turkiy tilda sen o'zing aytgandek she'r bitish dushvor edi. Sen osonlashtirgan bu yo'lda, u xalqning ona tilida, xalqona lahjada she'rlar bitmoqda. Baxshilar saroyga chorlanmoqda. Shoh ilm olaman, ijod qilaman, degan insonga sharoit yaratib beryapti. Saroyda ajoyib kutubxona ochilgan. Hattotlar, musavvirilar, sahhoflar to'plangan. hammasiga yaxshi maosh tayin qilingan. Qimmatbaho devonlar, kitoblar, ilmiy asarlar ko'chirilmoqda.

O'shanda bu suhbat biror natija bermagandi. Endi esa, mana kuyov yangi bitgan asarini Shoh Ismoilning o'ziga bag'ishlabdi.

Malikush—shuaro yana bir bor ratlarga terilgan qimmatli kitoblarga ko'z tashladi. She'riy kitoblardan tashqari tibbiyot, falsafa, kimyo, musiqaga oid qancha—qancha yangi kitoblar tartib bilan terilgandi.

Shohning bilim doirasi chindan juda keng edi. Malikush—shuaro ortiga qaytganida, shoh she'rini bitirib bo'lgan, xonaga

sassizgina kirib kelgan nadimi xilvat bilan shahmat o'ynab o'tirardi. Mashhur karvonboshi hoji Salmon Hindistondan olib kelgan bu shahmat taxtasi qayrog'och va sadafdan ishlangandi. Sipohlar fil suyagidan yasalgandi. Har bir sipohning balandligi barmoqdek kelardi.

Malikush—shuaro sekin ularga yaqinlashdi. Har ikki o'yinchining harakatlarini kuzatdi. O'yin tugadi. Shoh g'olib chiqsa—da, xayolan biroz avval to'xtatgan suhbatni davom ettirardi. Bu uning odati edi. Hozir ham shunday bo'ldi.

—Demak, bugun kuyovimizning «Bangu boda»sini o'qirkanmiz—da?

—Ijzatingiz ila hukmdorim!

Shoh boyadan beri dilida aylanib yurgan fikrlarni tiliga ko'chirdi:

—Muhammad Fuzuliyni bu yerga chaqirish kerak.

—Kelmaydi, qiblai olam!

—Nega? Uning savolida taajjub akslandi.

—Chunki u buyukroq shohning xizmatidadir.

—Kimning? uning ovozigida g'azabni malikush—shuaro bilan nadimi xilvat ham tushundi. Ammo shoir o'zini yo'qotib qo'ymaslikka harakat qildi:

—Hazrati Alining o'g'illari imom Hasan hazratlarining! Ya'ni Siz a'lohazratning buyuk bobongiz xizmatidadir. Shoir Fuzuliy Karbaloda turib, ona tili turkiyda she'rlar bitmaktadir.

Nadim yengil nafas oldi. Hukmdorning nafasidagi qahr ham yo'qoldi.

—Ofarin! Shoir o'z vatanldoshlarining eshitar qulog'i, ko'rar ko'zi, fikrli miyasi, so'zlar tilidir. Albatta shunday bo'lishi kerak edi. Axir arablar bu xalqning boshiga ne—ne balolarni solishmagan? Maktabdan kelgan bolaning tilidan chiqadigan birinchi jumla «bismillahir—rohmanir—rohim» bo'lsa, u ham arab tilida—ku? Bechora bola bularni qayerdan tushanadi? Axir bolalarga rahmli va mehribon Alloh nomi ila boshladim» deb o'rgansa ham bo'ladi—ku? Bu ham Allohga xush kelardi. Hatto

butun bir xalqning bir og'iz arabcha so'z bilmaydigan avomi ham besh vaqt namozni arab tilida o'qiydi. Xilvatda o'z parvardigori bilan yuzma-yuz turib, unga qalbini ochsa, dardini to'kib solsa, Uning buyukligiga ko'proq ishonarmidi, "O'zing menga to'g'ri yo'lni ko'rsat", dermidi?. Arab tilidagi so'zlarni chaynamasdan "Qul huvallahu ahad" o'rniga "Alloh bir deb ayt" desa bo'lmasmikin? Allohga ham bu xush kelsa kerak Namozxon odam ham to'tiqushdek notanish so'zlarni emas, uning o'z ona tilidagi tarjimasini aytgani ma'qul emasmikin?

Shoir Xatoiy ko'nglida butun borligida hukmronlik qilayotgan bir fikrni butun mohiyati ila tiliga chiqarmay o'ylardi. Qulga aylangan xalq uchun ona tilini asrashning katta ma'nosi bor edi. Buni arab bosqinchilari yaxshi anglab yetishgandi. Avvaliga mag'lub xalqning tiliga hujum qilishgandi. Besh vaqt namozdan bir og'iz so'zni tushunmagan avom cho'pon arab tilida Allohdan nimani so'rashi mumkin? Besh yoshli go'dak ham maktabga borsa, birinchi bo'lib unga arabcha so'zlarni yodlatishadi. Ha, millatni, xalqni o'ldirmoqchi bo'lsang, avvalo tilini tortib ol. Bu xar bir bosqinchining shiori edi. U gapirarkan, malikush-shuaro va nadimi xilvat nima deyishini, nima deb javob qaytarishlarini bilmasdan qotib qolishgandi. Xatoiy so'zida davom etardi:

–Aslida men ham o'z tilimni rivojlantirish uchun harakat qilyapman. Sizdan va boshqa shoirlardan shuni talab qilaman... Shu bois sizga kuyov bo'lsa ham Muhammad Fuzuliyning martabasi men uchun buyukroq. Afsuski, Karbaloni, imom Husayn ostonasini tark etib, bu tomonlarga kelmasa kerak.

Shu fursatda nubiyalik zanji navkar ichkari kirib, majlis ahli shohga muntazir ekanini aytdi. Nadimi xilvat soddalik bilan gap qotdi.

–Shohim, bir qoshiq qonimdan keching, namoz va boshqa duolarni o'z tilimizga o'girib, o'qish xaqida farmon bersangiz...

Shoh qahqah urib kuldi. Malikush-shuaro ham iljaydi. Hatto eshik oldida mum haykaldek qotib, xojasining amriga shay

turgan nubiyalik qulning ham oppoq tishlari ko'rinib ketdi. Shoh kulgidan to'xtab, nadini xilvatning yelkasini qoqdi.

–Hali biroz erta. azizimi! O'zimizga bir dunyo dushman ortiramiz. Butun arab olami, islom da'vatchilari, ulamolar bizga qarshi chiqishadi. Arab tilining ahamiyati yo'qoladi, Qur'oni karimni tarjima qilib bo'lmaydi, deyishadi buni Qur'oni karim tiliga xiyonat deb bilishadi. Aslida tarjima ko'pchilikning manfaatiga ziddir. So'zlar arab tilida talaffuz qilinsa, u avom xalqqa mo'jizakor, allaqanday sirli bo'lib tuyuladi. Ma'lumki, har bir sirli narsa sodda inson shuurida qo'rquv, vahima uygotadi. Ularga ham shu kerak. Qara, dunyoning qancha xalqlari duoni, Qur'onni arabcha o'qishadi. Namozni ham shu tilda ado etishadi. Andalusiyadan to Xitoyga qadar. Mo'ysafid Idil sohillaridan Afrikaning janubiga qadar...

Shoh bir fursat sokin qoldi. Malikush–shuuro o'z ra'yiga qarakma–qarshi o'laroq shu so'zlarni tiliga chiqardi:

–Bir paytlar buyuk Firdavsiy aytgandi:

*Zi shiri shutur xo'rdani susi mor,*

*Arabro ba joke rasidast kor,*

*Ki taxti Kayonro kunad orzu,*

*Tfu bar tu ey charxi gardun, tfu...<sup>1</sup>*

–Bizning xalqimiz bun yaxshi tushunib yetgan. Tilni qabul qilgan bo'lsa–da, nafratini unutgani yo'q. Xalq orasida arab istilosi haqida qancha–qancha matal, maqol, afsonalar bor. «Tuya qizdir, arab ozdir». «arabning yuzi, tuyanig tizi». «arab o'lsa qon to'kilar», «och arabdan qoch, arab»... Yoki mana bu bayotiga bir qarang:

*Arab keldi, hay bering,*

*Ne istasa, pay bering,*

Nadimi xilvat o'zini tutib turolmadi:

---

<sup>1</sup> Tuya suti va kaltakesak go'shti yeb yurgan arablar shu darajaga yetibdilarki, hatto Kayonning taxtini orzu qilishadi. Charxi gardunning yuziga tupurging keladi... (fors)

–Oramizda qolsin, bizning hozirgi ma'murlarimiz ham bulardan yaxshiroq emas.

Ismoimlning xayoli boshqa joyda bo'lgani uchun nadimning so'zlarini eshitmadi. Bir paytlar Lo'li rabotida unga duch kelgan darvishning so'zlarini esladi:

«Insonlarni uch ofatdan xallos qilmoq lozimdir hukmdorim! Ochlik, uzluksiz urushlar, va sizga xiyonat qilayotgan mahalliy hokimlarning jabr–zulmi. Ular sizdan panada ko'ngillariga kelgan noma'qulchilikni qilib yotishibdi. Zulm shu darajaga yetganki, hokimlar sunbulning donlarini sanab, shuning barobarida xalqdan g'alla talab qilishyapti. Sizga qimmatli hadyalarni tashiydigan hokimlar nahot sizda shubha uyg'otmasa? Ular bu sovg'a uchun pullarni qayerdan va qay tariqa qo'lga kiritishgan? Sarkardalaringiz qo'li bo'sh qoldi deguncha u yoki bu qishloqqa bosqin qilishadi. Odamlarning mehmondo'stligini suiste'mol qilishadi. Kimning uyiga borishsa, tuzini yeb, tuzdonini ham o'marishadi. Unutmangki, Tangri jannatni kambag'allar uchun narigi dunyoda, boylar uchun shu dunyoda yaratgan. Siz faqirlarning dodini eshiting, haqiqat tomonida bo'ling!»

Darvish ko'p gaplarni aytgandi. Nadimning hozirgi emas, oldingi savoliga javob qaytardi:

–Hali erta, Muhammad Fuzuliyning nafaqat o'z Vatanida, balki arab diyorida o'tirib, turkiy tilda she'r bitishi chinakam jasorat belgisi. U o'z tilini dunyo tillari darajasiga ko'tarmoqda. Agar shunday insonlar ko'paysa...

U yana jim qoldi. Eshikka qarab yurdi. Habash xizmatkor bosh egib ta'zim qildi. Shahanshoh she'r majlisi o'tayotgan xonaga kirdi. Bir qadam masofada uni malikushshuaro va nadimi xilvat kuzatib borardi.

\* \* \*

Majlis qizg'in borardi. Yuqori rutbali amaldorlar shohga yaqin yerdan joy olishgandi. Bunday majlislarda Shoh ismoli o'zini boshqa ijodkorlardan yuqori qo'yishni istamasdi. Majlis raisining ostiga ikki qavat ko'rpacha to'shalgan, orqasiga uch–

to'rttalab yostiq va bolishlar terilgandi. Mana, shohning adabiyot va musiqa majlisidagi o'rni ham taxtu tojsiz, hoyu hashamsiz bo'lib, unga ham nimdosh yostiqlar tizilgandi.

Bu yerda har kimning o'z o'rni tayin qilingandi. Har bir o'rin qarshisida kichkina xontaxta, uning ustida sherozi qalam va qalamdonlar, bir varaqdan Samarqand qog'ozi qo'yib chiqilgandi. May, sharbat, meva va shirinliklar ham har bir odam uchun alohida idishlarda tortilgandi.

Ismoil kirishi bilan majlis ahli oyoqqa qalqdi. Ishtirokchilar o'ng qo'llarini yuraklari ustiga qo'yib, ta'zim qilishdi. Uning ishorasi bilan kuzatib kirgan malikush-shuaro va nadimi xilvat joylarini egallashdi. Bir onlik sukunat cho'kdi. Shoh malikush-shuaro o'girildi:

–Ustoz, nimadan boshlaymiz?

She'r majlisini odatda malikush-shuaro boshqaradi.

–Hukmdorim, bugun asosiy maqsadimizdan tashqari ajoyib bir mehmonimiz ham ancha olisdan, Chuqursaddan tashrif buyurgan. Go'zal Vatanimizning har bir parchasi o'ziga xos mo'jizalar makonidir. Masalan Shirvonda asosan shoirlar tug'iladi, Boku tuprog'ida rassomlar ko'p yetishib chiqadi. Chuqursad esa asosan iste'doli hofizlar va baxshilar yurti.

Shu payt boyadan beri hech kim e'tibor qaratmagan masxaraboz shartta Maliku-shuaroning so'zini bo'ldi:

–Ha, har shaharning o'z timsoli bo'ladi. Arablarda san'at Basrada, notiqlik Kufada, aysh-ishrat Bag'dodda, xiyonat Rayda, baxillik Hirotda, axloqsizlik Nishopurda, xasislik Marvda, g'urur Samarqandda, mardlik Balxda, tijorat Misrda degan bir naql bor...

Majlisda qahqaha qo'pdi.

–Sen tug'ilgan Tabrizda faqat masxarabozlar yetishib chiqadimi? so'radi podshoh. Kulgi to'xtagach, shoh yana malikush-shuaroqa qaradi. gapiring, ustod!

–Ruxsatingiz bilan navbatni yosh san'atkorlarimizdan biri Miskin Abdoliyga bersak, olampanoh...



–Marhamat.

Cholg'uchilar orasida qo'lida uch torli soz olgan baland bo'yli, qotma, chehrasidan nur yog'ilib turgan, odmigina kiyingan bir odam o'rnidan turdi. U qo'lini ko'ksiga qo'yganча avval shohga, keyin qolganlarga ta'zim qildi. Ismoilshoh Miskin Abdoliyning qaddi qomatiga, chaqna b turgan ko'zlariga qaradi. Beixtiyor yonida o'tirgan malikush–shuaroga pichirladi:

–Go'ychaning miskin va abdoli shunaqa bo'lsa, mag'rurlari qanaqa bo'larkin?

Malikushshuaro lablaorini yengil himardi. Umrida ilk bor shoh majlisida ishtirok etayotgan baxshini uyaltirmaslik uchun pichirlab javob qaytardi:

–Hukmdorimizga munosib qullardan biridir. inshaalloh!

Miskin Abdol yana bir bor hukmdorga ehtirom bajo etgach, bosh egib kuylashga izn istadi.

–Ruxsat!

Hukmdorning bu xitobidan so'ng sozini bag'riga bosganча, mizrob bilan torlarni chertda va ohista qadam tashlab, majlisning o'rtasiga chiqdi.

*Do'sti mehribonim yetish imdodu,  
Sendan boshqa yo'q imdodim, yig'larman.  
Oh chekib tog'larga solarman sado.  
Qavmim kelmas, kular yodim yig'larman.  
Qo'lidna Zulfiqor, duldulga suvor,  
Mahzarul–ajoyib, bir oti Karror.  
Mushkulga tushmisham, ko'nglim intizor.  
Sen kelmasang, ey ustodim yig'larman.*

Majlis ahlining olqishlari xonani tutdi. Baxshining ovozi ham, nafasi ham, ijro mahorati ham, o'lan mazmuni ham butun majlis ahliga ma'qul kelgandi. Ular o'z ona tillarida ilk bor qo'shiq eshitayotgan bo'lmasalar–da, asl san'atning qadriga yetadigan odamlar edilar. Ular Miskin Abdolni xuddi Qurboniyni tinglagan paytdagi muhabbat va ishtiyoq bilan eshitardilar. Miskin Abdol qo'shiqdan–qo'shiqqa o'tarkan, olqishlar qamrovi

ham yuksalib borardi. Nihoyat u kuylashdan to'xtadi. Yana bir bor majlis ahliga qarata o'ng qo'lini ko'ksiga bosib, ta'zim qildi va joyini egalladi.

Ijrodan mamnun bo'lgan hukmdor mirzaboshini yoniga chaqirdi. Nimadir deganidan so'ng mirzaboshi turib, narigi xonaga o'tdi va tez ortiga qaytdi. Uning izidan kichkina kursichani ko'tarib olgan hattot ergashib kirdi. Shoh baland ovozda buyurdi:

–Yoʻz, Miskin Abdol shohning maxsus himoyasi ostida bo'ladi, shuningdek unga Sariyoqub qishlog'ining boshqaruvi meros qolirish imkoni bilan birga hadya qilinadi.

Mirzaboshi farmonning qoralamasini yozib tugatgach. Hattot Samarqand qog'oziga uni oqqa ko'chirdi. Kursicha ustiga turli xil bo'yoqlar, oltin va kumush critmalari kichkina idishchalarda terilgandi. Hattot odatiy harakati bilan qamish qalamni goh piyolalar, goh farmon ustida yuritardi. Ko'p o'tmay farmon tayyor bo'ldi. Mirzaboshi bir bor ko'z yugurtirib chiqqach farmonni hukmdorga tutdi. Ismoil qalamni qo'lga olib, imzo chekdi. Mirzaboshi o'z o'rniga, hattot xonasiga qaytdi.

Malikushshuroning ishorasi bilan Miskin Abdol hukmdor qarshisiga kelib, tiz cho'kdi. Yer o'pmoqchi bo'lganida, podshoh xitob qildi:

–Yo'q, ustod, yer o'pish sizga yarashmaydi. Sizning buyuk iste'dodingiz yuksak mukofotlarga loyiq. Bu farmonni esa siz uchun maxsus hozirladik. Bu sizning xizmatlaringiz uchun arzimas bir hadya. Siz ona tilimizning qudrati va malohatini yana bir bor ko'rsata oldingiz. Bu tilda eng go'zal hislarni, eng teran fikrlarni musiqa tiliga o'girib, tarannum etish mumkin.

Miskin Abdol shoirning so'zlarini buyuk bir farah, hayajon ichida tingladi. Farmonni olib, uch bor o'pdi va o'rnidan turdi.

–Umringiz uzun bo'lsin, olampanoh, jonim sizga qurbon! Siz shunday fikr va aqidada turar ckansiz, butun el–yurt sizning duoi joningizni qiladi.

U turdi, sekin odimlab, joyiga qaytdi. Shoh boyagi mavzuni davom ettirardi:

Bizdan ancha ilgari buyuk shoirimiz luft qilgan edi:

*Nogahon bo'stona kirdim subhidam,*

*Lolaning ilkida ko'rdim Jomi jam,*

*Savsan aytur erdi goho, damba-dam.*

*Dam hu damdir, dam hu damdir, dam hu dam.*

Mana shu misralarning o'zi tilimizning ranginligiga misol emasmi?

Oxund Ahmad bosh egib, so'z oldi:

—Hukmdorim, forslarda shunday masal bor: asl til arabiydir. fors tili she'r tilidir, turkiy til esa hunardir!

Masxaraboz shohdan avval so'z boshladi:

—Hech kim o'z ayronini achchiq demas! Ehtimol bu masalni biror forsiyzabon aytgan bo'lsa kerak! Bag'dodlik shoirimiz o'z ijodi bilan bu masalaga nuqta qo'yibdi. Bugun uning yana bir she'rini o'qiymiz. Ustod, endi she'rga navbat bersangiz.

Malikush—shuaro qo'lidagi bayozni o'zidan oldinroq o'tirgan shogirdiga uzatdi. Go'zal, ifodali she'r o'qish bilan tanilgan shogird bayozni ochib, Muhammad Fuzuliyning Shoh Ismoilga bag'ishlagan «Bangu boda» masnaviysini o'qishga tushdi:

*... Majlisafro'zi bazmgohi xalil,*

*Jomi ayyom shohi Ismoil,*

*Undan osudadur g'aniyu gado.*

*Xalladallohu mulkahu abado...*

Yigit kuylarkan, uni hamma diqqat bilan tinglar, orada kimdir chilim qurillatar, kimdir jimgina oldiga qo'yilgan noz-ne'matlardan tanovul qilardi. Qo'shiq tugaganda, yarim tundan oshgandi. Ammo majlis ahli toliqib qolishmadi. Oxirgi baytlar o'qilganda hamma «ofarin, barakalla, marhabo, mashaalloh» deyishdi. Ismoil esa quvonchdan sarmast edi.

–Yana bir taassufki. bundan bir shoir saltanatning, poytaxtimizning, saroyimizning bezagi bo‘lolmaydi. Unga yuz ashrafiy tilla jo‘nating.

Malikush–shuaro ohista so‘z qotdi:

–Yubormang, olampanoh! U Husaynning qulidir. Mukofotini tangridan so‘raydigan ozga qanoat qiladigan inson. O‘zi ham aytgandi.

*Na mulku mol manga, charx bersa mamnunmen.*

*Na mulku moldan ovora qilsa, mahzunman,*

*Agarchi muflisu pastu muhaqqaru dunmen,*

*Damodam o‘yla xayol aylaramki, Qorunmen.*

–Taassufki, biz Iroqni zabt etib. Karbaloga kirganimizda, Muhammad Fuzuliyning hali tanimasdik. Aks holda unga alohida iltifot ko‘rsatardik.

Shohning xayolida shoirning mashhur misralari yangradi.

*Soqiyo, subhidamdir. Ayla shitob,*

*Davra kelsin chu mehr jomi sharob,*

*Jomi may sun ki to dili rona,*

*Madh etay podshohi davrona...*

*... Davri bir bazmdir behishtbarin,*

*Toj zarrin, surohi ham zarrin.*

Shu payt xizmatchilar shohning oldiga chinni idishlarda karjlangan qovun keltirishdi. Oxund Ahmad buxorodan qalay qutalarda, muz ichida bus–butun holatda keltirilgan qovunlarga tikilib qoldi. Ismoil unga manzirat qildi.

–Marhamat, taqdir!

–Qadimgi tabiblar «har bir yemakni o‘z mavsumida yemoq lozim» deyishgan. hukmdorim! Bu qoidaga amal qilmaganlar xastalanishi mumkin.

Ismoil kuldi:

–Har qanday mevadan parhiz qilsam ham, qovunni tark etolmayman. Juda yaxshi ko‘raman, oxund! Men har qanday faslda qovun toptirib yeganman, ammo biror bir noxushlikka duch kelmadim.

–Sizning yosh vujudingizga gap bo‘lishi mumkin emas. hukmdorim! Sizni har doim bobolaringiz ruhi qo‘llab turgan bo‘lsa ajabmas.

... Shohning ishorasi bilan cholg‘uchilar Kobuliy maqomini chalishni boshlashdi. Yosh xonanda asosiy e‘tiborni Xatoiy va Fuzuliy g‘azallariga qaratgandi. Ora–sirada xalq orasida keng yoyilgan laparlarni ham esga olardi. Avjiga yetganida, eshikning pardalari titrab, navrasta bir qiz ko‘rindi. Qiz harir, biroz ochiq kiyingan, biroq uning nafis mato ortidan bilinib turgan nafasoti har qanday dillarni tug‘yonga sola olardi.

Uzun ko‘ylagining yengi kaftigacha yopib turar, barmoqlari orasida Bengal shamchalarini qistirib olgandi. U parda ortidan ko‘rinishi bilan xizmatchilar qandil chiroqlarining piligini pasaytirishdi.

Raqqosaning harir pushtirang libosi atrofida minglab mitti uchqunlar sachrardi. Lekin chamasi vaqt, shamchalardan otilayotgan yulduzchalar va raqsning qiymati chalimnayotgan musiqaning qadri bilan o‘lchanmasdi. Kuy tinishi bilan raqqosa ham parda ortida ko‘zdan yo‘qoldi.

–Yo rabbiy. Nomahramga qarab gunohga botdim–ku? – dedi kimdir shirakayf ohangda.

Shoir kuldi:

–Buning gunohini men o‘z bo‘yninga olaman.

Atrofdant mastona xitoblar eshitila boshladi.

–Soqiy, baraka topkur, may ber, tomog‘im quridi.

–Soqiy, menga ham quy. Oxundimiz bu odobsizligimizni bir bor afv etarlar?

–Menga shart emas, men kasalman.

–Bu olamda sog‘ odamning o‘zi yo‘q.

Majlis davom etardi. Navbat Samarqanddan kelgan shoir Soiliyga berildi. U Samarqanddagi Shohi zinda majmuasidan, Qusam ibn Abbos, Shodimulk oqo, Amirzoda, Tug‘litekin maqbaralarida, Hazrati Xizr va Bibixonim masjidleri, Registon maydoni haqida to‘lqinlanib so‘zlardi:

–Ustalar oyat va hadislarini firuzarang va oq g'ishtlar orasiga shu qadar mahorat bilan joylashganki, Allohning qudrati bilan ochilgan gul–g'unchalarni esga soladi. To'rt tarafdin o'qisangiz ham Alloh, Muhammad – bir xil so'zlar kelib chiqaveradi.

–Ali–chi?

–Yo'q, Aliyul–Murtazoning ismlari yo'q.

–Nachora. biz ham bobomizning, otamizning maqbarasini xuddi o'sha obidalar singari tiklaganmiz. Qadim Ardabilimiz ham obod shaharga aylandi. Ziyoratchilar ko'paymoqda. Ammo biz bu binodlarda Hazrati Alining ismlari Alloh va payg'ambar so'zlari bilan yonma–yon yozdirganmiz.

Majlisda esa, shohning izni bilan boshqa bir baxshi Qurboniy she'rlaridan kuylardi.

*Ko'ngil qalqdi, Barda sori yurudi.*

*Unda bir shahar bor, oti Ganja hey...*

Baxshi «hujjat berib, quling bo'lsam yuz yilga» deya kuylaganida, shoirning xayoli qochdi: «Yo'q inim, sen qullik nimaligini bilmasang kerak! Sen katta bo'lgan tog'larda qiz–kelinlar, alp yigitlar bozorda sotilmaydi. Shoir baxshini ham, majlisni ham ugnutib, xayol ummoniga sho'ng'idi.

Samarraga kirganida kun ikki jiyda bo'yi ko'tarilgandi. U karvonboshi bilan birga anchadan beri eshitgan qul bozoriga yo'l oldi. Dajlanning o'ng sohilida imom maqbarasidan bir qadam shimolda Horun ar–rashid saroyi unga tinchlik bermasdi. Daryoning berigi sohilida qiziqarli imoratlar tiklangandi. Moviy. Firuzarang...

Samarra masjid va maqbarasi uni qoyil qoldirmadi. Karbaloda Husayn, Najaful–Ashrafda Ali msaqbaralari yanada go'zal, boy va nafis ko'rinardi. Bminoning devorlari, peshtoq va ravoqlari yirik harflarda bitilgan oyatlar, hadislar, insonni yaxshilikka da'vat etuvchi xitoblar bilan bezatgandi. Masjidning tashqarisi ulkan oltin gumbazi, ichkaridan tosh ko'zgu va billur qandillari bilan ko'z qamashtirardi. Olov sochib turgan oltin

gumbazning yarqirashidan hatto kabutarlar ham yaqinlasha olmasdi. Bu ko'z qamashtiruvchi olam ziyoratchilarni sevar, ularni muhtasham ko'rinishi. haybati ham hayratga, ham qo'rquvga solardi. Qop—qora liboslari bilan qoramtir sarvga o'xshab ketadishgan ayollar turli millat vakillari olti burchakli mozorning atrofini o'pa—o'pa tavof qilishar, dardlarini aytishardi.

Bu yerdan Samaradagi firuzarang minora va gumbaz xuddi ertaklardagi xayoliy manzaralarni eslatardi. Masjiddan sal shimolda joylashgan hino esa, xayol emasdi. Aytishlaricha, bu baland devorning keng hovlisini aynan qul bozoriga moslab, Horun ar—Rashidning o'zi qurdirgan ekan. Shu qadar mustahkam qurilganki, yetti asr o'tsa—da, birorta g'ishti tushib ketmagan, hali ham ishlab turibdi. Qul bozori maydonning darvozalari qarshisida 360 pillapoyali ulkan minora tiklangan edi. Minoraning uchini ko'rishning imkoni yo'q edi. Zinalari boshqa minoralardan farqli o'laroq, ichkarida emas, tashqi tomondan qurilgan edi. Emishki, Horun ar—Rashid qul savdosi qizigan kunlari shu minoradan turib, tijorat maydonini tomosha qilarkan. O'ziga yoqqan, eng go'zal kanizak va joriyalarni o'zi, ayoli Zubayda va o'g'illari uchun tanlab, haramga yuborarkan.

Shoh minoraga qarab, Horun—ar—Rashid — nimalarni his etganini bilishni istardi. Otdan tushib, minora tomon yurarkan. boshini yerga tekkuncha egib, oyog'i ostiga atirgul gulbarglarini sepib turgan fuqarolariga ahamiyat ham bermadi.

Enli tosh zinapoyalardan yuqoriladi. Orqasidan Rahimbey izma—iz kelardi. Tepaga chiqarkan. Yuragidan nedir bir hayajon qo'pdi, yuragi hapriqa boshladi. Nafasi tiqildi. Pastda uning xoki poyini ko'ziga to'tiyo qilayotgan odamlar xuddi chumolilardek mayda ko'rinardi.

Undan bir qadam orqada kelayotgan Rahimbey tavoze bilan shohga yuzlandi:

—Olampanoh, balki marhamat qilarsiz, — deya beliga osib olgan suvdonning qopqog'ini ochib uzatdi. Shoh suvdan bir ikki ho'plab, idishni qaytarakan, o'ylanib qoldi: tepaga chiqsinmi yo

qaytsinmi? Chiqay desa hali yana ancha ter to'kishi kerak. pastga tushsa, shuncha odam undan ko'z uzmay turibdi. O'z nufuzini o'ylashi kerak. Yo'q. faqat tepaga! Cho'qqiga chiqib, u yerdan qul bozorini ko'rishi, xuddi o'g'li Tahmosp tug'ilgan ondagidek. qul sotib olib, ozod qilishi, shu tariqa sarvari olam. Muhammad Mustafoning qul ozod qilish haqidagi vasiyatlariga amal qilishi lozim.

Muzdek suv joniga orom berdimi, xayollari unga kuch bag'ishladimi, yoshlarga xos shijoat bilan yuqoriga chiqishda davom etdi. Pastda odamlar qo'llarini ko'tarib, uni olqishlashardi. U yengil nafas olib, qul bozoriga tomon o'girildi.

Moviy samoda, minoraning tepasida turgan ikki yigit Ismoil va Rahimbey olov sochib turgan quyosh ostida bir juft qora burgutga o'xshab ko'rindilar.

Ismoil bozorni ancha tomosha qilsa-da, bozorda sotilayotgan qul va joriyalarning aft-angorini aniq ko'rib bo'lmasdi. Pastga tusha boshlashdi. Garchi tushish chiqishdan ko'ra oson bo'lsa ham, boshni aylantirardi. Shu bois ularning har ikkisi pastlika, qaynab-toshayotgan olomonga emas, osmonga, moviy bo'shiqqa tikilishdi.

Pastda unga hamrohlik qilib kelgan Rahimbeyga havas bilan qarab turgan yigitlardan bir qanchasi luqma tashladi?

-Nimalarni ko'rdingiz, bey?

-Qanday ekan?

-Tangriga yaqin joyda biz uchun ham duo qilmadingizmi?

Ismoil ortidan gapirayotganlarning ovozini eshitar, ahamiyat bermasdan, bozor tomon ilgarilardi. Boshqa yosh mulozimlarga tepaga ko'tarilish uchun ruxsat berib, bozorga kirdi. G'olib hukmdorning qarshisida yo'l ochib borayotgan bozor muhtasibi, odamlarni chetga surardi. Oq va qora tanli kanizlar bozor devori bo'ylab tizib qo'yilgan, kattakon, keng chorpoyalar ustida turishardi. Birining boshida oddiy ro'mol, boshqasida shaffof matodan tikilgan abo tashlangan edi. Qoratanli kanizlarning barchasi beliga oq rangli fo'ta bog'lab olgan, ular



xuddi badanlariga moy surilgan qora tusli sanamlardek yaltirashardi. Yosh hukmdor va unga hamrohlik qilayotgan mulozimlar bu hayratomuz qora go'zallikni hayrat va ehtiros ichida tomosha qilishardi. Orqaroqda kelayotganlar hukmdor eshitmaydigan tovushda o'zaro hazillashib, kulishardi.

Joriyalar oqmi-qorami, hamma yerga qarab turishardi. Ammo bir-ikki nafar raqqosalar har zamonda xaridorlarni jalb qilish uchun yelka uchirib, muqom qilib turishardi. Qarama-qarshi tomonda bo'yni va oyoqlariga kundala<sup>1</sup> urilgan, zanjirlangan qullar terilgandi. Minoradan tushishi bilan niqobini yuziga tushirgan hukmdor endi bu bechoralarga bir sarkarda ko'zi bilan boqa olmasdi. Shoir qalbi xuddi chorva mollari kabi sotuvga olib chiqilgan sho'rliklarning ko'zldarida, turishlarida hayo, hasrat va g'azab hislarini tuyarkan, yuragi uvishib ketardi. U azob va qayg'u hislari yuzida ko'rinib turgan qullarning o'n nafarini tanladi. Orqasidan kelayotgan xazinaben qullarning egasi bilan hisob-kitob qilar, shu yerning o'zida mirzaboshi o'zi bilan kelayotgan xizmatkorining yelkasiga qog'oz qo'yib, qullarning ozod qilingani haqidi farmonlarni bitib borardi.

Bir ozdan so'ng bozorda muhtasib bir qancha qullarni ozod qilgan shahanshoh nomiga uzundan-uzoq hamdu sanolar yog'dirdi. Bunday tantilikni kutmagan bozor ahli bu hamdu sanolarga qo'shilib, «omin» deyishardi. Qolgan qullarning aksariyati ko'zlarida mung, orzumandlik, armon aks etardi. Ular kutilmaganda bir lahzada ozod insonga aylangan boshqa qismatdoshlariga havas bilan qarashardi.

Ozod qilinganlarning qo'l-oyog'idagi zanjirlar yechilar, sho'rliklar erkinlikka erishganiga hamon ishonolmay, bir qo'llarida ozodlik yorlig'iga, bir ularni xalos qilgan niqobli yigitga qarab, yum-yum yig'lashardi. Ulardan biri shohning oyog'i ostiga o'zini tashlagach, qolganlari ham uning harakatini takrorlashdi.

Muhtasib baland ovozda qichqirdi:

---

<sup>1</sup> Kundala – taxtadan qilingan kishan, taxtakach.

–Shoh Ismoil ibn shayx sulton Haydar ibn shayx Junayd... .  
o'g'li valiahd shahzoda Tahmospning dunyoga kelishi  
munosabati bilan qul ozod etadi. Shahzodamiz uchun duo  
qilaylik!.. »

Shoh Ismoil umr bo'yi xaridorlar qarshisida namoyish  
etilgan, ko'zlari mo'ltirab turgan nozik go'zallarning, norg'ul  
yigitlarning mungli ko'zlarini unutmaydi. Shoir qalbi uchun bu  
bir hukmdorning eng og'ir mag'lubiyatidan so'ng chekilgan  
g'ussa va kadardan ko'ra og'irroq edi.

U hozirgina eshikdan kirgan nubiyalik quliga qaradi: bu  
o'sha o'n quldan biri bo'lib, shohga o'la–o'lguncha xizmat  
qilishga ont ichgan. o'zi bilan olib ketishni so'ragandi. Qolgan  
to'qqiz qul esa, boshlari oqqan tomonga ketishdi

«Shu paytga qadar menga xiyonat qilmadi, deya o'ylarli  
shoh, uning sadoqatini yaqinlarimning hech biridan ko'rganim  
yo'q»

Xotiralar uni tark etib, she'r majlisiga qaytargan chog'da  
Rahimbey nubiyalik habash xizmatkorning sirlil ishorasi bilan  
o'rnidan turdi va hukmdorga ta'zim qildi.

Joriyalar majlisga kirishi bilan atrofga tog' kashnichining  
xushbo'y ifori yoyildi. Rahim old xonaga o'tdi. Bu yerda uni  
eshik og'asi kutmoqda edi.

–Hoji Salmon ertaga bomdod namozidan so'ng yo'lga  
tushadi.

Rum o'lkasi tomon yo'l olganda, Qiblai olam hojiga  
nimaiki xabar eshitsang, menga yetkaz, deb buyurgandi.

–Hoji qayerda?

–Qiblai olam buyurganlaridek, shohning xilvatgohlarida.

–Ma'qul, men hozir xabar beraman.

U yana she'r va musiqa majlisiga qaytdi. Endi bu yerda ham  
yosh, g'oyat xushovoz bir hofiz Tabriz, Koshon, Sheroz gilamlari  
ustida chordana qurgancha, Oshiq Qurboniy she'riga bastalangan  
qo'shiqni kuylardi. Bir paytlar hukmdor bu she'rni Qurboniyning

o'z tilidan eshitgan. dardiga darmon topish uchun Bejonnini jazolab. sevgilisini oshiqqa qaytargandi:

*Murshidi komilim, shayx o'g'li shohim,  
Bir arzim bor, qullug'ingga, shoh, mening,  
Aziz boshim haqqi, o'qi yozdig'im,  
Ogoh bo'l holimdan goho goh mening.*

–Ofarin. ofarin, deya xitoblar yangradi har tarafdan. Rahimbey shohga yaqinlashishga jur'at etolmadi. Eshik oldida turib qoldi.

Hofiz esa butun borlig'i bilan berilib kuylardi.  
*Shoir bo'lmish darsin olar piridan,  
Ogoh bo'lmay it raqibning sirridan,  
Qo'lim bog'liq, o'tdim Xudofarindan,  
Yuzim kulmas. hech ochilmas, oh mening.*

–Kuldirdi yuzingni Jahon. ofarin.

*Qurboniy der, bahor o'tar, kelar yoz,  
Kullarda suzarlar o'rdak ila g'oz,  
Boshim sarnigundir. o'zim poyandoz,  
Yo'qdir bundan bo'lak bir matoh mening.*

–Ajoyib matoh ekan!

–Alloh sultonimizning quli bilan murodingni hosil qilsin!

Shoh kuldi:

–Ha, Alloh nasib etsin!

Rahimbey imkon topib. devor panalab. hukmdorning taxtiga yaqinlashdi. Orqasidan tiz cho'kdi. Shohning yelkasiga osha uning qulog'iga engashdi.

–Savdogarlar boshlig'i Hoji Salmon ertaga ertalab Kofiristonga borarmish. Sahibqiron, agar ko'rishni istasangiz, ostonangizda muntazirdur.

Hukmdor hushyor turgan edi. Shartta o'rnidan turdi:

–Janoblar! Mening aziz do'stlarim, siz ishlaringizni ko'ringlar. Birozdan so'ng yana xizmatingizda bo'laman

U tik turgani uchun majlisdagilar ham oyoq ustida edilar. Shoh Shoh Rahimbey va sadoqatli habash qulining hamrohligida she'r xonasina tark etdi.

Old dahlizga o'tishi bilan boshini burmasdan Rahimbeyga amr qildi:

–Rahim, vaziri a'zamga xabar qil, Mirzaboshi ham zarur andjamlari bilan xilvatga yetib kelsin.

Xilvat deyilgan joy Hoji Salmonning zamonidan qolgan, bir tasvirlagan sodda, askariy xona edi. Bu yerda hech narsa o'zgarmagandi. Shoh o'z o'rnida o'tirishi bilan vaziri darbor, mirzaboshi va qalam–davotini ko'targan hattot kirib kelishdi.

–Qayerga yo'l olyapsan, hoji?

–Mojorlar yurtiga, hukmdorim! Turk savdogarlaridan eshitganman. Turklarning ko'pgina kofir mamlakatlariga hukmi o'tarkan. Sal ishim yengnillasa, ketaman, inshaalloh!

–Juda yaxshi, safaring bexatar bo'lsin! O'sha yurt hukmdoriga maktubimizni yetkazasan. Agar mayli bo'lsa, biz bilan aloqalarini o'rnatgin.

–Bosh ustiga, qiblai olam!

Hukmdor mirzaboshiga yuzlandi:

–Yoz, maktubni o'z tilimizda yoz!

Mirzaboshi shu zahoti zarhal naqshlar bilan bezatilgan qog'ozni kotibga uzatdi. Muqaddimada bitiladigan so'zlarni u yaxshi bilardi. Mirzaboshi o'zi asosiy matnni yozishga tushdi.

Vaziri a'zam qo'llarini ko'ksiga qo'yib, bosh egdi:

–Qiblai olam, balki avvalgiday maktubni fors tilida yozsakmikin? Axir kofirlar orasida bizning tilimizni bilguvchilar bulmasligi mumkin.

Uning qulog'ida hali ham Arabistonning qoq markazida o'tirib, ona tilida she'r bitgan Fuzuliyning, qo'li bog'liq holda Xudofarin ko'prigidan o'tib kelgan Qurboniyning, Chuqursaddan oshgan Miskin Abdolning ovozi, she'rlari jaranglamoqda edi. Shu onda Lo'li rabotidagi keksa darvish qulog'iga shivirlagandek bo'ldi:

«Har sodda jumlamiz bir misra she`r, bu til nega dunyoda shuhrat topmasin! Unda ana shunday qalblarga, miyalarga quvvat berguvchi kuch bor ekan, nechun o`lkaning yuragi, poytaxti, siyosiy aloqalari ana shu tilda bo`lmasligi kerak? Vaqti keldi, hukmdor! Bu ishlarni siz qilmasangiz kim qiladi? Quvrat va g`ayrat sizda bo`lsa... «

U vazirga qaramadi. Bir muddat qalamini tutib, ko`zlarini unga tikkascha, mirzaboshiga qat`iyat ila o`girildi:

–Yo`q, bundan so`ng Safaviylar xonadonining barcha rasmiy ishlari ona tilimizda yuritiladi. Saroyda hamma shu tilda gapiradi va yozadi. Birgina azon va namozdan tashqari ishlarda saroyda arab va fors tilidan foydalanish taqiqlanadi.

Hamma diqqat qilib turardi. Hukmdorning ovozi biroz yumshadi. Endi u Rahimbeyga so`zlardi:

–Rahim, hoji bilan birga borib, o`sha yerlarni sayohat qilasan. Maktubimizni mojar hukmdoriga shahsan yetkazasan.

Rahimbey bosh egdi.

Mirzaboshi ozariy tilda ilk diplomatik maktubini katta bir havas ila yozishgai kirishdi.

## XOTIMA

«Ko'p urindim, nihoyat kamolga yetdim. Ko'p chirandim, urush bo'lmasin, dedim. Bo'lmaydi. Yovuz Sulton Salimga yozgandim:

*Diyori ishqqa sultonman, tila, men—da zamonimda.*

*Vazirimdir g'amu g'ussam, o'tirmish ikki yonimda.*

—matla'li g'azalimda tegramda yuz berganlarni, mendan bir qadam uzoqlashishi bilan xiyonat qiladiganlarning asl yuzini, ahvoli ruhiyasini hayon etgandim. Atrofimda hech kim yo'q edi, nazarimda. O'talig'im keksayib qolgandi. Onam va aka-ukalarim vafot etib ketishgandi. Menga sodiq kishilarning ko'plari qarib, kuchdan qolgandi. Meni urushga qodir emasligimni bila turib, qo'shnilarim, xususan Sulton Salim bilan o'chakishtirshar, nomimdan unga tahqirovmuz nomalar bitishardi.

Umrim davomida eng fojiali deb bilganim — Chaldiran jangidan bir kun avval esa tush ko'rgandim. Tog'li bir yalanglikda kiyik quvayotgan ekanman. Kiyik qochib, bir g'orga o'zini urdi. Men uning ortidan kirdim. Qarasam ichida hech qanday kiyik yo'q. Shu payt qarshimda yetti boshli ajdaho chiqdi. Anbiyolar haqqi ont ichaman, har bir boshining og'zidan bir do'zaxning olovi chiqardi. Har nafas olganida, meni uning domiga kirib borardim.

Salimning yuz ming kishilik qo'shini meni o'z domiga tortdi. Qattiq tortdi. Ertalab turib, tushimni muabbirlarga aytganimda, «Salimni yo'lda qarshilab, shabixun<sup>1</sup> qilaylik» deyishdi. Bu ishni men o'zimga ep bilmadim. «Men karvonlarni bosadigan qaroqchi emasman, mard maydonda sinaladi» dedim. Ammo sanoqda ular mening qo'shinimdan ko'proq ekan. Holbuki, haqiqatga erishgan eranlar piri mendan ko'ra shohlikka munosib bo'lgan Ibrohimshohning tili bilan menga Salim qo'shinining qurollarini ham, miqdorini ham xabar qilgandi. Tinglamadim. Atrofimdagilar eshitgani qo'ymadilar. Yolg'on,

---

<sup>1</sup> Shabixun — kechqurungi kutilmagan hujum

buncha qo'shini bo'lishi mumkin emas, dedilar. Taqdir qiyofasiga kirib, meni shunday bir jangga tortishdiki, toabad yuzim qaro bo'ldi.

Bu mening birinchi xatoyim edi. Yuzma-yuz keldik. To'plarni zanjir bilan mahkamlashga qarshilik qilishni maslahat berishdi. Dushman hali tayyorgarlik ko'rmasdan turib, oldini olaylik deyishdi. Yana izn bermadim. «Mayli, tayyorgarlik ko'rishsin. Men ochiq jangga chiqqanman» dedim. Benavo g'oziyalarimning ko'z o'ngida temir qal'a tiklanishiga imkon berdim. Qo'rqqoqlik qilmadim. Hiyla ishlatmadim. Kalaka qilmadim. Bu esa mening ikkinchi xatoyim bo'ldi. Xatoyi oldinma—keyin xatolarga yo'l qo'ydi. Uch kun davom etgan bu jangda minglab g'oziyalar, mardlarimni yo'qotdim. Har biri bir arslonga teng edi.

Eng og'ir gunohim Behruza xonim bilan valiahdim Tahmosp Mirzoning onasi Tojli xonimning erkakcha libosda Chaldiranda qolishlariga ijozat berganim bo'ldi. Demak, har ikkisini Vatanning sharafiga uchun janglarga chaqirarkan. Behruzamni asirga olishdi. Keyin har qancha yolvorsam ham Salim uni qaytarmadi. Bir saroy mirzasiga kaniz qilib berdi. Bu menga o'limdan ham qattiq ta'sir qildi.

Tojlim! Tojlim boshidagi tillaqoshini Masihbeyga berib, qullikdan qutulib qoldi. Mardlik qildi. Uch kun nadimlarimdan tashqari yana uch nafar yigit davramdan uzoqqa ketmadi. Biri o'ng, biri chap qanotimni, birimni orqa tomondan himoya qilardi. Orqamda Ibrohim darvish turgandi. U goh o'zining, goh mening she'rilarimni o'qib, g'oziyalarimizni mardlikka undardi. U yiqilganda, qirmizi qonlar ichida otimning tuyoqlari ostiga tushganida, orqatog'im ham qo'ldan ketdi. Chap va o'ng qanotda niqobda jang qilayotganlarning kim ekanini bilolmasdim. Sodiqlardan biri deb bilardim. Yerga yiqilganda tanidim bechoralarni. Biri go'zal raqqosa, men nima sababdan menga bu qadar nafratda ekanini bilmagan Oytekin, yana biri bokulik jangchi ayol, G'ozibeyning ayli Sultonxonim edi. Ularni ham

Vatan chaqirgandi. Bir paytlar Alouddin bilan Zulqadarning qoʻrqmas oʻgʻli jang maydonida halok boʻlganida, oʻzim yarim kechas: qora libosga burkanib, koʻz–yosh toʻkib, otasiga taʼziya bildirib kelgandim. Holbuki, bu ikki ayolning tobuti qarshisida tiz choʻkishim lozim edi.

Keyinchalik eshitishimcha, dushmanim Sulton Salim ham ularni qahramonlarga mos qoidalar bilan dafn ettiribdi. Besh qizimdan Xonish, Parixonim, Mohinbonu Sulton, Farangizxonim, Shoh Zaynabxonim, oʻgʻillarim Navvob Komyob, Tahmosp mirzo, Som mirzo, Bahrom mirzolar koshki Oytekin va Sultonxonimdek nomusli boʻlishsa edi. Oʻz ota yurtlarini, oʻz xalqini ana shunday muhabbat bilan seva olsalar edi.

Chaldiran jangidan soʻng oradan 14 yil oʻtdi. Hali bir marta yuzimga tabassum qoʻnmadi. Oldingi gʻalabalardan boshim aylanib, oz sonli qoʻshin bilan raqib qarshisiga chiqqanim mening katta xatoyim edi.

Aziz vorislarim, umrimning oxirgi kunlarini yashayapman. Siz uchun shu qisqa umrimda qoʻlimdan kelgan hamma ishni qildim. Parchalangan Vatanni qilich kuchi bilan birlashtirishga urindim.

Vatanning bir siqim tuprogʻini bir hovuch oltindan, tilimizdagi birgina soʻzni qimmatbaho duru javohirdan ustun bildim. Har ikkisi tilimiz va Vatanimizning abadiyati uchun qoʻlimdan kelganini qildim. Meni yaxshilik bilan esga oling. Men boshlagan ezgu ishlarni davom ettiring. Xatolarimni qaytarmang. Sizdan iltimos va vasiyatim shu. Sheʼrlarim bor. Agar Sizga manzur boʻlsa, qabrimda halovat topaman. Bobolarimizdan sizlarga uch omonatni qoldiryapman: tilimiz, nomusimiz, Vatanimiz. Bu omonatlarni koʻz qorachigʻidek asrang!»

**Ozarboyjon tilidan Rustam Jabborov tarjimasini.**



**Aziza Jafarzoda**

# **BOKU–1501**

Muharrir: S. T. Xashimov  
Musahhih: H. Zakirova  
Sahifalovchi: A. Hidoyatov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242. 04.07.2013 y.  
Ofset qog'oz. Bosishga ruxsat etildi 12.10.2022.  
Format 60x84 1/16. Garnitura «Times New Roman».  
Bosma taboq 16.75 Adadi 300 nusxa. Buyurtma №48.

«VNESHINVESTPROM»  
mas'uliyati cheklangan jamiyati.  
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30  
Tel. /faks: (+99871) 244–75–75

## Aziza Jafarzoda



Aziza Mamad qizi Jafarzoda 1921 yil 29 dekabrda Bokuda tug'ilgan. Boshlang'ich maktabni tugatgandan so'ng, Teatr kolleji va ikki yillik Pedagogika institutida o'qishni davom ettirdi. Tarqatish yo'li bilan Oqsuv tumanidagi Chaparliy qishlog'ida o'qituvchi bo'lib ishlagan.

Keyinchalik Ozarbayjon Davlat Universitetining (BDU) filologiya fakultetini tamomlagan. A.Jafarzoda J.Jabborli nomidagi "Ozarbayjonfilm" kinostudiyasining Senariylar bo'limi boshlig'i, Teatr texnikumining rahbari, katta ilmiy xodim, Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi qo'lyozmalar instituti katta ilmiy xodimi, bo'lim boshlig'i lavozimlarida ishlagan. 1974 yildan Boku Davlat Universiteti professori. "XIX asr Ozarbayjon adabiyotida ma'rifiy va ziyoli obrazlar" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, shuningdek, "XIX asr Ozarbayjon she'riyatida xalq she'riyati uslubi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

A.Jafarzoda nafaqat ilmiy faoliyat bilan, balki badiiy ijod bilan ham shug'ullangan va biri-biridan qiziqarli asarlar yozgan. Uning ijodi XX asr Ozarbayjon nasrida alohida o'rin tutadi. U o'zining "Azroil" nomli ilk hikoyasini o'n olti yoshida yozgan. Va muallifning ilk kitobi 1948 yilda nashr etilgan. "Natavan haqida hikoyalar", "Dunyoda ovozim bor", "Vataningga qayt", "Meni yod et", "Boku-1501", "Kalaliya", "Sobir", "Eldan elga", "Bir sasning fojiasi", "Zarrintoj-Tobira", "Nurga to'g'ri", "Balo", "Ruboba-Sultonim", "Kaspiy dengizining ko'z yoshlari" va boshqa o'z asarlarini yozadi.

A.Jafarzoda ham mumtoz Ozarbayjon adabiyotini, ham og'zaki adabiy merosimizni o'rganish sohasida tinimsiz mehnat qildi. U bir qator baxshi va shoirlarning asarlarini to'plab nashr ettirdi. "Fatma xonim Kamina", "Ruhii silkinishlar", "Ozarbayjonning baxshi va shoiralari", "Shirvonning uch shoiri", "Mujrum Karim Vardoniy, Sunbuluston", "Abdulla Padarliy, Tanlangan asarlar", "Har novdadan bir yaproq" kitoblari yozuvchining adabiyotimiz va madaniyatimizga bo'lgan sadoqati va muhabbatidan dalolat beradi.

1981-89 yillarda Respublika xotin-qizlar Kengashi raisi lavozimida ishladi. Aziza xonim ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish bilan faol shug'ullangan.

A.Jafarzodaning Ozarbayjon fani va adabiyoti oldidagi xizmatlari yuksak baholandi. "Xalqlar do'stligi", "Shuhrat" ordenlari bilan taqdirlangan. Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining shaxsiy nafaqaxo'ri edi. 2001 yilda u Xalq yozuvchisi faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

Taniqli yozuvchi, adabiyotshunos Aziza Jafarzoda 2003 yil 4 sentyabrda vafot etdi.

ISBN 978-9963-8213-8-5

